2/2024

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

ISSN: 3030-3273

AL-BUKHARI

Scientific journal

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

AL-BUKHARI

Scientific journal



ORIENTAL UNIVERSITETI

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

(Ikkinchi son)

Toshkent – 2024

Bosh muharrir:

Farhod Maksudov, tarix fanlari doktori (DSc)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Malika Nasirova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:

Govxar Raxmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“Al-Buxoriy”

ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

1. Azamat Ziyo	**t.f.d., akademik, professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
2. Zohidjon Islomov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
3. Shorustam Shomusarov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
4. Durdona Lutfullayeva	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
5. Komiljon Rahimov	**t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
6. O‘ktam Mavlonov	**t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
7. Xolida Alimova	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
8. Aftondil Erkinov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
9. Albert Burxanov	**t.f.d., akademik (Tatariston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
10. Samal Tuleubaeva	**f.f.d., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
11. Sayfullo Mullodjanov	**t.f.d., professor (Tojikiston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
12. Zilola Xudoyberganova	**f.f.d., professor (Turkiya) – tahrir hay’ati a’zosi;**
13. Akram Habibullayev	**t.f.d., professor (AQSh) – tahrir hay’ati a’zosi;**
14. Murtazo Saidumarov	**f.f.n., professor (Saudiya Arabistoni) – tahrir hay’ati a’zosi;**

MUNDARIJA

FILOLOGIYA

Rustamiy Salimahon Aliybeg qizi
“Devonu lug‘ati-t-turk” asarida turkiy so‘zlarning fonetik, grafik va morfologik xususiyatlari haqida..... 4

Shakirova Zulfiya Normahamatovna
Ar-Roziyning ilmiy me’rosi o‘rganilishiga oid tahliliy mulohazalar 16

Tuychiyeva Oydin Sayfullayevna
“Javohiru-l-ajoyib” va “Majolisu-n-nafois” tazkiralarining qiyosiy tadqiqi 25

Axmedova Nargiza Shixnazarovna
O‘zbek tilida assotsiativ maydon va uning birliklari tahlili 39

Mullasodiqova Nigora Miromonovna
Arab tilshunos olimlarining “Lafziy ta’kid” tushunchasi haqida qarashlari 48

Mamadjonov Sherzod Luqmonjon o‘g‘li
Flora Anna Steelning Bobur Mirzo haqida yozgan “Darbadar qirol” romani va uning turk tiliga tarjimasi 58

Nizamova Salomat Usmanovna
O‘zbek va ingliz tillaridagi “uy” va “oila” so‘zlari bilan bog‘liq maqollarda “vatan” tushunchasining berilishi 68

Xodjimuratova Zuxra Zaynitdinovna, Lutfullayeva Mohira Xayrullo qizi
Arab tilini o‘rganishda zamonaviy dasturiy ilovalardan foydalanish 79

Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna
The role of information technologies in developing methods of communicative competence of the non-linguistic institutions 90

TARIX

Jo‘rayev Sherzod Norovich
Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi davrida diniy ulamolarning o‘rni 99

Alijonova Gulnozaxon Muhammad qizi
XIX asr oxiri XX asr boshlarida “Kutubu-s-sitta” to‘plamlarining o‘rganilishi 109

Sodiqov Furqat Fattuloyevich
O‘zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv idoralari faoliyati (1925-1927-yillar) 122

Odilov Bobur Ahmadjon o‘g‘li
Namangan qishloqlari misolida etnoturistik salohiyatning shakllanishi tarixi 132

“DEVONU LUG‘ATI-T-TURK” ASARIDAGI TURKIY SO‘ZLARNING FONETIK, GRAFIK VA MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI HAQIDA

PHONETIC, GRAPHIC AND MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF TURKISH WORDS IN THE WORK “DEVONU LUGHATI-T-TURK”

ФОНЕТИЧЕСКАЯ, ГРАФИЧЕСКАЯ И МОРФОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКИ ТЮРКСКИХ СЛОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ДЕВОНУ ЛУГАТИ-Т-ТУРК»

Rustamiy Salimaxon Aliybeg qizi,
Oriental Universiteti,
Sharq tillari kafedrasi professori, f.f.d.
Tel: +998 94 608-22-36
info@orientaluniversity.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada XI asrda turkiy tillarning nazariy asoslarini ishlab chiqqan birinchi turkshunos olim Mahmud Qoshg‘ariy “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida keltirgan fonetika, grafika, morfologiyaga oid masalalar yoritilgan. Mavzuning dolzarbligi turkiy tillar rivojlanish tarixini aniqlashda ahamiyatli ekani bilan belgilanadi. Mahmud Qoshg‘ariy “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida turkiy tillar grammatikasini arab tilida, arab tilshunosligiga xos usul va atamalar vositasida tavsiflagan. Mazkur maqolada Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan qo‘llangan *ḥarakat, ḥarf* va ularning turlarini anglatuvchi atamalarning arab, turkiy so‘zlar fonetik va morfologik xususiyatlarini yoritishdagi o‘rni ko‘rsatilgan. Mahmud Qoshg‘ariy turkiy so‘zlar tarkibida harf shaklida ifodalanmagan unli tovushlarga nisbatan arab tilidagi kabi harakat tushunchasini kiritgan va harakat turlariga mos keluvchi atamalarni qo‘llagan. “Devonu lug‘ati-t-turk”da *ḥarf* atamasi arab tilidagi kabi fonetik birliklar hamda ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, qo‘shimcha, undov, so‘roq kabi so‘zlarga nisbatan qo‘llangan.

Kalit so‘zlar: *lug‘at, muqaddima, qiyosiy metod, tovush, harf, qo‘shimcha, arab tilshunosligi, turkiy so‘zlar, harakat*.

Annotation: The article discusses some issues of phonetics, graphics and morphology covered in the book “Divanu lughati-t-turk” by the first Turkic scholar Mahmud Kashgari who developed the theoretical foundations of the Turkic languages in the 11th century. The relevance of the topic lies in the fact that it is important in determining the history of the development of Turkic languages. Mahmud Kashgariy in the book “Divanu lughati-t-turk” elucidated the grammar of Turkic languages by means of Arabic language, methods and terms peculiar to Arabic linguistics. The article

 ISSN 3030-3273

deals with the place of *ḥarakat, ḥarf* and the terms signifying their types in elucidating the phonetic and morphological peculiarities of Arabic and Turkic words. In “Divanu lughati-t-turk” the term *ḥarf* is used to designate phonetic units and postpositions, conjunctions, particles, suffixes, interjections, interrogatives as in Arabic language.

Key words: *dictionary, introduction, comparative method, volume, letter, suffix, Arabic linguistics, Turkic words, ḥarakat.*

Аннотация: В статье рассматриваются некоторые вопросы фонетики, графики и морфологии в произведении «Девану лугати-т-турк» первого тюрколога Махмуда Кашгари, который разработал теоретические основы тюркских языков в 11 веке. Актуальность темы заключается в том, что она важна в определении истории развития тюркских языков.

Махмуд Кашгари в книге «Девану лугати-т-турк» разъяснил грамматику тюркских языков на арабском языке, на основе методов и терминов, свойственных арабской лингвистике. В статье рассматриваются роль *ḥarakat, ḥarf* и термины, обозначающие их типы (разновидности) при выяснении фонетических и морфологических особенностей арабских и тюркских слов. Махмуд Кашгари в отношении тюркских слов, на основе терминологии арабской лингвистике, ввел понятие *ḥarakat* для звуков, которые не выражены буквами и использовал соответствующие термины для типов огласовки. В «Девану лугати-т-турк» термин *ḥarf,* как в арабском языке, используется для обозначения фонетических единиц и предлогов, союзов, суффиксов, междометий, частиц и вопросительных слов.

Ключевые слова: *словарь, введение, сравнительный метод, звук, буква, суффикс, арабская лингвистика, тюркские слова, огласовка.*

KIRISH

O‘rta asrlar sharq ilm-u fani, madaniyati va san’ati taraqqiy etgan davr hisoblanadi. Bu davrda matematika, astronomiya, geografiya, tibbiyot va boshqa fanlar qatori adabiyotshunoslik (Rustamiy, 2018), tilshunoslik (Nosirova, 2019; Akmalkhanov, 2019) fanlari ham rivojlandi, bu davrda yaratilgan asarlar keyingi davr ilm-u fani ravnaqi yo‘lida nazariy asosga ega bo‘lgan manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Bular orasida yurtimizdan yetishib chiqqan, jahon fani va madaniyatiga serqirra ilmiy merosi bilan ulkan hissa qo‘shgan minglab allomalarning nodir qo‘lyozma asarlari dunyoning turli mamlakatlari fondlariga tarqalgan (Islomov, 2019: 4).

Shunday olimlardan biri Mahmud Qoshg‘ariy bo‘lib, u XI asrda turkiy tillarning nazariy asoslarini ishlab chiqqan birinchi turkshunos olim sifatida tanildi. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarini tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilish, xususan, asarda keltirilgan fonetika, grafika, morfologiyaga oid masalalarning yoritilishi turkiy tillar rivojlanish tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

 ISSN 3030-3273

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

XI asrda yashagan birinchi turkshunos, lahjashunos va qiyosiy uslub sohibi Mahmud Qoshg‘ariy ham “Devonu lug‘ati-t-turk” asari bilan turkiy tilshunoslik ravnaqiga munosib hissa qo‘shdi. Bizgacha yetib kelgan bu qadimiy lug‘atning yagona qo‘lyozmasi nodir nusxalardan hisoblanadi (Divanü lügat-it-türk dizini, 1972). Bu qadimiy qo‘lyozmaning Ahmad Rif’at tomonidan chop etilishi va faksimil nashrlarining yuzaga kelishi mazkur asarni sharqshunoslarga tanitdi. Natijada uni tarjima va tadqiq qilish ishlari boshlab yuborildi. Bu asar asosida T.A. Borovkovaning “Devonu lug‘ati-t-turk” tili grammatikasi, Z.M. Musabayeva o‘rgangan asardagi omonimlar, X.G. Nigmatovning turkiy fe’llar va E.I. Fozilovning fe’l nisbatlari yuzasidan nomzodlik tadqiqotlari amalga oshirildi (Rustamova, 2006) va bir qancha ilmiy maqolalar nashr etildi (Borovkova, 1966; Kurishjanov, 1970; Rustamov, 1972). Shuningdek, A. Toymas tomonidan asarning turkcha tarjimasiga bag‘ishlangan kitobi, O. Prisak va Z.V. To‘g‘anning Mahmud Qoshg‘ariy shaxsiyati haqidagi izlanishlari, M. Hartmanning “Devonu lug‘ati-t-turk” haqidagi mulohazalari, M.Sh. Ulkutashir, A. Ja’faro‘g‘li, N. Nabi, B. Nertev, R. Belge, N. Husayn, B. Atalay (Rustamova, 2006), H. Dadaboyev (Dadaboyev, 2008), J. Hudoyberdiyev (Hudoyberdiyev, 2010;), hamda Q. Sodiqovning (Sodiqov, 2005) asar xususiyatlari bilan bog‘liq maqolalari nashr qilindi. Asarning boshqa tillar qatori o‘zbek tiliga tarjimalari (Mutallibov, 1960; Al-Kashgari, 2010; Koshgariy, 2016; Alimuhamedov, 2017; Al-Kashgari, 2018; Koshgariy, 2017) amalga oshirildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur mavzuni yoritishda tavsiflash, komponent tahlil, lingvistik tahlil kabi usullardan foydalanildi. Manbashunoslikka murojaat etilgan holda “Devonu lug‘ati-t-turk” asarining bir qancha nusxalari o‘rganib chiqildi. Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining kutubxonasida saqlanayotgan mavzuyimizga tegishli bir qator adabiyotlar ko‘rib chiqildi. To‘plangan ma’lumotlar yordamida ilmiy tahlilga asoslanib mazkur maqola tayyorlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Devonu lug‘ati-t-turk”ning muqaddimasida turkiy tillar haqida qiyosiy-tarixiy ma’lumotlar bilan bir qatorda ularning grafik va fonetik xususiyatlari ham bayon qilingan.

Grafik va fonetik ma’lumot. Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida turkiy so‘zlarning yozilishi va turklargagina xos bo‘lgan tovushlarning talaffuz o‘rni haqida batafsil to‘xtalib o‘tgan. Bu asarda turklarning qadimgi yozuvi, ya’ni uyg‘ur yozuvining arabcha muodili ko‘rsatilgan (Kâşgarli, 1990: 3b).

Uyg‘ur yozuvida ifodalanmagan yettita turkiy tovushning arab yozuvidagi ifodasi va ularning talaffuz o‘rni bayon qilingan. Bular – qattiq [b] (al-bā’u-ṣ-ṣulba, ya’ni [p]),

 ISSN 3030-3273

arabcha [j] (portlovchi [j], maxraji [z] va [š] oralig‘ida bo‘lgan [j], sirg‘aluvchi [j]), arabcha [f], nuqtali [ğ], maxraji [q] va [k] oralig‘ida bo‘lgan [g], maxraji [ğ] va [k], [n] va [q] oralig‘ida bo‘lgan burun [ŋ] (Kâşgarli, 1990: 3b-4a) tovushlari.

Mahmud Qoshg‘ariy turkiy tillarning tovush xususiyatlari haqida gapirib, turk so‘zlarida arab tiliga xos bo‘lgan tish ora [s̲] tovushi, itboq (emfatik) tovushlar va bo‘g‘iz tovushlari yo‘qligini ta’kidlaydi.

Mahmud Qoshg‘ariy, uyg‘ur yozuvida arab tiliga xos tovushlarni ifodalash uchun tegishli uyg‘ur harfiga diakritik belgilar qo‘yib ifodalanadi, deydi. Masalan: arabcha [s̲] harfini yozish kerak bo‘lsa, turkcha *z̲āl* ustiga nuqta qo‘yiladi. Arabcha *ḍād* ham shunday yoziladi. Arabcha *ṣād* harfini ifodalash uchun uyg‘urcha *sīn* yoziladi va unga nuqta qo‘yiladi.

“Devonu lug‘ati-t-turk”da keltirilgan grafik va fonetik ma’lumot haqida so‘z ketganda Mahmud Qoshg‘ariyning bu sohada qo‘llagan atamalari xususida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Ma’lumki, asarda turkiy so‘zlarning fonetik, morfologik xususiyatlari arab tilshunosligi atamalari orqali mohirona yoritilgan.

Tabiiyki, لسان *lisān* (til), لغة *luğat* (til, so‘z), أصل *aṣl* (o‘zak), مبني *mabniy* (tub), مشتق *muštaqq* (yasama), أمر *’amr* (fe’lning buyruq mayli), ماضي *māḍiy* (o‘tgan zamon), مضارع*muḍāri‘* (hozirgi-kelasi zamon), مصدر *maṣdar*, إبدال *’ibdāl* (metateza) kabi hamma tillar uchun umumiy bo‘lgan tushunchalarni bildiruvchi atamalar Mahmud Qoshg‘ariygacha ham mavjud va mashhur edi. Bular qatoriga harakatlarga oid atamalar ham kiradi.

Arab tilida حركة *ḥarakat* ham fonetika, ham grafikaga oid atamadir. U fonetikada qisqa unli tovushni anglatadi, yozuvda qisqa unli tovushni anglatish uchun harf usti va ostiga qo‘yiladigan belgini bildiradi. Bir necha harakatga nisbatan uning ko‘plik shakli حركات *ḥarakāt* qo‘llanadi.

Mahmud Qoshg‘ariy bu atamaning V bob aniq darajadagi sifatdosh shakli متحرك *mutaḥarrik* so‘zini ko‘p qo‘llagan. Bu harfga nisbatan ishlatiladi va *harakatli* degan ma’noni anglatadi. متحرك *mutaḥarrik* ساكن *sākin* (harakatsiz)ning ziddi. Masalan :

هذه أبواب متحرك الحشو. (Al-Kashgari, J. I: 51)

(Bu o‘rta harfi harakatli [so‘zlar] bobi).

Arab tili grammatikasida *harakat* tushunchasi [a] qisqa unlisini ifodalovchi فتحة *fatḥa(tun)*, [i] qisqa unlisini ifodalovchi كسرة *kasra(tun)*, [u] qisqa unlisini ifodalovchi ضمّة*ḍamma(tun)* va undoshdan so‘ng unli tovush yo‘qligini bildiruvchi سكون *sukūn(un)* atamalarini o‘z ichiga oladi.

Mahmud Qoshg‘ariy qisqa [a], [i], [u] unlilarini ifodalaganda yuqoridagi atamalar bilan birga shu so‘zlarning o‘zagidan yasalgan fe’l va sifatdoshlardan hamda ularga o‘zakdosh bo‘lgan boshqa so‘zlardan foydalanadi. [A] qisqa unlisi uchun فتح *fatḥ(un)*, نصب*naṣb(un)* atamalari kabi تفتح *taftaḥu*, ya’ni *fathalanadi*, مفتوح *maftūḥ(un)*, منصوب *manṣūb(un)*, ya’ni *fathalangan* atamalarini qo‘llaydi. Masalan:

 ISSN 3030-3273

تمر – العرق في البدن و الغزية تقال «تمر» بفتح الميم. (Al-Kashgari, J. I: 302)

(Tamur – tanadagi tomir. O‘g‘uzchada [m] fatha bilan *tamar* deyiladi).

يقال «برماق». فالباء مفتوحة. (Al-Kashgari, J. II: 26)

(*Bormoq* deydilar, [b] fathalangan).

و النصب احفّ الحركات. (Al-Kashgari, J. I: 302)

(Nasb eng yengil harakatdir).

ان يكتب المنصوب الأوسط بزيادة الف في هجاء التركية. (Al-Kashgari, J. I: 339)

(O‘rtasi [a] olgan bo‘lsa, turk harflarida alif qo‘shiladi).

Mahmud Qoshg‘ariy [i] unlisini anglatuvchi كسر *kasr(un)* atamasi bilan birga مكسور *maksūr(un)* (مكسورة *maksūra(tun)*) «kasralashgan», انكسرة *’inkasara,* تكسر *taksiru* «kasra olgan, kasra oladi», كسرت *kusirat* «kasralantirdi» atamalarini qo‘llaydi. Masalan:

«ينجو تزدي»... فالتاء مكسورة.. «تزار» بكسر التاء... «تزماق» كذلك تكسر التاء.

(Al-Kashgari, J. II: 26)

(«Inju tizdi» [t] kasralangan... «Tizar» [t] kasra bilan... «Tizmoq» xuddi shunday [t] kasra olgan).

(Al-Kashgari, J. I: 127) كسرت فاؤه – (*f* si kasralantirilgan).

Mahmud Qoshg‘ariy ضمّ *ḍamm(un)* atamasi qatorida رفع *raf‘(un),* مضمومة *maḍmūma(tun),* مرفوع *marfū‘(un)* «dammalashgan», ضَمت *ḍammat,* انضمّت *’inḍammat «*damma olgan», ترفع *tarfa‘u* «[u] oladi» atamalaridan foydalanadi. Masalan:

(Al-Kashgari, J. I: 127).فضمّت القاف في المصدر – (Masdarda [q] damma olgan).

(Al-Kashgari, J. II, 27) يكرم انضمّت الياء – («Yukrimu» [y] damma olgan).

(Al-Kashgari, J. I, 127) « تُرْدي إذا قام. فالتاء مرفوعة في الماضي... «تُرْماقْ». تَرْفَعُ التاء فيه

(«Turdi» o‘tgan zamonda [t] [u] olgan).

«Devanu lug‘ati-t-turk»da سكون *sukūn* atamasi ham turli shakllarda qo‘llangan, ya’ni ساكن *sākin (sākina)* «sukun olgan», مسكّن *musakkan (musakkana)* «sukunlangan», يسكن *yaskunu (taskunu) «*sukun oladi», سكنت *sakanat* «sukun oldi». Masalan:

(Al-Kashgari, J. II: 27) يقال يَقْعُدُ سكنت القاف في الغابر. – («*Yaq‘udu*» deyiladi. Kelasi zamonda [q] sukun oldi).

(Al-Kashgari, J. I: 127) و تقال «يَمْطُرُ» تسكن الميم فيه – («yamṭuru» deyiladi, [m] sukun oladi).

(Al-Kashgari, J. I: 127) باب فَعْلا مسكّنة اللام الاولى – (Birinchi [l] harakatsiz fa’allā bobi).

Mahmud Qoshg‘ariy ساكن *sākin* atamasini ko‘p qo‘llagan. Bu atama arab tilshunosligida ham qo‘llanadi. «Devonu lug‘ati-t-turk»da *sākin*ning ko‘pligi سواكن s*avākin* ham ishlatiladi.

و بعد ارغو تقولون «بالْقْ» بثلاث سواكن (Al-Kashgari, J. I: 317)

(Arg‘ularning ayrimlari uchta sokin bilan «balq» deydilar).

 ISSN 3030-3273

Mahmud Qoshg‘ariy harakat bilan bog‘liq umumiy va turkiy tilshunoslik uchun muhim bo‘lgan bir fikrni bayon qiladi. Bu turkiy imloda harakatlarning, ya’ni qisqa unlilarning harf bilan ifodalanishidir. Mahmud Qoshg‘ariy turk yozuvida fatha alif bilan, damma *wāw* bilan, kasra *yā’* harfi bilan ifodalanadi, deydi (Kâşgarli, 1990: 4b).

Arab tilshunosligida حرف *ḥarf* (ko‘p. حروف *ḥurūf*, أحرف *aḥruf*) deganda nutq tovushi va tovushning yozuvdagi belgisi, hamda yordamchi so‘z, ya’ni ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalar tushuniladi.

Mahmud Qoshg‘ariy turkiy qo‘shimchalarni زيادات «*ziyādāt*» (orttirmalar) deb ataydi. Masalan: bir tovushdan iborat qo‘shimchalarga fe’ldan ot yasaydigan qo‘shimcha */-a/* ni *alif*, */-t/* ni *tā’*, */-č/* ni *jīm*, */-š/* ni *šīn*, */-ğ/* ni *ğoyn* nomi bilan keltirilgan.

Asarda arab tilida mavjud bo‘lmagan tovushlarga quyidagicha tavsif berilgan:

[p] – الباء الصلبة (qattiq, ya’ni jarangsiz *bā’*);

[j] – الزاء المتولّدة بين مخرجي الزاء و الشين (*zā’* va *šīn* maxrajlari orasidan chiqadigan *zā’*);

[g] – الكاف الركيكة (yumshoq, ya’ni jarangli *kāf*);

[ng] – كاف الغنة (burun «*kāf*»i).

“Devonu lug‘ati-t-turk”da *ḥarf* atamasi morfologik birliklarga nisbatan ham qo‘llangan. Mahmud Qoshg‘ariy harf turkumiga ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, qo‘shimcha hamda undov va so‘roq bildiruvchi so‘zlarni kiritgan. Bu ma’nodagi *ḥarf* atamasining asli حرف المعنى *ḥarfu-l-ma’na* bo‘lib, tilshunoslar uni qisqartirib *ḥarf* tarzida ishlatadilar, Mahmud Qoshg‘ariy turkiy harflarni bir qancha turlarga bo‘lib, ularni aniqlovchisi bilan ataydi. Quyidagilar shular jumlasidandir:

حرف تأكيد و مبالغة – ta’kid va mubolag‘a ko‘makchisi, masalan:

كَدْ – حرف تأكيد و مبالغة في وصف الشيء (Al-Kashgari, J. I: 270)

(*Käd* – narsalarni tasvirlashdagi ta’kid va mubolag‘a ko‘makchisi).

حرف إنكار – inkor yuklamasi, masalan:

اَوْ – بإشباع الالف. حرف إنكار لأمر الآمر (Al-Kashgari, J. I: 43).

(*av* – ishbo‘li *a*. Buyuruvchi buyrug‘ini inkor qilish ma’nosidagi yuklama:

حرف تحنّن وتعطّف – mehribonlik va hamdardlikni bildiruvchi yordamchi so‘z, masalan:

أُلِجْ – حرف تحنّن وتعطّف على البنين. يقال منه «أُلِجِمْ» اي بُنَيَّ (Al-Kashgari, J. I: 53)

ulıč – o‘g‘illarga mehribonlik va hamdardlik bildiruvchi undov. «Ulichim», ya’ni «o‘g‘ilcham» deyiladi.

حرف تعجيل – tezlatish yuklamasi, masalan:

شَبْ – حرف تعجيل. كقول العرب «هلا». يقال منه «شَبْ كَلْ» اي اسرع في المجيء.

(Al-Kashgari, J. I: 268).

(*Šap* – tezlashtirish yuklamasi. Arablarning «ḥallan» degani kabi «šap käl», ya’ni «tez kel» deyiladi).

 ISSN 3030-3273

Mahmud Qoshg‘ariy yordamchi so‘z ma’nosidagi *ḥarf* atamasini quyidagi so‘zlarga nisbatan ham qo‘llagan:

ab – juda, *uš* – shunday, *uš* – hozir, *oš-oš* – o‘sh-o‘sh (ho‘kizni suv ichishga undashda ishlatiladigan undov), *aa* – a-a (lol qolishni ifodalovchi undov), *ova* – ha, labbay (chaqirganga javob), *ah* – inkor ma’nosidagi o‘g‘uzcha undov, *učun* – uchun, *ıčın* – orasida, *alo* – sekin (undov so‘z), *ašnu* – oldin, ilgari, *abah* – agar, agarda, *ohu* – boshqa, *azin* – boshqa, bo‘lak (chigilcha), *aḥar* – unga, *astın, altın* – ost, quyi, *aqru* – sekin, *andağ* – shunday, *anda* – u yerda, *ayru* – boshqa, yo‘q, esa, bo‘lmasa, *asra* – quyi, ost, *tab* – yetarli ma’nosidagi yuklama, *zab-zab* – tez (undov), *šab* – tez, darrov (undov), *qob* – juda, *mat* – shunday, *qač* – qancha, *čaq* – xuddi, aynan, *čik* – chikka, *kim* – kim, *yana* – yana, *mah* – «ma, ol» ma’nosidagi undov, *yah* – xo‘p, shunday, ha, *dah, zah* – yo‘q, emas (arg‘ucha), *tizin* – vaqtida, *qayda* – qayerda, - *ča* – shuncha, kabi, -dek ma’nosini anglatuvchi yuklama, *sa* – sen, *-ğu* – buyruq fe’llarga qo‘shilib makon, zamon, asbob-anjom ismlari hosil qilinadi, *-qa* – -qa, (-gä), *qi* – ey (undov), *ma* – ma (*ol* ma’nosida), *-mu* – -mi (so‘roq yuklamasi) va hokazo.

Morfologik ma’lumot. Mahmud Qoshg‘ariy devonining muqaddima qismida turk lahjalari uchun umumiy bo‘lgan muhim morfologik ma’lumotlarni ham beradi. Bu borada u quyidagi so‘z yasovchi qo‘shimchalarni misollari bilan sanab o‘tadi:

/-a/ (/-ä/): *bilig* (ilm) - *bilga* (olim); *og* (ong) - *oga* (ongli); *uv* (uvoq) - *uva* (taom turi); /-t/: *qač* (*qochmoq* so‘zidan) - *qačut* (quvish); *käz* (*käzmäk)*; *käzüt (kiyim)*; /-č/: *köm - kömäč; sävin - sävinč;* /-š/: *bil - biliš; ur - uruš;* /-ğ/: *orı - orığ; quru - quruğ;* /-q/: *tara - tarğoq* (taroq); *or – orğoq* (o‘roq); /-k/: *käs - käsäk* (kesak); /-g/: *tiri - tirik; öl - ölug;* -l/: *bıčığ - bıčığ* (yorilgan); /-m/: *yaz-* (yoz-) - *yazim* (to‘shak); *bıč* (kes-) - *bıčım* (kesim); /-n/: *aq - aqın* (oqadigan); *yığ - yığın*; /-u/ (/-ü/): *soruğ - sorğu* (so‘rg‘ich); *turuğ - turğu* (turadigan).

Mahmud Qoshg‘ariy belgilagan so‘z vaznlari. Sharq tilshunoslari «vazn» so‘zidan til ilmida ham foydalanadilar. Bu holda «vazn» atamasi mazmun jihatdan she’rshunoslikdagi shu atamadan farq qiladi (Bobir, 1971: 30-31). Morfologiyada vaznning unlilari shu vaznga mansub so‘zning unlilari bilan bir xil bo‘lsa, aruzda unlilar bir xil bo‘lishi shart emas.

Masalani oydinlashtirish uchun shakli morfologiya va aruz uchun umumiy bo‘lgan *fa‘ūl* vaznini olib ko‘rish mumkin. Morfologik nuqtai nazardan mazkur vaznga *jasūr*, *‘ajūz*, *‘ašūr* singari birinchi unlisi [a], ikkinchi unlisi cho‘ziq [ū] bo‘lgan so‘zlargina mansub, lekin aruzga birinchi bo‘g‘inida qisqa unli, ikkinchi bo‘g‘inida cho‘ziq unli bo‘lgan hamma so‘zlar mansubdir: *qimor, qadim, qudūm* kabi. Morfologiyada bularning birinchisi *fi‘āl*, ikkinchisi *fa‘īl*, uchinchisi *fu‘ūl* vaznidadir.

Arab tilidagi so‘z o‘zagi undoshlardan iborat bo‘lib, unlilar so‘z va shakl yasash vazifasini bajargani uchun so‘z va uning formalarining tuzilishini mazkur uslub bilan ifodalash eng ma’qul yo‘ldir (Grande, 1963, 1972; Zvegintsev, 1958).

 ISSN 3030-3273

Shuning uchun g‘arb olimlari ham arab tili mofologiyasini tavsif qilganda arab filologlari ijod qilgan vaznlardan foydalanadilar. Arab morfologiyasining vaznlari ko‘p. Masalan, masdarlar: *fa‘lun, fi‘lun, fu‘lun, fa‘alun, maf‘ilatun, taf‘ilun, taf‘ilatun, mufā‘alatun, fi‘ālun, ’if‘ālun, tafa‘‘ulun* va boshqalar; aktiv va passiv sifatdosh vaznlari *fā‘ilun, maf‘ūlun, mufa‘‘ilun, mufa‘‘alun, mufā‘ilun, mufā‘alun, maf‘ilun, muf‘alun* va boshqalar.

Mahmud Qoshg‘ariy «Devonu lug‘ati-t-turk» asarida turkiy tillardagi so‘zlarning vaznlarini keltirgan. Masalan, *armut* (nok), *ozğuč* (alanga), *örküč* (to‘lqin) kabi so‘zlarni *af‘al* vazni bilan beradi. Shu yerda va boshqa ko‘p o‘rinlarda vazndan so‘ng *fi ḥarakatihi* (turli harakatlarda) deb qo‘shimcha qilingan. Bu Mahmud Qoshg‘ariyning lug‘at tuzishdagi o‘ziga xos usulidir. U vazn shaklan ko‘payib ketishi mumkin bo‘lgan o‘rinlarda ularning bitta shaklini berib, *fi ḥarakatihi*, ya’ni harf «turli harakatlarga ega» deb ta’kidlash bilan kifoyalanadi.

Quyida Mahmud Qoshg‘ariyning turkiy so‘zlarga yasagan ayrim vaznlari (*transliteratsiya orqali*) misollar (*transkripsiya orqali*) yordamida ifodalangan: af‘al fi ḥarakatihi – *armut* (nok), *ozğuč* (alanga), *örküč* (to‘lqin); fa‘āl – *uḫaq* (o‘rik sharbati), *ušaq* (ig‘vo); fu‘ul – *üčünč* (uchinchi), *umunč* (umid); fa‘lūli – *avzurı* (taomning nomi); fa‘ālil – *alanır* (hayvonning nomi); fa‘al – *alar* (qizarmoq); fa‘laldi – *aḫtardı* (ag‘dardi); fa‘l – *bart* (suyuqlik uchun o‘lchov birligi); fu‘l – *murč* (murch), *tort* (to‘rt); fi‘l – *qırq* (qirq); fa‘al – *qanat* (qanot); fa‘ul – *basut* (yordam); fa‘il – *bağır* (jigar); f*ā*‘il – *balığ* (yarador); fa‘li – *qaršı* (xon saroyi); fu‘lulī – *buldunı* (sutli taomning nomi); fay‘al – *bäyräm* (bayram), *Sayram* (shaharning nomi).

Mahmud Qoshg‘ariy o‘z lug‘atida turkiy so‘zlarni siralashda shu kabi ellikdan ortiq so‘z vaznlaridan foydalangan.

XULOSA

“Devonu lug‘ati-t-turk” asari turkiy so‘zlarning arabcha izohli lug‘ati bo‘lishi bilan birga, o‘z ichiga turkiy tillarga xos fonetik, grafik, morfologik qonun-qoidalar majmuasini ham qamrab olgan. Mahmud Qoshg‘ariy bu asarda turklar haqida ma’lumot bergan hamda turkiy tillar, ularning fonetik, grafik va morfologik xususiyatlariga bog‘liq masalalarni yoritgan. “Devonu lug‘ati-t-turk”da turkiy so‘zlar fonetikasi va morfologiyasi arab tilida, arab tilshunosligiga xos usul va atamalar vositasida yoritilgan. Xususan, unli tovushlarga nisbatan turkiy tillar fonetikasida mavjud bo‘lmagan “harakat” tushunchasini kiritgan va uning turlarini ifodalashda fe’l, masdar, sifatdosh shakllaridagi atamalarni keng qo‘llagan. Asarda *ḥarf* atamasi tovush, yuklama va ayrim ravishlarga nisbatan qo‘llangan. Mahmud Qoshg‘ariy turkiy so‘zlarning ellikdan ortiq vaznlarini ko‘rsatib bergan.

 ISSN 3030-3273

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Akmalkhanov, A. (2019) “Abu Yakub Sakkokiy’s views about verb words” The Light of Islam: Vol. 2019: Iss. 3, Article 14.
2. Alimuhamedov, R., Sodikov Kosimcan. (2017) Maḫmud Kaşgariy: Devanu Lugati-t-Türk [Türkiy Süzlar Devani] – Toşkent: Gafur Gulam Nomidaġi Naşriyet, 2017, ss. 488.
3. Al-Kashgari, Mahmud. (1333, J.I) *Kitab Divan lugat at-turk*. Jild I. Dar al-xulafah al-‘ulyah. Matba’ah amirah.
4. Al-Kashgari, Mahmud. (1333, J.II) *Kitab Divan lugat at-turk*. Jild II. Dar al-xulafah al-‘ulyah. Matba’ah amirah.
5. Ал-Кашгари, Махмуд. (2010) Диван лугат ат-турк (Свод тюркских слов). (Перевод с арабского А.Рустамова. Под редакцией И.В.Кормушина). Том 1. В 3-х т. – Москва: Восточная литература.
6. Ал-Кашгари, Махмуд. (2018) Диван лугат ат-турк (Свод тюркских слов). (Перевод с арабского языка А.Рустамова. Под редакцией С. Хасанова, С. Рустамий, М.Рустамова и др.) Том 1. – Ташкент: Mumtoz so‘z.
7. Bobir. (1971) *Muxtasar* (Nashrga tayyorlovchi S.Hasanov) – Toshkent.
8. Боровкова, Т.А. (1966) О фонетической терминологии в словаре Махмуда Кашгарского «Дивану луғат-ит-турк». ОЛЯ. №6. – С. 528-531.
9. Dadaboyev X. (2008) «Devanu lug‘ati-t-turk»dagi turkiy tillarga xos fonetik va leksik-semantik xususiyatlar haqida. *Tilshunoslikning dolzarb masalalari*. – Toshkent.
10. *Divanü lügat-it-türk dizini*. (1972) Türk dil kurumu yayınları. – Ankara.
11. Гранде, В.М. (1963) Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещений. – Москва.
12. Гранде, В.М. (1972) Введение в сравнительное изучение семитских языков. – Москва.
13. Hudoyberdiev J. (2011) *Mahmud Qoshg‘ariy hayoti va «Devanu lug‘ati-t-turk» bo‘yicha yaratilgan asarlar ko‘rsatkichi*. – Toshkent: Akademnashr.
14. Islomov, Z. (2019) “The role of the International Islamic Academy of Uzbekistan in the development of islamic studies” *The Light of Islam*: Vol. 2019: Iss. 1.
15. Kâşgarli, Mahmud. (1990) *Dīvanü lūgati-t-türk*. Tıpkıbasım/Facsimile. Kültür bakanlīgī. – Ankara.
16. Кононов, А.Н. (1972) Махмуд Кашгарский и его «Дивану луғат-ит-турк», Советская тюркология, №1, 3-17.
17. Qoshg‘ari, Mahmud. (2017) *Devonu lug‘oti-t-turk* [Turkiy so‘zlar devoni]. (Nashrga tayyorlovchi: Q.Sodiqov). – Toshkent.
18. Qoshg‘ariy, Mahmud (2016) *Turkiy so‘zlar devoni* (Devonu lug‘oti-t-turk). (Nashrga tayyorlovchilar: A. Rustamov, H. Boltaboev). – Toshkent: Mumtoz so‘z.

 ISSN 3030-3273

19. Куришджанов, А.К. (1970) Исследование по лексике «Тюркско-арабского словаря». – Алма-Ата.

20. Mutallibov, S.M. (1960) *Mahmud Qoshg‘ariy. Turkiy so‘zlar devoni*. (Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Mutallibov S.M). T.I. – Toshkent.

21. Nosirova, M. (2019) “Scientific heritage of Makhmud Zamakhshari and actual questions of the studies of Mavarennakhrs linguistic school” *The Light of Islam*, (1), 14.

22. Rustamiy, S. (2016) «Esasu-l-belaga» ve «Divan-u lugat-it-türk» eserlerinin dil bilimi ve belagat bilimiyle ilgili yönleri. *Electronic Turkish Studies*, *11*(20).

23. Rustamiy, S. (2018) “Typological peculiarities of science of balaghah, rhetoric and stylistics” *The Light of Islam, 2018* (1), 16.

24. Рустамов, А. (1972) “О переводе “Дивану лугат-ит-тюрк” Махмуда Кашгарского на русский язык” Советская тюркология. №1. 129-239.

25. Rustamova, S. (2006) *«Devonu lug‘oti-t-turk»dagi lingvistik atamalar*. – Toshkent: TDSHI.

26. Sodiqov, Q. (2005) “Mahmud Qoshg‘ariy xaritasi haqida” *Sharq filologiyasining tugun va yechimlari*. – Toshkent.

27. Xudoyberdiyev, J. (2010) Mahmud Qoshg‘ariy hayoti va «Devanu lug‘ati-t-turk» asarining o‘rganilishi. – Toshkent.

28. Звегинцев, В.А. (1958) История арабского языкознания. – Москва.

REFERENCES:

1. Akmalkhanov, A. (2019) “Abu Yakub Sakkokiy’s views about verb words” The Light of Islam: Vol. 2019: Iss. 3, Article 14.

2. Alimuhamedov, R., Kosimcan Sodikov. (2017) Maḫmud Kaşgariy: Devanu Lugati-t-Türk [Türkiy Süzlar Devani] – Toşkent: Gafur Gulam Nomidaġi Naşriyet, 2017, ss. 488. (In Turkish)

3. Al-Kashgari, Mahmud. (1333, J.I) Kitab Divan lugat at-turk. Jild I. Dar al-xulafah al-‘ulyah. Matba’ah amirah.

4. Al-Kashgari, Mahmud. (1333, J.II) Kitab Divan lugat at-turk. Jild II. Dar al-xulafah al-‘ulyah. Matba’ah amirah.

5. Al-Kashgari, Mahmud. (2010) Divan lugat at-turk (Svod tyurkskix slov). (Perevod s arabskogo A.Rustamova. Pod redaksiey I.V.Kormushina). Tom 1. V 3-x t. – Moskva: Vostochnaya literatura. (In Russian)

6. Al-Kashgari, Mahmud. (2018) Divan lugat at-turk (Svod tyurkskix slov). (Perevod s arabskogo yazika A.Rustamova. Pod redaksiey S.Xasanova, Sh.Xasanovoy, S.Rustamiy, M.Rustamova i dr.) Tom 1. – Tashkent: Mumtoz so‘z. (In Russian)

7. Bobir. (1971) Muxtasar (Nashrga tayyorlovchi S.Hasanov) – Toshkent. (In Uzbek)

 ISSN 3030-3273

8. Borovkova, T.A. (1966) O foneticheskoy terminologii v slovare Maxmuda Kashgarskogo «Divanu lug‘at-it-turk». OLYA. №6. – S. 528-531. (In Russian)

9. Dadaboyev X. (2008) «Devanu lug‘ati-t-turk»dagi turkiy tillarga xos fonetik va leksik-semantik xususiyatlar haqida. Tilshunoslikning dolzarb masalalari. – Toshkent. (In Uzbek)

10. Divanü lügat-it-türk dizini. (1972). Türk dil kurumu yayınları. – Ankara. (In Turkish)

11. Grande, B.M. (1963) Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskom osvesheniy. – Moskva. (In Russian)

12. Grande, B.M. (1972) Vvedenie v sravnitelnoe izuchenie semitskix yazikov. – Moskva. (In Russian)

13. Hudoyberdiev J. (2011) Mahmud Qoshg‘ariy hayoti va «Devanu lug‘ati-t-turk» bo‘yicha yaratilgan asarlar ko‘rsatkichi. – Toshkent: Akademnashr. (In Uzbek)

14. Islomov, Z. (2019) “The role of the International Islamic Academy of Uzbekistan in the development of islamic studies” The Light of Islam: Vol. 2019: Iss. 1.

15. Kâşgarli, Mahmud. (1990) Dīvanü lūgati-t-türk. Tıpkıbasım/Facsimile. Kültür bakanlīgī. – Ankara. (In Turkish)

16. Kononov, A.N. (1972) Maxmud Kashgarskiy i ego «Divanu lug‘at it-turk», Sovetskaya tyurkologiya, №1, 3-17. (In Russian)

17. Qoshg‘ari, Mahmud. (2017) Devonu lug‘oti-t-turk [Turkiy so‘zlar devoni]. (Nashrga tayyorlovchi: Q.Sodiqov). – Toshkent. (In Uzbek)

18. Qoshg‘ariy, Mahmud (2016) Turkiy so‘zlar devoni (Devonu lug‘oti-t-turk). (Nashrga tayyorlovchilar: A. Rustamov, H. Boltaboev). – Toshkent: Mumtoz so‘z. (In Uzbek)

19. Kurishdjanov, A.K. (1970) Issledovaniye po leksike «Tyurksko-arabskogo slovarya». – Alma-Ata. (In Russian)

20. Mutallibov, S.M. (1960) Mahmud Qoshg‘ariy. Turkiy so‘zlar devoni. (Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Mutallibov S.M). T.I. – Toshkent. (In Uzbek)

21. Nosirova, M. (2019) “Scientific heritage of Makhmud Zamakhshari and actual questions of the studies of Mavarennakhrs linguistic school” The Light of Islam, 2019 (1), 14.

22. Rustamiy, S. (2016) «Esasu-l-belaga» ve «Divan-u lugat-it-türk» eserlerinin dil bilimi ve belagat bilimiyle ilgili yönleri. Electronic Turkish Studies, 11(20). (In Turkish)

23. Rustamiy, S. (2018) “Typological peculiarities of science of balaghah, rhetoric and stylistics” The Light of Islam, 2018(1), 16.

24. Rustamov, A. (1972) “O perevode “Divanu lugat-it-tyurk” Maxmuda Kashgarskogo na russkiy yazyk” Sovetskaya tyurkologiya. №1. 129-239. (In Russian)

 ISSN 3030-3273

25. Rustamova, S. (2006) «Devonu lug‘oti-t-turk»dagi lingvistik atamalar. – Toshkent: TDSHI. (In Uzbek)

26. Sodiqov Q. (2005) “Mahmud Qoshg‘ariy xaritasi haqida” Sharq filologiyasining tugun va yechimlari. – Toshkent. (In Uzbek)

27. Xudoyberdiyev J. (2010) Mahmud Qoshg‘ariy hayoti va «Devanu lug‘ati-t-turk» asarining o‘rganilishi. – Toshkent. (In Uzbek)

28. Zvegintsev, V.A. (1958) Istoriya arabskogo yazikoznaniya. – Moskva. (In Russian)

 ISSN 3030-3273

AR-ROZIYNING ILMIY MEROSI O‘RGANILISHIGA OID TAHLILIY MULOHAZALAR

АНАЛИТИЧЕСКИЕ КОММЕНТАРИИ К ИЗУЧЕНИЮ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ АР-РАЗИ

ANALYTICAL COMMENTS ON THE STUDY OF SCIENTIFIC HERITAGE OF AR-RAZI

Shakirova Zulfiya Normahamatovna
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Arab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrasi dotsenti, t.f.n.
Tel: +998 90 949-46-90
Zulfiashakirova73@gmail.com

Annotatsiya: Tarixdan ma’lumki, o‘rta asrlarda ko‘plab qomusiy olimlar yashab ijod qilganlar. Ulardan biri Faxruddin ar-Roziy Eronning Ray shahrida tug‘ilib o‘sgan. Islom manbalarida u “Hujjatu-l-islom” martabasiga yetgan olim sifatida e’tirof etiladi. Ar-Roziy ilohiyot olimi (mutakallim), faylasuf, Qur’on sharhlovchisi (mufassir), huquqshunos (faqih) va islom huquqiy asoslari bo‘yicha mutaxassis sifatida keng tanilgan. Zamonasining mashhur olimlaridan dars olgan ar-Roziy fizika, matematika, tibbiyot, astronomiya, falsafa, balog‘at va boshqa ilmlarga oid ko‘plab asarlar yaratgan. Mazkur maqolada Ar-Roziyning Movarounnahrga ilm istab kelishi, bu yerdagi hayoti va ijodi, hamda uning shogirdlari, O‘zFA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qo‘lyozma asarlari haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, olimning “Balog‘at ilmi”ga oid yozgan asaridagi ayrim masalalar yuzasidan qarashlari ham tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Faxruddin ar-Roziy, al-Jurjoniy, balog‘at ilmi, nahv, mubtado, xabar, majoz, fo’il.

Annotation: It is known from history that many encyclopedist scientists lived and worked in the Middle Ages. One of them is Fakhruddin ar Razi, who was born and raised in Rai, Iran. In Islamic sources he is recognized as a scholar who has reached the rank of “Hujjatu-l-Islam”. Al-Razi is widely known as a theologian (mutakallim), philosopher, commentator of the Qur’an (mufassir), jurist (faqih) and an expert on Islamic legal principles. Al-Razi, who took lessons from famous scientists of his time, created many works on physics, mathematics, medicine, astronomy, philosophy, oratory and other sciences. This article provides information about Al-Razi’s search for knowledge in Movarounnahr (Transoxiana), his life and activities there, as well as about his students and manuscripts stored at the Institute of Oriental Studies of the

 ISSN 3030-3273

Academy of Science of Uzbekistan. The scientist's views on some issues in his work "The Science of Oratory" are also analyzed.

Key words: Fakhriddin al-Roziy, al-Jurjani, rhetoric, stylistics, syntax, predicate, subject, participle of the actual pledge.

Аннотация: Из истории известно, что в Средние века жили много учёные-энциклопедисты. Один из них – Фахруддин ар-Рази, который родился и вырос в городе Рай, который расположен в Иране. В исламских источниках он признан учёным, достигшим уровня «Худжат уль Ислам». Ар-Рази широко известен как богослов (мутакаллим), философ, комментатор Корана (муфассир), юрист (факих) и специалист по исламским правовым принципам. Ар-Рази, бравший уроки у знаменитых учёных своего времени, создал множество работ по физике, математике, медицине, астрономии, философии, риторики и другим наукам. В данной статье представлена информация о поисках знаний Ар-Рази в Моваруннахре, его жизни и деятельности там, а также о его учениках и рукописях, хранящихся в Институте востоковедения АНУз. Также проанализированы взгляды ученого на некоторые вопросы риторики (илм ал-балага).

Ключевые слова: Фахруддин ар-Разий, ал-Журжаний, риторика, стилистика, синтаксис, сказуемое, подлежащее.

KIRISH

O‘rta asrlarda Movarounnahrdan Mahmud Zamaxshariy, Abu Ali Ibn Sino, al-Farg‘oniy, al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy kabi qomusiy olimlar yetishib chiqqanlar. Movarounnahrning o‘zi esa ilm-fan va madaniyat markaziga aylangach, boshqa yurt olimlari ham bu yerga kelib o‘z ilmlarini rivojlantirish bilan birga, uni yoyishga ham hissa qo‘shganlar. Shunday olimlardan biri Faxruddin ar-Roziydir. U Movarounnahrga kelgach, ilm o‘rganish bilan birga, o‘zi ham turli fanlardan ta’lim beradi va ko‘plab asarlar yaratadi. Yurtimizda olimning falsafa va mantiqqa oid qarashlari chuqur o‘rganilgan.

Uning asarlari ichida balog‘at ilmiga oid نِهَايَةُ الْإِيجَاز فِي دِرَايَةِ الْإِعْجَاز asari muhim ahamiyatga ega. Ar-Roziy bu asari orqali badiiy tasvir vositalariga oid mavzularni tavsif qiladi. Asarda Qur’oni Karim, hadis va johiliyat davri she’riyati va o‘sha davrda mavjud bo‘lgan allomalarning asarlaridan namunalar keltiradi. Asarda berilgan mavzularni o‘rganish Qur’oni Karim oyatlari va hadislar ma’nosini tushunish va o‘zbek tiliga to‘g‘ri tarjima qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Faxriddin ar-Roziyning hayoti va ijodi, uning falsafa, mantiq, kalom va fiqh, balog‘atga oid asarlari dunyoning ko‘plab olimlari tomonidan o‘rganilgan. Taha Jabir

 ISSN 3030-3273

al-Alvani o‘zining “Al-imam ar-Raziy va musannafatuhu” asarida olimning hayoti va ijodi hamda yozib qoldirgan asarlari haqida ma’lumot bergan. Angliyalik olim Ayman Shihadeh esa ilmiy maqolalarida olimning so‘nggi kunlarini yoritgan. O‘zbekistonlik olimlardan N.Naimov o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida olimning falsafiy va mantiqiy qarashlarini tadqiq etgan. S.S. Umarjonov, M.K. Safarovlar ar-Roziyning “Latoif ul-g‘iyosiyot” qo‘lyozma asaridagi aql va e’tiqod masalasining qo‘yilishi va uning diniy falsafiy germenevtik tahlilini amalga oshirganlar. Umarjonov Sohibjon Soyibjon o‘g‘li ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda olimning ontologik qarashlarini tahlil qilgan. Roziyning balog‘atga oid asarlari esa asosan arab olimlari tomonidan tadqiq etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy izlanishlar jarayonida ar-Roziy haqidagi ko‘plab maqolalar bilan tanishib chiqildi. Jumladan, cyberleninka.ru, Diss.natlib.uz, academia.edu, noor-book.com kabi ilmiy ishlar bazalaridan olimning asarlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy maqola va adabiyotlar izlab topildi. Mavzuni to‘laroq yoritish maqsadida qiyosiy-tarixiy tahlil, izchillik kabi metodlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur ishda Faxriddin ar-Roziyning hayoti, ilmiy merosi, shogirdlari va uning balog‘at ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi haqidagi ma’lumotlarni yoritib berish rejalangan. Shunga ko‘ra, quyidagilar asosiy vazifa deb belgilanadi:

– Faxriddin ar-Roziy hayotini yoritish;

– Faxriddin ar-Roziyning shogirdlari va asarlari haqida ma’lumot berish;

– Olimning balog‘at ilmiga oid ba’zi qarashlarini o‘rganish;

Islom madaniyati tarixiga oid manbalarda keltirilishicha, Faxruddin ar-Roziy “Hujjatu-l-islom” martabasiga yetgan imom al-G‘azzoliydan so‘ng dunyoga kelgan eng mashhur islom mutafakkiri bo‘lgan. Uning to‘liq ismi Muhammad bin Umar ibn al Husayn bin Ali Abu Abdulloh Faxruddin ar-Roziy bo‘lib, hijriy 543-yilda hozirgi Eron hududidagi Ray shahrida tavallud topgan. (Frank Griffel: 313).

Faxruddinga dastlabki ta’limni otasi berdi. Otasining vafotidan so‘ng u al-Kamol as-Sumnoniy, al-Majdu-l-Jiyliy kabi o‘z zamonasining mashhur olimlaridan dars oldi. Keyinchalik ilmini chuqurlashtirish maqsadida Xorazmga safar qildi va bu yerda ko‘plab olimlardan ta’lim olib, o‘zi ham yirik olim sifatida tanila boshladi. Ar-Roziy 580-hijriy yilning oxirlarida Buxoroga yo‘l oladi. U yerda bir muddat yashagach, Xorazm, Samarqand, Xo‘jand, Banokat, Marv, G‘azna shaharlari va Hindistonga safar qildi. U Xorazmda yashagan vaqtida xorazmshoh Elarslonga atab “Jome’ al-ulum” (“Ilmlar majmuasi”) nomli kitobini yozdi. Bu asar 60 ilm (bob)dan iborat bo‘lib, unda shariat qonun-qoidalari bilan birga dunyoviy ilmlar haqida ma’lumot berilgan. Uning tarix, grammatika, aruz, qofiya, she’r tuzilishi, mantiq, tabobat, ovchilik, mineralogiya,

ISSN 3030-3273

dehqonchilik, matematika, topografiya, harbiy fan, astronomiya, axloq, siyosat, shatranjga oid ilm (bob)lari muhim ahamiyatga ega. Asar 1913-yilda Toshkentda toshbosmada chop etilgan. Nusxasi O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi (inv. № 2923).

Keyinchalik olim yana Buxoroga qaytib keladi. U qayerda bo‘lmasin, har xil mazhabdagi ulamolar, din peshvolari bilan uchrashib, ular bilan qizg‘in munozaralar qilar edi. O‘tkazilgan bahslarda deyarli har doim g‘olib chiqar va shu sababli bir tarafdan obro‘si ortib borsa, ikkinchi tarafdan raqiblari ko‘payib borardi. Ba’zan ilmiy munozarada yengilgan raqiblar u bilan oshkora yovlashib ham qolar edilar. Shunday hodisalar ko‘paygani tufayli u Buxoroni tark etib, kindik qoni to‘kilgan Ray shahriga qaytadi. Bomiyon amiri Sulton Bahouddin bilan uchrashadi. Unga izzat-ikrom ko‘rsatilib, Hirot masjidi yaqinida bir maktab qurib beriladi. Bu maktabda u shogirdlariga dars berish bilan bir qatorda o‘sha zamonning ko‘plab yetuk olimlari bilan uchrashib, ilmiy munozaralar olib boradi. Alloma umrining so‘nggi yillarida Hirotda yashab, “Shayxu-l-islom” unvonini olishga muyassar bo‘ldi. Rivoyatlarga qaraganda, ar-Roziy dushmanlari tomonidan hijriy 606-yilda zaharlab o‘ldirilgan (Taha Jabir al-Alvani: 66).

Tarixchilar Faxruddin ar-Roziyni “Barcha ilm-fanlarning bilimdoni” deb ta’riflashgan. U fizika, matematika, tibbiyot, astronomiya, falsafa, balog‘at va boshqa ilmlarga oid ko‘plab asarlar yaratgan qomusiy olimlardan biridir. Uning asarlari soni manbalarda turlicha ko‘rsatilgan. Masalan: al-Imod al Isfahoniyda 11 ta, As-Subkiyda 23 ta, al-Kiftiyning “أخبار العلماء” kitobida 60 ta, Ibn Abu Usaybaning “عيون الأنبياء” kitobida 68 ta, Ibn Kasirning “الجامع المختصر” kitobida taqriban 200 ta deyilgan. Bizning olimlar tomonidan chiqarilgan manbalarning birida uning kitoblari 160 ta deyilgan. Olimning O‘z FA Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida quyidagi asarlari saqlanmoqda:

1. حدائق الأنوار في حقائق الأسرار.
2. نهاية العقول.
3. وصيت نامۀ رازي.
4. لطايف الغياثية.
5. مفاتيح الغيب- التفسير الكبير.
6. مسائل في الطب.
7. المباحث المشرقية.
8. شرح الإشارات.
9. شرح الإشارات والتنبيهات.
10. سر المكتوم.
11. رسالة الكمالية في حقائق الالهية.
12. رسالة في التوحيد.
13. رسالة في التنبيه على بعض الأسرار المودعة في بعض السور.

ISSN 3030-3273

14. رسالة في تحقيق كلمة لا اله الا الله.
15. جامع العلوم.
16. أسرار التنزيل.

Ar-Roziy o‘zi bo‘lgan barcha yurtlarda ko‘plab shogirdlar orttirgan. Uning saboqlari ko‘plab olimlarni jalb qilar edi. Manbalarda ko‘rsatilishicha, uning darslariga ba’zan 800 ta va undan ortiq odam yig‘ilar edi. U falsafa, ilohiyot, fiqh, tabobat, kimyo, nahv, adabiyot, tafsir, tarix ilmlaridan saboq berardi. Uning shogirdlari orasida Afdaluddin al-Xunajiy, Shamsuddin al-Xuiy, Asiyruddin al-Abxariy, Najmiddin Kubro, Tojuddin al-Armaviy, Shamsuddin al-Xusravshohiy, Sulton Shahobuddin (G‘azna hukmdori) bo‘lgan. Bularning barchasi o‘z zamonasida yetuk olim sifatida tanilganlar (Taha Jabir al-Alvani, 34).

Ar-Roziyning balog‘at ilmiga oid yozgan mashhur asarining nomi arab tilida “نِهَايَةُ الْإِيجَاز فِي دِرَايَةِ الْإِعْجَاز” deb nomlangan. Ushbu kitobning yozilishiga Abdul Qohir Al-Jurjoniyning “أَسْرَارُ الْبَلاَغَة” va “ دَلَائِلُ الإِعْجَاز” asarlari turtki bo‘lgan. Ar-Roziyning ushbu asarining bir nechta qo‘lyozma nusxalari mavjud bo‘lib, ular jahonning turli kutubxonalarida: Iskandariyada, Qohirada, Britaniya muzeyida, Kembrijda, Dublinda va Istanbulda saqlanadi.

Bu asarda 3 ta muqaddima va bir necha bob mavjud bo‘lib, boblar qismlarga, qismlar esa yana mayda fasllarga bo‘lingan. Unda badiiy tasvir vositalariga oid mavzularni tavsif qilishda Qur’oni Karim, hadis va johiliyat davri she’riyati va o‘sha davrda mavjud bo‘lgan allomalarning asarlaridan namunalar keltirilgan (Taha Jabir al-Alvani, 89). Asarning muqaddimasida “Balog‘at ilmi”ning boshqa ilmlardan ajralib turuvchi fazilatlari, uning sharafli ilm ekanligi haqida gapirib o‘tilgan. Quyida ushbu asarda yoritilgan ayrim masalalar yuzasidan Abdul Qohir Al-Jurjoniy va Ar-Roziyning qarashlariga to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Abdul Qohir al-Jurjoniy o‘zining “أسرار البلاغة” va “ دلائل الإعجاز” asarlarida: “Gapning fasih va balig‘ bo‘lishi gapdagi so‘zlarning bir-biri bilan mutanosibligi, ohangdoshligi va butun gapning ma’nosi ochilishi bilan belgilanadi”- deydi (Abdul Qohir al-Jurjaniy. Asrar: 16). Bunda u har bir so‘zning o‘z holicha ohangi, ma’nosi bo‘lishiga, chiroyli yoki xunuk bo‘lishiga deyarli e’tibor bermaydi. Faxruddin ar-Roziy esa gapning fasih va balig‘ bo‘lishida har bir so‘zni alohida o‘rganish kerak deb qaraydi. Uning ta’kidlashicha, har bir so‘zga talaffuz va ma’no nuqtai nazaridan baho berish mumkin. U so‘zlarni insonning tana a’zolariga o‘xshatadi. Masalan, u deydi: “Ko‘z alohida olib qaralganda shahlo, ola, qora, ko‘k, xumor, quvnoq, qiyiq va hokazo bo‘lishi mumkin. Ko‘zning qanday bo‘lishi odam tanasining umuman chiroyli yoki xunuk bo‘lishida hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Ya’ni, faqat ko‘z tufayligina tana chiroyli yoki xunuk bo‘lib qolmaydi. Ammo ko‘zning o‘zi alohida olib qaralganda chiroyli yoki xunuk bo‘lishi mumkin. Shuningdek, bino devoriga qo‘yilayotgan har bir

 ISSN 3030-3273

tosh alohida olganda yaxshi yoki yomon bo‘lishi mumkin. Xuddi shuningdek, har bir so‘zga va qolaversa uning tarkibidagi har bir harfga baho berish mumkin. Albatta faqat yomon g‘ishtlardan yaxshi bino qurib bo‘lmaganidek, xunuk so‘zlardan ham chiroyli gap yasash mumkin emas”- deydi (Faxruddin ar-Roziy. Nihayat al-ijaz: 32). Olim gap tuzishda so‘zlarning bir-biri bilan mutanosibligi va ma’nosiga alohida e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi.

Shoira al-Xansaning shahid ketgan birodari Saxrga bag‘ishlab yozgan quyidagi baytining sharhida ikkala olim ikki xil fikr bildiradilar:

إِذَا قَبح البكاء علي القتيل
رأيت بكاءك الحسن الجميلا

(*Halok etilgan ustida yig‘lash garchi xunuk bo‘lsa ham,*
Sening yig‘ingni chiroyli va go‘zal ko‘rdim)

Bu yerda gap الحسن الجميل so‘zlaridagi ال- artikli xususida. Gapning asli arabchada بكاؤك حسن جميل tarzidagi ismiy jumla, bunda بكاؤك – mabtado, حسن جميل – xabar. Ismiy jumlaning xabari noaniq holatda bo‘lishi kerak. U ال- artiklini olishi uchun so‘zlovchi o‘z oldiga quyidagi maqsadlardan birini qo‘yishi kerak:

a) Mubolag‘a maqsadida xabardagi ma’no faqatgina mubtadoga tegishli degan fikrni anglatishi. Masalan:

عمر هو الشجاع - *Umar, faqatgina u shijoatlidir.*

b) Xabar bildirgan sifat mubolag‘a maqsadida emas, chindan ham faqat mubtadoda borligini ta’kidlashi. Masalan:

هو الوفي حين لا تظن نفس بنفس خيرا

Hech kim hech kim haqida yaxshi fikrda bo‘lmagan paytda yolg‘iz u (Alloh) vafodordur.

c) Shunchaki ta’kidlash maqsadida ham bo‘lishi mumkin (Faxruddin ar-Roziy. Nihayat al-ijaz: 48)

Al-Jurjoniy yuqorida keltirilgan baytdagi ال- artikllarini faqat ta’kid uchun ishlatilgan deb hisoblaydi (Abdul Qohir al-Jurjaniy. Dalail: 135), ar-Roziy esa bunda ta’kiddan tashqari mubolag‘a ham bor, ya’ni chiroyli, go‘zal bo‘lgan yig‘i faqat sening yig‘ingdir”, demoqchi ekanligini shoira bildiradi. Bundan tashqari, deydi u, الحسن so‘zida “savobli ish” ma’nosi borligiga asoslanib, al-Xansa “bunday yig‘i vojib hamdir”, demoqchi (Faxruddin ar-Roziy. Nihayat al-ijaz: 52).

“Aqliy majoz” bobida ham al-Jurjoniy va ar-Roziyning fikri bir yerdan chiqmagan. “Aqliy majoz” ish-harakatni bajaruvchining asl nomi emas, balki u bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa subyektning nomi aytilishidir. Masalan: “Mahalla buni ma’qulladi” gapida ish-harakat mahallaga isnod qilingan bo‘lsa ham, ish harakatni bajaruvchi aslida mahalla ahli. Al-Jurjoniyning fikricha, “aqliy majoz” ishlatilganda har doim ish harakatni bajaruvchining asl nomi aniq ravshan bo‘lishi shart emas. Unga

 ISSN 3030-3273

matnda biror ishora bo‘lsa bas. U bu xususda shunday degan: “Bilginki, bunda har qanday fe’lning haqiqiy fo’ili (ish-harakat bajaruvchisi) nazarda tutilmasligi kerak, agar ish-harakatni unga, ya’ni haqiqiy fo’ilga naql qilsang, haqiqatga qaytgan bo‘lasan”, (ya’ni hech qanday majoz bo‘lmaydi) (Abdul Qohir al-Jurjaniy. Asrar: 165).

Masalan: “ربحت تجارتهم” – “Ularning tijoratlari foyda ko‘rdi” o‘rniga arab tilida “ربح في تجارتهم” - “Ular o‘z tijoratlarida foyda ko‘rdilar”- deyilsa, yoki shu ko‘zda tutilsa, majoz bo‘lmaydi.

Ar-Roziy bo‘lsa, فاعل – ish-harakatni bajaruvchi aniq bo‘lishi kerak deydi. U jumlada fe’l bo‘lsa-ku, ega bo‘lmasa, jumla jumla hisoblanmaydi, degan fikrni bildiradi (Faxruddin ar-Roziy. Nihayat al ijaz: 178). Al-Jurjoniy fo’il hatto kishining ongida, tasavvurida ham zohir bo‘lishini zarur deb hisoblamasa, ar-Roziy buni zarur deb hisoblaydi.

Ikkala olimning fikri har xilligini ismiy jumladagi mubtado va xabar masalasida ham ko‘rish mumkin. Ma’lumki ismiy jumlada odatda mubtado birinchi o‘rinda, undan keyin xabar qo‘yiladi. Lekin ma’lum maqsadlarga ko‘ra mubtado xabardan keyin qo‘yilishi mumkin. Bunda u مبتدأ مؤخر ya’ni “kechikkan ega” deyiladi. Misol uchun: “زيد منطلق” va “منطلق زيد” jumlalarining har ikkisida ham “زيد” mubtado hisoblanadi. Odatda, mubtado aniq holatda, xabar noaniq holatda bo‘lishi mumkin. Bunday holni az-Zamaxshariy ham ko‘rsatib o‘tadi. Uning “الأنموذج” nomli asarida shunday deyilgan: وقد يجيئان معرفتين نحو: الله إلاهنا ومحمد نبينا

Ya’ni, ularning ikkisi (mubtado va xabar) aniq holatda kelishi mumkin: “Alloh tangrimiz, Muhammad payg‘ambarimizdir” (Az-Zamaxshariy: 16). Shunda savol tug‘iladi: ikkalasi ham aniq holatda bo‘lsa, ularning qaysi biri mubtado va qaysi biri xabar bo‘ladi?

Al-Jurjoniy bu xususda: “Agar mubtado va xabar aniq bo‘lsa, u holda qaysi biri oldin kelsa, o‘sha mubtado bo‘ladi”, deydi (Abdul Qohir al-Jurjaniy. Dalail: 57). Bu masala “Balog‘at ilmiga aloqador bo‘lsa ham aslida ko‘proq nahvga oiddir. Bu xususda nahv olimlarining har xil fikrlari mavjud. Faxruddin ar-Roziy ushbu masala yuzasidan quyidagi fikrni bildiradi: “Ism, ya’ni ot odatda mubtado, vasf esa xabar bo‘ladi. Bunda ism - ot deb, muayyan turg‘un tushuncha - substantni, yoki vasf - sifat deb, atribut, ya’ni u yoki bu substantga xos bo‘lgan so‘zlar ko‘zda tutiladi. Sifatlanmish – الموصوف gapning qayerda turishidan qat’iy nazar mubtado bo‘ladi, sifatlovchi الصفة، الوصف esa xabar bo‘ladi. Shunga ko‘ra, الله خالقنا va خالقنا الله gaplarining har ikkisida الله so‘zi mubtado bo‘ladi (Faxruddin ar-Roziy. Nihayat al-ijaz: 137).

ISSN 3030-3273

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarimiz asosida quyidagi xulosalarni keltirishimiz mumkin:

1. Faxruddin ar-Roziy o‘z zamonasining mashhur qomusiy olimlaridan bo‘lgan. Uning barcha ilmlarning bilimdoni bo‘lganligini yetishtirgan shogirdlari orasida dunyoga tanilgan Najmiddin Kubro, Tojuddin al-Armaviy, Shamsuddin al-Xusravshohiy, Sulton Shahobuddin kabi o‘z zamonasining olimlari borligida ko‘rish mumkin.
2. Ar-Roziyning Raydan Xorazm, Buxoro va Samarqandga ta’lim olish uchun kelishi o‘sha davrlarda bu shaharlarning ilm markazlaridan bo‘lganligining yana bir dalilidir.
3. Faxruddin ar-Roziyni balog‘at ilmining shayxi hisoblangan Abdul Qohir al-Jurjoniyning “أسرار البلاغة” va “ دلائل الإعجاز” asarlarini o‘rganib, ulardagi har bir masala yuzasidan o‘z yondashuvlarini bildirishi uning “balog‘at ilmi”ida yutuqlarga erishib, uni rivojlantirishga o‘z hissasini kiritganidan dalolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdul Qohir al-Jurjaniy. (1998) Asrarul balag‘a. – Bayrut.
2. Abdul Qohir al-Jurjaniy. (1994) Dalail al-i’jaz. – Bayrut.
3. Az-Zamaxshariy. (1999) Al-unmuzaj.
4. “Из философского наследия народов Ближнего и Среднего Востока”. – Ташкент, 1972.
5. Крачковский, И.Ю. (1956) Избранные сочинения. VI том. – Москва.
6. Taha Jabir al-Alvani. (2010) Al-imam ar-Raziy va musannafatuh. – Dar as-salam.
7. Faxruddin ar-Roziy. (2004) Nihayat al ijaz fi dirayat al-i’jaz. – Bayrut.
8. Umarjonov, S.S., Safarov, M.K. (2021) “Faxriddin Roziyning “Latoif ul-g‘iyosiyot” qo‘lyozma asarida aql va e’tiqod masalasining qo‘yilishi va uning diniy-falsafiy germenevtik tahlili” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 1, Issue 5. June, p. 1060. (online journal).
9. Umarjonov, Sohibjon Soyibjon o‘g‘li. (2021) “Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda Faxriddin Roziyning ontologik qarashlarining o‘rni va ahamiyati” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 1, Issue 9. (online journal).
10. Frank Griffel (2007) “On Fakhr al-din al-Razi’s life and the patronage he received” Journal of Islamic Studies 18:3, pp. 313–344. doi:10.1093/jis/etm029

REFERENCES:

1. Abdul Qohir al-Jurjaniy. (1998) Asrarul balag‘a. – Bayrut. (In Arabic)
2. Abdul Qohir al-Jurjaniy. (1994) Dalail al-i’jaz. – Bayrut. (In Arabic)

 ISSN 3030-3273

3. Az-Zamaxshariy. (1999) Al-unmuzaj. (In Arabic)

4. “Iz filosofskogo naslediya narodov Blijnego i Srednego Vostoka”. – Tashkent, 1972. (In Russian)

5. Krachkovskiy, I.Yu. (1956) Izbranniye sochineniya. VI tom. – Moskva. (In Russian)

6. Taha Jabir al-Alvani. (2010) Al-imam ar-Raziy va musannafatuh. – Dar as-salam. (In Arabic)

7. Faxruddin ar-Roziy. (2004) Nihayat al ijaz fi dirayat al-i’jaz. – Bayrut. (In Arabic)

8. Umarjonov, S.S., Safarov, M.K. (2021) “Faxriddin Roziyning “Latoif ul-g‘iyosiyot” qo‘lyozma asarida aql va e’tiqod masalasining qo‘yilishi va uning diniy-falsafiy germenevtik tahlili” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 1, Issue 5. June, p. 1060. (online journal). (In Uzbek)

9. Umarjonov, Sohibjon Soyibjon o‘g‘li. (2021) “Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda Faxriddin Roziyning ontologik qarashlarining o‘rni va ahamiyati” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 1, Issue 9. (online journal). (In Uzbek)

10. Frank Griffel (2007) “On Fakhr al-din al-Razi’s life and the patronage he received” Journal of Islamic Studies 18:3, pp. 313–344. doi:10.1093/jis/etm029

 ISSN 3030-3273

“JAVOHIRU-L-AJOYIB” VA “MAJOLISU-N-NAFOIS” TAZKIRALARINING QIYOSIY TADQIQI

A COMPARATIVE STUDY OF THE TAZKIRAS OF “JAVOHIRU-L-AJOYIB” AND “MAJOLISU-N-NAFOIS”

СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ТАЗКИРА «ДЖАВОХИРУ-Л-АДЖАЙИБ» И «МАДЖАЛИСУ-Н-НАФАИС»

Tuychiyeva Oydin Sayfullayevna
Oriental universiteti,
Sharq tillari kafedrasi dotsenti, PhD
oydin_s@mail.ru
ORCID: 0000-0003-3598-9181

Annotatsiya: Mazkur maqolada sharq adabiyotida tazkiranavislik an’anasining shakllanishi, taraqqiyot va takomil bosqichlari, ulardagi an’anaviylik va novatorlik masalalari, sharq mumtoz adabiyotida ayollarga bag‘ishlangan tazkiralarning vujudga kelishi hamda mumtoz davr adabiyotida tarjima odobi xususida so‘z boradi. Alisher Navoiyning “Majolisu-n-nafois” tazkirasi hamda Faxriy Hiraviyning “Javohiru-l-ajoyib” tazkirasida keltirilgan Bediliy, Bibicha Munajjima va Mehriy haqidagi ma’lumotlarning forsiy tarjimalari va qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Tazkiralarda zikr etilgan shoiralar, malikalar, tilshunos, tarjimon, sufiy, xattot, rassom, o‘qituvchi, davlat boshqaruvida faol ishtirok etgan oqila hukmdor, din, tarix va adabiyot bilimdonlari bo‘lgan ayollarning nomlari imkon qadar yoritilgan va ularga oid tarjimalar solishtirilgan.

Kalit so‘zlar: tazkira, tazkiranavislik, qo‘lyozma, “Javohiru-l-ajoyib”, “Majolisu-n-nafois”, Mehriy, Bediliy, Bibicha Munajjima.

Annotation: This article discusses the formation of the tradition of writing tazkiras in Eastern (Muslim) literature, the stages of the development and perfection as well as the issues of tradition and innovation in these poetic works, the emergence of tazkira in the Eastern classical literature and the etiquette of translation in classical literature. Persian translations and comparative analysis of the information about Bedili, Bibicha Munajjima and Mehri in Alisher Navoi’s tazkira “Majolisu-n-nafois” and Fakhri Hiravi’s tazkira “Javohiru-l-ajoyib” were done. In the article the names of females have been enlightened such as poetess, princesses, linguists, translators, sufis, calligraphers, painters, teachers, wise rulers who took an active part in public administration, and scholars of religion, history and literature who were mentioned in tazkiras as well as the translations about them have been compared.

 ISSN 3030-3273

Key words: “Javohiru-l-ajoyib”, tazkira, manuscript, Bibicha Munajjima, Bedili, Mehriy.

Аннотация: В данной статье рассматриваются формирование традиции написания тазкира в восточной литературе, этапы его развития и совершенствования, а также вопросы традиции и новаторства в этих поэтических произведениях. Особое внимание уделено возникновению тазкира в восточной классической литературе и этикету перевода в этой сфере. Проведен персидский перевод и сравнительный анализ сведений о Бедили, Бибиче Мунаджиме и Мехри, в произведении Алишера Наваи «Маджалису-н-нафоис» и произведении Фахрия Хиравия «Джавахиру-л-аджаиб». В статье также освещены имена женщин, таких как поэтессы, принцессы, лингвисты, переводчики, суфии, каллиграфы, художницы, учительницы и мудрые правительницы, принимавшие активное участие в государственном управлении. Отдельное внимание уделено знатокам религии, истории и литературы, которые были упомянуты в тазкирах, и выполнены сопоставительные переводы о них**.**

Ключевые слова: тазкира, рукопись, «Джавахиру-л-аджайиб», Бибича Мунаджима, Бедили, Мехри.

KIRISH

Jahon sivilizatsiyasida ayollarning tutgan o‘rnini tadqiq qilish XXI asr dastlabki o‘n yilliklariga kelib yanada dolzarb ahamiyat kasb etdi. Jamiyatda ayollarning mavqeyi, huquqi, gender masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bir davrda tarixda yashab ijod qilgan iste’dodli ayollarning faoliyati aks etgan qo‘lyozma manbalarni atroflicha tadqiq etish, ulardagi adabiy asarlarni adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik ilmiga kiritish jarayoni izchil davom etmoqda.

Dunyo sharqshunosligida turkiy va forsiy tillarda yozilgan tazkiralarni atroflicha o‘rganish va ularni tarjima qilish sohaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, har doim muhim hisoblangan. Xususan, turkiy va forsiy tillardagi tazkiranavislikning genezisi, taraqqiyot bosqichlari, ulardagi an’anaviylik va novatorlik masalalari, ayollarga bag‘ishlangan turkiy va forsiy tazkiralarning monografik tavsifi, ularda nomlari zikr etilgan ayol ijodkorlarning faoliyatini o‘rganish, asarlarini filologik nuqtai nazardan tahlil qilish mumtoz adabiy merosni saqlab qolishning asosiy omillaridan sanaladi. Ayniqsa, turli mamlakatlarning qo‘lyozma fondlarida saqlanib kelinayotgan ayollarga bag‘ishlangan tazkiralarni qiyosiy tadqiq etish muayyan davrdagi ijtimoiy-madaniy sharoit, adabiy jarayonlar, ularda ayol ijodkorlarning o‘rni, davr ayollarining yashash tarzi xususida qimmatli ma’lumotlarni taqdim etishi bilan ahamiyatlidir.

 ISSN 3030-3273

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Fors tilida ayollar haqidagi ilk tazkira Faxriy Hiraviy (to‘liq ismi Sulton Muhammad Faxriy bin Amir Hiraviy)ga tegishli deb hisoblanadi. Faxriy Hiraviy ijodi doimo tadqiqotchi va olimlar e’tiborida bo‘lib kelgan. Adib ijodi bo‘yicha maxsus tadqiqot olib borgan Said Hisomiddin Rashidiy 1968-yilda uning “روضه السلاطين” (“Ravzatu-s-salotin”) va “جواهر العجايب” (“Javohiru-l-ajoyib”) tazkiralarining ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlagan va nashr etgan. Olim ushbu nashrning muqaddima qismida Hiraviy hayoti va ijodi haqida urdu tilida batafsil ma’lumot bergan. Shuningdek, Said Hisomiddin Rashidiy Faxriy Hiraviy qalamiga mansub yuzta g‘azalni yuqorida qayd etilgan nashrga kiritgan (1968: 3-86 فخری هروی). Olim har ikki tazkiraga izohlar yozadi. Olim tomonidan yozilgan “Faxriy Hiraviy va uning uch asari” nomli maqolasi Ahmad Gulchin Maoniy tomonidan tarjima qilinib chop etiladi. Tojikistonlik olim Alizoda Saidxo‘janing «Фахрий Хирави и его место в истории персидско-таджикской литературы» (2009) nomli nomzodlik dissertatsiyasida Hiraviyning adabiyotshunos olim, tarjimon, yozuvchi sifatidagi ijodiy faoliyati tadqiq qilingan. Shuningdek, tadqiqotchining Faxriy Hiraviy ijodi tadqiqiga bag‘ishlangan bir qator izlanishlari adib ijodi haqida muhim ma’lumotlar berganligi bilan e’tiborga molik. (Alizada S, 1985: 59-70)

Shuningdek, Sayid Nafisiy, Aliasg‘ar Hikmat, Abdurasul Xayyompur, Ahmad Gulchin Maoniy, Alirizoi Naqaviy kabi olimlarning ishlari Hiraviy ijodining ma’lum bir qirralarini o‘rganishga bag‘ishlanadi.

Faxriy Hiraviy XVI asrning o‘rtalarida yashab ijod etgan. U o‘z zamonasida Xuroson, Sindh va Hindistonda mashhur olim, adib, shoir, tazkiranavis va tarjimon sifatida nom qozongan. U Alisher Navoiyning “Majolisu-n-nafois” asarini ilk bor chig‘atoy tilidan fors tiliga “لطايف نامه” (“Latoyifnoma”) nomi bilan tarjima qilib, asarga to‘qqizinchi majlisni kiritadi (Navoiy, Alisher, 2020: 161). Bu tarjimaning ahamiyati xususida sharqshunos olim Sh. Sirojiddinov: “Navoiy shaxsining forsiygo‘y xalqlar orasida mashhur bo‘lishida “Majolisu-n-nafois”ning Faxriy Hirotiy tomonidan fors tiliga tarjima qilinishi katta rol o‘ynaganligi shubhasizdir. Bu tarjima “Latoyifnoma” nomi bilan mashhurlik tutib, uning to‘qqizinchi majlisi maxsus Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangandir...” (Sirojiddinov Sh., 1997: 73) deb alohida urg‘u beradi. Shuningdek, olim Alisher Navoiy ijodiga qanday yondashganligi, shoirning ilm-fan yo‘lidagi sa’y-harakatlari va Navoiy vafoti xususida Faxriyning tafsilotlarini keltiradi.

Sharqshunos olima S. Azimjanova esa, o‘zining “Boburning hind devoni” nomli kitobi muqaddimasida “Al-Hiraviyning (Faxriy Hiraviy) majmuasi haqiqatan ham “Majolisu-n-nafois”ning mantiqiy davomi hisoblanib, unda Bobur davrining adabiy muhiti va undan so‘ngi shoirlar haqidagi ma’lumotlar, tazkira muallifi tomonidan esa, o‘z davrining adabiy hayoti va o‘tganlarni yaxshi taniganligi qayd etiladi”, deb yozadi.

ISSN 3030-3273

Faxriy Hiraviy asarlarining bir qancha qo‘lyozma nusxalari dunyoning turli qo‘lyozma fondlari va muzeylarida, jumladan, O‘zbekiston, Eron, Afg‘oniston, Tojikiston, Pokiston, Hindiston, Turkiya, Iroq, Rossiya va Angliyada saqlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozishda ayollarga bag‘ishlangan turkiy va forsiy tazkiralardagi an’anaviylik va novatorlikni yoritish asosiy masala sifatida belgilab olindi.

Tadqiqotning mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, kompleks tahlil, qiyosiy-tarixiy va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Faxriy Hiraviyning hayoti va ijodi haqida Rashidiyning so‘z boshisida, Faxriyning “هفت کشور” (“Haft keshvar”)[1], “تحفة الحبیب” (“Tuhfatu-l-habib”)[2], hamda “روضه السلاطین” (“Ravzatu-s-salotin”)[3] asarlarida ma’lumotlar mavjud. Bu manbalarda keltirilishicha, Faxriy Hiraviyning bolaligi Hirotda o‘tgan. XV asr oxirida Hirot adabiyot ravnaq topgan shaharlardan biri bo‘lib, u yerdagi adabiy muhit Hiraviyga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Uning otasi Mavlono Muhammad “Amiriy” taxallusi bilan ijod qilgan, saroy a’yonlaridan bo‘lgan va Faxriyning ilm bilan shug‘ullanishiga katta e’tibor qaratgan.

Arg‘unlar[4] davrida ko‘plab ulamolar, shoir va ahli qalamlar Hind diyorida nom qozonishdi va u yerlarda doimiy qolib ketishdi. Shular orasida Faxriy Hiraviy ham bo‘lib, aslida yurtini Haj qilish maqsadida tark etgan edi. Lekin, avval Sindhni ziyorat qilib, keyinchalik shu yerda qolib ketadi. Uning Hirotdan aynan qachon chiqib ketgani ma’lum emas, biroq “جواهر العجایب” (“Javohiru-l-ajoyib”)da keltirilgan ma’lumotlardan anglashiladiki, u shoh Tahmasp hukmronligi (1524-yildan boshlangan) davrida shu yerga kelgan. “جواهر العجایب” (“Javohiru-l-ajoyib”)ning debochasida Sindh hukmdori shoh Tahmaspning ulug‘lanishi fikrimizning isbotidir.

[1] Faxriy Hiraviy. “هفت کشور”. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutida saqlanadigan **№1026** inventar raqamli qo‘lyozma nusxa.

[2] Faxriy Hiraviy. “تحفة الحبیب”. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat sharqshunoslik institutida saqlanadigan **№4596, №235** inventar raqamli qo‘lyozma nusxalar.

[3] سلطان محمد فخری بن محمد امیری هروی.روضته السلاطین و جواهر العجایب. تصحیح و تحشیه سید حسام الدین راشدی. حیدرآباد، ۱۹۶۸. ص. ۳

[4] Arg‘unlar-XIV-XV asrlarda arg‘unlarning asosiy qismi Farg‘ona vodiysida, Janubiy O‘zbekiston va Shimoliy Afg‘onistonda yashaganlar. Ular borgan joylarining til muhitiga ko‘ra, yo mahalliy aholini turklashishiga sabab bo‘lgan yoki ular ta’sirida o‘z etnik nomlarini unutmagan holda forsiyzabon tojiklarga aylangan. Arg‘unlar Amir Temur davlatining tayanchi bo‘lgan qirq o‘zbek qavmlaridan biri bo‘lgan.

ISSN 3030-3273

Fanda Faxriy Hiraviyning “هفت کشور” (1521)[5] (“Haft Keshvar”), “لطایف نامه” (1522)[6] (“Latoyifnoma”), “تحفة الحبیب” (1524)[7] (“Tuhfatu-l-Habib”), “روضه السلاطین” **(**1549-1552)**[8]** (“Ravzatu-s-salotin”), “صنایع الحسن” (1551) **[9]** (“Sanoeu-l-Hasan”), hamda “جواهر العجایب” (1554-1555) (“Javohiru-l-ajoyib”) asarlari mashhur. Shulardan biri bo‘lmish “جواهر العجایب” (“Javohiru-l-ajoyib”) asari fasl avvalida ta’kidlaganimizdek, ayollarga bag‘ishlab yozilgan ilk tazkira hisoblanadi. Faxriy tazkiraning muqaddimasida uning yaratilish sababini, so‘ng fors tilida ijod qilgan ayollarni keltiradi. Bu tazkira hajman qisqa bo‘lsa ham fors adabiyoti tarixida ayollar tutgan o‘rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. “جواهر العجایب” (“Javohiru-l-ajoyib”) Faxriyning boshqa asarlariga nisbatan kamroq o‘rganilgan. Ahmad Gulchin Maoniy (Ahmad Gulchin Maoniy, 1363: 308-328), Sayid Alirizoiy Naqaviy (Naqaviy, 1343: 96-98), Said Hisomiddin Roshidiy (Roshidiy, 1363: 5-98), Toji Usmon (Usmon T., 1963: 81), S. Alizoda (Alizoda S., 2007: 31-37), F. Aliyeva (Aliyeva F., 2009: 16-39), Matluba Mirzoyunus (Mirzoyunus M., 2008: 102-124), S. G‘aniyeva (G‘aniyeva S., 1978-2000)ning ilmiy maqolalarini hisobga olmaganda, asar haqida monografik tadqiq etilgan ish mavjud emas.

“Javohiru-l-ajoyib”ning yaratilishi Faxriy Hiraviyning Hindistondagi faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Tazkirada nomlari zikr etilgan ba’zi ayollarni shoir shaxsan tanigan.

Tarixdan ma’lumki, Mirzo Shoh Hasan Arg‘uvon mo‘g‘ul bo‘lgan. U tabiatan berahm va qattiqqo‘l edi, biroq, ilm-fan, she’r va adabiyot xususida gap borganda rag‘bat ko‘rsatish va homiylik qilishda bu kishi bag‘ri keng edi. Faxriy Hiraviy Shoh Hasanga bag‘ishlab “Ravzatu-s-salotin” va “Sanoe ul-Xasan” asarlarini bitgan.

---

[5] “هفت کشور”- Sulton Husayn Mirzo hukmronligi davrida yozilgan. Bu davrda poytaxt hisoblangan Hirot V.V. Bartoldning qayd etishicha, o‘rta asrning sharq-u g‘arbidagi madaniyat markazi, shu bilan birga razolat-u fahsh markazi bo‘lgan. Faxriy Hiraviyning ilk asari, ya’ni “هفت کشور”- shu davrda vujudga kelib, o‘sha davrga taalluqli axloqiy muammolarni ko‘tarib chiqadi. Bu asarni muallif Shoh Ismoil Safaviyga bag‘ishlaydi. Asar hikoyat ichida hikoyat uslubida yozilgan. Ushbu asarning qo‘lyozma nusxalari O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ham №2046, №2047, №2048 inventar raqamlari ostida saqlanib kelinmoqda.

[6] “لطایف نامه” - Alisher Navoiyning “Majolisu-n-nafois” tazkirasining forsiy tarjimasidir. Bu tazkira chig‘atoy tilidagi matnning tarjimasi bo‘lganligi sababli ham, nihoyatda ahamiyatlidir.

[7] “تحفة الحبیب”- Xusrav Dehlaviy, Hofiz, Kamol Xo‘jandiy, Jomiy, Foniy va boshqalarning g‘azallariga javoban yoki nazira, payrav tarzida yozilgandir. “Tuhfatu-l-Habib” fors adabiyotida “Radoyifu-l-ash’or”, ya’ni “radifli she’rlar” tizimi tartibida tuzilgan to‘qqizinchi majmuadir.

[8] “روضه السلاطین” Faxriyning bu tazkirasi, mazmun va mavzu jihatidan ahamiyatlidir. Faxriy, boshqa asarlarda nomi zikr etilmagan sultonlar xususida ham ma’lumot bergan yoki she’r bitadigan podshohlar xususida zikr etgan. Masalan, Feruzshoh shoir sifatida, Abulhasan Langoh, Malik Shamsuddin Buzkon, Malik Faxriddin va Malik Xisomiddinlar birinchi marta namoyon bo‘lganlar. Temuriy hukmdorlar alohida e’tirof etilgan. Bu asarning Parij Milliy kutubxonasidagi 2 nusxasi (320, 321 raqam), Berlin nusxasi (644/134), Peterburg nusxasi – raqami S-1573/2065, Istanbul nusxasi (4097 raqam) ma’lum.

[9] “صنایع الحسن” asari Sindhda yozilgan bo‘lib, Shoh Hasan Arg‘uvoniyga bag‘ishlangandir. Shu sabab ham asar “Sanoyeu-l-Xasan” deb nomlangan. Asar nodir bo‘lib, hozirga qadar olim-u tadqiqotchilar nazaridan yiroqdir, asar she’r ilmi haqidagi risola hisoblanadi. Budlindagi kutubxonada “Sanoyeu-l-Hasan”ning ikkita nusxasi bor. Birinchi nusxa 3171 raqami bilan 981-hijriy yilda yozilgan nusxa. Nusxa ELLIOT ning zaxirasida bo‘lgan. Ikkinchi nusxa 1372 raqami ostidadir, u 1169-yilda Dehlida ko‘chirilgan 192-245-betlarda berilgan. Patnaning Bankipur kutubxonasida yana bir nusxasi (948 r) saqlanadi. Kitob yakunida Rashiduddin Vatvotning olti varaqdan iborat “Aqsomu-l-Baxur” nomli she’riy shakldagi maqolasi berilgan.

ISSN 3030-3273

So‘ngra dardga chalinib falaj bo‘lib qoladi va hokimlarning buyrug‘iga binoan kemada, daryoda kun kechiradi. Mamlakatda amirlarning o‘zaro jangi avj oladi. 1555-yilda Mirzo Iso Tarxon[10] poytaxtni egallab olib, shoh Hasan bilan sulh tuzdi. Ammo Tarxon Txantadan qo‘shinini olib chiqib ulgurmay shoh Hasan vafot etdi. Uning o‘g‘il farzandi bo‘lmaganligi bois, endi bu yerda yangi shajara – Mirzo Iso Tarxon davri boshlandi. Shu tariqa Faxriy yangi hukmdor, uning o‘z so‘zlari bilan ifodalaganda, “Amiri Kabiri Olamgiri Oftobnazir Sulton nishon soyai lutfi rahmati Rahmon Mirzo Muhammad Iso Tarxon bilan hamkorlik qila boshladi” (Fahriy Hiraviy, 1968: 3-81).

“جواهر العجايب” (“Javohiru-l-ajoyib”)ning debochasidan ma’lum bo‘lishicha, Faxriy Shoh Hasanning xotini Hoji Moh Begim[11] bilan doimiy muloqotda bo‘lgan. Shoh Hasanning o‘limidan so‘ng, Arg‘un qavmining hamdardligiga erishish maqsadida, Shoh Tarxon uning bevasiga uylandi.

Shoh Hasandan so‘ng Sindh ikkiga bo‘linib ketdi. Yuqori Sindhda Sulton Mahmud Bahriy hukmronlik qilardi, uning tasarrufida ham saroy bo‘lib, ko‘plab adib va olimlar shoh homiyligidan foydalanar edilar. Faxriyning aynan Tarxon saroyida qolishining asosiy sababi Xoji Moh Begim bo‘lishi kerak (Fahriy Hiraviy, 1968: 3-81). Bir necha muddatdan so‘ng Thanta vayron bo‘lgach, Hindistonda taxtga Akbarshoh[12] (hij. 949) o‘tirgani haqidagi xabar tezda tarqaladi. Akbarshoh saroyida Akbarshohning enagasi Jiji Begim, ya’ni Mohim Enaganing[13] ta’siri katta edi. Uning aytganlarini shoh inkor qilmasdi. Faxriy uchun podshoh nazariga tushishning vositasi aynan shu ayol edi. U “Javohiru-l-ajoyib” ning debochasiga ba’zi o‘zgartirishlar kiritib, asar so‘ngida ham unga bir qasida bag‘ishlaydi va asarning bir nusxasini Mohim Enagaga taqdim etadi (Faxriy Hiraviy, 1968: 3-81). Mohim Enaga bu asarni shoh huzurida namoyish etib, Faxriyga shoh nomidan 500 ashrafiy tuhfa qiladi.

Faxriyning Hindistonda qachongacha yashagani ma’lum emas. 1563-yilgacha Hindistonda yashab Akbarshohning to‘rtinchi rafiqasi bo‘lmish Salima Sulton Begimning maddohi sifatida faoliyat olib borgan, (Ahmad Gulchin Maoniy, 1363: 308-328) degan ma’lumotlar ham bor. Salima Sulton Begim Boburning nabirasi edi. Uning otasi Mirzo Muhammad Xumoyunning kuyovi, ya’ni Gulruh Begimning turmush o‘rtog‘i bo‘lgan.

---

[10] Mirzo Iso Tarxon otasi Mirzo Abdul Ali Tarxon Buxoro sultoni Mahmud Mirzo Bin Abusaid davrida hokim bo‘lgan. U Shayboniyxon bilan bo‘lgan jangda barcha o‘g‘illari bilan birgalikda o‘ldirilgan (873-899-hij). Mirzo Iso Tarxon go‘dak bo‘lganligi sababli, tirik qolgan. Vafoti 974-hijriy.

[11] Mirzo Muhammad bin Arunning qizi, asl ismi Mohchuchuk. Shoh Hasandan qiz farzand ko‘rgan va uning ismi ham Mohchuchuk bo‘lgan. Onasining ismi Zarifa Xotun bo‘lgan.

[12] Humoyun Mirzo va Hamida Bonuning o‘g‘li. Boburiylarning Hindistondagi uchinchi shohi Jaloliddin Muhammad Akbar 1556-1605-yillar orasida davlatni boshqargan.

[13] Mohim Enaga Akbarshohning onasi Hamida Bonu bilan ikki yil davomida davlat boshqarganlar. Mohim Akbarshohning sut emizgan onasi hisoblanadi, shu sababli ham Akbarshoh Mohim Enaga so‘zidan aslo chiqmagan. Mohim Enaga o‘g‘li Adham Xonning o‘ldirilgani xabarini Akbarshohdan eshitgach, qirq kun o‘tib vafot etadi. Akbarshoh enagasi uchun Dehlida maqbara qurdirib o‘sha yerga dafn ettiradi.

ISSN 3030-3273

MUHOKAMA

Faxriy Hiraviyning “Javohiru-l-ajoyib” tazkirasi Allohga hamd va payg‘ambarimiz (s.a.v)ga na’t bilan boshlangan bo‘lib, jami 31 nafar ayol nomi zikr etilgan. Tazkirada Hazrat Oysha, Hazrat Zulayho, Mahastiy, Mehriy, Ofoq Begim Jaloyir, Balxiy, Mo‘g‘ul Xonim, Jahon Xotin, Nisoiy, Bibicha Munajjima, Nihoniy Sheroziy, Bibi Orzuyi Samarqandiy va sharqning boshqa iqtidorli ijodkor ayollari haqida muxtasar bo‘lsa-da ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Bulardan uch shoira: Bediliy, Bibicha Munajjima va Mehriy haqida ma’lumotlar Alisher Navoiyning “Majolisu-n-nafois” asarida ham keltiriladi. Quyidagi misollarni qiyoslash orqali Bediliy, Bibicha Munajjima va Mehriy haqidagi ma’lumotlarning o‘xshash va farqli jihatlarini kuzatish mumkin.

1-jadval. “جواهر العجايب” va "مجالس النفايس"

"مجالس النفايس" (“Majolisu-n-nafois”)	“جواهر العجايب” (“Javohiru-l-ajoyib”)
Mehriy ta’rifi Mavlono Sulaymoniy - Bobur Mirzo xizmatida bo‘lur erdi. Va badihani ravon aytur erdi. Ammo Hazrati Xoja Hofizning bu matlai javobidakim: Yod bod on ki sari ko‘i tuam manzil bud, Didaro ravshani az xoki darat hosil bud. Aning bu matlai yomon voqe’ bo‘lmaydurkim: Halli on nuktaki, bar piri xirad mushkil bud. Ozmudem, ba yak jur’ai may hosil bud. So‘ngi bayti budurkim: Guftam az madrasa, pursam sababi hurmati may, Dari har kaski, zadam bexudu loya’qil bud. Va mashhur mundoqdurkim, bu ab’yot Mavlono Hakim tabibning xotuni Mehriningdur. Va bu faqir siqqa eldin eshittimkim, Sulaymoniyningdur, vallohu a’lam!	*Bibi Mehriy* Gavharshod Begimning mulozamatida u bilan yaqin munosabatda bo‘lgan, Xoji Abdulaziz Hakimning ayoli, husn-u jamolda tengi yo‘q Bibi Mehriy Shohruh Mirzoning (1447) hukmronligi davrida yashab ijod etgan. Bu muxtasar tahrirga sabab bo‘lgan g‘azali va yaxshi baytlari bordir. Mashhur bo‘lgan bu matla’ shu jumladandir: Tuprog‘imdan hosil bo‘lgan har bir tikanning ildizidan Misvok yasalsa mast-u telba bo‘lar. Aytishlaricha, bir kuni bayramda Gavharshod Begimning jiyani Sulton Mas’ud Mehriyga ko‘zi tushib uni sevib qolgan. Mehriy Sulton Mas’ud bilan Hirot shahrida joylashgan Ixtiyoriddin qal’asidagi bog‘da o‘tirganlarida, o‘sha yerdan o‘tib ketayotgan Mehriyning turmush o‘rtog‘i Hakim Abdulazizni ko‘rib qoladilar, Sulton Mas’ud kulib uni Mehriyga ko‘rsatadi, u esa quyidagi baytni aytadi: کردم بر اوج برج، مه خویشتن طلوع هان ای حکیم, طالع مسعود من, نکر Ya’ni: Oy burji yuksakligida ko‘ringan edim, Ey Hakim, baxtli tole’imni ko‘rgil. Quyidagi keltiriladigan javobiya mutoyibali ruboiylar jumlasidandir: Mehriy Begim bilan suhbatlashib o‘tirganlarida, uzoqdan Hakim ketayotganini ko‘rib qoladilar. Begim uni tezroq yetib kelishi uchun yoniga odam

ISSN 3030-3273

yubordi. U keksaligi sabab, do‘q qildi va qadam tashlashga qiynalardi, shunda Begim Mehriyga yuzlanib biror narsa degin dedi, Hakim yetib kelgach Mehriy bu nazmni aytdi:

Menda sen bilan yorlik qilish mayli
Senda esa qarilik va zaiflik, kuch-quvvat qolmadi
Mehriyda vafodorlik, senda esa
oyoqni ko‘tarib bosishga mador qolmadi.

Mehriy fozila, xushchaqchaq qiz, sergak, go‘zal va zamonasining shirinsuxan ayollari qatorida bo‘lgan. Bir kuni bahor paytlarida Mehriy sayrga chiqdi va atrofga nazar solib o‘tirgan chog‘i, xirmon atrofida ishlayotgan bir keksa inson Mehriyga muhabbat nazari bilan tikilayotganini ko‘rdi. Mehriy uni chorlab ahvolini so‘radi, qariya esa, ey dilbarjamol, ne dey:

Onjo ke ayon ast che hojat bayon ast deydi, shunda Mehriy kulib unga ham ruboiy aytadi.

Bu voqeadan biz Mehriy haqiqatan ham go‘zal va hozirjavob ayol bo‘lgan deb xulosa qilishimiz mumkin.

Yo rab qanday suv va loydan yaralgandirman,
Barcha dilbarlar kabi istagim qanday loydandir.
Agar mening istagim qarilarnikidek bo‘lganida,
Notavon zaif qariligim qanday loydandir.

Hakim uchun aytgan bu ikki ruboiy ham unga oiddir:

Har safar tushimda ham istagimni bajarmassan,
Tunda sen bilan suhbatlashsam uyqu bermassan.
Men tashna labu, sen vaqtim huzuri desang,
Xudoning bahridan na bo‘ldiki, suv ham bermasang.
Ehtimol uyingda ham bo‘lmasam kerak,
Quvilgan yuragim ham ochilmasa kerak.
Mol-mulkdan hamma narsam bor dersan,
Ha! Hamma narsa bordir, ammo kerak narsa yo‘qdir.

Quyidagi ruboiy ham unikidir:

Agar qarining yosh ayoli bo‘lsang,
Qariligi sabab, hamisha dilgir bo‘lsa.
Ha! Go‘yo ayollar aytganidek,
Kishi oldida o‘q, qaridan yaxshiroqdir.

Yana go‘zal bir qissa berilgan. Bir kuni Mehriy bilan turmush o‘rtog‘i Hakim, Boysunqur Mirzoning nazmu-nasrga bag‘ishlangan majlisida o‘tirganlarida, majlis

 ISSN 3030-3273

	yakunida sharobxo‘rlik paytida, Hakim Boysunqur Mirzoga Mehriyning dastidan o‘lar bo‘lsam o‘lib bo‘ldim, hech ham uyda o‘tirmaydi deb nola qiladi! Mirzo hazillashib hozir uyga borganda uning oyoqlariga kunda qo‘y deb aytdi. Hakim majlisdan so‘ng uyga qaytgach mastlikda uning oyoqlariga kunda qo‘yadi. Mehriy erta sahardayoq uyg‘onib bu ruboiyni Mirzoga yuboradi: افسوس نه در کنده بخواهد سودن پای که دو شاخه بود, صد کردن را شه کنده نهاد سر و سیمین تن را زین واقعه, ماتم است مرد و زن را Ya’ni: Afsus na kunda qo‘yishni, Ikki shohlik oyoqni yuzga bo‘lishni bilar. Kundaga tanining vujudini qo‘ydi, Erkak-u ayolga bu voqea motam bo‘ldi. Mirzo o‘qib kulib yubordi. Har ikkisini chaqirtirib uzr so‘rab sarpo kiydirdi.
Bediliy Shayxzodayi Ansoriy — Shayx Abdulla Devonaning o‘g‘lidur. Kichik yoshidin tahsilg‘a yaxshi mashg‘uldur va muammo fanida ko‘p muloyimat andin zohir bo‘lur, ham ayturida va ham ocharidakim, ulug‘roq elga mahalli taajjubdur. Andoq zohir bo‘lurkim, volidasi ham xush tab’durur va «Bediliy» taxallus qilur. Go‘yo bu matla’ aningdurkim: Ravam ba bog‘u zi nargisi du dida vom kunam Ki, to nazorai on sarvi xush xirom kunam	Bediliy Shayx Abdulloh Devonaning haramidan bo‘lgan. Mavlono Shayx Abdulloh Hirot shahrining mashhur quvnoq kishilaridan edi va uning Men baxtsiz atrofingda har chand yugurdim. Yurakdagi ko‘z yosh-u ohdan boshqa hech narsa ko‘rmadim. matla’sini Amir Alisher “Tazkiratu-sh-shuaro” kitobida keltirgandir.
Munajjima Xoja Alouddin – Kirmon mulkidin. Xoja Afzaliddin Muhammadqa qarobatdur va Bibicha Munajjimaning inisidur. Zohirin ulumni takmil qilg‘ondin so‘ngra mayli darveshliqlarga g‘olib bo‘lub, Makka azimati qildi va o‘ttiz yilg‘a yaqindurkim, anda mujovir bo‘lub, suluk va toatqa, mashg‘uldur. Andoq ma’lum bo‘lurkim, bu sulukda biyik manzilat va yorug‘luqlarg‘a musharraf bo‘lubdur va oliy martabag‘a yetibdur. Ulvi himmatdin dunyo mofiyhog‘a etak silkib maqsud ka’basida munqaviy bo‘lubdur va hamuldarajadin moxalaqalloh balki mosivollohni mavhumi mahz, balki ma’dumi mutlaq bilib vusul harimida e’tikof qilibdur. Bu yaqinda silai rahim rioyati uchunki, adoi farz qilg‘ay, Xurosong‘a kelib erdi,	Bija Bija Munajjima o‘z davrining zarifa-yu orifalaridan edi. Ayniqsa yulduzlar sohasi ilmi-yu dunyoviy ilmlariga teng keladiganlari yo‘q edi, ko‘pgina bilimlarga ega va amir-u sultonlarga manzur bo‘lgandir. Aytishlaricha, u bilan hazrat Maxdum Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy o‘rtalarida o‘tkir fikrli mulozamatli hajviyalar bo‘lgan. Hazrat maxdumiy hammom qursalar, u ham hammom qurdirdi. Ular madrasa bino qilsalar, u ham madrasa bino qildirdi. Masjid qursalar, u ham masjid qurdi. Ulug‘larni namozga chorlasa, u ham taklif qildi. Ammo Mavlono Abdurahmon Jomiy kelmadi va sening masjidingda namoz o‘qimayman, chunki sening mehrobing namozga loyiq emas, deb qit’a aytdi. U buni eshitib hayajonlanib, ular nima buyuradilar: ular nima qurishsa men ham

 ISSN 3030-3273

necha vaqt hazrat Maxdumiy Nuran bila suhbati xushti. Ul jihatdin tavaqquf qildi. Chun ul hazrat baqo olamig‘a rihlat qildi, yana Makka azimati, asli maqomg‘a bordi. Borurda yo‘lda Shayx Nizomiy «Xamsa»sining avvalg‘i kitobi «Maxzanu-l-asror» vaznida bir masnaviy aytib yuborib erdi va ko‘p haqoyiq va maorif anda darj qilib erdi. Bu yaqinda Makkadin yana bir masnaviy ham tasavvuf istilohatida hadiqa vaznida aytib yuboribdurkim, aning ta’rifidin qalam tili qosirdur, ahli tahqiq o‘qug‘ondin so‘ng qoyilining kamolin ma’lum qilg‘aylar. Kitobi hamdining avvalg‘i bayti budurkim: Ey, jahon yofta namud az tu, Bar adam tuhmati vujud az tu	qurdim, ularda bor fazilatlar menda ham bor, ular she’r aytishsa, men ham aytaman, ularda menda yo‘q nimalari bor deb so‘radi. Mullo, bizda unda yo‘q bir narsa bor deb aytdi. U ham bizda, unda yo‘q bir narsa bor, balki uni bizga ehtiyoji bordir, deb javob berdi. Bu gap Hazrat Maxdumiyga juda yoqdi va uning uyiga barcha ulug‘lar bilan to‘planib tashrif buyurishdi. Majlisda Bija Munajjimma astoydil xizmat qildi. Turmush o‘rtog‘ining vafotiga yozgan bu matla’ unikidir: Osmon munavvarligidan, baxt yulduzim undandir, Ko‘rgil! Bu zamondan ayrilig‘im yerdadir.

Ko‘rib turganimizdek, Navoiy ayollarni so‘z aro aytib o‘tgan, ammo Faxriy Navoiy uslubini davom ettirgan holda, ularga o‘zi eshitgan misollarni qo‘shib, izoh qoldirgan va barcha tazkiranavislar uchun poydevor qo‘ydi. Quyidagi tazkiralarni o‘rganish asnosida ushbu ayollar haqidagi ma’lumotlar Faxriy tazkirasida berilgani tarzda aynan takrorlanganini aniqladik:

2 - jadval. Mehriy, Bediliy va Munajjima

Mehriy	Bediliy	Bibicha Munajjima
"مجالس النفایس	"مجالس النفایس	"مجالس النفایس
”جواهر العجایب“	”جواهر العجایب“	”جواهر العجایب“
مشاهیر زنان ایرانی و پارسی گوی”	مشاهیر زنان ایرانی و پارسی گوی”	مشاهیر زنان ایرانی و پارسی گوی”
پرده نشینان سخنگوی"	پرده نشینان سخنگوی"	"ریاحین الشریعه
"تذکره الخواتین"	"تذکره الخواتین"	"صبح گلشن"
از رابعه تا پروین"	از رابعه تا پروین"	از رابعه تا پروین"
"خیرات حسن"	"خیرات حسن"	
"شمع انجمن	"شمع انجمن	
"روز روشن"	"عرفات العشقین"	
"مرآت الخیال"	"مرآت الخیال"	
"نقل مجلس"	"حدیقه عشرت"	
	"زنان سخنور"	

Faxriydan keyin Roziy, Taqi Koshiy, Taqiddin Avhadiy, Vali Dog‘istoniy, Sherxon Lo‘dhiy, Sayyid Ali Hasanxon, Said Muhammad Siddiq Bahodir va Latif Ali Ozar, Vojid Alilar forsiyda shoiralar haqida tazkira yozganlar. Bulardan Sherxon va Ozarlar o‘z tazkiralarining xotimasida ayollar (shoiralar) uchun alohida bob

 ISSN 3030-3273

kiritganlar. Ozar 8ta va Sherxon 15 shoiraning nomini zikr qilgan. Taqi Koshiy va Taqiddin Avhadiylar o‘z tazkiralarida “Javohiru-l-ajoyib”dan ko‘p foydalanganlar.

XULOSA

Alisher Navoiyning "مجالس النفايس" va Faxriy Hiraviyning “جواهر العجايب” tazkiralarini qiyoslash natijasida, Faxriy Hiraviy Alisher Navoiy uslubidan foydalangan holda, uning ijod maktabini davom ettirgani ko‘zga yaqqol tashlanadi. “جواهر العجايب” tazkirasi fors adabiyotida ayollarga bag‘ishlangan ilk tazkira sifatida, boshqa tazkiranavislar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilib kelgandir.

Faxriy Hiraviy “جواهر العجايب” tazkirasida, ayollar tomonidan yozilgan bahri qofiya (10), matla’ (24), qasida (2), ruboiy (11), g‘azal (9), nazm (1), qit’a (3), javobiya (21), baytlar (8) orqali ja’mi 90 she’riy parchalarni ilk bor o‘z tazkirasida keltirib, davr adabiyotining rivojiga yangilik sifatida kiritgan.

"Javohiru-l-ajoyib" va "Majolisu-n-nafois" asarlari o‘z davrining muhim adabiy va madaniy manbalari sifatida katta ahamiyatga ega. Ushbu asarlarning qiyosiy tadqiqi adabiyotshunoslik va tarixshunoslik sohasida muhim ilmiy ish hisoblanadi. "Majolisu-n-nafois" o‘z davrining adabiy muhitini yoritishda va o‘sha davr shoirlarining ijodiy faoliyatini keng jamoatchilikka tanitishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. "Javohiru-l-ajoyib" esa ayollarning hayotdagi tutgan o‘rni, tarixiy va madaniy merosini o‘rganishda qimmatli manba sifatida xizmat qiladi.

Navoiy va Faxriyning yondashuvlari har xil bo‘lsa-da, ularning asarlari hozirgi kunda ham ilmiy va adabiy jihatdan katta ahamiyatga ega.

MINNATDORCHILIK

Ayollarga bag‘ishlangan tazkiralarga muhabbat uyg‘otgan, hamda ushbu g‘oyani meros qoldirgan O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti, “El-yurt hurmati”, “Buyuk xizmatlari uchun” ordenlari va O‘zbekiston Qahramoni faxriy unvoni bilan mukofotlangan olima ustoz Suyima G‘aniyevaning yorqin xotiralariga bag‘ishlayman. Men shunday ulug‘ inson, sochlarining oqi o‘zlariga yarashib turadigan, mehribon, go‘zal va latofatli, O‘zbekiston Qahramoni bo‘lgan, professor Suyima G‘aniyevadan dars olganimdan faxrlanaman va o‘zimning ham talabalarimga alohida e’tirof bilan so‘zlab beraman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurahmon Jomiy. Nafohatu-l-uns. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, №1828, №1484 inventar raqamli qo‘lyozma nusxalari.
2. Ahmedov, B. (1981) Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni. – Toshkent.
3. Alieva, F. Tazkirat ul-xavotin va barrasii osori zanoni suxanvari Mirzo Muhammad ibn Muhammad Rafe’. Tojikiston Milliy Universiteti kutubxonasi №1020.

4. Alizada, S. (1363/1985) “Литературная ценность “Латайиф-наме” Фахрии Хирави” Журнал “Хорасан”. № 19. Центр языка и литературы Академии наук Афганистана. – Кабул. – С. 59-70 (на языке дари)
5. Ализада, С. (Март, 1986) “Тухфат ул-Хабиб” Фахрии Хирави” Кабульский университет. Пятая научная конференция. – Кабул. – С. 45-48.
6. Ализада, С. (2007) “Джавахир ул-аджайиб” Фахрии Хирави” Гендерное равноправие. – Душанбе.
7. Ализада, С. (2007) “Жизн и творчество Фахрии Хирави” Журнал “Маърифати омузгор”. № 7, – Душанбе. – С. 27-31.
8. Ализада, С. (2009) “Фахри Хирави и его “Хафт кишвар” Вестник Таджикского националного университета (научный журнал). Серия филологии. № 4 (52). – Душанбе: Сино. – С. 93-98.
9. Alizoda, S. (2007) “Bounvoni suxanvar dar tazkirai “Javohiru-l-ajoyib”i Faxri Xiravi” Maqolalar to‘plami. – Dushanbe. – B. 31-37
10. Азимджанова, С. (1966) Индийский диван Бабура. – Тошкент: Фан.
11. Blochet T. (1905) Catalogue des manuscripts Persian de lo Bibliotheque Nationale. T. 1. – Paris. – 316 p.
12. Faxriy Hiraviy. “تحفة الحبيب”. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat sharqshunoslik institutida saqlanadigan №4596, №235, №1026 inventar raqamli qo‘lyozma nusxalar.
13. G‘anieva, S. (2000) “Navoiyga zamondosh shoiralar” O‘zbekiston madaniyati. – Toshkent.
14. G‘anieva, S. (2000) “Javohir ul ajoyib” - shoiralar haqidagi tazkira” Sharq mash’ali, № 2.
15. G‘aniyeva, S. (2000) Navoiy nasri nafosati. – Toshkent.
16. Habibullayev, A. (2000) Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. – Toshkent**.**
17. Mirzoyunus Matluba (2008) “Faxriy Hiraviy va Javohiru-l-ajoyib” Sadoi sharq jurnali № 6. – B. 102-124.
18. Rieu Ch. (1985) Catalogue of Persian Manuscripts of the British Museum. – London.
19. Sirojiddinov, Sh. (1997) XV-XVI asrlar tarixiy va tazkira-esdalik asarlarida Alisher Navoiy hayoti va faoliyati talqini. – Toshkent. – B. 73-80.
20. Toji Usmon. (1963) Shoira Mahasti. – Dushanbe. – 81 s.
21. احمد گلچین معانی، تاریخ تذکره های فارسی، ج ۲. ـ،تهران ۱۳۶۳ ش. ص۳۵۳-۳۵۷
22. احمد گلچین معانی، تحفة الحبیب.// حراسان. فن.ص. ۱۰.
23. سعید نفیسی. تاریخ نظم و نثر در ایران و در زبان فارسی تا پایان قرن دهم هجری. تهران.- ۱۳۴۴.ح. ۱. ص. ۲۲۸-۲۲۷
24. مجالس النفایس. تصحیح و منتشر علی اصغر حکمت. تهران.- ۱۳۲۳

 ISSN 3030-3273

REFERENCES:

1. Abdurahmon Jomiy. Nafohatu-l-uns. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, №1828, №1484 inventar raqamli qo‘lyozma nusxalari. (In Tajik)

2. Ahmedov, B. (1981) Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni. – Toshkent. (In Uzbek)

3. Alieva, F. Tazkirat ul-xavotin va barrasii osori zanoni suxanvari Mirzo Muhammad ibn Muhammad Rafe‘. Tojikiston Milliy Universiteti kutubxonasi №1020. (In Tajik)

4. Alizada, S. (1363/1985) “Literaturnaya sennost “Latayif-name” Faxrii Xiravi” Jurnal “Xorasan”. № 19. Sentr yazika i literaturi Akademii nauk Afganistana. – Kabul. - S. 59-70 (In Dariy)

5. Alizada, S. (Mart, 1986) “Tuxfat ul-Xabib” Faxrii Xiravi” Kabulskiy universitet. Pyataya nauchnaya konferensiya. – Kabul. – S. 45-48. (In Russian)

6. Alizada, S. (2007) “Djavaxir ul-adjayib” Faxrii Xiravi” Gendernoye ravnopraviye. – Dushanbe. (In Russian)

7. Alizada, S. (2007) “Jizn i tvorchestvo Faxrii Xiravi” Jurnal “Ma’rifati omuzgor”. № 7, – Dushanbe. – S. 27-31. (In Russian)

8. Alizada, S. (2009) “Faxri Xiravi i yego “Xaft kishvar” Vestnik Tadjikskogo natsionalnogo universiteta (nauchniy jurnal). Seriya filologii. № 4 (52). – Dushanbe: Sino. – S. 93-98. (In Russian)

9. Alizoda, S. (2007) “Bounvoni suxanvar dar tazkirai “Javohiru-l-ajoyib”i Faxri Xiravi” Maqolalar to‘plami. – Dushanbe. – B. 31-37 (In Tajik)

10. Azimdjanova, S. (1966) Indiyskiy divan Babura. – Toshkent: Fan. (In Russian)

11. Blochet T. (1905) Catalogue des manuscripts Persian de lo Bibliotheque Nationale. T. 1. – Paris. – 316 p.

12. Faxriy Hiraviy. “تحفة الحبيب” O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat sharqshunoslik institutida saqlanadigan №4596, №235, №1026 inventar raqamli qo‘lyozma nusxalar. (In Persian)

13. G‘anieva, S. (2000) “Navoiyga zamondosh shoiralar” O‘zbekiston madaniyati. – Toshkent. (In Uzbek)

14. G‘anieva, S. (2000) “Javohir ul ajoyib” - shoiralar haqidagi tazkira” Sharq mash‘ali, № 2. (In Uzbek)

15. G‘aniyeva, S. (2000) Navoiy nasri nafosati. – Toshkent. (In Uzbek)

16. Habibullayev, A. (2000) Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. – Toshkent. (In Uzbek)

17. Mirzoyunus Matluba (2008) “Faxriy Hiraviy va Javohiru-l-ajoyib” Sadoi sharq jurnali № 6. – B. 102-124. (In Uzbek)

 ISSN 3030-3273

18. Rieu Ch. (1985) Catalogue of Persian Manuscripts of the British Museum. – London.

19. Sirojiddinov, Sh. (1997) XV-XVI asrlar tarixiy va tazkira-esdalik asarlarida Alisher Navoiy hayoti va faoliyati talqini. – Toshkent. – B. 73-80. (In Uzbek)

20. Toji Usmon. (1963) Shoira Mahasti. – Dushanbe. – 81 b. (In Tajik)

21. احمد گلچین معانی، تاریخ تذکره های فارسی، ج ۲. -،تهران ۱۳۶۳ ش. ص۳۵۳-۳۵۷

22. احمد گلچین معانی، تحفة الحبیب.// حراسان. فن.ص. ۱۰.

23. سعید نفیسی. تاریخ نظم و نثر در ایران و در زبان فارسی تا پایان قرن دهم هجری. تهران.- ۱۳۴۴.ح. ۱. ص. ۲۲۸-۲۲۷

24. مجالس النفایس. تصحیح و منتشر علی اصغر حکمت. تهران.- ۱۳۲۳

 ISSN 3030-3273

O‘ZBEK TILIDA ASSOTSIATIV MAYDON VA UNING BIRLIKLARI TAHLILI

ANALYSIS OF THE ASSOCIATIVE SPACE AND ITS UNITS IN THE UZBEK LANGUAGE

АНАЛИЗ АССОЦИАТИВНОГО ПОЛЯ И ЕГО ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Axmedova Nargiza Shixnazarovna,
Oriental universiteti, Sharq tillari kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi
Tel.: +998 97 740-12-44
ashnargiza@gmail.com
ORCID: 0009-0000-4508-4381

Annotatsiya: Olamning lisoniy manzarasi tahlilida insonning tashqi olam haqidagi tasavvuri va uning tilda aks etishi masalasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Olamning tilda aks etishida assotsiativ tafakkurning o‘rni, til birliklarining assotsiativ aloqasi, shu aloqaga ko‘ra ma’lum guruhlarga birikuvi, gapni yoki matnni hosil qilishdagi o‘rni assotsiativ yondashuvning ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Tilni o‘rganishga assotsiativ yondashuv, assotsiativ tahlil metodlari til materiallarini uning egasidan alohida o‘rganishga yo‘l qo‘ymaydi. Assotsiativ tahlil asosida muayyan til egalarining voqelikni idrok etishi, kognitiv bilimi, lisoniy qobiliyati va xotirasi imkoniyatlari, leksik birliklari zaxirasi o‘rganiladi. Ushbu maqolada assotsiativ maydonning o‘zbek tilidagi tavsifi, unga oid ilmiy qarashlar, maydonning markaziy va chegara birliklari o‘rtasidagi munosabat, maydonning leksik, semantik va sintaktik xususiyatlari, assotsiativ birliklar o‘rganilgan. Tajriba asosida assotsiativ birliklar orqali sintaktik birikmalarning shakllanishi tahlil qilinadi. Mavzuni yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, statistik, assotsiativ tajriba metodlaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: assotsiativ tilshunoslik, assotsiativ tajriba, assotsiativ birliklar, assotsiativ maydon, assotsiativ munosabat, stimul so‘z.

Annotation: In the analysis of the linguistic landscape of the world, it is important to study the issue of a person's perception of the external world and its reflection in language. The role of associative thinking in the reflection of the world in language, the associative connection of linguistic units, their integration into certain groups according to this connection, their role in creating a sentence or text shows that the associative approach is of high importance. Associative approach to learning a language, methods of associative analysis do not allow learning language materials

 ISSN 3030-3273

separately from its user. On the basis of associative analysis, the perception of reality, cognitive knowledge, linguistic ability, linguistic memory, and reserve of lexical units of the speakers of a certain language are studied. In this article, the description of the associative space in Uzbek language, scientific views on it, the relationship between the central and peripheral units of the space, lexical, semantic and syntactic features of the field, and associative units are studied. Based on experience, the formation of syntactic compounds through associative units is analyzed. Description, classification, comparison, statistical, and associative experimental methods were used to clarify the topic.

Key words: associative linguistics, associative experience, associative units, associative space, associative relation, stimulus word.

Аннотация: При анализе языкового ландшафта мира важно изучить вопрос восприятия человеком внешнего мира и его отражения в языке. Роль ассоциативного мышления в отражении мира в языке, ассоциативная связь языковых единиц, их объединение в определенные группы по этой связи, их роль в создании предложения или текста показывает, что ассоциативный подход имеет большое значение. Ассоциативный подход к изучению языка, методы ассоциативного анализа не позволяют изучать языковой материал отдельно от его владельца. На основе ассоциативного анализа изучаются восприятие действительности, когнитивные знания, языковые способности, языковая память, резерв лексических единиц носителей определенного языка. В данной статье изучены описание ассоциативного поля в узбекском языке, научные взгляды на него, соотношение между центральными и периферийными единицами поля, лексические, семантические и синтаксические особенности поля, а также ассоциативные единицы. На основе опыта анализируется образование синтаксических соединений посредством ассоциативных единиц.

Для прояснения темы использовались описание, классификация, сравнение, статистические и ассоциативные экспериментальные методы.

Ключевые слова: ассоциативная лингвистика, ассоциативный опыт, ассоциативные единицы, ассоциативное поле, ассоциативное отношение, слово-стимул.

KIRISH

Assotsiatsiya tamoyili barcha psixik jarayonlar, jumladan psixik faoliyat oliy shakllarining universaliyasi hisoblanadi. Bunda assotsiatsiya (lotincha association – bog‘lanish) termini ostida ikki va undan ortiq refleks holda namoyon bo‘ladigan psixik hodisalar (his etish, idrok etish, tasavvur, fikr, obraz va shu kabilar) o‘rtasidagi aloqa tushuniladi. Assotsiatsiya bir a’zoning ma’lum sharoitda aktuallashuvi orqasidan boshqasining namoyon bo‘lishiga olib keladi.

 ISSN 3030-3273

Assotsiativ tajriba materiallaridan kelib chiqib ish ko‘radigan assotsiativ tilshunoslik asosiy hollarda til, uning birliklarini sof holda o‘rganadi. Boshqacha aytganda, bu yo‘nalishda tilning nutqiy qo‘llanishgacha bo‘lgan tabiiy holati tahlil etiladi. Haqiqatan ham, har bir shaxsda so‘z boyligi oshgan sari so‘zlar shaxs ongida ma’lum bir mazmuniy guruhlarga birlashadi. Stimul so‘zga mazmuniy, ba’zan shakliy aloqadorligi mavjud bo‘lgan so‘zlar – assotsiatlar yuzaga keladi. Bunday guruhlar tilshunoslikda assotsiativ maydon deb yuritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Assotsiativ tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri assotsiativ maydon hisoblanadi. Dunyo tilshunosligida maydon termini XIX asrdan boshlab qo‘llana boshlangan. Bu termin mohiyatan bir-biridan farqlanuvchi funksional-semantik maydon, sintagmatik maydon, epidigmatik maydon, assotsiativ maydon kabilarga nisbatan qo‘llanmoqda.

Assotsiativ tajribada turtki so‘zga javoban shaxs tasavvurlari, hayotiy tajribasi, bilimi, qarashlari, yashash va turmush tarzi bilan bog‘liq holda biri-birini esga soladigan, o‘zaro uyg‘unlashadigan so‘z, so‘z birikmasi, gaplar majmuyidan assotsiativ maydon yuzaga keladi. Assotsiativ maydon, uning yuzaga kelishi, o‘ziga xos xususiyatlari, rus tilshunosi Y.N. Karaulov, o‘zbek tilshunosi D. Lutfullayevalar tomonidan o‘rganilgan. Assotsiativ maydon – insonning nafaqat verbal xotirasi (bilimlari) fragmenti, balki tildagi semantik va grammatik munosabatlar, shuningdek, ongdagi obrazlar, motivlar va u yoki bu madaniyat vakillari bahosining fragmentidir.

Rus tilshunosi Y.N. Karaulov assotsiativ maydonga insonning nafaqat verbal xotirasi, bilimlari, balki tildagi semantik va grammatik munosabatlar, shuningdek, ongdagi obrazlar, motivlar va u yoki bu madaniyat vakillari bahosining yig‘indisidir, deb ta’rif beradi.

Tadqiqotchi V.P. Abramov assotsiativ maydonni bir butun mazmuniy aloqalarining murakkab to‘ri individ ongida aks etishini, ma’lum mazmuniy maydonlarning aktuallashtirilishini hamda so‘zni psixologik tizimning muhim aspekti sifatida ifodalaydi. (Abramov V., 2015)

Tilshunos D. Lutfullayeva fikriga ko‘ra “Assotsiativ maydon – struktur jihatdan leksikografik xususiyatga ega bo‘lgan, mohiyatan inson ongida aks etgan muayyan voqelik, uning hamrohlari obrazining verbal ifodasi, u haqdagi tasavvuri, bilimlarini namoyish etuvchi tilning o‘zaro assotsiativ bog‘langan semantik va grammatik munosabatdagi birliklari yig‘indisidir” (Lutfullayeva D., 2017: 46).

Anglashiladiki, assotsiativ maydon murakkab tuzilishga ega bo‘lgan, til egalarining olam haqidagi tasavvurlari asosida o‘zaro assotsiativ bog‘langan birliklar majmuyidir. Assotsiativ maydon ham individual, ham til egalari jamoasiga xos tasavvurlarni ifoda etuvchi turli sath birliklarining yig‘indisidir.

 ISSN 3030-3273

Assotsiativ tahlil muayyan turtki so‘z asosida aniqlangan assotsiativ tajriba ma’lumotlariga tayanadi. Assotsiativ tajriba natijasida turtki so‘zning assotsiativ maydoni shakllantirilib, u til birliklarining assotsiativ aloqasini aks ettiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Assotsiativ maydon birliklari til egalarining turtki so‘z bilan bog‘liq tasavvurlari, bilimi, hayotiy qarashlari, tajribasi, qiziqishlarini ifoda etadi. U turtki so‘zning mohiyatini ochib beruvchi butunlik vazifasini bajarib, til birliklarida davr o‘tishi bilan yuzaga kelgan ma’noviy o‘zgarishlarni ochib bera oladi. Ma’lumki, assotsiativ maydonda stimul so‘z vazifasini bajargan har bir birlikning semantik strukturasi, derivatsion, uslubiy xususiyatlari ochib beriladi. Assotsiativ maydon xususiyatlarini aniqlashda tavsiflash, tasniflash, assotsiativ tajriba usuli kabilardan foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Assotsiativ maydon o‘zgaruvchan xususiyatga ega bo‘lib, shaxsning ruhiyati, dunyoqarashi, qiziqishlari, olam haqidagi bilimlari bilan bog‘liq holda hayotiy tajribasi oshgan sari turtki so‘zga berilgan reaksiyalari turli xil bo‘lishi mumkin.

Assotsiativ maydon yakka shaxs yoki ko‘p sonli til egalari ustida assotsiativ tajriba o‘tkazish va olingan natijalarni umumlashtirish asosida ham hosil qilinadi. Yakka shaxsda o‘tkazilgan assotsiativ tajriba materiallari asosida individual assotsiativ maydon yuzaga keladi. Ammo ko‘p sonli sinaluvchilarda assotsiativ tajriba o‘tkazish orqali shakllantiriladigan assotsiativ maydon jamoaviy xarakterga ega bo‘ladi. (Tojiboyev B., 2020) O‘zbek tilshunosligida assotsiativ maydon va u haqdagi qarashlar bilan D. Lutfullayeva, N. Hoshimova, B. Tojiboyev, H. Ortiqova kabi tilshunoslar ishlari orqali tanishish mumkin.

Assotsiativ maydon til vakillari orasida o‘tkaziladigan assotsiativ tajriba asosida shakllantiriladi. Bunda til vakillariga turtki so‘z beriladi, shu bo‘yicha xotirasiga kelgan birinchi so‘z yoki so‘z birikmasi, gap yozib olinadi, keyin barcha natijalar jamlanib assotsiativ maydon shakllantiriladi.

Assotsiativ maydon so‘zlarning assotsiativ ma’nosini tekshirishda, tilning leksik tarkibi, undagi o‘zgarishlarni aniqlashda, leksik birliklarning o‘zaro paradigmatik, sintagmatik aloqasini kuzatishda muhim ahamiyatga ega. Assotsiativ maydondan turtki so‘zning sinonimlari, antonimlari, paronimlari, uyadoshlari, o‘zakdoshlari, ko‘chma ma’nolari, u bilan makon va zamonda bog‘lanishga ega bo‘lgan birliklar, so‘z birikmalari, gaplar, maqol va matallar ham o‘rin oladi.

Biz quyida ko‘p ma’noli so‘z bo‘lgan bosh so‘zi asosida hosil bo‘lgan assotsiativ maydon birliklarini tahlil qilamiz.

Bosh – tananing bo‘yindan yuqoridagi qismi, kalla, asosiy a’zo, odam, inson, hayvon, odamning kompyuteri, odamning o‘ylaydigan a’zosi, oyoq, yuz, jag‘, ko‘z, quloq, burun, qosh, soch, bo‘yin, yelka, tana, gavda, peshona, bosh kiyim, shapka,

 ISSN 3030-3273

do‘ppi, qalpoq, ro‘mol, salla, rahbar, lider, bosh vazir, bosh vrach, asosiy, bosh harf, bosh barmoq, so‘ngi, oxiri, aqlli, aqlsiz, ahmoq, aqlga to‘la, dumaloq, uzunchoq, qiyshiq, katta, kichik, eng muhim, bosh farzand, bosh kelin, miya, aql-hush, fikr, zehn, oltin bosh, boshliq, boshlamoq, boshlovchi, boshpana, o‘ylamoq, ishlatmoq, boshli, boshsiz chavandoz, boshlang‘ich, boshi og‘rimoq, bosh og‘rig‘i, boshi aylanmoq, boshini tik tutmoq, boshga tushmoq, boshdan kechirmoq, boshidan o‘tkazmoq, boshiga solmoq, yuvmoq, shampun, bosh og‘ritmoq, boshi o‘nta, bosh qotirmoq, ikki bosh qo‘y, ko‘chaning bu boshi, oila boshi, davraning boshi, ishning boshi, yurtboshi, boshi berk ko‘cha, “boshi-keti yo‘q”, bir bosh uzum, bir bosh karam, bir yostiqqa bosh qo‘ymoq, bir yoqadan bosh chiqarmoq, biror ishning boshini ushlamoq, boshiga yetmoq, boshga bitgan balo, boshida tayoq sinmoq, boshi osmonga yetmoq, “Baliq boshidan sasiydi”, “Odam ko‘rki - bosh”, “Boshing toshdan bo‘lsin”, “Boshing omon bo‘lsin”, boshini aylantirmoq, boshini yemoq, boshini ikkita qilmoq, boshini silamoq, boshini qovushtirmoq, boshi ochiq, boshi qorong‘i, boshi qotmoq, bosh ko‘tarib yurmoq, bosh ko‘tarmoq, bosh olib ketmoq, boshi oqqan tomonga ketmoq, meningit, boshiga urmoq, boshiga kiymoq, boshiga ro‘mol o‘ramoq, bosh ustiga, bosh egmoq, bosh qashimoq, bosh qo‘shmoq “Ishi boshidan oshib yotibdi” oyog‘iga bosh urmoq, “Do‘st boshga boqar, dushman oyoqqa”, “Boshga tushganni ko‘z ko‘rar”, “Tog‘ning ko‘rki tosh bilan, odam ko‘rki bosh bilan” “Yaxshi yigit – davraning boshi”, “Yomonga bosh bo‘lguncha, yaxshiga yo‘ldosh bo‘l”, “Bir boshga bir o‘lim”, “To‘yning boshi – boshlanguncha”, “Er boshiga ish tushsa”.

Bosh so‘zi bilan zanjir sifatida bog‘langan birliklar assotsiativ maydonni hosil qilmoqda. Rus tilshunosi Y.N. Karaulovning fikricha, tilda mazmun jihatdan alohida, ya’ni ayri (avtonom) holdagi leksema bo‘lishi mumkin emas. Tildagi har bir leksema mazmunan bir-biri bilan bevosita bog‘lanmasa-da, leksemalar bir-biriga moslanib shunday zanjir hosil qilishi mumkinki, bunday zanjir ikkita turli ma’noli va mazmun tomondan bir-biridan uzoq bo‘lgan leksemalarni bir-biri bilan bog‘laydi. Bunda dastlabki element o‘rtasida olti qadamdan ko‘p bo‘lmagan zanjir paydo bo‘ladi: (Karaulov Y., 1976: 76).

I. Assotsiativ maydonda bosh leksemasi quyidagi birliklar bilan paradigmatik munosabatga kirishadi:

1) sinonimik munosabat: kalla, odamning kompyuteri;

2) qarama-qarshi ma’no ifodalashi:

a) antonimik munosabat: bosh-oyoq, boshi-so‘ngi, boshi-oxiri, katta, kichik;

b) enantiosemik munosabat: maydondan o‘rin olgan ko‘chaning boshi enantiosemik birligi ham ko‘chaning boshlang‘ich nuqtasiga, ham tugash nuqtasiga nisbatan qo‘llanadi;

c) ko‘chma ma’nolari bilan munosabatga kirishadi: rahbar, lider, bosh vazir, bosh vrach, asosiy; aql-hush, fikr, zehn;

 ISSN 3030-3273

2) uyadoshlik munosabati: maydondan bosh so‘zi bilan bir uyaga mansub qo‘l, yelka, oyoq so‘zlari ham o‘rin olgan;

3) tur-jins munosabati: inson a’zosi;

4) qism-butun munosabati: bosh – soch, peshona, yuz, ko‘z, quloq, og‘iz; bosh – odam, bosh – hayvon.

II. Assotsiativ maydon birliklarining grammatik-struktur belgilari:

Bosh leksemasi assotsiativ maydonda turtki so‘z + assotsiativ birlik munosabatida quyidagi aloqa-bog‘lanish turlari kuzatiladi:

Tobe aloqa usullari:

a) boshqaruv usuli. Boshqaruv usuli bosh turtki so‘zi bilan assotsiativ bog‘langan tutmoq, qashimoq javob reaksiyasining o‘zaro sintagmatik munosabatida kuzatiladi: boshini tik tutmoq, bosh qashimoq;

b) moslashuv usuli: ko‘chaning bu boshi, oila boshi, davraning boshi, ishning boshi, odamning kompyuteri;

c) bitishuv usulida: boshsiz chavandoz, bosh harf, bosh barmoq, bosh vazir, bosh vrach, asosiy a’zo.

Assotsiativ maydonda struktur jihatdan quyidagi tuzilishli birliklar o‘rin olgan:

- Sodda so‘z shaklidagi assotsiatsiyalar: kalla, odam, inson, hayvon oyoq, yuz, jag‘, ko‘z, quloq, burun, qosh, soch, bo‘yin, yelka, tana, gavda, peshona kabilar;
- Qo‘shma so‘z shaklidagi assotsiatsiyalar: boshpana, bosh og‘rig‘i kabilar;
- Birikma shaklidagi assotsiatsiyalar: tananing bo‘yindan yuqoridagi qismi, odamning o‘ylaydigan a’zosi kabilar;
- Turg‘un birlik (ibora) shaklidagi assotsiatsiyalar: boshi aylanmoq, boshga tushmoq, boshdan kechirmoq, boshidan o‘tkazmoq, boshiga solmoq, boshi o‘nta, bosh qotirmoq, biror ishning boshini ushlamoq, boshga bitgan balo, boshida tayoq sinmoq, boshi osmonga yetmoq, boshini yemoq, boshini ikkita qilmoq, boshini silamoq, boshini qovushtirmoq, boshi ochiq, boshi qorong‘i, boshi qotmoq, bosh olib ketmoq, boshi oqqan tomonga ketmoq va boshqalar.
- Maqol va matallar: “Do‘st boshga boqar, dushman oyoqqa”, “Boshga tushganni ko‘z ko‘rar”, “Tog‘ning ko‘rki tosh bilan, odam ko‘rki bosh bilan” “Yaxshi yigit – davraning boshi”, “Yomonga bosh bo‘lguncha, yaxshiga yo‘ldosh bo‘l”, “Bir boshga bir o‘lim”, “To‘yning boshi – boshlanguncha”, “Er boshiga ish tushsa”.

III. Assotsiativ maydon birliklarining derivatsion xususiyatlari. Assotsiativ maydonda bosh leksemasi asosida yasalgan quyidagi birliklar uchradi: boshliq, boshlamoq, boshlovchi, boshli, boshsiz.

IV. Assotsiativ maydon birliklarining pragmatik xususiyatlari. Assotsiativ maydonda o‘ziga xos konnotativ birliklar o‘rin olgan bo‘lib, ularning ayrimlari bosh

 ISSN 3030-3273

leksemasi bilan bevosita bog‘liq: odamning kompyuteri. Ushbu birlik ko‘chma ma’noda konnotatsiya ifodalashga xizmat qilgan.

Bosh leksemasining assotsiativ maydonidan o‘rin olgan bir yostiqqa bosh qo‘ymoq, boshini ikkita qilmoq, boshini qovushtirmoq, boshi ochiq kabi birliklar milliy-madaniy xususiyatga egaligi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. “Boshing toshdan bo‘lsin”, “Boshing omon bo‘lsin” birliklari esa o‘zbek millatiga xos tilak ma’nosini ifodalovchi birliklar hisoblanadi. Shuningdek, assotsiativ maydonda so‘zning izohli lug‘atlarda aks etmagan assotsiativ ma’nosi, madaniy semasi, shevalarga xos ma’no qirralari ham o‘z ifodasini topadi. (Tojiboyev B., 2020)

MUHOKAMA

Yuqoridagi tahlillardan ma’lumki, bosh so‘zi ko‘p ma’noli so‘z bo‘lganligi sababli til vakillariga turtki so‘z sifatida berilganda bu so‘zning nafaqat bosh ma’nosi, balki ko‘chma ma’nosi bilan bog‘liq bo‘lgan assotsiativ birliklar ham eslangan va maydondan o‘rin olgan. Maydonda nafaqat ma’no jihatdan, balki shakl jihatdan bir-birini taqozo qilgan so‘zlar ham o‘rin olganligini ko‘rish mumkin.

Demak, bosh leksemasi assotsiativ maydonida maydonga mansub birliklar sinonimik, antonimik, enantiosemik, antisemik, omonimik, uyadoshlik, tur-jins va darajalilik asosida paradigmatik munosabatga kirishadi. Assotsiativ maydonni grammatik-struktur belgilari, derivatsion va pragmatik xususiyatlari asosida o‘zaro bir tizimga uyushadigan birliklar tashkil etadi.

XULOSA

Leksemaning assotsiativ ma’nosi leksik ma’no kabi so‘z orqali reallashadi. Biroq leksik ma’no leksemada o‘z ifodasini topsa, assotsiativ ma’no til egalari lisoniy ongida muayyan leksik birlik bilan bog‘liq tarzda shakllanadi. Assotsiativ ma’no leksemaning nafaqat semantik jihati, grammatik shakli, intonatsion xususiyati, so‘z yasalish strukturasi, uslubiy, dialektal belgisi kabi lingvistik omillar, balki ekstralingvistik omillar asosida ham hosil bo‘ladi (Русский ассоциативный словарь. 2-т., 2002: 26).

Demak, bosh turtki so‘zining assotsiativ maydoni bir nechta sath birliklari yordamida voqelanadi. Leksik birliklar mavzu jihatdan turli xil ekanligi bilan boshqalaridan farqlanadi. Maydondan o‘rin olgan sintaktik birliklar, maqollar o‘zbek xalqi muloqot jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodi, yozma adabiyot, og‘zaki so‘zlashuv uslubida milliy-madaniy xususiyatga ega bo‘lgan bunday birliklar faol ishlatilishi bilan xarakterlanadi.

Demak, turtki so‘z asosida aniqlangan assotsiativ maydonda maydonga mansub birliklar sinonimik, uyadoshlik, tur-jins asosida paradigmatik munosabatga kirishadi. Assotsiativ maydonni grammatik-struktur belgilari va pragmatik xususiyatlari asosida o‘zaro bir tizimga uyushadigan birliklar tashkil etadi.

ISSN 3030-3273

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Лутфуллаева, Д. (2017) Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: “Meriyus”

2. Тожибоев, Б. (2020) Ўзбек тили миллий-маданий бирликларининг ассоциатив тадқиқи: филол.фан.бўйича (PhD) фалс.докт.дисс. автореферати. – Тошкент.

3. Нурмонов, А. (2012) Парадигма ва унинг оламнинг лисоний манзарасига муносабати. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент: “Akademnashr”

4. Лутфуллаева, Д., Давлатова, Р., Тожибоев, Б. (2019) Ўзбек тили ассоциатив луғати. – Тошкент.

5. Караулов, Ю.Н. (2010) Ассоциативная грамматика русского языка. Изд.2 – Москва: УРСС.

6. Русский ассоциативный словарь: В 2 т. Т. 1. От стимула к реакции: Ок. 7000 стимулов / Караулов Ю.Н., Черкасова Г.А., Уфимцева Н.В. и др. – Москва: ООО «Издательство Астрель»: ООО «Издательство АСТ», 2002. – 784 с.

7. Русский ассоциативный словарь. В 2 т. Т.2. От реакции к стимулу / Ю.Н.Караулов, Г.А.Черкасова, Н.В.Уфимцева, Ю.Н.Сорокин, Е.Ф.Тарасов. – Москва: ООО «Издательство Астрель». 2002. – 992 с.

8. Караулов, Ю.Н. (1999) Ассоциативный анализ: новый подход к интерпретации художественного текста. – Москва.

9. Хошимова, Н.А. (2018) Ўзбек тилида ассоциатив муносабатлар: Филол. фан. бўй. фалс. фан. докт. дисс. автореф. – Фарғона.

10. Ортиқова, Ҳ. (2022) Бадиий матннинг ассоциатив тадқиқи: филол.фан.бўйича (PhD) фалс.докт.дисс. – Тошкент.

11. Абрамов, В.П. «Теория ассоциативного поля» Лексикология, фразеология и лексикография русского языка: http://netref.ru/leksikologiya-frazeologiya-i-leksokigrafiya-russkogo-yazika-te.html

12. Караулов, Ю.Н. (1976) Общая и русская идеография. – Москва: Наука.

REFERENCES:

1. Lutfullayeva, D. (2017) Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Meriyus. (In Uzbek)

2. Tojiboyev, B. (2020) O‘zbek tili milliy-madaniy birliklarining assotsiativ tadqiqi: filol.fan.bo‘yicha (PhD) fals.dokt.diss. avtoreferati. – Toshkent. (In Uzbek)

3. Nurmonov, A. (2012) Paradigma va uning olamning lisoniy manzarasiga munosabati. Tanlangan asarlar. III jild. – Toshkent: Akademnashr. (In Uzbek)

4. Lutfullayeva, D., Davlatova, R., Tojiboyev, B. (2019) O‘zbek tili assotsiativ lug‘ati. – Toshkent. (In Uzbek)

 ISSN 3030-3273

5. Karaulov, Y.N. (2010) Assotsiativnaya grammatika russkogo yazika. Izd.2 – Moskva: URSS. (In Russian)

6. Russkiy assotsiativniy slovar: V 2 t. T. 1. Ot stimula k reaksii: Ok. 7000 stimulov / Karaulov Y.N., Cherkasova G.A., Ufimseva N.V. i dr. – Moskva: OOO «Izdatelstvo Astrel»: OOO «Izdatelstvo AST», 2002. - 784 s. (In Russian)

7. Russkiy assotsiativniy slovar. V 2 t. T.2. Ot reaksii k stimulu / Y.N.Karaulov, G.A.Cherkasova, N.V.Ufimseva, Y.N.Sorokin, Y.F.Tarasov. – Moskva: OOO «Izdatelstvo Astrel». 2002. – 992 s. (In Russian)

8. Karaulov, Y.N. (1999) Assotsiativniy analiz: noviy podxod k interpretatsii xudojestvennogo teksta. – Moskva. (In Russian)

9. Xoshimova, N.A. (2018) O‘zbek tilida assotsiativ munosabatlar: Filol. fan. bo‘y. fals. fan. dokt. diss. avtoref. – Farg‘ona. (In Uzbek)

10. Ortiqova, H. (2022) Badiiy matnning assotsiativ tadqiqi: filol.fan.bo‘yicha (PhD) fals.dokt.diss. – Toshkent. (In Uzbek)

11. Abramov, V.P. “Teoriya assotsiativnogo polya” Leksikologiya, frazeologiya i leksikografiya russkogo yazika: http://netref.ru/leksikologiya-frazeologiya-i-leksokigrafiya-russkogo-yazika-te.html (In Russian)

12. Karaulov, Y.N. (1976) Obshaya i russkaya ideografiya. – Moskva: Nauka. (In Russian)

 ISSN 3030-3273

ARAB TILSHUNOS OLIMLARINING “LAFZIY TA’KID” TUSHUNCHASI HAQIDAGI QARASHLARI

VIEWS OF ARAB SCIENTISTS ON THE CONCEPT OF “FORMAL EMPHASIS”

ВЗГЛЯДЫ АРАБСКИХ УЧЕНЫХ НА ПОНЯТИЕ “ФОРМАЛЬНОЕ УДАРЕНИЕ”

Mullasodiqova Nigora Miromonovna,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Arab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrasi dotsenti v.b., PhD
Tel: +998 90 990-21-17
ngrm@mail.ru

Annotatsiya: Tilning nozik xususiyatlarini bilish nutqning ta’sirchanligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Arab tilida tinglovchining holatiga qarab gap turlari uchga taqsimlanadi. Mazkur gap turlaridan kutiladigan natija ham turlicha deb hisoblanadi. Odatda so‘zlovchi tinglovchining holatidan kelib chiqib, gap qo‘llaydigan gap turini ajratadi. Tinglovchini o‘z gapiga ishontirishni maqsad qilgan so‘zlovchi gap mazmunini kuchaytirish yo‘llarini bilishi lozim. Tinglovchining qanday holatda ekaniga qarab gapda nechta ta’kid vositasi qo‘llash mumkinligi aniqlanadi. Bu vositalar arab tilida 50 turdan ortiq deb hisoblanadi. Ulardan biri kuchaytiruvchi ta’kid deb hisoblanadi. Mazkur maqolada ta’kid tushunchasi, uning turlari, qo‘llashdagi alohida xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birga, arab tilida kuchaytiruvchi ta’kid tushunchasi va uning qo‘llanishiga oid mulohazalarni keltiramiz. Klassik davr olimlarining mazkur masaladagi fikr-mulohazalarini asosan Qur’on oyatlari asosida tushuntiramiz.

Kalit so‘zlar: *so‘zlovchining maqsadi, tinglovchining holati, ta’kid, lafziy ta’kid*

Annotation: Knowledge of the subtle features of the language plays an important role in improving the efficiency of speech. There are three types of sentences in Arabic, depending on the situation of the listener. The expected results from these types of offers are also considered to be different. Usually the speaker distinguishes the type of speech he uses based on the situation of the listener. A speaker who seeks to convince the listener in his speech must know how to enhance the content of speech. Depending on the situation of the listener, it is determined how many means of assertion can be used in a sentence. There are more than 50 types of them in Arabic. One of them is considered to be an amplifying application. In this article, the concept of amplification and its types, as well as the features in its use are reflected. At the same time, the

 ISSN 3030-3273

concept of amplification and its application in Arabic are commented. We explain the opinions of classical scholars on this issue mainly on the basis of Qur'anic verses.

Keywords: speaker's goal, listener's position, assertion, amplification meaning, amplifying applications.

Аннотация: Знание тонких особенностей языка играет важную роль в повышении эффективности речи. В арабском языке есть три типа предложений, в зависимости от ситуации слушателя. Ожидаемые результаты от этих типов предложений также считаются разными. Обычно говорящий различает тип речи, которую он использует, исходя из ситуации слушателя. Оратор, стремящийся убедить слушателя в своей речи, должен знать, как улучшить содержание речи. В зависимости от ситуации слушателя определяется, сколько средств утверждения можно использовать в предложении. В арабском языке их более 50 видов. Одним из них считается усиливающее приложение. В данной статье отражено понятие усиления и его виды, а также особенности его использования. При этом комментируется понятие амплификации и его применение в арабском языке. Мнения ученых-классиков по этому вопросу мы объясняем преимущественно на основе аятов Корана.

Ключевые слова: цель говорящего, положение слушающего, утверждение, усиления значение, усилительные приложения.

KIRISH

Nutq ta’sirli bo‘lishi uchun so‘z haqiqiy qudratga ega bo‘lishi kerak. Har qanday so‘z insonga ta’sir qilishi uchun eng avval so‘zlovchi ishonch bilan so‘zlashi, tinglovchi uchun zarur gapni topa bilishi shart deb hisoblanadi. So‘zlovchining nutqi tinglovchida biror shubha uyg‘onishiga sabab bo‘lsa, uni gapga ishontirish zarurati yuzaga keladi. Odatda so‘zlovchi o‘z gapining rostligini isbotlash uchun ma’lum so‘zlar yoki ohangdan foydalanadi. O‘zbek tilshunosligida ma’no kuchaytirish ko‘pincha ohang orqali ifodalanadi, shu bilan bir qatorda maxsus so‘zlar vositasida ham aks etadi. Arab tilshunosligida esa tinglovchini gapga ishontirishda so‘zlar juda muhim omil deb qaraladi. Ma’noni kuchaytirish ta’kid vositalaridan foydalanib amalga oshirilishi mumkin. Gaplarni ta’kidlash mavzusi o‘zbek tilshunosligida maxsus mavzu sifatida o‘rganilmaydi, ammo ba’zan kuchaytirish, ba’zan alohida ajratib ko‘rsatish va tasdiqlash kabi tasdiq va modal so‘zlar doirasida morfologiya sohasida muhokama qilinadi.

“Ta’kid”, “ta’kidlash” so‘zlari o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha keltiriladi:

- ✓ alohida uqtirish; qattiq tayinlab aytilgan so‘z, gap.
- ✓ uqtirish, qayd etish yoki tasdiqlash: qayd, tasdiq (E. Begmatov va boshqa mualliflar, 2020)

 ISSN 3030-3273

Demak, “ta’kid” o‘zbek tilida biror gap yoki voqeani tinglovchining xotirasidan ko‘tarilmaydigan darajada qattiq tayinlanishi yoki yaxshilab tushuntirish uchun uqtirilishiga qaratiladi. Arab tilida esa “ta’kid” so‘zi ikki xil o‘zakdan yasalishi va bir-biriga yaqin ma’no ifodalashi ko‘rsatiladi:

- و ك د o‘zagidan وَكَّد – يُوَكِّدُ – تَوْكِيدٌ
- أ ك د o‘zagidan أَكَّد – يُؤَكِّدُ – تَأْكِيدٌ shaklida yasaladi va har ikkisi ham ta’kid ma’nosini ifodalaydi.

Bu ikki termin bir ma’noni ifodalasa ham, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy mavzulardagi turli qaror va bitimlar tuzishga oid gaplarda odatda أَكَّد – يُؤَكِّدُ – تَأْكِيدٌ shakli qo‘llanadi, biror gap yoki qasamga ishontirish ma’nosida esa وَكَّد – يُوَكِّدُ – تَوْكِيدٌ shakli tanlanadi (الفيومي، 1990). Grammatikada shubha-gumonni tarqatish uchun mo‘ljallangan gap tarkibidagi omillarni ham تَوْكِيدٌ deb atash to‘g‘ri bo‘ladi (ابن المنظور, 1378). Grammatik termin sifatida esa biror narsani kuchaytirish kerak bo‘lganda ta’kid yoki tavkid so‘zi qo‘llanadi. (الرازي, 1990)

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

“Lafziy ta’kid” tushunchasi nahv ilmiga oid ko‘pgina adabiyotlarda tahlil qilinadi. Jumladan, ibn Manzur “ لسان العرب” asarida, Abu Bakr Roziy “مختار الصحاح” asarida, Ahmad Fayyumiy “المصباح المنير” asarida, Abdulqohir Jurjoniy “.التعريفات” asarida, Sulaymon Fayyod “النحو العصري” asarida, Abdulhodiy Fazliy “مختصر النحو” asarida, Abul Baqo Abdulloh Abkariy “اللباب في علل البناء والإعراب” asarida, Hasan Abbos “النحو الوافي” asarida ta’kid tushunchasiga ta’rif berganlar. Keltirilgan barcha ta’riflar lingvistik nuqtai nazardan yondashib yoritilgan va ta’kid nahv ilmida “tavobi’” – tobe bo‘laklar mavzusi doirasida o‘rganilishiga guvoh bo‘lamiz. Barcha adabiyotlarda ta’kidning “lafziy” va “ma’naviy” turlarga taqsimlanishi va ular tobe so‘zlar (التوابع) tarkibida aniqlovchi va izohlovchi mavzulari doirasida o‘rganilishiga va mazkur mavzu doirasida so‘zlarning kelishik o‘zgarishiga ta’siri masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Mazmundagi nozik jihatlarga esa alohida to‘xtalmagan. “التعريفات” va “المفصل” asarlari mualliflari Jurjoniy va Zamaxshariy esa masalaga stilistik jihatdan ham yondashib, ta’kid tinglovchining xabardan qay darajada xabardorligidan kelib chiqib qo‘llanishini ko‘rsatgan. Omidiy esa “الإحكام في أصول الأحكام” asarida fiqhiy nuqtai nazardan ta’kidning ahamiyatini ko‘rsatgan. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar orqali umuman “ta’kid” tushunchasi, xususan, uning klassifikatsiyasi, nutqga ta’siri kabi masalalar yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy izlanishlar jarayonida ta’kid tushunchasining yoritilishi, ta’kid turlari va yasalishi haqidagi ko‘p adabiyotlar bilan tanishib chiqildi. Natlib.uz, ketabpedia.com, noor-book.com kabi ilmiy ishlar bazalaridagi tegishli adabiyotlar izlab topildi.

ISSN 3030-3273

Mavzuni to‘laroq yoritish maqsadida qiyosiy-tarixiy tahlil**,** izchillik kabi metodlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur ishda arab nahvida “التوابع” mavzulari doirasida o‘rganiladigan lafziy ta’kid va uning ifodalanishidagi xilma-xillikni yoritib berish rejalangan. Shunga ko‘ra quyidagilar asosiy vazifa deb belgilanadi:

– ta’kid va tavkid tushunchalarini ajratish;

– lafziy ta’kidni hosil qilishga oid fikrlarni o‘rganish;

Ta’kid so‘zi "توكيد" shaklida Qur’oni Karimning “Nahl” surasi 91-oyatida bir marotaba keltirilgan:

وَلاَ تَنقُضُواْ الأَيْمَانَ بَعْدَ تَوْكِيدِهَا وَقَدْ جَعَلْتُمُ اللّهَ عَلَيْكُمْ كَفِيلاً. (س. النحل 91)

Allohni kafil qilib ichgan qasamlaringizni (Alloh nomi bilan) mustahkam qilganingizdan keyin buzmangiz!

Termin sifatida esa Jurjoniyning ta’rificha, bir so‘z bilan boshqa so‘zning ma’nosi kuchaytirilishi ko‘zda tutiladi (الجرجاني, 1996).

Ta’kid so‘zining ikki ma’nosi bor:

1. التقرير – aytilgan gapni tinglovchining xotirasiga mustahkam joylash
2. التأكيد – so‘z ma’nosini kuchaytirish

Sulaymon Fayod “Ta’kid gap mazmunini tinglovchi uchun tushunarli bo‘lishida ishlatiladigan tobe bo‘lak bo‘lib, o‘zi ta’kidlayotgan so‘zdan keyin uch kelishikdan birida qo‘llanadi”, deydi (فياض, 1995). Abdulhodiy Fadliy esa, ta’kid – so‘zni lafz yoki ma’no bilan takrorlashdir, deb ta’riflaydi (الفضلي, 1980). Zamaxshariyning fikricha, “Har qanday takror – taqrir, ya’ni kuchaytirishdir, har qanday taqrir esa ta’kiddir” deb baholagan.

Ta’kid klassik davr olimlari tomonidan ikki asosiy qismga taqsimlangan:

1. Umumiy
2. Xos

Umumiy tur balog‘iy maqsadlarni ko‘zda tutmaydigan, faqat sintaktik ma’nolar bilan bog‘liq deb qaralgan. Nahv ilmida u sinoiy atamasi bilan ham nomlangan. Xos tur esa bayon ilmlariga bog‘liq bo‘lib, istilohda ma’naviy yoki takrir atamalari bilan ham uchraydi. Xos ta’kid o‘z o‘rnida yana ikki turkumga ajratilgan:

1. Lafz va ma’no orqali ta’kidlash
2. Faqat ma’no orqali ta’kidlash

“Rahmon” surasida inson va jin mavzusining yoritilishi 31 o‘rinda فَبِأَيِّ آلَاء رَبِّكُمَا تُكَذِّبَانِ oyati lafz va ma’no jihatidan takrorlangan, deb hisoblanadi. Mazkur takrorlash uslubi orqali Allohning insonga bergan ne’mati yoki ne’mat yo‘liga yo‘naltirib qo‘ygani ta’kidlanadi. Xos ta’kidning ikkinchi ko‘rinishi bo‘lgan lafzsiz ma’no orqali ta’kidlash Qur’on oyatlarida juda ko‘p uchraydi. U ham o‘z navbatida ikki tur “mufid”

 ISSN 3030-3273

va “g‘ayru mufid” turlarga ajratilib, “mufid” turida ma’naviy ta’kid, “g‘ayru mufid” turida esa bir ma’noga dalolat qiluvchi ikki xil so‘z qo‘llanishi keltiriladi.

Ta’kid mavzusi arab tilida nahv, balog‘at va usulu-l-fiqh sohalari bilan bog‘lab o‘rganiladi.

Nahvshunos olimlar ta’kid masalasini o‘rganishga katta e’tibor qaratmagan. Ular lafziy va ma’naviy ta’kidni funksional ma’no jihatidan mos kelmaydigan yoki mazmun-mohiyati bog‘liq bo‘lmagan tobe so‘zlar (التوابع) tarkibida aniqlovchi, izohlovchi va bog‘lovchi kabi mavzularga qo‘shib, faqat kelishik o‘zgarishiga e’tibor qaratishgan, ammo mazmunan ta’kid vazifasini bajaruvchi boshqa omillarga alohida e’tibor qaratmaganlar, shuning uchun mavzuning o‘ziga xos xususiyatlari nahv ilmida to‘liq ochilmay qolgan. Demak, ta’kid nahvda lafziy va ma’naviy ta’kid deb, mustaqil ikki guruhga ajratilgan hamda ularning chegaralari belgilangan. Lafziy ta’kid so‘z va gaplarning, ma’naviy ta’kid esa ma’noning takrorlanishi bilan ifodalanadi, deb qaralgan. Ukbariy ta’kidning ishlatilishini tahlil qilar ekan, gap tarkibida “إنَّ” yuklamasining mavjudligi jumlani ikki marta takrorlab ta’kidlashga ehtiyoj qoldirmaydi, ya’ni yuklama vositasida jumla qisqartirilib ta’kidlanadi, deb hisoblaydi, agar bunday gapning xabariga lom yuklamasi qo‘shilsa, asl jumla go‘yo uch karra ta’kidlangan hukmda bo‘ladi, deydi (العكبري، 1995).

Balog‘at ilmida grammatik mavzular “علم المعاني” sohasida yoritiladi. Zamonaviy olimlar ma’oniy ilmi haqida “إن علماء المعاني هم النحاة الحقيقيون – ma’oniy ilmi olimlari haqiqiy nahvchilardir” deb, bu ilmni nahvning davomi – oliy nahv sifatida ta’riflaydilar (المهزومي, 1964). Ular nahvshunos olimlardan farqli ravishda gaplarning eng avvalo sharoit taqozosiga mos bo‘lishiga e’tibor qaratadi. Sharoit taqozosi esa so‘zlovchining maqsadi, tinglovchining holati hamda vaziyat bilan belgilangan.

Balog‘at ilmi olimlari lafz va ma’no masalasiga alohida e’tibor qaratib, ma’noni o‘zlarining yo‘qotgan narsalari deb hisoblaydilar va o‘z-o‘zidan ma’noga bog‘liq bo‘lgan ta’kid masalasiga ham alohida e’tibor beradilar. Ular voqe’likni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri aks ettiradigan har qanday gaplarni “xabariy” gaplar deydi (الهاشمي، 1999) . Xabariy gaplar tinglovchining holatiga ko‘ra uch turga taqsimlanadi, deydilar, ular quyidagilardir:

1. Ibtidoiy;
2. Talabiy;
3. Inkoriy.

Gaplarning bu tarzda taqsimlanishi tinglovchining gap mazmuniga qanday munosabatda ekani bilan belgilanadi. Tinglovchi uchun eshitayotgan gapi yangilik bo‘lib, uni boricha qabul qilsa bunday gap “ibtidoiy” deb ataladi. Agar aytiladigan gap tinglovchida ishonchsizlik uyg‘otsa, mazmunga shubha-gumon bilan qarasa, bu holatda tuziladigan gap uni ishontirishga va shubhalarini tarqatishga qaratiladi. Bunday

 ISSN 3030-3273

gap “talabiy” deb ataladi va uning tarkibida biror ta’kid vositasi qo‘llanishi shart deb hisoblanadi (الهاشمي، 1999), masalan:

إِنَّا إِلَيْكُم مُّرْسَلُونَ (س. يس، 14)

Haqiqatan, biz sizlarga (imonga da’vat qilish uchun yuborilgan) elchilarmiz.

Tinglovchi xabar topgan gapni butkul rad etishi kutiladigan vaziyatlarda so‘zlovchidan tinglovchini qanday bo‘lsa ham o‘z gapiga ishontirish talab qilinadi va u o‘z gapiga ishontirish uchun bir necha ta’kid vositalaridan foydalanishi zarur bo‘ladi. Bunday gap turini balog‘at ilmida “inkoriy” gap deyiladi, masalan:

إِنَّا إِلَيْكُمْ لَمُرْسَلُونَ (س. يس، 16)

Bizlar, albatta, sizlarga (yuborilgan) elchilardirmiz

Demak, balog‘at ilmida ta’kid mavzusi tinglovchining holatidan kelib chiqadi, nahv ilmidan farqli ravishda lafziy yoki ma’naviy deb ajratilmay o‘ndan ortiq mavzular doirasida tahlil qilinadi.

Usulu-l-fiqhda esa Qur’on oyatlari asosida hukm chiqarishga urg‘u beriladi. Buning uchun soha mutaxassislari oyatlarning asl ma’nosini his qilishlari, matnning lingvistik va nolingvistik qoidalarini hisobga olishlari zarur bo‘ladi. Usulchilarga Qur’on matni hukm uchun manba bo‘lsa, uning tili hukmning asl asosi bo‘lib qoladi. Ular “التأسيس أَوْلَى من التأكيد”, ya’ni hukmning asosi uni ta’kidlashdan ustundir deb hisoblaydilar. Bu masalada Omidiy ham “manfaatli bo‘lish nuqtai nazaridan hukm asosi ta’kiddan avvalgi o‘rinda turadi”(الآمدي، 1375ه) deydi. Ta’sis, usulchilar nazdida, yetkazilishi zarur bo‘lgan ma’noning lingvistik qoidalariga asos bo‘ladi, ammo tilshunoslar uchun ma’lum bo‘lmaydi. Ta’sis aslligi bilan ustunlik qilsa, ta’kid unga tobe deb qaraladi.

Olimlar fiqh asoslariga oid darslarni lingvistik masalalarga bog‘lab nahv darslari bilan birlashtirib olib boradilar. Ammo ma’lum masalalarni o‘rgatishda bu ikki darslar ajratib o‘tiladi. Ta’kid masalasi ham alohida olib boriladigan masalalardan biridir. Chunki uning qoidalari bir qarashda navh masalasi deb qaralsa-da, Qur’on matni mazmuni, oyatlarning tarkibi va mantig‘i jihatidan alohida o‘rganishni talab qiladi.

Usulda ta’kid mavzusi nahv ilmidagi kabi ikki mustaqil qism – lafziy va ma’naviy ta’kidga ajratiladi. Mazkur mavzu nahv va balog‘at olimlari yondashuviga o‘xshash bo‘lsa ham alohida fiqhiy yo‘nalishga ega. Ular ta’kidning lafz va shakliga alohida e’tibor qaratib, nahvda keltiriladigan ayrim fikr va masalalarga raddiya bildirdilar. Ba’zi masalalarini esa o‘z doira sohasida kengaytirdilar, bu o‘rinda ular mavzuni yaxlit ko‘rinishda tahlil qiladilar. Usulda ham ma’naviy ta’kid turlari kengroq yoritiladi.

Arab nahvida الصفة - aniqlovchi, البدل - izohlovchi, التوكيد - ta’kid, العطف – bog‘lovchi, عطف البيان - izohlovchi mavzulari “التوابع” – tobe so‘zlar turkumida o‘rganiladi. Ta’kid mazmunga ta’siri va xususiyatlaridan kelib chiqib ikki turga ajratiladi:

- التوكيد اللفظي – so‘zlar orqali ifodalanadigan ta’kid

 ISSN 3030-3273

❖ التوكيد المعنوي – ma’noning ta’kidlanishi

Ta’kidni yana “تكرار صريح” va “تكرار غير صريح” deb nomlashgan (الزمخشري, 1998)

Lafziy ta’kid klassik davr olimlarining fikricha, gap tarkibidagi so‘z yoki iboralarning ta’kidlash zarurati sababli takrorlanishidir. Lafziy ta’kid “gapdagi biror ism, fe’l yoki harf, shu bilan birga, ismiy yoki fe’liy jumlalarni tinglovchining diqqatini tortish maqsadida kuchaytirish yoki tinglashga majburlash va aytilgan gapni unutib qo‘ymaslik maqsadida takrorlanishidir” (الزمخشري, 1998). Lafziy ta’kidda quyidagi turlar takrorlanishi mumkin:

1. Ismning takrorlanib ta’kidlanishi: الله الله...
2. Fe’lning ta’kidlanishi: صمم صمم الشعب العربي على تحرير أرضه
3. Harfning ta’kidlanishi: نعم نعم سأحضر
4. Fe’liy jumlaning ta’kidlanishi: وَمَا أَدْرَاكَ مَا يَوْمُ الدِّينِ ثُمَّ مَا أَدْرَاكَ مَا يَوْمُ الدِّينِ (س. الانفطار، 17-18)

Jaloliddin Suyutiy “Biror so‘z izofa birikmasi yoki boshqa turdagi ibora, jumla yoki kalom bo‘lsa ham, aniq yo noaniq, zohir yoki yashiringan ism, fe’l yoki harf bo‘lishi bilan gap tarkibida takrorlanib qo‘llanishi, ba’zi hollarda esa hattoki uch marotabalab takrorlanishi, xuddi shu kabi tanlangan so‘zga sinonimlari qo‘shilib qo‘llanishi bilan lafziy ta’kid yuzaga keladi”, deydi (السيوطي، 1998).

كَلَّا إِذَا دُكَّتِ الْأَرْضُ دَكًّا دَكًّا وَجَاء رَبُّكَ وَالْمَلَكُ صَفًّا صَفًّا (س. الفجر 21-22)

Olimlar orasida mazkur ta’kid usulini mazmun va shaklda farq mavjud deb hisoblab, uni qo‘llash yuzasidan turli ixtiloflar yuzaga kelgan. Jumladan, nahv ilmi olimlari lafziy ta’kidning shakl tomoniga oid izlanishlarini qisqartirmadilar. Bu tadqiqotlar quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Ta’kidlanishi lozim bo‘lgan so‘zning o‘zi takrorlanishi:

كَلَّا إِذَا دُكَّتِ الْأَرْضُ دَكًّا دَكًّا

Ibn Molik mazkur ta’kid turida birikma olmoshini ta’kidlashda u o‘zi bilan bog‘lanib kelgan so‘z bilan birga takrorlanishi kerak, deb hisoblaydi. Mazkur fikrini isbotlash tariqasida quyidagi gapni tahlil qiladi:

أنا أبي أأكد أني أكرمتك أنت ، أبي أأكد أني أكرمتك أنت

Mazkur gapdagi أكرمتُك birikmasini alohida olsak, “seni hurmat qilaman” deb tarjima qilamiz. Fe’lga qo‘shilib kelgan birikma olmoshini ta’kidlash joiz bo‘lsa أكرمتُكَكَ deb bo‘lmaydi, ammo vaziyat mazkur olmoshni ta’kidlashni talab qilganda, uning shaxsi, soni va jinsiga teng bo‘lgan kishilik olmoshi qo‘shish zarur deb qaraladi. Natijada أكرمتك أنت deyish mumkin. Ammo ibn Molik lafziy ta’kidda ta’kidlanadigan so‘zning aynan o‘zi takrorlanishi lozim, deb hisoblagani uchun yuqoridagi ta’kid shart deb qaraladi. Chunki lafziy ta’kidda ta’kidlanishi lozim bo‘lgan so‘z takrorlanishi lozim, boshqa so‘z bilan birikib kelishi ta’kidning boshqa turi deb hisoblaydi va bu ta’kidni أكرمتك أكرمتك deyish to‘g‘ri bo‘ladi, deb hisoblaydi va fikrini “مررت بك” iborasidagi birikma olmoshi ta’kidlanishi zarur bo‘lsa albatta uning ko‘makchisi ham birga

 ISSN 3030-3273

qo‘llanishi kerak deb, uni “مررت بك بك” deyishni to‘g‘ri deb hisoblaydi. Bu talab barcha holatlar uchun bir xil, faqat gap takrorlanishida vaziyatga qarab yo‘l tutish mumkin, deydi (عقيل، 1990) .

2. Ta’kidlanishi lozim bo‘lgan so‘zning vazniga yoki mazmuni to‘ldirilishiga qaraladi. Mazmunni to‘ldirish uchun tanlanayotgan ikkinchi so‘z oxirgi harfi ta’kidlanayotgan so‘zning harflari bilan bir xil bo‘lishi lozim va ularning biri ajratilsa ma’no to‘liq bo‘lmay qoladi. Shunga ko‘ra bu tur o‘z doirasida yana uch turkumga taqsimlanadi:

1. Ikkinchi so‘z tushunarli ma’no ifodalab kelsa - هنيئا ومريئا iborasi tarkibidagi har ikki so‘z ishtaha ma’nosini ifodalaydi. مريئا so‘zining oxirgi ikki harfi va so‘z qolipi avvalgi so‘z bilan bir xil. Shuning uchun mavzu doirasida deb hisoblanadi.

2. Ma’nosi aniq ko‘rinmasa – mazkur turda ikkinchi so‘z asl so‘z bilan ma’nodosh bo‘lmasligi ham mumkin. Ammo so‘z qo‘shaloq ishlatilganida chiroyli bo‘lishi yoki mazmunan bir-biriga yaqinlashsa kuchaytirish uchun qo‘llanadi. Bu turga misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

عبس وبسر - chimirilib va sirli bo‘lib

حسن وبسن – Hasan va Basan

3. G‘ayrioddiy ma’no ifodalasa

حبيث ونبيث - chiqarib yubordi, ko‘rsatdi ma’nosida(ابن المنظور، 1378)

XULOSA VA TAKLIFLAR

Demak, lafziy ta’kid deyilganda gapdagi biror so‘zning qanday bo‘lak vazifasini bajarishidan qat’iy nazar takrorlanib qo‘llanishi ko‘zda tutiladi. Ya’ni, ta’kidlanayotgan bo‘lak ega, kesim yoki ikkinchi darajali bo‘lak bo‘lishi va takrorlash orqali lafziy ta’kid hosil qilishi mumkin. Masalan:

هذا عمر عمر – Bu Umar, Umar

رَأيت زيدا زيدا – Zaydni, Zaydni ko‘rdim.

مررت بعمرٍو بعمرٍو – Amrning, Amrning yonidan o‘tdim.

Yuqoridagi birinchi gapda xabar – kesim ta’kidlangan, ikkinchi va uchinchi gaplarda esa maf’ul – to‘ldiruvchilar ta’kidlanmoqda.

Odatda lafziy ta’kid butun jumlaga nisbatan ham qo‘llanilishi mumkin. Ta’kidlanayotgan so‘z ism yoki harf yoxud gap bo‘lsa bevosita ketma-ketlik bilan beriladi.

Masalan:

ismning ta’kidlanishi – علي علي لم يضحك

harfning ta’kidlanishi – لا ، لا أبوح بالسر

gapning ta’kidlanishi – جاء علي، جاء علي

Agar fe’l tarkibidagi yashirin ega ta’kidlansa u bevosita fe’ldan keyin kishilik olmoshini alohida ajratish bilan ifodalanadi. Masalan:

 ISSN 3030-3273

جِئْتَ أنتَ – Sen kelding

قُمنا نحن – biz turdik

يَا آدَمُ اسْكُنْ أَنتَ وَزَوْجُكَ الْجَنَّةَ (س. البقرة، 35) –

Ey Odam, Siz juftingiz bilan jannatni maskan tuting.

Fe’lni lafziy ta’kid yo‘li bilan ta’kidlashda qoidaga ko‘ra ketma-ket, shuningdek fe’liy jumla tarkibida boshqa gap bo‘laklaridan keyin joylash yo‘li bilan ham ifodalash mumkin. Masalan:

قام زيد قام – boshqa gap bo‘lagidan keyin qo‘yish orqali

قام قام زيد – fe’liy jumlada ketma-ket joylash orqali

زيد قام قام – ismiy jumlada ketma-ket joylash orqali

Fe’l mayllari ham yuqoridagi qonun-qoidaga bo‘ysunadi:

قُم قم – tur tur

اجلس اجلس – o‘tir o‘tir

ألا فاسْلَمِي ثمَّ اسلمي ثُمتَ اسلَمِي ثلاث تحياتٍ وإن لمْ تَكْلَمَي

Ta’kidni ifodalashda yana sinonimlardan ham foydalanish mumkin. Bu holatda ta’kidlanayotgan so‘z ma’nosiga teng sinonim tanlanadi. Masalan:

أتى جاء علي

“Ali keldi” deyilgan gapni eshitgan odam “balki boshqa odamdir” deb shubhalanishi mumkin, bu holatda tinglovchini xabarga nisbatan shubhasini yo‘qotib, ta’kidlanayotgan mazmunga to‘liq ishonchini hosil qilish va kuchaytirish uchun biror ta’kid vositasini ishlatish zarurati tug‘iladi, lafziy ta’kid shu ishonchni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, nahv ilmida lafziy ta’kid masalasida turli ixtiloflar mavjud. Bu ixtiloflarga lafziy ta’kidni hosil qilishdagi shakl va mazmunning mos bo‘lishi, shuningdek, noodatiy bo‘lishi mumkin degan yondashuvlar sabab bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бегматов Э. ва бошқа муаллифлар. (2020) *Ўзбек тилининг изоҳли луғати* (Т ҳарфи). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.

2. ابن المنظور .(1378) *لسان العرب*. (T. 3)بيروت: دار صادر.

3. الآمدي1375) .ه .(*الإحكام في أصول الأحكام* .بيروت.

4. الجرجاني, ع .(1996) *التعريفات*. .изд)دار الكتاب العربي .(بيروت: دار الكتاب العربي.

5. الرازي, م. ب .(1990) *مختار الصحاح*. .الجزائر: دار الهدى.

6. الزمخشري, م .(1998) *المفصل في علم العربية*. .بيروت: دار الجيل.

7. السيوطي, ج. ا . .(1998) *همع الهوامع في شرح جمع الجوامع* .(T. 3)بيروت: دار الكتب العلمية.

8. العكبري, أ. ع .(1995) *اللباب في علل البناء والإعراب*. .دمشق: دار الفكر.

9. الفضلي, ع. ا .(1980) *مختصر النحو*. .جدة: دار الشروق.

10. الفيومي, أ .(1990) *المصباح المنير*. .изд)دار لبنان .(بيروت: دار لبنان.

11. المهزومي, م .(1964) .بيروت: المكتبة العصرية.

 ISSN 3030-3273

12. الهاشمي, أ .(1999) .*جواهر البلاغة في المعاني والبيان والبديع* .القاهرة: المكتبة العصرية.
13. عقيل, ا .(1990) .*شرح ابن عقيل* .(T. 2)بيروت.
14. فياض, س .(1995) .*النحو العصري* .القاهرة: مركز الأهرام.

REFERENCES:

1. Begmatov E. va boshqa mualliflar. (2020) O‘zbek tilining izohli lug‘ati (T harfi). – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. (In Uzbek)
2. .ابن عقيل. شرح ابن عقيل. – بيروت. ج. 2. – ص. 214
3. ابن المنظور. لسان العرب. – بيروت: دار صادر، 1378. – ج. 3. – ص. 466
4. أبوالبقاء عبد الله بن الحسين العكبري. اللباب في علل البناء والإعراب. – دمشق: دار الفكر، 1995. – ص. 225
5. أحمد الفيومي. المصباح المنير. – بيروت: دار لبنان، 1990. – ص. 7.
6. الآمدي. الإحكام في أصول الأحكام. – بيروت: دار الكتب العلمية. 3-22.
7. المهزومي مهدي. في النحو العربي نقد وتوجيه. – بيروت: المكتبة العصرية، 1964. – ص. 29
8. جلال الدين السيوطي. همع الهوامع في شرح جمع الجوامع. – بيروت: دار الكتب العلمية، 1998. ج. 3. – ص. 143
9. سليمان فياض. النحو العصري. – القاهرة: مركز الأهرام، 1995. – ص. 165
10. عبدالقاهر الجرجاني. التعريفات. – بيروت: دار الكتاب العربي، 1996. – ص. 71
11. عبد الهادي الفضلي. مختصر النحو. – جدة: دار الشروق، 1980. – ص. 175
12. محمد بن أبي بكر الرازي. مختار الصحاح. – الجزائر: دار الهدى، 1990. – ص. 21
13. محمود الزمخشري. المفصل في علم العربية. – بيروت: دار الجيل

 ISSN 3030-3273

FLORA ANNA STEELNING BOBUR MIRZO HAQIDA YOZGAN “DARBADAR QIROL” ROMANI VA UNING TURK TILIGA TARJIMASI

THE NOVEL “KING ERRANT” BY FLORA ANNA STEEL ABOUT BABUR MIRZA AND ITS TURKISH TRANSLATION

РОМАН ФЛОРЫ АННЫ СТИЛ О БАБУРЕ МИРЗЕ “СТРАНСТВУЮЩИЙ КОРОЛЬ” И ЕГО ПЕРЕВОД НА ТУРЕЦКИЙ ЯЗЫК

Mamadjonov Sherzod Luqmonjon o‘g‘li
Oriental universiteti, G‘arb tillari kafedrasi o‘qituvchisi
Tel: +998 97 440-40-07
sherzodbek0513@gmail.com

Annotatsiya: Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda bir imperiyaga asos solgan buyuk va zabardast davlat arbobi va shoir. Uning hayoti haqida O‘zbekistonda, Hindistonda va boshqa dunyo davlatlarida bugungacha juda ko‘plab ilmiy va badiiy asarlar yozilgan va yozilishda davom etmoqda. Ushbu ilmiy ishimizda ham ingliz ijodkori tomonidan qalamga olingan Bobur hayoti aks ettirilgan bir badiiy asar tahlil qilingan. “Darbadar Qirol” deya tarjima qilinadigan ushbu romanning asl nomi “King-Errant”dir. Asar 1912-yili ingliz adibasi Flora Anna Steel tomonidan yozilgan. Flora Anna Steel Hindistonda yashab, hind millatining madaniyati, turmush tarzi, tarixi, xalq og‘zaki ijodidan bahramand bo‘lgan. Shundan so‘ng, o‘z vataniga qaytgan va to‘plagan bilimlarini badiiy asarlariga joylab olamga tanitgan. Shunday asarlardan biri “Darbadar qirol” bo‘lib, u “Boburnoma” asariga iqtibos tariqasida yozilgan. Asarda haqiqat va badiiylik mujassamlashgandir. Haqiqatdan yiroq bo‘lmagan, real hayotga asoslangan voqealar badiiylikni ta’minlash maqsadida kichik tafsilotlar va muallif xayoloti bilan bezalgandir. Asar yozilgandan ko‘p o‘tmay turkchaga eski yozuvda tarjima qilishga urinishlar boshlangan. Keyinchalik Ilhan Yildiz asarni hozirgi turk alifbosida to‘liq turkchaga tarjima qilgan. Lekin, afsuski, asar hali-hanuz o‘zbek kitobxonlariga notanish. Shuning uchun asar tahlilida asosan tavsif metodidan foydalanishga harakat qildik. Chunki ushbu ilmiy ishimizda asarni o‘zbek kitobxonlari va tarjimonlari va olimlariga tanitishni maqsad qilganmiz.

Kalit so‘zlar: *Flora Anna Steel, “King Errant”, “Darbadar Qirol”, Xolida Adib Adivar, Ilhan Yildiz.*

Annotation: Zahiriddin Muhammad Babur was a great statesman and poet who founded an empire in India. Many scientific and artistic works have been written and are still being written about his life in Uzbekistan, India and other countries of the

world. In this article, a work of art depicting Babur's life written by an English writer was analyzed. The original name of this work is "King-Errant", which is translated as "Darbadar qirol" in Uzbek. The work was written in 1912 by English writer Flora Anna Steel. Flora Anna Steel lived in India and enjoyed the culture, lifestyle, history, folklore of the Indian nation. After that, she returned to his homeland and presented her knowledge to the world in her artistic works. One of such works is "King-Errant", written as a quote from "Boburnoma". Truth and fiction are embodied in the work. Events based on real life, which are not far from reality, are embellished with small details and the author's imagination in order to provide artistry. Soon after the work was written, attempts were made to translate it into Turkish in the old script. Later, Ilhan Yildiz translated the work completely in the current alphabet into Turkish. But unfortunately, the work is still unknown to Uzbek readers. Therefore, we tried to use descriptive method in the analysis of the work. Because in this scientific work, we aim to introduce the work to Uzbek readers, translators and scientists.

Key words: Flora Annie Steel, "King Errant", "Darbadar Qirol", Khalida Adib Adivar, Ilhan Yildiz.

Аннотация: Захириддин Мухаммед Бабур был великим государственным деятелем и поэтом, основавшим империю в Индии. О его жизни в Узбекистане, Индии и других странах мира написано и продолжает писаться множество научных и художественных работ. В данной научной работе проанализировано произведение английского писателя, изображающего жизнь Бабура. Оригинальное название этого произведения – "Странствующий король", что переводится как "Darbadar Qirol" на узбекском. Произведение было написано в 1912 году английской писательницей Флорой Анной Стил. Флора Анна Стил жила в Индии и наслаждалась культурой, образом жизни, историей, фольклором индийской нации. После этого она вернулась на родину и представила миру свои знания в своих художественных произведениях. Одним из таких произведений является "Странствующий король", написанный как цитата из "Бобур-наме". В произведении воплощены правда и искусство. События, основанные на реальной жизни, недалеко от реальности, приукрашены мелкими деталями и фантазией автора с целью придания художественности. Вскоре после написания произведения были предприняты попытки перевести его на турецкий язык старой письменностью. Позже Ильхан Йылдыз перевел произведение полностью в нынешнем алфавите на турецкий язык. Но, к сожалению, произведение до сих пор неизвестно узбекскому читателю. Поэтому при анализе работы мы в основном старались использовать описательный метод. Потому что в этой научной работе мы стремимся познакомить с произведением узбекских читателей, переводчиков и ученых.

 ISSN 3030-3273

Ключевые слова: Флора Анна Стил, “Странствующий король”, “Дарбадар Кирол”, Халида Адиб Адивар, Ильхан Йылдыз.

KIRISH

Hindiston tarixi deganda, albatta, Zahiriddin Muhammad Boburni esga olmaslikning iloji yo‘q. Bobur bosib o‘tgan zalvorli hayot yo‘li bilan tarix zarvaraqlariga o‘z nomini oltin harflar bilan muhrlagan ulug‘ zotdir. Tarixiy va badiiy asarlarda ham siyosiy, ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan yetuk shaxsiyat sifatida gavdalanadigan Bobur Hindistonda alohida imperiyaga asos soladi va bu o‘lkada Islom diniga asoslangan, lekin zaminida hind an’analari yotgan yangi bir madaniyat shakllanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Uning “Boburnoma” nomli avtobiografiyasi esa qomusiy asar bo‘lib, XV-XVI asrlardagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayot haqida bizga juda ko‘plab ma’lumotlar berib kelmoqda. Ushbu asarning eng ko‘zga ko‘ringan jihati avtobiografik mohiyatda qalamga olinganligidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

“Boburnoma” asari ingliz tiliga ilk bor 1826-yilda tarjima qilingan. Faqat bu tarjima uchun asos qilib asl manba emas, “Boburnoma”ning 1599–1600-yillarda Abdu-r-Rahim tomonidan fors tiliga qilingan tarjimasi olingan edi. *(Erskine W., 1826:18)* Keyinchalik, 1906-yilda Annette S. Beveridge asarning asl tili hisoblangan turkiy tildan tarjima qilgan va nashr ettirgan. *(Blochet E., 1906: 1016)*

“Boburnoma”ning yuqoridagi ikki tarjimasi nashridan keyin yevropaliklar Boburiylar sulolasi haqida ko‘pgina ma’lumotlarga ega bo‘lishdi va sekin-asta Bobur hayoti g‘arb adabiyotiga ham kirib kela boshladi. Stephen Meredyth Edwardes yozgan “Babur: Diarist and Despot” (1925), Amerikalik yozuvchi Harold Albert Lamb qalamiga mansub “Babur the Tiger: First of the Mughals” (1961), Muni Lal ijodi bo‘lmish “Babar: life and times” (1977), Farzana Moon tomonidan bitilgan “Babur, the First Moghul in India: In the Land of Cain” (2009), shuningdek, Alex Rutherford (Diana Preston va uning rafiqasi Michael Preston) muallifligidagi “Empire of the Moghul: Raiders from the North” (2010) kabi va yana boshqa ko‘plab badiiy hamda avtobiografik asarlarda Zahiriddin Muhammad Bobur bosh qahramon qilib olingan. Bobur hayotini ingliz tilidagi badiiy asarlarda yoritib berishni esa Flora Anna Steel o‘zining “King-Errant” nomli romani bilan boshlab bergan deb taxmin qilmoqdamiz. Chunki olib borgan tadqiqotlarimiz davomida bundan oldin g‘arb adabiyotida Bobur hayoti haqida yozilgan badiiy asarga duch kelmadik.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Flora Anna Steelning “King Errant” romani va uning turk tiliga tarjimasi haqidagi ushbu maqolaning metodologiyasi ingliz tilida yozilgan badiiy asar tahlili va bu asar haqida yozilgan boshqa ilmiy ishlardagi kamchiliklarni har tomonlama ko‘rib chiqishni

 ISSN 3030-3273

o‘z ichiga olgan. Mavzuni har tomonlama tushunish uchun sharq adabiyotidagi janrlar tarkibiga oid turli ilmiy-nazariy qarashlar o‘rganildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Adabiyotlar sharhi: Ushbu roman xususida va Bobur Mirzoga oid boshqa yozuvchilar tomonidan yozilgan asarlar haqida ma’lumotlar to‘plash maqsadida tegishli ilmiy maqolalar, kitoblar va akademik jurnallar tahlili o‘tkazildi;

2. Ma’lumotlar to‘plash: “King Errant” asarining umumiy tahlili uchun turli manbalar tahlil qilindi. Asarning eski Usmoniy turkcha yozuvidagi tarjimasi topildi va tasniflandi.

3. Taqqoslash va tasniflash: Ushbu maqoladagi asosiy metodimiz taqqoslash va tasniflash metodi hisoblanadi. Asar va uning turkchaga tarjimasi orasida ba’zi xususiyatlaridan kelib chiqib qiyoslandi va tasniflandi. Asosiy matnning qismlari, syujeti va kompozitsiyalari haqida tadqiqotlar olib borildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Flora Anna Steel Angliyaning Sudbury shahrida, Webster oilasining oltinchi farzandi sifatida 1847-yil, 2-aprelda dunyoga keldi. 1867-yil Hindistonda davlat xizmatlarida ishlaydigan Henry William Steelga turmushga chiqadi va 1889-yilgacha Hindistonda, asosan, Panjobda yashaydi. *(Powell V., 1981:21)* Panjobda o‘tgan yigirma ikki yil mobaynida Hind xalqining tarixi, madaniyati, she’riyati, adabiyoti, ayniqsa, xalq og‘zaki ijodiga qiziqqan va astoydil bu sohalarni o‘rganib chiqqan Anna o‘z asarlarida bulardan haqqoniy tarzda, mohirona foydalana olgan. Qizining dunyoga kelishi uni mahalliy ayollar bilan yanada yaqinroq munosabat o‘rnatishiga vasila bo‘lgan. *(Wahi T., 1974:88)* Shu davrdan boshlab Anna Steel mahalliy tilni o‘rganishni, hind tilidagi ma’naviy boyliklarni dunyoga tanitishni boshlab yuboradi. Biroz muddatdan keyin erining sog‘ligi yomonlashgani sababli bir maktabga idorachi sifatida ishga kirgan Anna mahalliy tilni yaxshi bilganligi uchun shu yerlik ayollar ta’limiga bosh-qosh bo‘ladi, milliy san’atning yanada rivojlanishi uchun o‘z hissasini qo‘shadi va o‘sha davrlarda mustamlakachi inglizlar va tub aholi o‘rtasida chiqib turadigan kichik-kichik kelishmovchiliklarda vositachi vazifasini ham bajarar edi. *(Edwardes S. M., 1926:24)* Taqdir taqozosi bilan o‘z vataniga qaytgan Anna qolgan umrini badiiy asarlar va xotiralar yozish bilan o‘tkazadi. 1929-yilning 12-aprelida Angliyaning Minchinhampton shaharchasida, o‘z qizining uyida bu dunyodan ko‘z yumadi. *(Mannsaker F.M., 1982:105-106)* Uning hayoti haqida ko‘plab ilmiy ishlar qilingan. Xususan, Violet Powell va Daya Patwardhan *(Patwardhan D., 1963)* uning hayoti va asarlari haqida to‘liq ma’lumotlar berib o‘tishgan.

Umrining chorak qismidan ko‘prog‘ini Hindistonda o‘tkazgan adiba bu davr mobaynida hind xalq ertaklarini yig‘adi va nashr ettiradi, Hindiston tarixini yorituvchi ilmiy bo‘lmagan, xalqchil va yengil tarixiy asarlar yozadi. Jon Riddik Anna Steelning

 ISSN 3030-3273

“The Hosts of the Lord” asari haqida shunday deydi: *“Bu asar Ingliz Hindistoni haqida yozilgan uch asosiy asardan biridir”(Riddick J. F., 2006:179)*. Bundan tashqari 1889-yilda o‘z vataniga qaytgan Anna asarlar yozishda davom etadi. 1911-yildagi Encyclopedia Britannica kitobida joy olgan ma’lumotga ko‘ra, ijodkorning eng yaxshi ijod mahsullari hikoyalar va ertaklardan iborat ikki to‘plamidan joy olgan. Bular: *“From the Five Rivers”(“Besh daryodan”)* va *“Tales of the Punjab” (“Panjob ertaklari”)(Chisholm H., 1911:861).* Anna Steel umri davomida o‘ttizdan ortiq asar yozib qoldirgan va bu asarlar, asosan, Hind diyori tarixi, madaniyati, adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi, mahalliy aholining kundalik turmush tarzi, ayollarning og‘ir hayoti, ijtimoiy tengsizlik, ayollarning jamiyatda tutgan o‘rni kabi bir qancha mavzularni o‘z ichiga qamrab oladi.

Adibaning oq-qora va rangli rasmlar bilan nashrdan chiqargan Bobur haqidagi asari yuqorida aytib o‘tganimizdek “King Errant”dir. Uni o‘zbekchaga tarjima qiladigan bo‘lsak, “Darbadar Qirol” deb tarjima qilishimiz mumkin. Asar hali o‘zbek tiliga tarjima qilinmagan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ushbu asar o‘zbek kitobxonlari va adabiyotshunoslariga unchalik ham tanish emas. Faqat ajablanarlisi, asar haqida olimlarimiz ham yetarlicha ma’lumot berishmagan, borlari ham o‘zbek tilida emas, boshqa tillarda. Xususan, Buxoro davlat universiteti Chet tillari kafedrasi o‘qituvchisi K. Xayrullayeva o‘zining maqolalarida qisman ushbu asarni qarshilashtirmali tarzda tahlil qilgan. Faqat mazkur maqolalar ham ingliz tilidadir. Yosh olimaning “Anna Steel va Pirimqul Qodirov asarlarining syujetlaridagi o‘xshashlik va farqliliklar” *(Khayrullayeva K., 2022: 515-519)* hamda “Ingliz va o‘zbek nasrida Boburning shoh sifatidagi porteti” *(Khayrullayeva K., 2022:134-138)* nomli ikki maqolasida “Darbadar Qirol” romani oz bo‘lsa-da tahlil qilingan. “Qo‘l uchida” yozilgan ushbu maqolalar hajm jihatidan qisqa, asosan umumiy gaplar va qisman takrordan iborat hisoblanadi. Ushbu ikki maqolani tahlil qilganimizda ba’zi ilmiy xulosalardan tashqari, aytarlik muhim jihati yo‘qdek tuyuldi. Lekin shunday bo‘lsa ham, mavzuni chuqurroq yoritib berishga va “Darbadar Qirol” asarining jiddiyatini ko‘rsatib berishga o‘z hissasini qo‘shganligidan boshimiz ko‘kka yetdi.

“King Errant” romani Flora Anna Steel tomonidan 1912-yilda “Frederick A. Stokes company” nashriyoti tomonidan Nyu Yorkda chop etilgan. Asar muallifning mashhur ijod namunalari orasida bo‘lmasa ham badiiylik jihatidan mukammalga yaqin tarzda yozilgan. Bunga sabab, ushbu asar zamirida “Boburnoma” asari yotadi. Buni muallif ham asarning kirish qismida e’tirof etib o‘tadi. *“This is not a novel, neither it is a history. It is the life-story of a man, taken from his own memoirs.” (Bu asar na bir roman, na bir tarix kitobi, bu bir kishining o‘z xotiralaridan olingan hayot hikoyasidir)(Bu va bundan keyingi tarjimalar bizniki).* Asar “Boburnoma” kabi uch qismdan tarkib topgan. Faqat farqi “Voqeanoma”da boblar hududga nisbatan Boburning Movarounnahr (1494–1504), Afg‘oniston (1504–1524) va Hindiston

 ISSN 3030-3273

(1524–1530)dagi hukmdorlik davrlarini o‘z ichiga olgan bo‘lsa, “King Errant” romanida esa bu boblar Boburning mukammallikka erishib borishi asos qilib olingan va shunga ko‘ra bob nomlari va yillar alohida nomlangan. Shu tarzda, birinchi bob “Seed Time” ya’ni “Urug‘ vaqti” deb ataladi. Bu bobda Boburning taxtga chiqishi bilan boshiga tushgan voqealar, uqubatlar-u qiyinchiliklar va bu qiyinchiliklar qarshisida hali g‘o‘r bir bola sifatida ojiz qolishi, shunga qaramay, bir maqsad uchun – bobosi Amir Temur davlatini qayta qurish va taxtiga ega chiqish uchun tinmay harakat qilishi qalamga olinadi. Bu bob kitobning 3–142-betlaridan joy olgan bo‘lib, Boburning 1493–1504-yillardagi taqdirini qamrab olgan.

Ikkinchi bob “Blossom Time” ya’ni “Gullash vaqti” deb ataladi. Bu bob mos ravishda 1504–1511-yillardagi voqealarga asoslangandir. Muallif bu bobni bekorga gullash vaqti deb atamagan. Chunki Bobur bu davrda Movarounnahrdan chiqib, G‘azni va Qobul shaharlarini zabt etib, o‘zining mustaqil davlatini quradi va davlat arkonini o‘zi xohlaganicha shakllantiradi. Bundan oldingi davrlarda esa davlat arkoni otasidan, hattoki undan ham oldin shakllangan bo‘lib, ular orasida Bobur bir ishga qo‘l urgan zamon uning ortidan ish qilishga tayyor amaldorlar to‘lib toshgan edi. Bobur Kobulni egallagach, mustaqil davlat tuzishga jadal kirishadi, qo‘shinni tartibga keltiradi, qattiq ichki intizom o‘rnatadi. Kitobning 143–255-sahifalarini o‘z ichiga olgan ushbu bobda Bobur barpo etgan “Bog‘i Shahroro”, “Bog‘i Jahonoro”, “O‘rtabog‘”, “Bog‘i vafo” va “Bog‘i Bobur” kabi oromgohlar nomi keltiriladi. Hayotda shahar ichidagi Bolo Hisor qal’asini o‘z qarorgohiga aylantirib, uni qayta ta’mirlatdi, yangi imoratlar qurdirdi va oilasi bilan shu qal’ada yashadi. Asarda ham ushbu qasr tasviri keltirilgan. Uning Humoyun, Komron va Hindol ismli farzandlari shu yerda tug‘ilgan. Asarda ushbu voqealar ta’sirchan tarzda ifoda etiladi. Farzandlarining tug‘ilishi, ularning katta bo‘lishi, onasining vafoti kabi sahnalar Bobur shaxsiyatida davlat boshliqligi sifatidan tashqari, mehribon o‘g‘il, jo‘mard ota kabi fazilatlarini ham ko‘rsatib bera olgan.

Uchinchi bob esa 256-sahifadan boshlangan bo‘lib, “Fruit Time” ya’ni “Hosil vaqti” deb nom olgan. Ushbu bobda 1525–1530-yillar oralig‘i qalamga olingan. Yana ham sodda qilib aytganda, umrining oxirgi va eng mukammallikka erishgan davrlari qalamga olingan. Oldingi azob-uqubatli davrlarda toblangan Bobur endi ma’nan yetuk, aqlan barkamol, siyosatda ustun, jangda nomiga loyiq bir shaxs sifatida tasvir etilgan.

Asarning har bir bobi bo‘limlarga ajratilgan. Birinchi bob o‘n bo‘limdan, ikkinchi bob to‘qqiz bo‘lim, uchinchi bob ham to‘qqiz bo‘limdan tarkib topgan. Har bir bo‘lim boshida ba’zan qisqa, ba’zan uzun iqtiboslar keltirib o‘tilgan. Ushbu sitatalarning ko‘pi she’r tarzida bo‘lib, turli shoirlardan keltirilgan. Ajablanarlisi, ular asosan Umar Hayyom, Nizomiy, Homid kabi sharq shoirlari she’rlaridan va hatto Bobur she’rlaridan ham keltirilgan.

Asarning boshida muallif tomonidan qisqa bir kirish qism yozilgan. Kirishda ba’zi kalit so‘zlar terib berilgan: *"Tinker, tailor, soldier, sailor, gentleman, apothecary,*

 ISSN 3030-3273

ploughboy, thief." (Tunukachi, tikuvchi, askar, dengizchi, jentelmen, dorixonachi, zahmatkash, o‘g‘ri). Bularning berilishiga sabab sifatida muallif shunday deydi: *The hero of this book might have claimed as many personalities in himself, for Zahir-ud-din Mahomed commonly called Babar, Emperor of India, the first of the dynasty which we mis-name the Great Moghuls, was at one and the same time poet, painter, soldier, athlete, gentleman, musician, beggar and King. (Bu kitobning qahramoni bir qancha shaxsiyatlarni o‘zida jamlashi mumkin. Biz yanglishib Buyuk Mo‘g‘ullar deb atagan sulolaning boshchisi, Hindiston imperatori, Bobur nomi bilan tanilgan Zahiriddin Muhammad bir vaqtning o‘zida ham shoir, ham rassom, ham askar, ham pahlavon, ham jentlmen, ham musiqashunos, ham faqir, ham podishoh edi.)* Muallif asarini yozar ekan, qay tarzda yozganini ham aynan ana shu kirish qismida izohlab ketadi. Ya’ni, asar asosan Bobur xotiralari to‘plami hisoblangan “Boburnoma” asariga iqtibos keltirishdan iborat deya ta’kidlangan. Faqatgina kerakli yerlarida xayolot mahsullarini ilova qilgan yozuvchi asosan mayda-chuyda tafsilotlarni o‘zidan to‘qib asarga kiritganligini aytib o‘tadi. Xususan, billur kosa voqeasi shular jumlasidandir. Bobur va Mohimning nikoh to‘ylaridagi tafsilotlar tamoman taxayyul mevasidir va buning uchun esa muallif Bobur ruhidan afv qilishini so‘raydi.

Ushbu asar o‘zbek tiliga tarjima qilinmagan bo‘lsa ham, qardosh turk tillariga bir necha bor tarjima qilingan. Xususan, hozirgi turk tiliga asar yozilgan yildan bir necha yil o‘tiboq tarjima qilishga harakat boshlangan. Ushbu asar ilk bor turk tiliga Xolida Adib Adivar tomonidan 1914–1917-yillar oralig‘ida “Turk yurdu” jurnalida “Babür Han” nomi ostida tarjima qilingan. Faqat bu davrlar Turkiya uchun alg‘ov-dalg‘ov davrlar hisoblanadi. Har kuni yangi-yangi xabarlar va yangiliklar gazeta va jurnallarning bozorini chaqqon qilganligi bois gazeta va jurnallar uzundan-uzun romanlardan ko‘ra qisqa hikoyalar va she’rlarni bosishga rag‘bat ko‘rsatganlar. Shuning uchun ham Xolida Adib Adivar ushbu asarning faqatgina birinchi bobini tarjima qila olgan, xolos. Asarni 1914-yildan boshlab “Turk yurdu” jurnalining har sonida ba’zan ko‘proq, ba’zan esa bir-ikki sahifa tarjima qilib nashr ettirgan tarjimon aslida tarjima sohasidan ko‘ra roman yozuvchisi sifatida turk adabiyotida mustahkam o‘rin olgan. Uning “Roiqning onasi”, “Saviya Tolib”, “Handon”, “Yangi Turon” kabi romanlari hozirgacha sevib o‘qiladi. Bundan kelib chiqadi-ki, tarjimon havaskor tarjimon bo‘lganligi uchun ham asar oxirigacha tarjima qilinmay qolib ketgan bo‘lishi mumkin. Xolida Adib Adivar ushbu asar tarjimasini nega oxiriga yetkaza olmagani haqida manbalar va faktlarning kamligi bois hozirgi turk olimlari aniq bir fikrga kelishmagan. Lekin, shunga qaramay, yuqoridagi ikki ehtimolning ikkinchisini qo‘llab-quvvatlovchi ba’zi ma’lumotlar qarshimizga chiqdi. Xususan, Inci Enginunning shu gaplarini misol keltirishimiz mumkindir. “*Halide Edib’in yarım kalan çevirileri sadece Babür Han değildir. Bundan Halide Edib’in yaptığı çeviriler üzerinde fazla durmadığı anlaşılmaktadır. Nitekim 1909’de 31 Mart Vak’asında*

 ISSN 3030-3273

matbaada bulunan Julius Caesar çevirisi de kaybolmuş ve yazar onu tamamlamamıştır. 1917'de çevirmeye başladığı Venedik Taciri de Temâşâ dergisinde neşre başlanmışsa da yarım kalmıştır" (Enginün İ., 2011:24). (Xolida Adib Adivarning yarim qolgan tarjimalari faqatgina "Babür Han" emas. Bundan kelib chiqadi-ki, Xolida Adib Adivar qilgan tarjimalariga unchalik ham e'tibor bilan yondashmagan. Xususan, 1909-yil 31-mart voqealari davrida matbuotga berilgan "Yuliy Sezar" tarjimasi yo'qolgan va adiba uni oxiriga yetkazmagan. 1917-yilda tarjima qilishni boshlagan "Venedik savdogari" ham "Tomosha" jurnalida nashr qilina boshlanganiga qaramay oxiriga yetmay qolgan.) Asarning bu tarjimasi Adivar tomonidan faqatgina 139-betigacha tarjima qilingan xolos. Ya'ni, faqat "Seed Time" bobi tarjima qilingan xolos. Tarjima so'nggida esa "bitmedi" qaydi tushirilgan. Ushbu tarjima Bobur haqida o'sha paytlardagi ilk asar mohiyatiga ega bo'lishi bilan bizga qadrlidir. Ushbu asarning turk tiliga to'liq tarjimasi esa oradan yuz yil o'tib Ilhan Yildiz tomonidan qalamga olindi. 2017-yil Anqarada "Jumle" nashriyotida alohida kitob holida "Babür Şah" *(Yıldız İ., 2017:368)* nomi ostida nashr qilindi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ham hayot yo'li, hamda bizga yozib qoldirgan asarlari bilan Bobur o'z nomini tarixga, adabiyotshunoslikka va badiiy adabiyotga muhrlay olgan buyuk shaxsiyatdir. Uning xislatlari tildan tilga, xalqdan xalqqa, ko'ngildan ko'ngilga ko'chib yurar ekan, yana ming yillar davomida ko'ngillarni va shuurlarni fath qilishda davom etaveradi. Faqat biz bobomiz Bobur Mirzoning asl merosxo'rlari sifatida loyiq avlod bo'lishimiz kerak. Bu merosxo'rlik esa bobolarimiz qoldirgan merosni asrab-avaylashlik, uni yana ham boyitishlik va boshqa millatlarga ham yoyishlik bilan mustahkamlanadi. Agar biz bunga befarq bo'lsak, dunyo bu meroslarni bizning qo'limizdan tortib olishi tayin. Ushbu ishga mavzu sifatida olganimiz Flora Anna Steelning "King Errant" asari ham aynan ana shu bilan bog'liq. To 1912-yilda bizning ajdodlarimiz haqida asar yozilsa-yu, oradan yuz yil o'tganiga qaramay o'z tilimizda bu haqida kichik bir ma'lumot topishga qiynalsak, yuqoridagi merosga da'vogarlik qilishga haqqimiz bormikan, deb o'ylab qoladi kishi. Qardosh millatlar bu asarni nashrdan chiqarishga, o'z tillariga tarjima qilishga kirishgan paytda biz hali ham befarq qolishimiz ma'qul emas. Shuning uchun, ushbu ilmiy ishimizdan maqsad – Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ingliz tilida yozilgan "King Errant" asarini ilm va tarjimonlar hamjamiyatiga tanitishdan iborat. Asar Hindistonda yigirma ikki yilini o'tkazgan va Hindiston tarixini, adabiyotini, madaniyatini dunyoga tanitishga o'z hissasini qo'shgan Flora Anna Steel tomonidan yozilgan. Asar xuddi "Boburnoma" singari uch bobdan iborat, faqat boblar Boburning mukammaliyotga yetishish yo'lidagi pillapoyalar sifatida tasvirlangan. Har bir bob bo'limlarga

 ISSN 3030-3273

ajratilgan. Ushbu asar turk tiliga Xolida Adib Adivar va Ilhan Yildiz tomonidan ikki marta tarjima qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Blochet E. (1906) The Bábar-náma, being the Autobiography of the Emperor Bábar,…. now reproduced in facsimile from a Manuscript belonging to the late Sir Sálár Jang, of Ḥaydarábád, and edited with a Preface and Notes by Annette S. Beveridge. “EJW Gibb Memorial” // Journal of the Royal Asiatic Society. V. 38. – № 4. – pp. 1015-1020.
2. Chisholm, Hugh (1911) "Steel, Flora Annie". Encyclopædia Britannica. Vol. 25 (11th ed.). Cambridge University Press. – 861 p.
3. Daya Patwardhan (1963) A Star of India: Flora Annie Steel, Her Works and Times. Sole agents: A. V. Griha Prakashan, Poona.
4. Edwardes S. M. (1926) Babur, diarist and despot. – London.
5. Enginün İ. (2011) Babür Han. Türk Yurdu. Sayı 283.
6. Erskine W. et al. (1826) Memoirs of Zehir-ed-din Muhammed Baber, Emperor of Hindustan, Written by Himself, in the Jaghatai Turki, and Translated, Partly by the Late John Leyden... Partly by William Erskine with Notes and a Geographical and Historical Introduction (etc.). – Longman.
7. John F. Riddick (1 January 2006). The History of British India: A Chronology. Greenwood Publishing Group. ISBN 978-0-313-32280-8.
8. Khayrullayeva K. R. (2022) “Similarities and differences in the plot of the works by Flora Anna Steele and Pirimkul Kadyrov” Science and Education. – V. 3. – №. 3. – pp. 515-519.
9. Khayrullayeva K. R. (2022) “The Image of Babur as King and Legate in Western Englısh and Uzbek Prose” Open Access Repository. – V. 8. – №. 2. – pp. 134-138.
10. Mannsaker F. M. (Autumn 1982) "Flora Annie Steel, Novelist of India by Violet Powell" Victorian Studies. 26 (1): 105–106. JSTOR 3827506.
11. Powell V. (May 1981) Flora Annie Steel, Novelist of India. Heinemann. ISBN 9780434599578.
12. Wahi T. (1974) British Scholarship and Muslim Rule in India: The Work of William Erskine, Sir Henry M. Elliot, John Dowson, Edward Thomas, J. Talboys Wheeler and Henry G. Keene. – University of London, School of Oriental and African Studies (United Kingdom).
13. Yıldız İ. (2017) Babür Şah. Cümle yayınlari. – 368 s. ISBN: 9786059147538
14. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/mirzo-boburning-bir-jumlasi.html

REFERENCES:

1. Blochet E. (1906) The Bábar-náma, being the Autobiography of the Emperor Bábar,…. now reproduced in facsimile from a Manuscript belonging to the late Sir Sálár Jang, of Ḥaydarábád, and edited with a Preface and Notes by Annette S. Beveridge. “EJW Gibb Memorial” // Journal of the Royal Asiatic Society. V. 38. – № 4. – pp. 1015-1020.
2. Chisholm, Hugh (1911) "Steel, Flora Annie". Encyclopædia Britannica. Vol. 25 (11th ed.). Cambridge University Press. – 861 p.
3. Daya Patwardhan (1963) A Star of India: Flora Annie Steel, Her Works and Times. Sole agents: A. V. Griha Prakashan, Poona.
4. Edwardes S. M. (1926) Babur, diarist and despot. – London.
5. Enginün İ. (2011) Babür Han. Türk Yurdu. Sayı 283. (In Turkish)
6. Erskine W. et al. (1826) Memoirs of Zehir-ed-din Muhammed Baber, Emperor of Hindustan, Written by Himself, in the Jaghatai Turki, and Translated, Partly by the Late John Leyden... Partly by William Erskine with Notes and a Geographical and Historical Introduction (etc.). – Longman.
7. John F. Riddick (1 January 2006). The History of British India: A Chronology. Greenwood Publishing Group. ISBN 978-0-313-32280-8.
8. Khayrullayeva K. R. (2022) “Similarities and differences in the plot of the works by Flora Anna Steele and Pirimkul Kadyrov” Science and Education. – V. 3. – №. 3. – pp. 515-519.
9. Khayrullayeva K. R. (2022) “The Image of Babur as King and Legate in Western Englısh and Uzbek Prose” Open Access Repository. – V. 8. – №. 2. – pp. 134-138.
10. Mannsaker F. M. (Autumn 1982) "Flora Annie Steel, Novelist of India by Violet Powell". Victorian Studies. 26 (1): 105–106. JSTOR 3827506.
11. Powell V. (May 1981) Flora Annie Steel, Novelist of India. Heinemann. ISBN 9780434599578.
12. Wahi T. (1974) British Scholarship and Muslim Rule in India: The Work of William Erskine, Sir Henry M. Elliot, John Dowson, Edward Thomas, J. Talboys Wheeler and Henry G. Keene. – University of London, School of Oriental and African Studies (United Kingdom).
13. Yıldız İ. (2017) Babür Şah. Cümle yayınlari. – 368 s. ISBN: 9786059147538 (In Turkish)
14. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/mirzo-boburning-bir-jumlasi.html

 ISSN 3030-3273

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI “UY” VA “OILA” SO‘ZLARI BILAN BOG‘LIQ MAQOLLARDA “VATAN” TUSHUNCHASINING BERILISHI

THE EXPRESSION OF “MOTHERLAND” IN THE PROVERBS INCLUDING THE WORDS “HOME” AND “FAMILY” IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

ВЫРАЖЕНИЕ «РОДИНЫ» В ПОСЛОВИЯХ, СВЯЗАННЫХ СО СЛОВАМИ «ДОМ» И «СЕМЬЯ» В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Nizamova Salomat Usmanovna,
Oriental universiteti, G‘arb tillari kafedrasi stajyor o‘qituvchisi
Tel.+998 91 135-25-00
salomat068@gmail.com

Annotatsiya: Insonning tashqi va ichki dunyosi haqidagi asosiy tushunchalarni lingvomadaniy tahlil qilish ularda aks etgan turli madaniy ideallar, milliy xarakter va milliy g‘oyalarni ochib berish imkonini beradi. O‘zbek va ingliz zabon xalqlarning madaniy hayotida “uy” va “oila” asosiy tushunchalar hisoblanib, ular olamning ikki lingvistik manzarasini taqqoslash orqali odamlar ongida atrofdagi voqelikni aks ettirish usuli sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. Mazkur tushunchalar muhim madaniy ma’lumotlarni saqlashga, uning ma’nosini til birligida yashirishga qodirdir. Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz zabon xalqlarning madaniy hayotida asosiy tushunchalar hisoblangan “uy” va “oila” tushunchalarining leksikografik manbalardagi talqini va “uy” va “oila” subtushunchalari bilan bog‘liq o‘zbek va ingliz tillaridagi maqollarda “vatan” tushunchasining ifoda etilishi tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: uy-home, oila-family, vatan-homeland, etimologik ma’nolar, lug‘aviy talqinlar, maqollar, mavzu jihatlari.

Annotation: Linguistic and cultural analysis of the main concepts of the external and internal world of a person allows to reveal various cultural ideals, national character and national ideas reflected in them. "Home" and "family" are the main concepts in the cultural life of the Uzbek and English-speaking peoples, and they should be considered as a way of reflecting the surrounding reality in people's minds by comparing the two linguistic views of the world. These concepts are able to store important cultural information and hide its meaning in the language unit. This article analyzes the interpretation of the concepts of "home" and "family", which are the main concepts in the cultural life of Uzbek and English-speaking peoples, in lexicographic

 ISSN 3030-3273

sources, and the expression of the concept of "homeland" in Uzbek and English proverbs related to the sub-concepts of "home" and "family".

Key words: uy-home, oila-family, vatan-homeland, etymological meanings, dictionary interpretations, proverbs, thematic aspects.

Аннотация: Лингвокультурологический анализ основных концептов внешнего и внутреннего мира человека позволяет выявить различные культурные идеалы, национальный характер и национальные идеи, отраженные в них. «Дом» и «семья» являются основными понятиями в культурной жизни узбекского и англоязычных народов, и их следует рассматривать как способ отражения окружающей действительности в сознании людей путем сопоставления двух языковых картин мира. Эти концепты способны хранить важную культурную информацию и скрывать ее смысл в языковой единице. В данной статье проанализирована трактовка понятий «дом» и «семья», которые являются основными понятиями в культурной жизни узбекского и англоязычного народов, в лексикографических источниках, а также выражение понятия «родина» на узбекском языке, и английские пословицы, связанные с подконцепциями «дом» и «семья».

Ключевые слова: уй(дом)-home, оила(семья)-family, ватан(родина)-homeland, этимологические значения, словарные толкования, пословицы, тематические аспекты.

KIRISH

Jahon tilshunosligida til voqeligini tizimli o‘rganish uning ijtimoiy ahamiyatini anglashda tub burilish yasadi. Til sotsiolingvistik va kommunikativ voqelik sifatida baholandi. Bir qator yangi yo‘nalishlar, xususan, tilning struktur-funksional qatlamlarini chuqur o‘rganishga oid nazariy paradigmalar vujudga kelib, dunyo tillarini qiyosiy, tipologik, chog‘ishtirma o‘rganish boshlandi. Xalqlar o‘rtasidagi madaniy munosabatlarda til va tarjimalarning kommunikativ roli e’tirof etildi. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida, yangi siyosiy va iqtisodiy evrilishlar va qarama-qarshiliklar davrida milliy qadriyatlar masalasi har qachongidan ham dolzarbroq ko‘rinadi. Binobarin, “uy” va “oila”, shuningdek “vatan” tushunchalari har qanday til dunyosi milliy lingvistik manzarasining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u inson va jamiyatning yashash joyiga, ko‘plab tarixiy-madaniy hodisa va jarayonlarga munosabatini ochib beradi.

Oila, uy va xonadon – jamiyatning muhim ijtimoiy institutidir. U insonga butun umri davomida hamroh bo‘ladi, shaxsiy qadriyatlar va hayotiy munosabatlarni shakllantiradi. Shu sababli, oilaviy qadriyatlarni o‘rganish juda dolzarb hisoblanadi. Bundan tashqari, madaniyatning umumiy xususiyatlarini va xususan, oilaviy qadriyatlarni bilish bizga yuqori sifatli madaniyatlararo aloqalarni o‘rnatishga, o‘ziga

xos xususiyatlarini tushunishga imkon beradi. Bizning fikrimizcha, “uy”/“home” va “oila”/“family” insonning oilaviy qadriyatlar tizimini tashkil etuvchi asosiy tushunchalardandir. Ushbu tadqiqotning maqsadi o‘zbek va ingliz tillarida so‘zlashuvchi lingvistik madaniyatlarda “uy”/“home” va “oila”/“family” bilan bog‘liq maqollarda “vatan” tushunchasining ifodalarini ochib berishdir.

Har bir etnik guruh dunyoni o‘ziga xos tarzda, o‘z madaniyati, o‘z dunyoqarashi nigohi orqali ko‘radi, shuning uchun har bir etnik guruhning olam manzarasi uning alohida dunyoqarashi, dunyoning yaxlit modelidir. Dunyoning lingvistik manzarasini o‘rganishni xalqning tarixiy va madaniy xotirasi timsoli bo‘lgan maqollarni o‘rganmasdan tasavvur qilib bo‘lmaydi, chunki ular turli til madaniyatlari tomonidan “uy”/“home” va “oila”/“family” shuningdek, “vatan”/“homeland” tushunchalarini idrok etishning yorqin namunasi bo‘lishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy tilshunoslikda konseptologiya yo‘nalishi keyingi yillarda ustuvorlik kasb etmoqda. Tushuncha–konsept lingvokognitologik va lingvokulturologik paradigmada o‘rganilmoqda. Lingvokognitologik yo‘nalish bo‘yicha rus olimlari vakillaridan Y.S. Kubryakova, N.A. Boldirev, V.Z. Demyankov, I.A. Sternin hamda A.P. Babushkin tushunchani voqelik faktining yaxlit, bo‘linmas aks etishi vazifasini bajaruvchi operativ ongning birligi sifatida izohlaydilar. Ikkinchi, lingvokulturologik yo‘nalish vakillaridan A. Vejbiskaya, N.D. Arutyunova, V.I. Karasik, D.S. Lixachev, Y.S. Stepanov, V.A. Maslova, V.V. Vorobyev, V.N. Teliya, S.X. Lyapin, V.I. Shaxovskiy, S.G. Vorkachev va boshqalar tushunchani ma’lum darajada etnosemantik o‘ziga xoslik bilan ajralib turadigan aqliy shakllanish deb hisoblaydilar.

Fanda “uy”/“home” va “oila”/“family” shuningdek, “vatan”/“homeland” tushunchalari oxirgi yillarda turli paradigmalarda o‘rganildi. Shu o‘rinda, S.A. Kushu, S.R. Gabdullina, A.D. Letova, A.A. Svinsova, D.A. Kojanov, E.Y. Shamsutdinova, E.M. Ignatova, Y.A. Gamayev, J.B. Yesmurzayeva, T.I. Kolabinova, I.A. Zyuzina, D.G. Larionova, N.Y. Kazakova, Z.A. Axmetjanova, V.B. Tyurin, N.V. Nagovitsina, A.N. Pribilova, M.Y. Romanyuk, M.V. Zimina kabi ilmiy tadqiqotchilar rus, nemis, fransuz, ingliz, ispan, edigey, tatar va boshqa tillardagi maqollarda “uy”/“home” va “oila”/“family” shuningdek, “vatan”/“homeland” tushunchalarining turli yo‘nalishlarini o‘z ishlarida ochib berganlar.

O‘zbek tilshunosligida ham tushuncha – konsept masalasiga doir turli ishlar, ya’ni Z.I. Saliyeva, A.M. Bazarbayeva, K.M. Amanullayeva, Sh.Q. Shamsiyeva, N.B. Kuldosheva, D.K. Baxronova, Z.R. Gulyamova, Y.T. Nosirov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan, turli tushunchalar turli yo‘nalishlarda tadqiq etilgan. Biroq, aynan “uy”/“home” va “oila”/“family” shuningdek, “vatan”/

ISSN 3030-3273

“homeland” tushunchasi o‘zbek lingvistikasida alohida tadqiqot darajasida o‘rganilmagan.

Maqollar ko‘p avlodlar tomonidan yaratilgan, ko‘p asrlar davomida rivojlangan va takomillashgan. O‘zbek olimlarining diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etib kelgan maqollar folklor, etnografiyaning o‘rganish obyekti sifatida tadqiq etildi. Bu masalada X. Rahmatullayev, Y. Pinxasov, G‘. Salomov, Sh. Shorahmedov, X. Abdurahmonov, Q. Samadov, M. Sadriddinova kabi olimlarning xizmatlari katta. Bulardan Mullo Bekjon Rahmon o‘g‘li, B. Karimov, Sh. Rizo, O‘. Azimov, O‘. Xolmatov, H. Zarif, M. Afzalov, S. Ibrohimov, S. Xudoyberganov, R. Jumaniyozov, M. Ahmadboyeva, E. Siddiqov, T. Mirzayev, Q. Imomov, R. Jahongirov, S. Qosimov, Z. Husainova, B. Sarimsoqov, M. Jo‘rayev kabi o‘zbek folklorshunos olimlar maqollarning nazariy masalalarini tadqiq qilganlar.

O‘zbek xalq maqollariga muayyan bir tartib berib, majmua va xrestomatiyalarga kiritish, ulardan maxsus to‘plamlar tuzish ishlari esa XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Masalan, venger olimi H. Vamberining 1867-yilda Leypsigda nashr etilgan “Chig‘atoy tili darsligi” xrestomatiya-lug‘atiga o‘zbek folklori va adabiyotining ayrim namunalari qatori 112 ta maqol kiritilgan bo‘lib, ularning nemis tilida tarjimasi ham berilgan (Mirzayev T., 2005: 3). Shundan keyin birin-ketin N. Ostroumov (1895), B. Rahmonov (1924), Sh. Jo‘rayev (1926), H. Zarifov (1939, 1947), B. Karimov (1939), Sh. Rizayev, O‘. Azimov, O‘. Xolmatov (1941), S. Ibrohimov, S. Xudoyberganov, M. Afzalov (1958, 1960, 1965, 1978), R. Jumaniyozov (1964, 1967, 1970), E. Siddiqov (1976, 1986), B. Sarimsoqov, I. Haqqulov, A. Musoqulov, R. Zarifov (1978), B. Sarimsoqov, A. Musoqulov, M. Madrahimova (1981, 1984), Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov (1987, 1990, 2001), T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, A. Musoqulov (1989) kabi folklorshunoslar, fan va madaniyat xodimlari tomonidan tuzilgan turli xarakterdagi va turli hajmdagi maqollar to‘plamlari nashr etildi. M. Abdurahimov, X. Abdurahmonov, M. Sodiqova, H. Karomatov, K. Karomatova, H. Berdiyorov, R. Rasulov kabi olimlarning tilshunoslik va tarjimashunoslik yo‘nalishidagi to‘plamlari yuzaga keldi.

Ingliz zabon tilshunoslarning maqollarni o‘rganish muammolariga bag‘ishlangan asarlari orasida R. Taverner, J. Xeyvud, R. Reydout, K. Uitting, V. Meader, A. Teylor, G. Palmer, Jon Keytges, Hardi Margaret, G.L. Apperson, Bloyem Diane, Anton Jim, Beal Jorj, Brayn Jorj, Udo Steyk va boshqa shu kabi olimlarning ilmiy to‘plam va tadqiqot ishlarini aytib o‘tish lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada yetakchi tadqiqot usullari sifatida qiyosiy, tavsifiy, uzluksiz tanlab olish usuli, konseptual tahlil usuli, lingvokulturologik usul va lug‘at ta’riflarini tahlil qilish metodlari qo‘llanildi. “Uy”/“home” va “oila”/“family” tushunchalarining

 ISSN 3030-3273

mazmuni va tuzilishini tavsiflashda o‘zbek va ingliz tillaridagi leksikografik manbalardan keng ko‘lamda foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Uy” va “oila” tushunchasi deyarli barcha milliy madaniyatlarda asosiy tushunchalardan hisoblanadi, chunki u inson kundalik maishiy hayoti jihatlarining barchasini o‘z ichiga oladi. “Uy” va “oila” subkonseptlari ko‘p ma’noli tushunchadir va shuning uchun ularning ma’nolarini to‘liq aks ettirib, ochib berib yagona ma’nosini aniqlash ma’lum darajada murakkabdir.

Dastlab “uy” tushunchasi haqida so‘z yuritaylik. O‘zbek tilining etimologik lug‘atida “uy” qadimgi turkiy so‘z bo‘lib, yashashga, ishlashga xizmat qiladigan qurilma, bino, xona ma’nosini bildiradi (Rahmatullayev Sh., 2000: 382). Undan tashqari, O‘zbek tilining izohli lug‘atida bu so‘zning bir qancha ma’nolari, jumladan, “Yashash uchun va turli tashkilot, muassasa joylashishi uchun mo‘ljallangan bino, yashash uchun mo‘ljallangan bino ichidagi har bir xona, biror ijtimoiy yo‘nalishga qaratilgan muassasa, oila, xonadon, biror oila yoki xonadon o‘rnashgan bino va shu binoga taalluqli yer, hovli.” (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 1-j., 1981: 268) deb ta’rif berilgan.

Endi o‘rganilayotgan subkonsept ma’nosini kengroq ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, o‘zbek madaniyatida mahalliy ma’nodan tashqari, asosan turar joyni bevosita ifodalovchi “uy” so‘zi ko‘proq global ma’noga ega bo‘lib, unda bu tushunchaga dunyo modeli, ya’ni himoya qiladigan, muqaddas, estetik, ijtimoiy vazifalarni bajaradigan vatan obrazi sifatida qaralgan. Zero, o‘zbeklar uchun butun mamlakat, hatto, o‘z hayotidan kechib bo‘lsa-da, o‘z kuchlari evaziga dushman hujumlaridan himoya qilishga muhtoj bo‘lgan uy sifatida qabul qilinadi. Shu ma’noda, o‘zbeklar madaniyatida “vatan” va “uy” bir-biriga juda yaqin va o‘zaro bog‘liq deb aytish mumkin. Chunki o‘zbek xalqining lisoniy manzarasida “uy” – bir kichik vatandir.

“Uy” tushunchasining madaniy qiymati va ahamiyati o‘zbek xalq folklorida o‘z aksini topmasdan imkoni yo‘q bo‘lib, mazkur leksema bevosita va bilvosita ko‘pgina maqollarda mavjud va bu maqollarni mavzu jihatidan uch guruhga ajratish mumkin.

1) uyga muhabbat:

O‘zganing toqu ravoqidan, o‘zingni ayvoning yaxshi;

O‘z uying, o‘lan to‘shaging;

Har kimniki o‘ziga, oy ko‘rinar ko‘ziga.

2) uy himoyasi (vatan ma’nosida):

El senga cho‘zsa qo‘l, unga doim sodiq bo‘l;

El boshiga tushgan ish – er boshiga tushgan ish;

El boshiga ish tushsa, el yaratgan er kelar.

3) uy tushunchasi psixologik va hissiy quvvatlovchi vazifani bajarishi:

 ISSN 3030-3273

Ona yurting – oltin beshiging;
Ona yurting omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas;
Har kimning o‘z eli – o‘ziga shirin.

“Home” tushunchasi ingliz tilida so‘zlashuvchilar madaniyatining muhim tarkibiy qismidir. “Home” leksemasining kelib chiqishi qadimgi inglizcha “hom” (protogermancha “heimaz”), so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, uning sinonomik qatori turar joy, uy, mulk, qishloq kabilarni bildiradi. Ingliz tilining zamonaviy lug‘atlarida “vatan” tushunchasini bildirgan “home” so‘ziga quyidagicha ta’riflar berilgan: 1) the place where you live; 2) the place where you were born or where you feel you belong; 3) a place where those who need help are looked after; 4) the place to be reached in a race or in certain games; 5) family, the place where a child lived with his or her family; 6) the country where you live, as opposed to foreign countries; 7) the place where you feel comfortable, happy or confident, relaxed; 8) a house, apartment etc considered as property which you can buy or sell; 9) sweet home, used to say how nice it is to be in your own house (Longman Dictionary of Contemporary English, 2005: 1950).

Uyning “yopiqligi” g‘oyasi “o‘ziniki-birovniki” kabi muhim qarama-qarshilik bilan bog‘liq bo‘lib, inglizlarning olamni lingvistik manzarasiga ko‘ra, aynan “house” so‘zi boshqa odamlar buzmoqchi bo‘lgan “o‘ziniki” bo‘lgan makonining saqlanishini ta’minlaydi.

Ingliz tili lug‘atlarida “house” so‘zining quyidagi ma’nolari mavjud: 1) a building made for people to live in, usually designed for one family; 2) a building or establishment for a special purpose, the opera house; 3) a building for a government assembly; the assembly itself, the House of Commons, the House of Lords; 4) one of the divisions of a school for sports competitions etc; 5) a family or dynasty, the royal house of Tudors; 6) a company, especially one involved in a particular area of business; 7) get on/along like a house on fire, to quickly have a very friendly relationship; 8) set up house, to start to live in a house, especially with another person (Macmillan English dictionary of advanced learners, 2002: 1126).

Bu ikki so‘zning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, “house” uy sifatida birga bo‘lgan (unity) bir guruh odamlar uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, “home” uy sifatida alohida bir odam uchun mo‘ljallangan.

Har bir inson uchun “home” yoki “house” – bu oilasi, do‘stlari va boshqa yaqinlari yashaydigan, o‘zi o‘sgan “kichik vatan” hisoblanadi. Inglizlar uchun “home” yoki “house” boshqa narsalardan muhimroq bo‘lib, ularning hayot tarziga ko‘ra, “home” yoki “house” ular uchun koinotning markazidir. Shuning uchun bo‘lsa kerakki, inglizlar “vatan” deganida “uy” ma’nosini anglashadi.

Ingliz tilidagi “home” subkonsepti, boshqa tillardagi kabi idiomatik iboralarda yorqin tarzda aniq aks etadi. Ingliz tilidagi maqolalarni idiomatik lug‘atlardan tanlab

 ISSN 3030-3273

tahlil qilish asosida “home” tushunchasini o‘z ichiga olgan idiomalar guruhlarini uchta asosiy tematik guruhga bo‘lish mumkin:

1) uy doimiy va mustahkam narsadir:

A house divided against itself cannot stand.

An Englishman’s home is his castle

2) Uyga muhabbat:

East or west, home is best.

Every bird likes its own nest.

There is no place like home.

3) Uy nafaqat turar joy, balki oila ma’nosida:

His hat covers his family.

A house is not a home.

Men make houses, women make homes

Endi “oila” subkonsepti haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, “oila” subkonsepti, xuddi “uy” subkonsepti kabi ko‘p ma’noli tushunchadir va shuning uchun uning ma’nosini to‘liq aks ettirib va ochib berib yagona ma’nosini aniqlash ma’lum darajada murakkabdir. Lekin shunga qaramasdan, ko‘pgina leksikografik lug‘atlarda “oila” tushunchasi deyarli bir xil ta’riflarga ega va umuman, nikoh yoki qarindoshlikka asoslangan kichik guruh sifatida talqin etilib, bu kichik guruh a’zolari umumiy hayot tarziga, o‘zaro yordam, o‘z oila a’zolari oldida axloqiy va huquqiy javobgarlik bilan bog‘liqdirlar. Tarixiy jihatdan bu leksemaning ma’nosi doimiy ravishda kengayib borgan.

“Oila” so‘zi o‘zbek tiliga arab tilidan (عائلة) (Baranov X., 1994: 553) kirib kelgan bo‘lib, “qaramog‘idagi kishilarni boqdi” ma’nosini anglatadi (Rahmatullayev Sh., 2000: 338). O‘zbek tilining izohli lug‘atida “oila” so‘zi ma’nosi quyidagicha ta’riflangan: 1. Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug‘ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmuasi, xonadon; 2. Bir maqsad va maslak bilan birlashgan, ko‘p kishilar, xalqlar, mamlakatlar; 3. O‘simliklar va hayvonlar sistemasida tuzilish jihatidan, bir-biriga o‘xshash, kelib chiqishi jihatidan ham o‘zaro yaqin bir necha urug‘ni o‘z ichiga olgan guruh; 4. Rafiqa, xotin (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 1-j., 1981: 526).

Oila jamiyatning birinchi va birlamchi zarrasidir. Jamiyat, davlat, vatan ana shu kichik zarralardan tashkil topadi. Oila a’zolarining har biri o‘ziga xos fe’l-atvorga ega. Odamlar betakror ekanlar, oilalarning bir-biriga o‘xshamasligi ayondir. Oila a’zolari bir-birlari bilan umumiy turmush, o‘zaro iqtisodiy, mulkiy, huquqiy, axloqiy, ruhiy aloqalar bilan bog‘lanadi. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa bo‘lib, oilaning ichki ishlariga hech kim huda-behuda aralashishga haqli emas. Shu sababli oila muqaddas va daxlsiz hisoblanadi. Ramziy qilib aytsak, oila o‘ziga xos kichik bir muxtor davlat, ma’lum bir sonli kishilar guruhining birlamchi vatanidir.

 ISSN 3030-3273

O‘zbek oilalarining har birida o‘ziga yarasha qoidalar bo‘lib, bu oilalarda birinchidan, buvi va bobolarni, ota-onani hurmat-ehtirom qilish, bir ish qilishdan avval ulardan maslahat va duo olish, ahillikda yashash va shu kabi juda ko‘p – er-xotin, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarga tegishli qadriyatlar mavjud.

O‘zbek xalqi madaniyatida “oila” subkonseptining nominativ doirasini o‘zbek folklorida mavjudligi va ahamiyatiga ko‘ra aks ettirilgan maqollardan kelib chiqib mavzu jihatidan to‘rtta guruhga bo‘lish mumkin:

1) oilaviy qadriyatlar:

Inoq oilada beshik bo‘shamas;

Oila tinch – yurt tinch;

Oila – qo‘sh ustunli ayvon.

2) bolalar tarbiyasi:

Ota-onang duosi o‘tga, suvga botirmas;

Yaxshi boladan – rahmat, yomon boladan – la’nat;

Rahmat olgan omondir, la’nat olgan yomondir.

3) ota-ona – oilaning ko‘rki:

Oltin-kumushning eskisi bo‘lmas, ota-onaning bahosi bo‘lmas;

Ota bilan bola – gul bilan lola;

Xotinning sarishtasi – odamning farishtasi.

1) yoshi kattalarga bo‘lgan munosabat:

Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l;

Qarisi bor uyning parisi bor;

Osh – kattadan, xizmat – kichikdan.

Ingliz tilida “family” so‘zi lotincha “servant” (xizmatkor) ma’nosini anglatuvchi “famulus” so‘zidan kelib chiqqan. Leksemaning “xizmatkor” ma’nosini anglatishi, birinchi qarashda, g‘ayrioddiy ma’noga ega ekandek tuyuladi. Lekin bunga, dastlab xizmatkorning vazifalariga uy ishlarini kuzatib borish, uning tozaligi va tartibliligini nazorat qilish hamda tashqi salbiy ta’sirlardan asrash sabab bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan uydagi barcha kundalik turmush farovonligi va shinamlikni vujudga keltirgan bu inson, ya’ni xizmatkor oila a’zolariga tenglashtirilgan.

Ingliz tilining zamonaviy “Cambridge dictionary” izohli lug‘atida “family” tushunchasi bir-biri bilan bog‘liq, ya’ni qarindoshlar – ota-ona va farzandlardan tashkil topgan bir guruh odamlar (a group of people who are related to each other, such as a mother, a father, and their children) (Cambridge Learner’s dictionary 2007: 94) deb talqin qilingan.

Ingliz xalqi madaniyatida oila doirasiga ota-onalar va bolalar kiradi. Britaniyaliklar uchun oila, xuddi uy kabi, ularning qal’asi bo‘lib, bu oila-uy hayotning barcha qiyinchiliklaridan yashirinadigan joy. Biroq, o‘zbek oilalariga o‘xshab ular

 ISSN 3030-3273

oilani doimiy ravishda o‘zaro o‘zining har bir a’zosi bilan aloqada bo‘lgan yagona tizim, guruh sifatida emas, balki ingliz oilasi ichidan yopiq, ya’ni oila a’zolarining barchasi shaxsiy ko‘lamini, maydonini va shaxsiy hayotlarini begonalarga tegishli emasligini saqlashga urinadilar.

Farzandlar tarbiyasida asosiy rolni ota o‘ynaydi, u ustoz va o‘rgatuvchi hisoblanadi. Ijtimoiy muhit tarbiyaning muhim jihati hisoblanadi va shu sababli ota-onalar bolalarni tashqi ta’sirlardan himoya qilmaydilar, shuning uchun ular bolalikdan o‘zlarini mustaqil, ijtimoiy jihatdan mas’ul shaxslar sifatida his qiladilar. Boshqa tomondan, ingliz oilasining an’anaviy tipiga ko‘ra, ota-onalar o‘z farzandlariga nisbatan yorqin his-tuyg‘ularini namoyon etmaydilar. Ayniqsa, begonalar oldida nozik his-tuyg‘ularni namoyish qilish, qabul qilib bo‘lmaydigan zaiflik hisoblanadi.

Ingliz madaniyatida er va xotin o‘rtasidagi munosabatlar juda cheklangan xususiyatga ega bo‘lib, er va xotin kamdan-kam hollarda bir-birining ishlariga aralashadilar, ular uchun yorqin ifodalangan his-tuyg‘ular xos emas. Bunday oilaviy hayot tarzi, turmush qurishning erta bosqichda har qanday janjaldan qochish imkonini beradi.

Shuningdek, inglizlarning keksa oila a’zolariga bo‘lgan munosabati ham o‘zgacha. Britaniyaliklarning aksariyati keksa ota-onalarini ortiqcha noqulaylik deb bilishadi va shuning uchun keksa odamlar ko‘pincha qarindoshlari tomonidan tark etiladi. Agar daromadlari yaxshi bo‘lsa, qariyalar uylarida hayot kechirishadi.

Inglizlar madaniyatida “family” subkonseptining nominativ doirada mavjudligi va ahamiyatiga ko‘ra aks ettirilgan maqollarni mavzu jihatidan uchta guruhga bo‘lish mumkin:

1) bolalarni tarbiyalash:

Every father remembers that one day his son will follow his example instead of his advice;

Parents are patterns;

A tree must be bent while young.

2) oilaviy qadriyatlar:

The family is one of nature’s masterpieces;

You don’t choose your family. They are God’s gift to you;

The love of a family is life’s greatest blessing.

3) ayol – oila ko‘rki (ham ijobiy, ham salbiy ma’noda):

All are good lasses, but whence come the bad wives?

Men make houses, women make homes;

A good husband should be deaf and a good wife should be blind.

 ISSN 3030-3273

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, o‘zbek madaniyatidagi mahalliy ma’nodan tashqari, asosan turar joyni bevosita ifodalovchi “uy” so‘zi ko‘proq global ma’noga ega bo‘lib, unda bu tushunchaga dunyo modeli, ya’ni himoya qiladigan, muqaddas, estetik, ijtimoiy vazifalarni bajaradigan vatan obrazi sifatida qaraladi. O‘zbeklar madaniyatida “vatan” va “uy” bir-biriga juda yaqin va o‘zaro bog‘liq deb aytish mumkin. Chunki o‘zbek xalqining lisoniy manzarasida “uy” – bir kichik vatandir. Inglizlar uchun “home” yoki “house” – bu oilasi, do‘stlari va boshqa yaqinlari yashaydigan, o‘zi o‘sgan “kichik vatan” hisoblanadi. Inglizlar uchun “home” yoki “house” boshqa narsalardan muhimroq bo‘lib, ularning hayot tarziga ko‘ra, “home” yoki “house” ular uchun koinotning markazidir. Shuning uchun bo‘lsa kerakki, inglizlar “vatan” deganida “uy” ma’nosini anglashadi.

“Oila” tushunchasi o‘zbek xalqining madaniy konseptosferasida eng muhim element hisoblanadi, ya’ni “kichik vatandir”. O‘zbek maqollarida ifoda etilgan “oila” tushunchasi an’anaviy ijtimoiy-madaniy qadriyatlar sifatida “kichik vatan” sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek oilalarining har birida o‘ziga yarasha qoidalar bo‘lib, bu oilalarda, birinchidan, buvi va bobolarni, ota-onani hurmat-ehtirom qilish, bir ish qilishdan avval ulardan maslahat va duo olish, ahillikda yashash va shu kabi juda ko‘p munosabatlarga – er-xotin, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarga tegishli qadriyatlar mavjud.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ushbu ilmiy maqolada o‘zbek va ingliz tillarida “uy”, “oila” so‘zlari bilan bog‘liq maqollarda ifodalangan “vatan” tushunchasi o‘rganildi. Tadqiqotimizda uy va oila tushunchalari doirasida “vatan” ifodasining madaniy va lingvistik ko‘rinishlarini qiyoslash va solishtirish uchun har ikki tildan maqollar tanlab tahlil qilindi. O‘zbek va ingliz tillarida “uy”, “oila” so‘zlari bilan bog‘liq maqollarning qo‘llanishi “vatan” tushunchasiga chuqur madaniy aloqadorliklarni ochib beradi. Bu maqollar tahlili natijasida ma’lum bo‘ladiki, har ikki tilda ham uy va oila insonning o‘ziga xosligi va daxldorlik tuyg‘usining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ahamiyatini ta’kidlaydi. Bu hikmatlar avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan qadriyat va an’analarning ko‘zgusi bo‘lib, muhabbat, birdamlik, madaniy meros, g‘urur kabi umuminsoniy mavzularni yoritadi. Ushbu lingvistik tushunchalarni o‘rganish orqali biz turli madaniyatlarning “vatan” bilan bog‘liqligini ifodalashning xilma-xil usullarini yaxshiroq tushunamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Баранов, Х.К. (1994) Арабско-русский словарь. Том 2. – Тошкент: Шарқ.

2. Раҳматуллаев, Ш. (2000) Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). 2-жилд. – Тошкент: Университет.

 ISSN 3030-3273

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд. З. М. Маъруфов таҳрири остида. – Москва: “Русский язык” нашриёти, 1981.

4. Longman Dictionary of Contemporary English. – London: II Summers Della, 2005.

5. Macmillan English dictionary of advanced learners. – London: Macmillan Publishers Limited, 2002.

6. The Oxford English Dictionary. – Oxford: Clarendon Press, 1993.

7. Cambridge Learner's dictionary 2007: 94 https://www.amazon.co.uk /Cambridge-Learners-Dictionary-Kate-Woodford

REFERENCES:

1. Baranov, X.K. (1994) Arabsko-russkiy slovar. Tom 2. – Toshkent: Sharq. (In Russian)

2. Rahmatullayev, Sh. (2000) O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (turkiy so‘zlar). 2-jild. – Toshkent: Universitet. (In Uzbek)

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Birinchi jild. Z. M. Ma’rufov tahriri ostida. – Moskva: “Russkiy yazyk” nashriyoti, 1981. (In Uzbek)

4. Longman Dictionary of Contemporary English. – London: II Summers Della, 2005.

5. Macmillan English dictionary of advanced learners. – London: Macmillan Publishers Limited, 2002.

6. The Oxford English Dictionary. – Oxford: Clarendon Press, 1993.

7. Cambridge Learner’s dictionary 2007: 94 https://www.amazon.co.uk /Cambridge-Learners-Dictionary-Kate-Woodford

 ISSN 3030-3273

ARAB TILINI O‘RGANISHDA ZAMONAVIY DASTURIY ILOVALARDAN FOYDALANISH

USING MODERN APPLICATIONS IN LEARNING THE ARABIC LANGUAGE

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПРИЛОЖЕНИЙ ПРИ ИЗУЧЕНИИ АРАБСКОГО ЯЗЫКА

Xodjimuratova Zuxra Zaynitdinovna
Oriental universiteti,
Aniq fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Tel: +998 93 589-58-11
zukhra-doctor@yandex.ru

Lutfullayeva Mohira Xayrullo qizi
Oriental universiteti,
Sharq tillari kafedrasi 2-kurs talabasi
Tel: +998 93 599-41-14
lutfullayevamohira2210@gmail.com,

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab tilini o‘rganishda zamonaviy axborot texnologiyalari yutuqlaridan foydalanish masalalari haqida fikr bildirilgan. Unda ba’zi zamonaviy ilovalardan, xususan, Rosetta Stone, Busuu, Prompt, Bab.la, Google tarjimon kabi dasturlardan foydalanib, arab tiliga doir ishlarni bajarish imkoniyatlari haqida so‘z yuritilgan. Sir emaski, arab yozuvining o‘ziga xos jihatlari mavjud va standart klaviatura foydalanuvchilari arabcha matnlarni kompyuterda yozishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Jumladan, yurtimizdagi aksariyat klaviaturalarda arab shriftlarining aks ettirilmaganligi ham bu mavzuda alohida tadqiqot ishini amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirdi. Shuning uchun mazkur maqolada arab alifbosi uchun maxsus ishlab chiqilgan Virtual klaviatura ilovasini ishlatish haqida ma’lumotlar keltirildi. O‘ylaymiz-ki, ushbu maqola arab tilini o‘rganish istagida bo‘lgan o‘quvchilar uchun foydali bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: arab yozuvi, virtual klaviatura, elektron ilovalar, zamonaviy axborot texnologiyalari, ta’lim, Rosetta toshi, Busuu, Prompt, Bab.la, Google tarjimon, internet.

Annotation: This article expresses an opinion on the issues of using modern information technologies in learning the Arabic language. It informs about the possibilities of working on the Arabic language using some modern applications, in particular, Rosetta Stone, Busuu, Prompt, Bab.la, and Google Translate. It's no secret

 ISSN 3030-3273

that the Arabic script has its own peculiarities, and users of standard keyboards have difficulty in typing Arabic texts on a computer. In particular, the fact that Arabic fonts are not displayed on most keyboards in our country made it necessary to carry out a separate research on this topic. Therefore, this article provides information on using a Virtual Keyboard application specially designed for the Arabic alphabet. We believe that this article will be useful for students who want to learn Arabic.

Key words: Arabic script, virtual keyboard, electronic applications, modern information technologies, education, Rosetta Stone, Busuu, Prompt, Bab.la, Google Translator, internet.

Аннотация: В данной статье изложено мнение по вопросам использования современных информационных технологий при изучении арабского языка. Рассказывается о возможностях работы над арабским языком с помощью некоторых современных приложений, в частности Rosetta Stone, Busuu, Prompt, Bab.la, Google Translate. Ни для кого не секрет, что арабская письменность имеет свои особенности, и пользователи стандартных клавиатур испытывают трудности с набором арабских текстов на компьютере. В частности, тот факт, что арабские шрифты не отображаются на большинстве клавиатур в нашей стране, заставил провести отдельное исследование на эту тему. Поэтому в этой статье представлена информация об использовании приложения виртуальной клавиатуры, специально разработанного для арабского алфавита. Мы считаем, что эта статья будет полезна студентам, которые хотят выучить арабский язык.

Ключевые слова: Арабская надпись, виртуальная клавиатура, электронные приложения, современные информационные технологии, образование, Rosetta Stone, Busuu, Prompt, Bab.la, Google Translator, интернет.

KIRISH

Somiy tillar guruhining janubiy tarmog‘iga mansub arab tili Yaqin va O‘rta Sharq hamda Afrika shimolidagi yigirmadan ortiq mamlakatning davlat tili hisoblanadi va dunyo bo‘ylab 422 milliondan ortiq kishi ushbu tilda muloqot qiladi. Arab tili dunyodagi eng muhim tillardan biri hisoblanadi. Arab tilining o‘ziga xos jihatlari bor va u o‘ngdan chapga yoziladigan o‘ziga xos tillardan biridir. Shuningdek, dunyoda o‘rganish qiyin bo‘lgan tillardan biri deb ham hisoblanadi.

1973-yilning 18-dekabrida BMT Bosh assambleyasi arab tilini tashkilotning olti rasmiy tilidan biri deb e’lon qildi va 2012-yildan buyon Xalqaro arab tili kuni nishonlanib kelinmoqda. Shu munosabat bilan, arab tili bilan shug‘ullanuvchi tashkilot va universitetlar arab tilining ahamiyati hamda uning o‘tmishi va hozirgi zamondagi o‘rni borasida seminar va bayram tadbirlari o‘tkazib keladi.

 ISSN 3030-3273

Hozirgi kunda respublikamizning bir qator chet el davlatlari bilan aloqalarning rivojlanishi samarasi o‘laroq tarjimonlik sohasi ayniqsa taraqqiy etib, ommalashib bormoqda.

Oxirgi yillarda ko‘p yoshlar turli tillarni o‘rganishga qiziqishlari ortib bormoqda. Shu tillar ichida arab tiliga bo‘lgan qiziqish ham alohida o‘rin egallaydi. Tilni to‘laqonli o‘rganish uchun nafaqat unda gapirish, balki xatosiz yozish ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, axborotlashgan jamiyatda axborot texnologiyalarini qo‘llay olib, shu tilda xatlar, xabarlar va ma’lumotlarni yoza olish, uzata olish o‘ziga yarasha bilim va ko‘nikmalarni bilishni talab qiladi. Mazkur zaruratlarni inobatga olgan holda ushbu maqolada arab tilini o‘rganuvchilar uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishning ba’zi samarali jihatlariga to‘xtalib o‘tamiz. Shuningdek, arabcha matnga tarjimalarni amalga oshiruvchi dasturlar haqida ham fikr yuritamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga oid manbalarni o‘rganish davomida M. Hasanov, M. Abzalova, S. G‘ulomov, M. Lutfullayeva, D. Aliyev kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari bilan tanishib chiqildi. M. Hasanov hamda M. Abzalova tomonidan nashr etilgan “Arab tili darslari (O‘quv qo‘llanma)” arab tilini o‘rgatishda foydalaniladigan muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ammo unda klaviaturadan foydalanishning texnik tomonlari haqida fikr yuritilmagan. S. G‘ulomovning “Informatika va axborot texnologiyalari: Oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun darslik” nomli kitobida klaviaturadan foydalanish haqida so‘z boradi. Biroq bunda arab alifbosining o‘ziga xos xususiyatlari, arabcha harflarni yozishga ixtisoslashgan dasturlar haqida yetarli ma’lumot uchramaydi. M. Lutfullayeva hamda D. Aliyevning “Chet tillarni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish” maqolasida esa asosan ingliz va rus tillarini o‘rganishda axborot texnologiyalaridan foydalanish haqida so‘z yuritilgan. Ma’lumki, chet tillarini o‘rganishda zamonaviy dasturiy vositalaridan foydalanish ko‘plab foydali yechim va imkoniyatlarni beradi, jumladan sun’iy tafakkur texnologiyalari, neyron tarmoqlar imkoniyatlari juda katta yechimlarga olib kelishi mumkin. Sanab o‘tilgan kamchiliklar va imkoniyatlarni e’tiborga olib, mazkur maqolada ko‘tarilgan mavzu yetarlicha tadqiq qilinmagan, deyish mumkin. Shuningdek, arab tilini o‘rganuvchilar soni kundan-kunga ortib borayotganligini inobatga olib, arab tilini o‘rganishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash zamon talabi hisoblanadi. Ushbu imkoniyatlardan til mutaxassislari ham o‘z kasbiy faoliyatlarida foydalansa, yaxshi natijalarga erishishlari mumkin bo‘ladi. Erishilgan tadqiqot natijalarini keng ommaga foydali bo‘lishini maqsad qilgan holda e’tiboringizga havola etamiz.

ISSN 3030-3273

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Axborotlashgan jamiyatda yashayotgan zamonaviy inson o‘z faoliyatida axborot texnologiyalarini bilishi va foydalana olishi davr talabi hisoblanadi. Har bir sohada yaxshi mutaxassis bo‘lish uchun axborot texnologiyalari imkoniyatlarini ishlata va qo‘llay olish, bu orqali yaxshi natijalarga erishish ko‘zda tutiladi. Ayniqsa, tillarni o‘rganishda axborot texnologiyalarining o‘rni katta hisoblanadi. Dunyo tillari ichida arab tilining tutgan o‘rni beqiyosdir. Mustaqil O‘zbekiston yoshlarining arab tiliga qiziqishi, kelajakda arab tili mutaxassislarining ko‘payishiga, tarjimonlar yetishib chiqishiga, arab davlatlari bilan diplomatik va savdo-sodiq aloqalarini yanada samarali yo‘lga qo‘yishga, arab tilida yozilgan yodgorliklar, manbalar, asarlarni o‘qib, tarjima qilib, xalqimizga yetkazishga katta hissa qo‘shadi, deb umid qilamiz. Arab tilida axborot texnologiyalaridan foydalanishda eng avvalo klaviaturani yaxshi bilish va arab alifbosi harflarini to‘g‘ri qo‘llay olish talab etiladi. So‘ngra zamonaviy dasturlar bilan tanishish va imkoniyatlarini bilish, shaxsiy va kasbiy faoliyatda to‘g‘ri qo‘llay ola bilish kerak bo‘ladi.

Hozirgi kunda arab tili Respublikamizning Toshkent davlat sharqshunoslik institutida, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida asosiy fan sifatida o‘qitilsa, O‘zbekiston milliy universiteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Toshkent davlat pedagogika universitetining filologiya va tarix fakultetlarida qo‘shimcha til sifatida o‘qitib kelinmoqda (Hasanov M., Abzalova M., 2016: 1).

Klaviatura so‘zi – bu foydalanuvchi uchun kompyuterga ma’lumot kiritish imkonini beruvchi qurilma hisoblanadi. Birinchi kompyuterlarda klaviatura bo‘lmagan. Ma’lumotlar kompyuterga mexanik kalitlar va simlar yoki perfokartalar yordamida kiritilar edi.

Klaviatura axborotlarni shaxsiy kompyuterga kiritish uchun mo‘ljallangan. Shuni ta’kidlash lozimki, hozircha klaviatura shaxsiy kompyuterdan foydalanuvchilar tomonidan alifboli va raqamli axborotlarni shaxsiy kompyuterga kirituvchi asosiy moslama hisoblanadi (G‘ulomov S., 2010: 2).

TAHLIL VA NATIJALAR

Odatda, standart klaviaturada ingliz va rus alifbo harflari mavjud bo‘ladi, arab harflari standart klaviaturalarda aks ettirilmagan. Shu bois zarurat bo‘lgan holatlarda virtual “Ekran klaviaturasi” ilovasidan foydalanish mumkin. “Ekran klaviaturasi” ilovasiga kirish uchun Windowsning Pusk tugmasida joylashgan «Специальные возможности» bandidan foydalaniladi.

Matn terishni arab shriftiga o‘tkazib olamiz. Shunda virtual klaviaturada arabcha klavishlar ko‘rinadi (1-rasm). Arab tilidan doimiy ravishda foydalanuvchilar esa, arab harflari yozilgan yopishtiruvchi yorliqlarni oddiy klavishlar ustiga virtual klaviaturadagi kabi yopishtirib chiqishlari ham yaxshi usuldir. Lekin ikkala holatda

 ISSN 3030-3273

ham arab tilidagi harakatlar, e’roblarni yozish kerak bo‘lganda, klaviaturadagi “shift” belgisini bosish kerak bo‘ladi.

XX asrning oxiri va XXI asrning birinchi o‘n yilligida ommaviy kompyuter dasturlari, avtomatik veb-saytlar, mashina tarjima tizimlari paydo bo‘ldi va kundalik hayotda tarjimon dasturlar deb atala boshlandi. Bu nom ko‘pincha “tarjimon” ko‘rinishigacha qisqartirildi.

Bunday dasturlar arab tiliga xos matnlarni terishga, tahrir etishga, hamda boshqa tillardan arab tiliga ma’lumotlarni tarjima qilishga katta yordam beradi. Shu sababli, mazkur maqolada klaviaturaga oid ma’lumotlar bilan birgalikda arab alifbosidagi matnlarni hosil qilishda qo‘llash mumkin bo‘lgan dasturlar haqida ham fikr yuritib, ularning afzallik va kamchilik jihatlarini tahlil etamiz.



1-rasm. Virtual klaviaturaning arabcha shriftli ko‘rinishi

Zamonaviy davrda bunday mutaxassis, odatda, maxsus oliy ma’lumotga ega bo‘lishi kerak: bu tarjima yoki keng filologik yo‘nalishdagi oliy ma’lumot bo‘lishi mumkin va sohaga oid, iqtisodiy, yuridik, texnik, tibbiy va boshqa sohalardagi tarjimalarni amalga oshirish uchun shaxs faoliyatining tegishli sohasida oliy ma’lumotga ega iqtisodchilar, huquqshunoslar, muhandislar, shifokorlar, mashinistlar, ular o‘zining oliy ma’lumoti va kasbiy aloqa sferasida tarjimonlarni tayyorlash kurslari doirasida olinishi mumkin bo‘lgan yetarlicha lingvistik va tarjimonlik tayyorgarligiga ega bo‘lgan holatda jalb qilinadi (Lutfullayeva M., 2024: 3).

Hammamizga ma’lumki, hozirgi zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini o‘qitishning yangi shakl va metodlarini ishlab chiqish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda (Aliyev D., Lutfullayeva M., 2024: 4).

Axborot texnologiyalari davrida turli xil dasturiy ilovalardan foydalanib, ko‘plab tillarni, jumladan, ingliz, arab, ispan, fransuz, italyan, nemis, irland, golland, rus, xitoy

 ISSN 3030-3273

va boshqa tillarni o‘rganish mumkin va buning uchun keng imkoniyatlar mavjud. Bu imkoniyatlar, hozirda, hattoki sun’iy tafakkur tizimlari va neyron tarmoqlarga asoslangan texnologiyalarni ishlatishi bilan e’tiborga loyiq.

Quyida arab tilini o‘rganishda ko‘plab imkoniyatlarni beradigan zamonaviy dasturlarning ba’zilari bilan tanishib chiqamiz:

1. Busuu - ilovasidan foydalanish oson hamda ilova turli xil darajadagi til o‘rganuvchilari uchun juda qulaydir. Foydalanuvchi shunchaki ro‘yxatdan o‘tib, o‘rganmoqchi bo‘lgan tili va darajasini tanlaydi. Ilova foydalanuvchiga gaplar ichidagi so‘z va so‘z birikmalarini o‘rgatadi, so‘ngra bosqichma-bosqich test ko‘rinishida imtihondan o‘tkazadi. O‘rganish mumkin bo‘lgan tillar: arab, fors, nemis, ispan, portugal, fransuz, ingliz, italyan, rus, polyak, turk, yapon, xitoy tillaridir. Busuu bilan Anroid, iOS yoki internet vositasida tilni o‘rganish mumkin.

Bu dasturning afzalliklari quyidagilardir:

• Yozma “erkin uslub” mashqlari. O‘z jumlalari va matnlarini tuzish qobiliyatini rivojlantiradi. To‘liq erkinlik, xohlagancha yozing, yangi so‘zlarni mashq qiling - bularning barchasi ona tilida so‘zlashuvchilar tomonidan tekshiriladi;

• Ona tilida so‘zlashuvchilar bilan suhbat;

• Ona tilida so‘zlashuvchilar orasida do‘stlar topish imkoniyati.

Bu dasturning kamchiliklari quyidagilardir:

- juda aniq tarjimalar emas;

- grammatika bo‘yicha zaif tushuntirishlar uchraydi;

- oddiy testlar - ko‘pgina savollarga tilni umuman bilmasdan javob berish mumkin.

Bizningcha, sanab o‘tilgan kamchiliklar bo‘lsa-da, bu dastur boshlang‘ich va davom ettiruvchi darajadagilar uchun ham birdek foydali bo‘ladi. Unda arab tilini o‘rganish uchun arab tilidagi musiqalarni eshitish va filmlarni ko‘rish, onlayn-oflayn tarzda ishlash imkoniyatlari va boshqa ko‘plab imkoniyatlar ham mavjud.

2. Rosetta Stone - tillarni o‘rganish uchun professional darajadagi servis. Bu ilova asosan, sayohatlar davomida ko‘p qo‘llanadigan so‘z va iboralardan ta’lim olish imkoniyatlarini ochib beradi. Shuningdek, restoran, mehmonxonalar va turli xildagi sayohatlar bilan bog‘liq asosiy so‘z va birikmalardan iborat so‘zlashgich bor va bu sayohatga chiqqanlar uchun juda foydalidir. Agarda, foydalanuvchi istasa, rang, valyuta va xaridga oid lug‘atlarni sotib olish imkoniyatiga ega. Bu ilova orqali o‘rganish mumkin bo‘lgan tillar ro‘yxatiga: ispan, ingliz, fransuz, yapon, italyan, nemis, xitoy, portugal, rus, polyak, arab, fors, koreys, golland, yunon, hind, irland va boshqalar kiradi.

Bu dasturning quyidagi afzalliklari mavjud:

• turli xil vazifalar beriladi va shuning uchun o‘rganish zerikarli emas;

 ISSN 3030-3273

• siz shunchaki so‘zni yodlabgina qolmay, balki uni ma’lum bir tasvir bilan bog‘laysiz;

• dasturni o‘zingiz uchun sozlashingiz mumkin: agar siz nutq yoki grammatikani o‘rganishni xohlamasangiz, ularni shunchaki rad etishingiz mumkin;

• do‘stona interfeys;

• 30 dan ortiq xorijiy tillarni o‘rganish mumkin: eng mashhurlaridan tashqari, hind, xitoy, filippin va boshqalar mavjud.

Bu dasturning kamchiliklari quyidagilardir:

• hech qanday qoidalar tushuntirilmaydi, ya’ni minimal bilim bazasi bo‘lmasa, o‘rganish qiyin bo‘lishi mumkin;

• interfeysi ingliz tilida (garchi mualliflarning maqsadi sizni til muhitiga singdirish ekanligini hisobga olsak, bu unchalik manfaatsiz emas);

• faqat bir nechta darslar bepul.

Bu dastur boshlang‘ich va davom ettiruvchi darajadagilar uchun ham birdek foydalidir. Unda arab tilini o‘rganish uchun ko‘pgina imkoniyatlar bor.

3. Prompt – bu tillarni o‘rganishda professional dasturdir.

Dasturda ko‘pgina ilovalarda mavjud bo‘lgan afzalliklardan tashqari, yana quyidagi alohida ajralib turadigan o‘ziga xosliklar mavjud:

• bu dastur – neyron tarmoqlarga asoslangan tildan tilga tarjima qilish uchun bepul onlayn tarjimon (Neural Machine Translation) hisoblanadi;

• transkripsiyaga ega lug‘at, iboralar va boshqa qulay imkoniyatlarga ega.

• arab, ingliz, nemis, turk va 20 dan ortiq boshqa tillarga to‘g‘ri va aniq tarjimalarni amalga oshiradi.

Bu dastur professional bo‘lsa ham, uning kamchiliklari til o‘rganishdagi grammatika qoidalari faqat ingliz, nemis, fransuz va rus tillarida foydalanish mumkin, ya’ni faqatgina arab tilining grammatikasi keltirilmagan, lug‘at sifatida ham foydalanish mumkin.

4. Bab.la – bu ko‘plab tillarga tarjima qilish imkonini beradigan onlayn til portali. Dasturda o‘rganish mumkin bo‘lgan tillar: arab, ispan, fransuz, ingliz, nemis, xitoy, yapon, koreys, italyan, portugal, golland, irland, shved, turk, norveg, ukrain, rus, polyak, hind, vetnam, venger, grek, indonez, hamda chex tillari. BAB.LA ilovasini onlayn yoki Android, iOS va Windows tizimlarida ishlatish mumkin.

Bu dastur ham professional dasturlar turkumiga kiradi, unga juda ko‘p tillar kiritilgan. Lug‘atlar, tarjimonlar, qoidalar, testlar, eshitish uchun mashqlar, turli iboralar, o‘yinlar va boshqa yana ko‘pgina imkoniyatlar mavjud. Arab tilini o‘rganish uchun esa faqat lug‘atlar va tarjimonlar xizmatlaridan foydalanish mumkin.

Bu dasturning afzalliklari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

• foydalanish bepul - Bab.la ko‘plab til juftliklari uchun bepul onlayn tarjima xizmatlarini taqdim etadi;

 ISSN 3030-3273

• keng til qamrovi - Bab.la 30 dan ortiq tillar bo‘yicha tarjimani amalga oshiradi;

• do‘stona interfeys – foydalanuvchilar uchun qulay dizaynga ega;

• qo‘shimcha til resurslari - Bab.la lug‘atlar, lug‘at darslari va boshqa til o‘rganish vositalarini taklif etadi;

• asosiy tarjimalar uchun foydali - tarjimalar oddiy iboralar yoki so‘zlar uchun, ayniqsa umumiy til juftliklari uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Bu dasturning kamchiliklari sifatida quyidagilarni sanash mumkin:

• cheklangan aniqlik – sun’iy tafakkurga asoslangan tarjima xizmati sifatida Bab.la tarjimalari professional inson tarjimalari kabi aniq yoki ravon bo‘lmasligi mumkin, ayniqsa murakkab yoki nozik matnlar uchun;

• kontekstdan xabardorlik yo‘q - tarjimalar matnning kengroq kontekstini hisobga olmaydi, bu esa noto‘g‘ri yoki bema’ni tarjimalarga olib kelishi mumkin;

• ohang yoki uslub sozlamalari yo‘q - tarjimalarda kerakli ohang, rasmiyatchilik yoki yozuv uslubi hisobga olinmaydi;

• tahrirlashdan keyingi funksiyalar yo‘q - avtomatlashtirilgan tarjimalarni takomillashtirish yoki yaxshilashga yordam beradigan o‘rnatilgan vositalar mavjud emas;

• maxfiylik bilan bog‘liq potensial muammolar - foydalanuvchilar har qanday matn tarjima xizmati serverlari tomonidan qayta ishlanayotganidan xabardor bo‘lishlari kerak.

5. Google tarjimon dasturi. Ko‘pgina tillarni o‘rgatuvchi ilovalar foydalanuvchiga mashq qildirish orqali tilni o‘rgatadi. Google tarjimon esa yozish va kiritilgan matnni aynan o‘sha tilda ravon va to‘g‘ri o‘qilishiga ham yordam beradi. Audio tugma orqali speaker matnni 2 xil formatda: tez yoki sekin o‘qish imkonini beradi. Google tarjimonda, shuningdek, so‘z va jumlalarni terib kiritish, qo‘lda yozish va gapirish orqali tarjima qilish mumkin.

Ilovadan internetga ulanmagan holda ham foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lasiz. Faqat til paketini oldindan yuklab olishni unutmang. Bundan tashqari, Google tarjimonda har qanday matnni kamera orqali rasmga olib tarjima qilish imkoni ham bor. Bunda dastur faqat bir necha tillardangina tarjima qila oladi. Google tarjimon juda ko‘plab tillarda ishlay oladi, shu jumladan o‘zbek tilida ham. Ilovadan Android va iOS tizimlari orqali foydalanish mumkin.

Bu dasturning asosiy afzalliklari quyidagilar:

• foydalanish oson: tarjima qilmoqchi bo‘lgan matnni kiriting yoki matnni suratga olish uchun qurilmangiz kamerasidan foydalaning va ilova uni bir zumda tarjima qilib beradi;

• aniq tarjimalar: avtomatik ta’lim texnologiyasidan foydalangan holda Google tarjimon tarjima aniqligini doimiy ravishda yaxshilab boradi;

 ISSN 3030-3273

• tillarning keng doirasi: ilova 100 dan ortiq tillarda, jumladan, ispan, fransuz, nemis va turk kabi mashhur tillarda yaxshi ishlaydi;

• offlayn tarjima: til paketlarini yuklab olishingiz va ilovadan offlayn rejimda foydalanishingiz mumkin. Bu internet aloqasi cheklangan hududlarga sayohat qilishda foydalidir;

• ovozli tarjima: ilova shuningdek, qurilmangizda gapirish va matnni boshqa tilga tarjima qilish imkonini beradi;

• Google tarjimon bepul. Tajribali professional tarjimon ko‘pincha pullik bo‘ladi;

• Google tarjimon dasturining asosiy afzalliklaridan biri – u juda tez ishlaydi. Aslida, inson-tarjimonlar Google tarjimon amalga oshirishga qodir bo‘lgan tezlik va natijada tarjimalar soni bilan raqobatlasha olmaydi. O‘rtacha, tajribali tarjimon-inson matnning murakkabligiga qarab, bir ish kunida maksimal 2000 so‘zni (300-400 so‘z/soat) tarjima qilishi mumkin. Bundan farqli o‘laroq, Google tarjimon bir necha soniya ichida shuncha miqdordagi so‘zlarni tarjima qilish imkoniga ega;

• Google tarjimon til juftligi chastotasiga asoslangan onlayn tarjimalar ma’lumotlar bazasini yaratish uchun statistik usuldan foydalanadi. Google tarjimon ko‘pincha (lekin har doim ham emas) odamlar tomonidan bajariladigan va Internetda mavjud bo‘lgan tarjimalarning onlayn ma’lumotlar bazasini yaratish uchun statistik yondashuvdan foydalanadi.

Bu dasturning kamchiliklari quyidagicha:

• Google Translate bilan ma’no “tarjimada yo‘qolishi” mumkin, chunki kontekstni kiritishning hech qanday usuli yo‘q. Matnning murakkabligi, shuningdek, tilni haqiqiy bilmasdan talqin qilib bo‘lmaydigan har qanday kontekst xatolar ehtimolini oshiradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima Google tarjimonda keng tarqalgan bo‘lib, ko‘pincha ma’nosiz so‘zma-so‘z tarjimalarga olib keladi, professional tarjimonlar esa yaxshi o‘rnatilgan onlayn lug‘atlar, qayta tarjima qilish usullari, korrektorlar va sharhlovchilardan foydalanib, buni oldini olish uchun ko‘p harakat qilishadi;

• tarjima sifati til juftligiga bog‘liq. Qaysi manba va maqsadli tillar ishtirok etishi ham tarjima sifatiga ta’sir qiladi. Google tarjimon veb-ma’lumotlar bazasi asosan mavjud onlayn tarjimalardan tuzilganligi sababli, ispan yoki ingliz kabi tillarda muntazam tarjimalar aniqroq bo‘ladi, Google ma’lumotlar bazasida topilmagan boshqa tillar uchun tarjimalarning esa aniqlik darajasi kamroq.

• Google Translate ko‘pincha jiddiy grammatik xatolarni o‘z ichiga olgan tarjimalarni ham chiqaradi. Buning sababi, Google tarjimon tizimida grammatik qoidalarni hisobga olmaydigan til juftliklarining chastotasiga asoslangan usuldan foydalaniladi.

• Google tarjimonda tarjima xatolarini tuzatish tizimi mavjud emas. Xatolar qayta sodir bo‘lishini oldini olish uchun xabar berishning hech qanday usuli yo‘q va agar siz

 ISSN 3030-3273

manba va maqsadli tillarni yaxshi bilmasangiz, tarjima qilingan matnni tekshirishning hech qanday usuli yo‘q.

Bu dasturning afzalliklari va kamchiliklarini inobatga olgan holda, shuni aytish mumkinki, qo‘l ostingizda hech qanday avtomatik tarjimon dasturi bo‘lmagan paytda ushbu dastur sizga juda qo‘l keladi va turli formatdagi: matn, rasm, ovozli ma’lumotlaringizni tezda tarjima qilib beradi. Turli tezkor zarur vaziyatlarda, masalan, yo‘lda ketayotganingizda, sayohatga chiqqaningizda, uyda biron ish qilayotganingizda birinchi yordamchi sifatida foydalanish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, bugungi kunda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan har bir sohada foydalanish yaxshi natijalar beradi, shuningdek, til o‘rganishda ham. Hozirgi kunda informatika va axborot texnologiyalari fanlari chet tillarni va boshqa fanlarni o‘qitish metodikasi bilan bog‘landi. Tillarni o‘rganishda arab tilining o‘rni beqiyosdir. Hozirda yoshlar ham, kattalar ham – ko‘pchilik insonlar arab tilini o‘rganishga qiziqish bildirmoqda. Shu sababli arab tilini o‘rganishda, lug‘atlarni yodlashda, tarjimasini bilishda, so‘zlarning sinonimlarini bilishda, to‘g‘ri yozishda, gaplarni tarjima qilishda, rasmlardagi yozuvlarni matnga o‘girishda va boshqa ko‘plab ishlarni bajarishda kompyuter dasturlarining o‘z o‘rni bor. Ushbu maqolada yuqoridagi imkoniyatlarni beruvchi arab tilini o‘rganishda foydalaniladigan ba’zi kompyuter dasturlari ko‘rib chiqildi. Maqolada keltirilgan ma’lumotlar arab tilini o‘rganuvchi har bir insonga, jumladan, talabalarga foydali bo‘ladi, deb umid qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hasanov, M., Abzalova, M. (2016) Arab tili darslari (O‘quv qo‘llanma) – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

2. G‘ulomov, S.S. (2010) Informatika va axborot texnologiyalari: Oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun darslik. O‘zR Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. – Toshkent: Fan.

3. Lutfullayeva, M., Aliyev, D. (2024) “Chet tillarni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish” Международная конференция академических наук (Т. 3, Выпуск 2, 12–15). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.10648726

4. Aliyev, D., Lutfullayeva, M. (2024) “Dars sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib darslarni tashkil etishning afzalliklari” Solution of social problems in management and economy (T. 3, Выпуск 2, 142–145). Zenodo. https: //doi.org/10.5281/zenodo.10775912

 ISSN 3030-3273

REFERENCES:

1. Hasanov, M., Abzalova, M. (2016) Arab tili darslari (O‘quv qo‘llanma) – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. (In Uzbek)
2. G‘ulomov, S.S. (2010) Informatika va axborot texnologiyalari: Oliy ta‘lim muassasalari talabalari uchun darslik. O‘zR Oliy va o‘rta-maxsus ta‘lim vazirligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. – Toshkent: Fan. (In Uzbek)
3. Lutfullayeva, M., Aliyev, D. (2024) “Chet tillarni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish” Mejdurodnaya konferensiya akademicheskix nauk (T. 3, Vipusk 2, 12–15). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.10648726 (In Uzbek)
4. Aliyev, D., Lutfullayeva, M. (2024) “Dars sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib darslarni tashkil etishning afzalliklari” Solution of social problems in management and economy (T. 3, Vipusk 2, 142–145). Zenodo. https: //doi.org/10.5281/zenodo.10775912 (In Uzbek)

AXBOROT SAYTLARI:

1. https://www.alsglobal.net/uz/tillar/arab-tilini-tarjima-qilish%2C-transkripsiya-xizmatlari/
2. https://busuu.com/ru
3. https://hello-omsk.ru/blog/busuu.com-%E2%80%93-otlichnyy-onlayn-resurs-dlya-izucheniya-yazykov
4. https://www.rosettastone.com/
5. https://pilot-school.ru/prilozhenie-rosetta-stone-dlya-nativnogo-izucheniya-anglijskogo-yazyka-otzyvy-preimushhestva-i-nedostatki/
6. https://www.promt.ru/
7. https://bab.la/
8. Google Переводчик
9. https://www.languageconnections.com/blog/the-pros-cons-of-google-translate/

 ISSN 3030-3273

THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN DEVELOPING METHODS OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF THE NON-LINGUISTIC INSTITUTIONS

NOLIGVISTIK MUASSALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASI USULLARINI ISHLAB CHIQISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ МЕТОДОВ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ НЕЯЗЫКОВЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna,
Senior teacher of Western languages department, Oriental University
Phone: +998 97 470-35-53
uyshaxnoza@gmail.com,

Annotation: This article is devoted to use of IT and through it to develop communicative skills in combination of different content forms. It seems appropriate that the language teachers should integrate it into their lesson and assessment planning in the same way they have been doing with video, mass media and computer assisted learning strategies. Apart from this, importance of speaking skills and their advantages in this competitive world to take advantage of opportunities in terms of education, business, employment, technology. Furthermore, it focuses on the process involved in these speech actions of students and attempts to discuss various possible teaching methods and strategies for teaching conversational skills to learners of English as a foreign language or English as a second language in non-linguistic institutions.

Keywords: *communicative, IT, component, multimedia, implementation, using, process, approach, appropriate, to enhance, to improve, requirement, context, competence*

Annotatsiya: Ushbu maqola ommaviy axborot vositalaridan foydalanish va u orqali turli xil kontent shakllari bilan bog‘langan kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga bag‘ishlangan. Til o‘qituvchilari video, kino va kompyuter vositalaridan foydalangan holda o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqishda dars va baholashni rejalashtirishda uni hisobga olishlari maqsadiga qaratilgan. Bundan tashqari, ta’lim, biznes, texnologiya nuqtai nazaridan imkoniyatlardan foydalanish uchun ushbu globallashuv davrida unda talabalarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida tilini chet tili yoki ingliz tilini ikkinchi til sifatida

o‘rganuvchilarga nutq ko‘nikmalarini o‘rgatish uchun turli xil o‘qitish usullari va strategiyalarini foydalanishning muhim asoslari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *kommunikativ, ommaviy axborot vositalari, komponent, multimediali dastur, foydalanish, jarayon, yondashuv, yaxshilash, talablar, komponent, multimedia, amalga oshirish, oshirish, talab, kontekst, vakolat.*

Аннотация: Данная статья посвящена использованию информационных технологий и с их помощью развитию коммуникативных навыков в сочетании с различными формами контента. Представляется целесообразным, чтобы учителя иностранного языка включили это в планирование своих уроков и оценок точно так же, как они это делали с видео, средствами массовой информации и компьютерными стратегиями обучения. Помимо этого, важность разговорных навыков и их преимущества в этом конкурентном мире позволяют воспользоваться возможностями с точки зрения образования, бизнеса, трудоустройства, технологий. Кроме того, в нем основное внимание уделяется процессу, вовлеченному в эти речевые действия студентов, и делается попытка обсудить различные возможные методы обучения и стратегии для обучения разговорным навыкам изучающих английский как иностранный или английский как второй язык в неязыковых учебных заведениях.

Ключевые слова: *коммуникативный, ИТ, компонент, мультимедиа, внедрение, использование, процесс, подход, соответствующий, для усиления, усовершенствования, требование, контекст, компетентность.*

INTRODUCTION

Current trends in higher education, the transition to a new paradigm - a competency-based approach to training qualified specialists suggest requirements for teaching foreign languages in the higher education system. In the context of the new requirements for teaching foreign languages, the formation of a foreign language communicative competence is fundamental. One of the components of a foreign language communicative competence, having a complex multicomponent structure, is lexical competence. (Jonassen H., 1999: 45-46) As the IT technology becomes more readily available to all of us, it seems appropriate that the language teachers should integrate it into their lesson and assessment planning in the same way they have been doing with video, film and computer assisted learning strategies.

LITERATURE REVIEW

Changes in all spheres of life, and there is nothing surprising in the fact that he changed the whole way of life of people. During this process, drastic changes are taking place in the field of communication. Since speech is considered the best way to communicate with others, it plays a predominant role in modern society as a tool for

 ISSN 3030-3273

expressing people's opinions. It is obvious that the need to acquire oral speech skills has become the norm of the day. Due to the lack of communication skills, modern youth face numerous problems in correctly expressing their thoughts and ideas in English, even if they know and express the same in their native language. Now the responsibility is mainly on the shoulders of English language teachers to properly and systematically train EFL/ESL students to apply these skills to their successful careers by applying innovative methods and strategies in the classroom. This article talks about the importance of speaking skills and their advantages in this competitive world to take advantage of opportunities in terms of education, business, employment, technology and more. This article also focuses on the process involved in these speech actions of students. In addition, this article attempts to discuss various possible teaching methods and strategies for teaching conversational skills to learners of English as a foreign language or English as a second language (EFL/ESL). (Alijonovna M., Yusupalieva Sh., Sattorova S., 2021: 176-178)

Some useful tips are given not only for English language learners to improve their communicative skills, but also for English language teachers to improve their skills to effectively present them in a favorable atmosphere.

It is the combination of different content forms. It includes a combination of text, audio, still images, animation, video, or interactivity content forms. It is usually recorded and played, displayed, or accessed by information content processing devices, such as computerized and electronic devices, but can also be part of a live performance. Multimedia devices are electronic media devices used to store and experience multimedia content. Multimedia is distinguished from mixed media in fine art; by including audio, for example, it has a broader scope. Technology is no longer foreign to the earth's citizens. Technology has played its role in multiple fields of work, particularly in education. During the last two decades, the implementation of Information and Communication Technology (ICT) in language education has become a real topic of interest. The use of technology has become significant in the teaching and learning process in and out of class. Technology opens a window of improvement in language learning. Not only that, but media technology also allows teachers to enhance classroom activities and language learning process. This shows that there is a brand-new era, which assigns challenging responsibilities for modern teachers. (Yusupalieva Sh., Sattorova S., 2021: 63-65) The traditional teaching method has been changed drastically with extraordinary access to technology. The implementation of technology has provided options for a more interesting and productive teaching and learning sessions predominantly in language learning. If language learners were asked what they think the goal of a language course is, they would probably answer that it is to teach the grammar and vocabulary of that language. However, if they were asked what their goal is as language learners, they would most probably answer that it is to

 ISSN 3030-3273

be able to communicate in that language. I am not saying that the goal of a language course is to teach solely grammar and vocabulary -well, at least it should not be just that anymore. Fortunately, the focus of second language teaching has moved from purely teaching grammar and vocabulary, to providing the skills for effective communication. In linguistics specific terminology, a language course should not only have “linguistic competence” as its goal, but “communicative competence” in general. The appropriateness depends on the setting of the communication, the topic, and the relationships among the people communicating. Moreover, being appropriate depends on knowing what the taboos of the other culture are, what politeness indices are used in each case, what the politically correct term would be for something, how a specific attitude. For instance, when the PE teacher asks him why he is not wearing the appropriate clothes for the class, he feels lost and cannot explain that bleach got on his gym clothes so his parents will have to buy the right words, expressions, and attitude towards a specific topic, setting, and relationship.

RESEARCH METHODOLOGY

Learning a language is a constant process that begins at birth and continues until the end of life. Language learning is an active process through which people develop their language skills to use them effectively both in social and professional life. By learning a language, people share their thoughts, opinions, information, experiences, and feelings and learn to understand themselves and understand others. They even establish their relationships with their family members, friends, and other people. Students improve their language learning skills by using what they know in more complex and new contexts and with a greater range of increasing sophistication. These students develop their language skills and fluency by studying and incorporating various new language structures into their repertoire. It’s common knowledge that people can't communicate without language, and even if they do, it doesn't make any sense. Consequently, there is a need to learn language skills to communicate with other people in society. To learn to communicate well in any language, a person must have four language skills: listening, speaking, reading, and writing. Among these four skills, speaking is considered the most important skill because communication plays a vital role in our daily lives. After you have mastered these four skills well, it is better to switch back to conversational skills, since they play a key role. In this regard, it is appropriate to say that the oral language carries the values, customs, traditions, histories, and beliefs of the community. (Yusupalieva Sh., Sattorova S., 2021: 63-65) Conversational skills increase the fluency and accuracy of students' speech, as well as increase their self-confidence.

Social media has completely taken over the domains of business, advertising, and education. It now plays a crucial role in people’s daily lives and has had a lasting effect

 ISSN 3030-3273

on how they communicate. For example, WhatsApp has completely transformed and elevated the texting culture. If you have an internet connection, you can text anyone in the world now. Not only has WhatsApp contributed to this change, but Facebook, Twitter, Linked In, and Instagram have as well. Social media's role in communication is a frequently discussed topic. Social media's accessibility has rendered traditional methods of studying, read the news, and shopping obsolete. Education has also adopted social media chat rooms and forums to promote events and courses, hold webinars, and foster greater student interaction. Social media plays a pivotal role in digital marketing strategies by enabling businesses to transcend geographical and demographic limitations.

As the demand for communicative skills grows day by day, students try to focus on these skills, since communication is a major aspect of the modern global market.

According to the Oxford English Dictionary, "Speaking is the act of conveying information or expressing one's feelings in speech". We need to communicate well with others to achieve our goals or life ambitions. Without having good conversational skills, it became impossible even to get a good job in the existing society. Nowadays, it has become a tradition to respect and honor a person with good conversational or communication skills, and he/she holds the highest position in a company where people with excellent command of English are needed. In this fact, start from the classroom itself. This is because as soon as students leave their educational institutions after completing their studies, they cannot master these conversational skills in a day or two. Asking learners to reflect on their learning is a well-est. Social media's accessibility has rendered traditional methods of studying, reading the news, and shopping obsolete. Education has also adopted social media chat rooms and forums to promote events and courses, hold webinars, and foster greater student interaction. Social media plays a pivotal role in digital marketing strategies by enabling businesses to transcend geographical and demographic limitations.

During a typical busy class day, however, meaningful reflection often falls to the wayside. Luckily, students can gain both social and emotional and academic benefits through tech-infused multimedia reflections. Using digital tools, many of which are already popular in schools, students can utilize text, video, audio, and more to create a perpetual record of their goals and learning experiences.

Learning a language and mastering conversational skills require regular practice, and the classroom is the main platform for acquiring all the necessary skills. Consequently, the responsibility of teachers is to teach all the necessary skills, especially speaking, so that students develop their communicative competence, become self-confident and win the hearts of people, wherever and whatever they do. The importance of communication skills is clearly illustrated in the following diagram: The importance of communication skills reduces stress, manages things well,

 ISSN 3030-3273

understands the needs of the modern world, increases productivity, saves time, shares ideas, improves mutual understanding, improves reaction with teachers and peers, learns a new concept of ELT. (Shohobutdinova D., Djuraeva N., Tolipova A., Muminova M., Yusupalieva Sh., 2023) From the diagram above, we can understand that the importance of communication is the main factor, because it is useful in many ways, for example, reduces stress, saves time, manages things well, understands the needs of the modern world, increases work efficiency. productivity, and it improves interaction with teachers and peers. Moreover, it is useful for exchanging ideas, better understanding, and finally for learning new things. Consequently, teachers should focus more on communication skills, especially speaking, since the current labor market requires these skills from job seekers or young graduates. Conversational skills thus serve many of the learners' purposes. To improve students' conversational skills at the initial stage, teachers should start with some simple and interesting exercises, such as converting sentences, for example, an affirmative sentence into an interrogative or an affirmative sentence into a negative one. (Aldohon H., 2014: 56-67) Then teachers can continue performing functional situational exercises, such as giving advice, making a request, expressing wishes. Teachers can then proceed to "ranking assignments", which consist of a list of items on a given topic. The most important activity that needs to be implemented in the development of students' conversational skills is the introduction of language games, since language games are very useful for English teachers to enliven the lesson. Teachers can also introduce some activities such as "guessing games" by placing an item in a closed box and asking students to guess what the item is in the box.

After receiving the correct answer, the teacher can ask students to describe the object. Undoubtedly, the participation of students in these activities is encouraged and appreciated. Moreover, students feel more comfortable and confident during these classes when they are having a conversation in English class, and students use their conversational skills in a more perfect and effective way to conduct ideal conversations, discussions, debates, presentations, group work, pair work and some other related activities. Students must master grammar and a very good knowledge of vocabulary to master the skills of speaking in a foreign or non-native language.

ANALYSIS AND RESULTS

In this context, many students are interested in participating in conversational classes, but, unfortunately, they fail to perform these actions because they think they are unable to find suitable vocabulary units for these tasks. In teaching conversational skills, not only vocabulary, but also grammatical competence play an important role in conveying the meaning corresponding to the context, what students should do is to correctly combine words, phrases, sentences, for communication.

ISSN 3030-3273

This is not how much of the conversation in your classroom looks. Students are more focused on learning than audience during conversations in small groups or the entire class; their speaking is exploratory rather than presentational. This paradigm offers a place to start when determining what, precisely, makes for effective communication in various contexts. However, how can an educator foster a climate in the classroom where students' communication abilities are valued and actively developed? Begin by having a direct discussion with your students about what constitutes effective communication in a particular setting. It can be challenging to locate good instances of exploratory discussions, even if there are many outstanding public speaking examples available for analysis. A good exercise to learn more about what constitutes a good conversation is to record a group of teachers having a bad discussion (fidgeting, straying from the subject, one person taking over and talking about unrelated things while the others aren't paying attention. Studies have indicated that there are differing effects on students' learning between teacher-centered and student-centered educational approaches. For example, a teacher-centered strategy that focuses only on lecturing has a detrimental impact on students' academic achievement. Direct instruction, on the other hand, is a teacher-centered strategy that has a significant positive impact on learning. It combines the ability to check for understanding, engage students with challenging questions, and spend a significant amount of time ensuring guided practice before students enter independent practice.

Similar trends can be seen in student-centered educational approaches, where problem-based learning has a significant influence while discovery-based learning produces minimal net benefit. The primary distinction lies in the extent to which educators engage with learners through comparable methods of asking, offering precise instructions, and consistently assessing comprehension.

Additionally, you'll need to teach a lot of communication skills clearly and intentionally. Consider the abilities required to sum up a discussion. Your learners must understand what a summary is. To structure a summary of a conversation, they could additionally require some sentence stems.

One of the difficulties in imparting communication skills is this: How "good" is defined in each situation varies. The abilities required to solve a problem or participate in a group discussion are distinct from those required to talk in front of an audience and hold a room. How can you go about teaching something that is elusive and difficult to define?

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

English learners can do well in class but do not necessarily have sociolinguistic competence. (Shohobutdinova D., Djuraeva N., Tolipova A., Muminova M., Yusupalieva Sh., 2023) Luckily, we can promote him a new set in many ways.

 ISSN 3030-3273

The questions for reflection made me call back the process of teaching at the university and analyze to what extent our students are competent in sociolinguistic field. Just now, no matter whether a given class is considered more communicatively oriented or less, sociolinguistic instruction is mostly neglected in classroom practice. (Aldohon H., 2014: 56-67) Although the students have different learning outcomes in speaking and listening skills, they do not differ in sociolinguistic performance. The group of students, for whom I teach, are future textile specialists. For them it is one of the most vitally important essence of language features to acquire. What this competence means and how it should be developed. (Yusupalieva Sh., 2023: 85-87) For me it is important to explore it by becoming language learners in which my students see how this competence can be developed during the lessons, as they will have to make contracts in the field of business. I would argue that within textile, there is an almost infinite variation of situations, which require an appropriate form of language behavior. In many of the set situations such as letter writing, there are often clear rules to follow depending on the type of letter (for example a letter requesting the payment of an overdue account will be different to that welcoming a new client). (Kletz I., 2015: 83-89) Using spoken materials as a lesson mostly focus on improving speaking skill of the students. Besides, it is possible to use media material such as videos from You Tube. For example, a short video about fibers. What sort of tasks are required- discrete points, integrative, simulated "authentic", objectively assessable? In the survey, test-takers will have to use the appropriate phrases about the "What is fiber?" As, for authentic fashion, fiber not only motivate them but also, give them information about phrases and constructions that are used in real life situations. (Coyle D., 2007: 543-567)

Due to this, an increased emphasis on communicative development is crucial for the English language learner in the process of language learning.

REFERENCES:

1. Jonassen H. (1999) "Constructing learning environments on the web: Engaging pupils in meaningful learning" Ed. Tech 99: Educational Technology Conference and Exhibition 1999: Thinking Schools, Learning Nation. – pp. 45-46.

2. Alijonovna M.M., Yusupalieva, Sh.K., Sattorova, S.T. (January 2021) "Syntactic functions and patterns of combinability of adverbs" JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. – India: Novateur publications ISSN No: 2581 – 4230. VOLUME 7, ISSUE 1. – pp. 176-178.

3. Yusupalieva, Sh, Sattorova, S. (2021) "The importance of speaking in EFL classes classes" International journal of discoveries and innovations in applied sciences. – Indonesia: Volume 1 Issue 4, 2021. – pp. 63-65

4. Constant L. (2005) “Convivial communication: recontextualizing communicative competence” International Journal of Applied Linguistics. – pp. 43-44.

5. Shohobutdinova, D., Djuraeva, N., Tolipova, A., Muminova, M., Yusupalieva, Sh. (2023) “Aesthetic and linguistic characteristics of comedy in a foreign language” https://tnu.tj/index.php/ru/e3s-web-of-conferences/

6. Aldohon H.I. (2014) “English for Specific Purposes (ESP) for Jordanian workplace: Needs and problems” International Education Studies, 7(11). – pp. 56-67.

7. Yusupalieva, Sh.H. (2023) “Methods of effective use of communicative competence in the organization of foreign language classes in technical higher educational institutions” FSU scientific posts 1. – pp. 85-87.

8. LDCE: Longman Dictionary of Contemporary English**.** Pearson Education Limited. Fourth Edition, 2005.

9. Komarova, A.B. (2013) “Subject-language integrated learning” Fundamental and applied research in the modern world. Vol. 3. No. 4. – pp. 143-146.

10. Kletz, I. E. (2015) “On the use of subject-language integrated learning CLIL in the system of foreign language training of students” Foreign languages: linguistic and methodological aspects. No. 30. – pp. 83-89

11. Coyle D. (2008) Content and Language Integrated Learning. Motivating Learners and Teachers. http://blocs.xtec.cat/clilpractiques1/ files/2008/11/slcoyle.pdf

 ISSN 3030-3273

SULTON HUSAYN BOYQARO HUKMRONLIGI DAVRIDA DINIY ULAMOLARNING O‘RNI

THE ROLE OF RELIGIOUS SCIENTISTS DURING THE RULE OF SULTAN HUSAYN BAYQARA

РОЛЬ РЕЛИГИОЗНИХ УЧЕНИХ ВО ВРЕМЯ ПРАВИТЕЛЯ СУЛТАН ХУСЕЙН БАЙКАРА

Jo‘rayev Sherzod Norovich,
Oriental universiteti, Tarix kafedrasi katta o‘qituvchisi
+99890 986-75-39
largov1900@gmail.com
ORCID ID: 0009-0002-5989-8954

Annotatsiya: Ushbu maqolada Temuriylar saltanatining eng yorqin vakillaridan biri bo‘lgan Sulton Husayn Boyqaroning hokimiyatga kelishi tarixi, Xuroson va Movarounnahrdagi iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, uning davlat va jamiyat hayotini ijobiy tarafga o‘zgartirish uchun olib borgan islohotlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Sulton Husayn Boyqaro davrida faoliyat yuritgan diniy ulamolar, ularning jamiyatdagi ta’sir darajasi, saroy va uning tashqarisida tutgan o‘rni ham tadqiq qilingan. Temuriy hukmdorlar davrida har qanday yirik masala yuzasidan yoki butun mamlakatga tegishli qonun va qarorlar qabul qilishda diniy ulamolarning maslahati bilan ish tutilganligi, hamda diniy ulamolarning siyosiy jarayonlarga ham aralashuvi masalasi bayon etiladi. Tadqiqot davomida, diniy ulamolarning saltanatda obro‘si yuqori bo‘lganligini, hukmdorlar ular bilan doimiy tarzda muloqotda bo‘lganligi va maslahatlar olib turganligini ko‘rishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: *Temuriylar, Movarounnahr, Sulton Husayn Boyqaro, Abu Said, Yodgor Mirzo, Abdurahmon Jomiy, Qorabog‘.*

Annotation: This article contains information about the history of the rise to power of Sultan Husayn Bayqara, one of the brightest representatives of the Temurid Empire, economic and political processes in Khorasan and Transoxiana, as well as the reforms he carried out to change state and public life for the better. The existence of the religious scholars during the reign of Sultan Husayn Bayqara, their active level of influence in society, and their role in the palace and beyond were also studied. During the period of the Temurid rulers, the issue of the consultation of the religious scholars in the adoption of laws and decisions related to the whole country on any major issue, and the issue of the intervention of the religious scholars in the political processes is explained. During the research, we can notice that the religious scholars had a high

reputation in the kingdom, and the rulers constantly communicated with them and received advice.

Key words: *Temurids, Movarounnahr, Sultan Husayn Bayqara, Abu Said, Yodgor Mirza, Abdurahman Jami, Karabagh.*

Аннотация: В данной статье собраны сведения об истории прихода к власти султана Хусейна Байкара, одного из ярчайших представителей империи Темуридов в экономических и политических процессах в Хорасане и Мавераннахре, а также о проведенных им реформах по изменению государственной и общественной жизни к лучшему. Также изучалось существование религиозных учёных в период правления султана Хусейна Байкара, их активный уровень влияния в обществе, их роль во дворце и за его пределами. В период правления Темуридов разъясняется вопрос консультаций с религиоведами при принятии законов и решений, касающихся всей страны по какому-либо крупному вопросу, а также вопрос вмешательства религиоведов в политические процессы. В ходе исследования мы видим, что религиозные учёные имели высокую репутацию в стране, а правители постоянно общались с ними и получали советы.

Ключевие слова: *Темуриды, Мавераннахр, Султан Хусейн Байкара, Абу Саид, Ядгар Мирза, Абдурахман Джами, Карабаг.*

KIRISH

Yurtimizda davlatchilik paydo bo‘lishidan boshlab uning to hozirgi kungacha bo‘lgan shakllanish va taraqqiyotida ko‘plab sulolalar va hukmdorlar kelib ketdi. Ularning davlatchilik tajribalari hali-hanuz o‘rganiladi, yutuqlari-yu muvaffaqiyatsizliklari, yuksalish hamda tanazzuli sabablari tahlil qilinib, kerakli xulosalar olinadi. Jumladan, Amir Temur davlatining davomchisi hisoblangan Husayn Boyqaro davlati tarixda 1469-yildan 1507-yilga qadar davom etib, 37 yillik davrni o‘z ichiga oladi. Husayn Boyqaro uzoq yillik kurashlar oqibatida 1469-yilda taxtni egallaydi. Uning hokimiyatga kelishi bilan bog‘liq vaziyat butun Temuriylar oilasi uchun tahlikali davrda ro‘y berdi. Sulton Abu Said Qorabog‘da turkmanlar qo‘lida vafot topadi. Turkmanlar temuriy shahzoda Yodgor Mirzoni shoh ko‘tarib, butun Xurosonga da’vogarlik qila boshlaydi. Abu Saidning o‘g‘li Sulton Mahmud Hirotga tezlikda qaytib o‘z nomiga xutba o‘qitadi. (Самарқандий, Абдураззоқ, 2008: 619) Shunday vaziyatda Sulton Husayn Boyqaro Xuroson taxtini egallab, ko‘p yillar davomida davlatni adolatli tarzda boshqaradi. Uning boshqaruvi davrida diniy ulamolarga bo‘lgan hurmat oshib, o‘z qarorlarini qabul qilishida ularning maslahatlari bilan ish ko‘rganligi tarixiy manbalarda qayd etiladi. Qolaversa, Xo‘ja Ahror Valiydek ulug‘ zot ham Husayn Boyqaro zamonida yashagani biz uchun mazkur mavzuni katta qiziqish bilan tadqiq etishimizga sabab bo‘ldi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Husayn Boyqaro davri, xususan, temuriy hukmdorlarning boshqaruvi zamonidagi diniy olimlar haqida mahalliy tarixchilarimiz bilan birgalikda, dunyoning boshqa davlatlaridagi izlanuvchilar ham ko‘plab tadqiqotlarni amalga oshirishgan. Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida davriylik, sulolaviylik, hududiylik kabi jihatlarga e’tibor qaratildi. Ayniqsa, hududiy nuqtai nazardan Xuroson va Movarounnahr tarixi tadqiq qilinganida, har ikki hududning o‘xshash va farqli jihatlari o‘zaro taqqoslanib o‘rganilganini ko‘rishimiz mumkin. Shartli ravishda bu davrga oid tadqiqotlarni mahalliy (Муқимов З., 2016; Ҳайитметов А., 1996) va xorijiy (Lentz Th., Lowry G., 1989; Mulavi Abdul Muqtadir, 2017; Abel Pavet de Courteiile, 1871; Efthymiou M., 2014) adabiyotlarga bo‘lishimiz mumkin. Turkiyada bu mavzuga yaqin bo‘lgan bir nechta ilmiy ishlar (dissertatsiyalar) himoya qilingan. Talip Yildirim (Talip Yildirim, 2002), Yusuf Ziyo (Yusuf Ziyo Soylemez, 2023) kabi izlanuvchilar asosan kichik mavzularni tadqiq qilishgan, biroq diniy ulamolar haqida tadqiqotlar yaxlit tarzda olib borilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi davridagi din olimlarining rolini o‘rganish uchun birlamchi va ikkilamchi manbalar birikmasidan foydalanildi. Asosiy manbalar qatoriga Sulton Husayn Boyqaro davridagi qo‘lyozmalar, tarixiy hujjatlar va shaxsiy kundalikka qayd etib borilgan asosli ma’lumotlar kiradi. Ushbu manbalar o‘sha davrda yashagan shaxslarning bevosita guvohligini e’tirof etadi. Birlamchi manbalardan tashqari, tarixiy davr va diniy ulamolarning o‘sha davrdagi roli haqida kengroq tushuncha berish uchun tarixiy kitoblar, maqolalar va akademik tadqiqotlar kabi ikkinchi darajali manbalarga murojaat qilindi. Bu ikkilamchi manbalar birlamchi manbalarni har tomonlama tahlil qilish va izohlashga yordam berdi.

Tadqiqot jarayoni mavzu bilan bog‘liq tegishli manbalarni aniqlash uchun to‘liq adabiyotlarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Keyin bu manbalar tahlil qilinib, umumlashtirilib, Sulton Husayn Boyqaro davridagi diniy olimlarning roli to‘g‘risida izchil ma’lumotlar shakllantirildi. Shuningdek, mavzu yuzasidan mutaxassislarning fikr va qarashlarini to‘plash maqsadida islom tarixi va dinshunoslik sohasiga ixtisoslashgan olimlar bilan suhbatlar o‘tkazildi. Ushbu suhbatlar tadqiqot natijalarini boyitadigan qimmatli ma’lumotlarni taqdim etdi. Umuman olganda, Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi davridagi diniy olimlarning rolini har tomonlama tadqiq qilish uchun birlamchi va ikkinchi darajali manbalar, adabiyotlar sharhlari va ekspertlar fikrlaridan foydalanildi. Mazkur maqola yozilishida asosan muammoviy usuldan foydalanilib, adabiyotlardan ham foydalanishda shunga e’tibor qaratildi. Maqoladagi ma’lumotlar davriylik jihatidan tizimli tarzda berilmagan bo‘lsa-da, hududiy jihatdan asosan Xuroson mintaqasiga urg‘u beriladi.

 ISSN 3030-3273

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘sha davrda xalqqa mard, jasur hukmdor zarur bo‘lib, xalqning xavfsirashi juda o‘rinli edi, chunki turkmanlar keltiradigan talafotlar haqida xalq bilan bu holatni bartaraf eta oladigan kuch lozim edi. Sulton Husayn Boyqaroning janglarda qilayotgan jasoratlari xalq orasida tarqalganligi tufayli xalqning to‘p-to‘p bo‘lib Sulton Mahmuddan yuz o‘girishiga sabab bo‘ladi. Manbada ushbu holat quyidagicha keltiriladi. “Sulton Abu Said Mirzoning qayg‘uli voqeasi xabari hirotliklarga aniq-tiniq ma’lum bo‘lgach, xalqning ko‘pchiligi Hirotga kelib, o‘zi va ota-bobosi nomiga xutba o‘qitgan Sulton Mahmud Mirzoga emas, balki mansur xoqonga tarafdor bo‘lib, to‘p-to‘p umid yuzini ul hazrat olampanoh dargohiga qaratdilar. Shunga ko‘ra, Sulton Mahmud Mirzo Movarounnahr tomon ketishga majbur bo‘lib, yo‘l sari qo‘zg‘aldi”. (Хондамир, Ғиёсиддин, 2013: 704)

Xondamirning ta’kidlashicha, ayni shu holatda chekinayotgan Sulton Mahmud yarim farsax masofadan o‘tayotgan edi, Husayn Boyqaro amirlari jangga ruxsat so‘rashganda Husayn Boyqaro muruvvat yuzasidan ruxsat bermadi, deyiladi. Ammo, siyosat yuzasidan qarasak, turkmanlar xavfi oldida arzimagan o‘ljani deb bo‘lajak ittifoqchini tutish vaziyatga noto‘g‘ri baho berish bo‘lardi. Hirotda esa bu paytda to‘s-to‘polon boshlanib, bebosh amirlar xalq mulkiga qo‘l cho‘zdi. Eski gina-kuduratlar o‘rtaga chiqib zo‘ravonlik kuchayganligi oqibatida og‘ir vaziyat vujudga keldi. Husayn Boyqaro shaharga kirmasdan Shayx Abusaidxon Darmiyon Hirot dorug‘asi etib tayinlanadi. Shaharga kirgan dorug‘a xalqning moliga qo‘l cho‘zgan fitna va fasod ahlidan anchasini boplab ta’zirini berib, adolat va dod so‘rash palosini yoydi. Jar chaqirtirib “Hech bir odam biron-bir sabab bilan bo‘lsa ham, hech kimsaga tegmasin” (Хондамир, Ғиёсиддин, 2013: 705) degan buyruqni xalqqa yetkazdi va ul janobning insofliligi sharofatidan hirotliklar bebosh va buzuqilarning jabr-u jafosidan qutuldilar. Xondamirning yozishicha, 1469-yil 24-mart kuni Hirotda juma kuni katta Jome’ masjidida Sulton Husayn Boyqaro nomiga xutba o‘qiladi va taxtga kelganda, dastlabki muammo – davlatning diniy mafkurasi masalasi o‘rtaga chiqadi. Bir guruh olimlar “shia” mazhabini davlat mazhabi deb e’lon qilish borasida tashviqot boshlab yuborishadi. Katta ko‘chalarda shialar va sunniylar o‘rtasida janjallar boshlanadi. Hirotda o‘ta darajada e’tiborli va qudratli bo‘lmish hanafiy mazhabining vakillaridan bir guruhi saltanat poyiga borib, ahli sunna rasm-rusumlarini ustun tutish borasida so‘zlar aytib, xutbani o‘zgartirish fikridan qaytarishga erishdilar.

O‘sha vaqt bu jamoa iltimosini qabul qilib, fitr hayiti kuni xatib xutbani taomil bo‘yicha o‘qidi. (Хондамир, Ғиёсиддин, 2013: 709) Bu voqea 1469-yil 14-aprel kuniga to‘g‘ri keladi. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Sulton Husayn qiyin vaziyatda Abdurahmon Jomiyga xat yozib maslahat so‘raydi. Javobda esa ahli sunna yo‘lida qolish tavsiya etiladi. Bu oqilona tadbir, ya’ni ahli ilm va olimlar bilan maslahatlashib ish yuritish, davlatda hukmdoriga nisbatan xalq ishonchini oshiradi.

 ISSN 3030-3273

Keyingi tadbirlardan biri Sulton Husayn Boyqaro Sulton Abu Said Mirzoning qizi Shahrbonu begimga uylanishidir. Sulton Abu Saidning farzandlari katta mavqe va kuchga ega ekanligini inobatga olsak, bu nikohdan siyosiy maqsadlar borligi aniq bo‘ladi. Fikrimizni tasdiqlaydigan holat shuki, Shahrbonu begim bilan oralari kelishmay qolgan Boyqaro, Shahrbonuni taloq qilib Samarqandga jo‘natib yuboradi, lekin uning singlisi Poyanda Sultonbegimni o‘z nikohiga oladi. Ikki o‘rtada muhabbat rishtalari vujudga keladi. Davlat tamoyillarini mustahkamlovchi yana bir tadbir bu yangi qarorgohning qurilishidir. “Jahonoro” deb nomlanuvchi qasr loyihasi ishlanib, qisqa vaqt ichida qurib bitkaziladi va Shohrux davridan beri podshohlar qarorgohi bo‘lmish “Bog‘i Zog‘on” qasridan u yerga ko‘chiladi. Manbada keltirilishicha, bu qasrni ko‘rkam va chiroyli qilishda umri davomida tirishib, kuch va mablag‘ini ayamadi. (Хондамир, Ғиёсиддин, 2013: 709) Bu tadbirlardan maqsad Shohrux avlodlari oldida yangi saroy qurib, uning xotirini qilib, bu joyni muqaddas deb bilish, yoki o‘z davlatida yangi qarorgoh qurish masalasi o‘zligini yana bir namoyon qilish bo‘lgandir, ehtimol.

Sulton Husayn Boyqaroning oldiga Mir Alisher Navoiy Movarounnahrdan keladi. Mavlono Qutbiddin Tovus Semnoniy, Xoja Sayfiddin Muzaffar kabi obro‘li olimlar ham Iroq va Ozarbayjon tarafdan kelishadi hamda kerakli vazifalarga tayinlanadilar. (Хондамир, Ғиёсиддин, 2013: 711)

1469-yil 24-iyulda Husayn Boyqaroning onasi Feruzabegim olamdan o‘tadi. Shoh g‘amga botib, davlat ishlariga qo‘l siltab qo‘yadi. Motam marosimlarini bajarishga kirishib, bir necha kun osh berib onasiga atab Xiyobon ko‘chasida maqbara qurdiradi.

Ayni shu damlarda turkmanlar ichida yashayotgan Yodgor Muhammad Mirzo Xurosonga yurish qiladi. Bu Temuriy shahzoda tarbiyasi bilan o‘qimishli va oqila ammasi Poyanda Sulton begim shug‘ullangan bo‘lib, Poyanda Sulton begim maslahati bilan turkman Jahonshoh qoraquyunlilar saroyida edi. Jahonshoh o‘lgach, oqquyunli qabilasi yetakchisi Hasanbek Yodgor Mirzoga hurmat ko‘rsatib, unga yordam beradi. U Yodgor Mirzoga merosiy mamlakatini olish uchun katta qo‘shin yuboradi. Bu voqealar 1469-yil sentyabr oyida bo‘lib o‘tadi. Yodgor Mirzoning dastlabki urushi mag‘lubiyat bilan tugaydi. Yodgor Mirzoga turkmanlarning katta qo‘shini madadi va bundan tashqari, temuriy amirlar va barlos beklarining ham madad berishlariga qaramay, Sulton Husayndan yengiladi. Jangda Sulton Husayn jasorat ko‘rsatadi. (Хондамир, Ғиёсиддин, 2013: 717) Asirga olinganlar qatl etiladi, Shayx Said To‘g‘oniy, Muhammad Ko‘kaldosh, Amir Ayyub kabi ko‘plab amirlar asirga olinadi. Amir Ayyub, Amir Ahmad, Sulton Hasan ismli amirlar tirik qoldirilib, ko‘p nufuzli amirlar ham qatl etiladi. G‘alabadan keyin Sulton Husayn Boyqaro aysh-ishrat bilan vaqt o‘tkazadi. Dushmanning keyingi taqdiri va uning orqasida turgan turkmanlarning hujumi haqida qayg‘urilmaydi. Turkmanlar Sardori Amir Hasanbek va oqquyunli

 ISSN 3030-3273

qabilasi dushmanlari sanalgan qoraquyunli qabilasi shahzodasi Ibrohim Mirzo boshchiligida Yor Ali Turkman, Bayram va Muhammad Ali Shakar kabi amirlar 1000 nafar askar bilan Sulton tomonga o‘tadi. Ularni yaxshi kutib olgan Sulton Husayn ularga to‘la quvvat bilan yordam beradi. Amir Hasandan elchi kelib, ularni qaytarib berish talab qilinganda ham sergaklanmaydi. Axir, elchilikdan boshqa maqsadlar ham bor ediki, vaziyatni sinchiklab o‘rganish, qo‘shinning ahvoli, amirlarning kayfiyatini bilish yoki vaqtdan yutish va hokazo kabilar. Bizningcha, bu talab faqat vaqtdan yutish hisoblangan, chunki Yodgor Mirzoga 2 ming boshdan oyoq qurollangan qarindoshlari bo‘lgan Amir Yusufbek, Amir Husaynbekni yordamga jo‘natadi. Bu ham yetmaganidek, Qoin viloyati amirlari qarindoshlari urishib uning oldiga kelganda, ming nafar askar berib, Husayn Boyqaroning noibi hisoblangan Qahdiston amiri Amir Shayx Zohid Toramiy ustiga yuboradi va ular amirni o‘ldirib viloyatni bosib oladilar.

Bu xabarlarning Hirotda keng tarqalishi esa Amir Ayyub Shayxiy Jaloyir, Ne’mat Xorazmiy kabi amirlarning Yodgor Mirzo tomonga qochib ketishiga sabab bo‘ladi. Aynan shu davrda Astrobod shahriga kiraverishda o‘tirgan Amir Hasan Shayx Temur Yodgor Mirzodan yengilibdi va bir necha kun qal’ada qamalda qolib keyin Yodgor Mirzoga taslim bo‘libdi, degan mish-mishlar askargohda keng tarqaladi. Natijada lashkarlar to‘p-to‘p bo‘lib qochib keta boshlaydilar. Saltanat ustunlaridan bo‘lgan amirning dushman tomonga o‘tishi qolgan askarlarning qochib ketishiga turtki bo‘ladi. (Хондамир, Ғиёсиддин, 2013: 722) Demak, Sulton g‘oyaviy kurashga, ya’ni axborot xurujlariga e’tibor bermagan, yoki bu kabi xabarlarni oldini olishga urinmagan. Askarlar va xalq orasida tarqaladigan xabarlarning tahlili qilinmagani, ularga qarshi kurashilmagani davlatni jiddiy zaiflashtirdi.

Yodgor Mirzo qo‘shini dastlabki jangda Boyqarodan mag‘lubiyatga uchraganda, bir qism askarlar qochib, Nishopur atrofida zo‘ravonlik qilib yurishgan va keyinchalik Isfahon shahriga kelgan Yodgor Mirzo haqida eshitib, unga borib qo‘shilishadi. Demak, bu holatda mamlakat dushmandan to‘liq tozalanmasdan bayram tadbirlari boshlab yuborilganligiga guvoh bo‘lamiz.

Undan tashqari, Sulton Husayn o‘ta qattiqqo‘llik bilan jazo choralarini qo‘llaydi. Masalan, Sabzavor shahriga Yodgor Mirzo qo‘ygan Qozibek bilan 70 jangchi asirga olinadi va Qozibekdan boshqa barchasi qatl etiladi. (Хондамир, Ғиёсиддин, 2013: 720) Yoki Panjdahana mavzesida asirga olingan ulug‘ amirlarning barchasi qatl etiladi. Hasanbek Oqquyunlining xos navkari bo‘lgan birgina kishi tirik qoldiriladi. Bu holat esa dushmanni qattiq jang qilishga undaydi va Sulton Husayn amirlarining esa qo‘rquviga sabab bo‘ladi.

1470-yillar boshida Yodgor Mirzo ovozasi kelib askarlari kamayib qolgan Sulton Husayn Mashhad shahriga yo‘l oladi. Imomlardan biri hisoblangan Ali ibn Muso ar-Rizo ziyoratgohi tomon yo‘l oladi. Qurbonliklar qilib, Allohdan madad tilaydi. Bu holatda shia imomlarining g‘oyaviy markaziga kelinishi ham ilohiy madad tilash va

 ISSN 3030-3273

maqsad Xurosondagi shia ulamolarining mehrini qozonish bo‘lganligi ehtimoldan yiroq emas. Mashhad atrofida turgan Sulton Husayn Hirotda xalq qo‘zg‘oloni bo‘lganligi haqida xabar oladi. Qo‘zg‘olon sababi quyidagicha keltiriladi, Xo‘ja Abdulloh ismli amaldor Devon boshlig‘i bo‘lgan Xoja Qutbiddin Tovus Semnoniy ustidan chaqimchilik qiladi. Natijada Xoja Qutbiddin Tovus Semnoniy hibsga olinadi va mol-mulki musodara qilinib, 300 ming dinor jarimaga tortiladi. Uning o‘rniga Xoja Abdulloh va Xo‘ja Nizomiddin Baxtiyoriy oliy devon boshlig‘i etib tayinlanadilar. (Хондамир, Ғиёсиддин, 2013: 723) Ularning soliqlarni oshirishi, jabr-zulmni kuchaytirishi qo‘zg‘olonga sabab bo‘lib, devon o‘rab olinadi. Xoja Qutbiddin Tovus Semnoniy toshbo‘ron qilinadi va madrasa hujralaridan biriga kirib zo‘rg‘a omon qoladi. Bu zo‘ravonlikni tugatish uchun Alisher Navoiy yuboriladi. Mir Alisher Navoiy taftish ishlarini olib borib isyonni tinchlantiradi. Xalqni tinchlantirish uchun farmon, ya’ni soliqlar nohaq olinishining bekor qilingani barcha minbarlardan o‘qib beriladi. Bechoralarga yordam berilib, mazlumlarning shikoyatlari ko‘rib chiqiladi. Bosh aybdor Xo‘ja Nizomiddin Baxtiyoriy kishanlanadi va uning o‘rniga Xoja Qutbiddin Tovus qayta devonga tayinlanadi. Mir Alisher Navoiy boshchiligidagi guruh qo‘zg‘olonni tinchitishga erishadi va Xondamirning ta’kidlashicha, bu ish Navoiyning davlat amaldorlari orasida hurmati oshishiga sabab bo‘ladi. Bu holatda ham xulosa chiqaradigan eng muhim jihatimiz urush davrida xalqning ishonchini qozongan bosh vazir tekshirib ko‘rilmasdan, davlat oldida dushman hujumi turgan og‘ir vaqtda almashtirilganligi va xalq asosiy tayanch ekanligiga e’tibor berilmasdan soliqlarning oshirilishi og‘ir oqibatlarni keltirib chiqarishi edi.

Askarlari kamayib ketgan Sulton Husayn Boyqaro arlot qabilasi ichiga chekinadi. Hirot qal’asi darvozalarini esa Poyanda Sulton begim berkitib, hatto Yodgor Muhammad Mirzo Tus shahrida ekanligida 1470-yil 5-iyulda uning nomiga xutba o‘qittirib, bayram boshlab yuboradi. Yodgor Mirzo Hirot shahriga 1470-yil 7-iyulda kirdi va 8-iyulda qadimiy boshqaruv qasri Bog‘i Zog‘onga kirdi.

Amir Hasanbekning turkman amirlari Xurosonda qolishga qaror qiladi va bu shundoq ham qiynalgan xalqning azobini kuchaytiradi. Ularning zo‘ravonligi e’tiborsiz qoldiriladi. Davlat boshqaruvi esa Xoja Qutbiddin Tovus va Poyanda Sultonbegim qo‘lida qoladi. Manbada shahzoda Yodgor Mirzo aysh-u ishratga beriladi, mamlakat ishlariga parvo qilmaydi, zulm ko‘rganlarning arizalari tekshirilmaydi, deb eslatiladi. (Хондамир, Ғиёсиддин, 2013: 728) Turkman amirlaridan Xalil oqquyunli Rodgon aholisiga, Zaynalbek oqquyunli Kurdiston aholisiga zulmni kuchaytiradi. Hatto, ko‘pgina Xurosonliklar boshqa yurtlarga ko‘chib keta boshlaydi. Kuchli amirlardan Amir Hasan Temurning o‘z suyurg‘oliga ketishi Hirotda biror bir sergak kishi qolmaganligini bildiradi. Podshohning tinmay ichkilikka berilib qolishi, turkmanlar zo‘ravonligining kuchayishi, islom hukmlari buzilib, qonun-qoida qolmaganligi xabarlari Sulton Husaynga yetib kelgach, tavakkal qilib Hirotga

 ISSN 3030-3273

bostirib borishga qaror qiladi. Bu qarorni faqat Alisher Navoiy bilan maslahatlashganligi va Navoiy fikrini eshitganligi manbada keltiriladi. Navoiy bu niyatni o‘ta yashirin tutish lozimligini ta’kidlaydi va “Agar bu so‘zni menga ham aytmaganingizda yaxshiroq bo‘lardi”, - deya qo‘shimcha qiladi. Bu darajada xavfsirash nima uchun deb so‘ralganda Yodgor Mirzo panohiga qochmoqchi bo‘lgan kishilar bu xabarni bilsalar, tezda o‘sha tomonga qochadilar va sizga qarshi chora ko‘rishadi, deb javob beradilar. Murg‘ob vohasiga kelgach, temir sovutlar taqsimlanadi va 850 kishi mukammal qurollanib, Hirot tarafga qarab yo‘lga tushadi. Yo‘lda askarlarning ruhini ko‘taruvchi voqea yuz beradi: Bobo Xokiy ismli mashhur zohid tariqat vakillaridan biri bo‘lib, bu kishi tarki dunyochilik bilan shug‘ullangan va biror shoh yoki amirni o‘ziga do‘st tutmagan edi. Bobo Xokiy Amir Temur askarlaridan biri bo‘lganligi odatiga xilof ravishda Sulton Husayn istiqboliga chiqishi bir tug‘, bir qo‘y, bir o‘q-yoy berib xoqonni manziliga tushirib ovqat tortishi va Hirot tomonga qarab qo‘lidagi qilich bilan uch marta o‘qtalib, nayzasini Sulton Husaynga berishi askarlarni shijoatlantirib yuborganligini aytib o‘tishni lozim topdik. Qisqasi, shuncha katta qo‘shin bo‘lishiga qaramay, g‘aflatda yotgan Yodgor Mirzo ichkilik oqibatida davlatni boy beradi va o‘ldiriladi. 850 kishi hech yo‘qotishlarsiz katta davlatni egallaydi. Davlatni egallagan Sulton Husayn qozi Qutbiddin Ahmad al-Imomiy, mavlono Kamoliddin Shayx Husayn at-Taqaviy guvohligida quyidagicha farmon chiqaradi: “Qishloq aholisi-yu dehqonlar, Hirot aholisi va unga tutash mahallalardagi kosib-u hunarmandlar ikki yilgacha xiroj solig‘i va qo‘shin puli solig‘idan ozod bo‘ladilar. Belgilab qo‘yilsinkim, devon amaldorlari o‘sha soliq pullarini undirish uchun fuqaroning yaralangan dillariga tuz sepmasinlar”. (Хондамир, Ғиёсиддин, 2013: 736) Xuddi shu holat Abdurazzoq Samarqandiy asarida ham keltiriladi. Faqat qo‘shimcha tarzda qozi Qutbiddin Ahmad al-Imomiy, mavlono Kamoliddin Shayx Husayn shaxsan o‘zlari shahar atrofi va mahallalarni aylanib tushuntirish ishlarini olib borishlari tayinlanadi. (Самарқандий, Абдураззоқ, 2008: 667) Xondamirning ta’kidlashicha, qozi va mavlaviyning jar chaqirib aylanib yurishi odat tusiga kirmagan bo‘lsa-da, xalq bilan uchrashib bu farmon tushuntirib chiqiladi. Bu jarayonlarni kuzatsak, uchinchi renessans davrida hukumatimiz tomonidan amalga oshirilgan mahallama-mahalla ishlash haqidagi hukumat qarorlarining tarixiy ildizlari temuriylar davriga borib taqalishini his etamiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Temuriylar saltanati bu davrga kelib ikki qismga bo‘lib boshqarilgan bo‘lsa-da, davlatni adolatli idora etish usullari, diniy ulamolarga e’tiborning yuqoriligi jihatidan o‘xshash bo‘lgan. Sulton Husayn Boyqaro davrida Xurosonda bu masalada ancha ijobiy ishlar amalga oshiriladi. Masalan, 1470-yil 23-avgust kuni Xoja Abdulloh Ansoriyning mozoriga ziyoratga borgan Sulton Husayn mavlono Kamoliddin Shayx Husaynni chaqirib “Saltanat poytaxti Hirotni

 ISSN 3030-3273

xuddi Sulton Abu Said Mirzo zamonasidagi shariat qoidasi bo‘yicha boshqarmoq kerak. Agar shaxsan men yoki ukam yoki o‘g‘limga nisbatan shar’iy jazo qo‘llanish taqozo etib qolinsa, uning ijrosini orqaga surmaslik lozim”, - dedi. (Самарқандий, Абдураззоқ, 2008: 668) Shunga o‘xshash bir necha qonunlarning chiqarilishi davlatning xalq bilan hamohangligini ta’minlaydi. Bobur Mirzoning xabar berishicha, dastlab taxtni olgach, olti-yetti yil may ichmadi. Aynan shu dastlabki davrda davlat rivojlanishda davom etadi. Keyin esa ichkilikka berilib, qo‘chqor saqlab, kabutar saqlab, kabutarbozlik qilardi, xo‘roz ham urishtirardi. (Заҳириддин, Муҳаммад Бобур, 2019: 176) Bizning e’tiborimizni tortgan jihat shuki, 1469-yilning martidan 1470-yilning avgustiga qadar vaqt oralig‘ida Sulton Mahmud, Sulton Husayn, Yodgor Muhammad Mirzo, ya’ni uch Temuriy hukmdor taxtga kelib ketadi. Bularning har biri davlatni saqlab qolishga urinadi. Lekin Husayn Boyqaro amalga oshirgan tadbirlar o‘z natijasini beradi va xalqning qo‘llab-quvvatlashiga erishadi. Natijada Sulton Husayn Boyqaro davlati mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Самарқандий, Абдураззоқ. (2008) Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. Форс тилидан тарж., сўзбоши ва изоҳлар муаллифи А. Ўринбоев; Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси, Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. – Тошкент: Ўзбекистон. – 832 б.

2. Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. (2013) Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар. – Тошкент: Ўзбекистон. – 1265 б.

3. Заҳириддин, Муҳаммад Бобур. (2019) Бобурнома. Ҳозирги ўзбек тилига табдил қилганлар: Ваҳоб Раҳмонов, Каромат Муллахўжаева. – Тошкент: Ўзбекистон. – 440 б.

4. 152-sonli qaror, 19.03.2021. “Mahallabay” ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va aholining tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo‘llab-quvvatlash chora - tadbirlari to‘g‘risida” https://lex.uz/ru/docs/-5353246

5. Муқимов, З.Ю. (2016) Темурийлар. – Самарқанд. –154 б.

6. Ҳайитметов А. (1996) Темурийлар даври ўзбек адабиёти: тадқиқотлар, мақолалар, лавҳалар. Масъул мухаррир: Т. Мирзаев. – Тошкент: Фан. – 160 б.

7. Lentz Th. W., Lowry G. D. (1989) Timur and the Princely Vision. Persian Art and Culture in the Fifteenth Century. – Los Angeles. – 396 p.

8. Mulavi Abdul Muqtadir. (2017) Catalogue of the Arabic and Persian Manuscripts in the Oriental Public Library at Bankipore: Persian Poets, Pirdausi to Hafiz. Forgotten Books. – 294 p.

9. Abel Pavet de Courteiile. (1871) Mémoires de Baber (Zahir–ed–Din–Mohammed), fondateur de la dynastie Mongole dans l’Hindoustan / traduit du Tchaghataï par Abel Pavet de Courteiile. –Paris, Maisonneuve. – 467 p.

 ISSN 3030-3273

10. Efthymiou M. (2014) L'art du livre en Asie centrale de la fin du XVIe siècle au début du XXe: Étude des manuscrits coraniques de l'Institut d'Orientalisme Abu Rayhan Biruni. – Leiden. – 224 p.

11. Talip Yildirim. (2002) Huseyin Baykara Divani. – Anqara. – 343 s.

12. Yusuf Ziyo Soylemez. (2023) Timurlular do'neminde Herat. Doktorlik dissertatsiyasi. – Malata.

REFERENCES:

1. Samarqandiy, Abdurazzoq. (2008) Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. Fors tilidan tarj., so'zboshi va izohlar muallifi A. O'rinboyev; O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. – Toshkent: O'zbekiston. – 832 b. (In Uzbek)

2. G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. (2013) Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. – Toshkent: O'zbekiston. – 1265 b. (In Uzbek)

3. Zahiriddin, Muhammad Bobur. (2019) Boburnoma. Hozirgi o'zbek tiliga tabdil qilganlar: Vahob Rahmonov, Karomat Mullaxo'jayeva. – Toshkent: O'zbekiston. – 440 b. (In Uzbek)

4. 152-sonli qaror, 19.03.2021. "Mahallabay" ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va aholining tadbirkorlik tashabbuslarini yana-da qo'llab-quvvatlash chora - tadbirlari to'g'risida" https://lex.uz/ru/docs/-5353246 (In Uzbek)

5. Muqimov, Z.Yu. (2016) Temuriylar. – Samarqand. –154 b. (In Uzbek)

6. Hayitmetov A. (1996) Temuriylar davri o'zbek adabiyoti: tadqiqotlar, maqolalar, lavhalar. Mas'ul muxarrir: T. Mirzayev. – Toshkent: Fan. – 160 b. (In Uzbek)

7. Lentz Th. W., Lowry G. D. (1989) Timur and the Princely Vision. Persian Art and Culture in the Fifteenth Century. – Los Angeles. – 396 p.

8. Mulavi Abdul Muqtadir. (2017) Catalogue of the Arabic and Persian Manuscripts in the Oriental Public Library at Bankipore: Persian Poets, Pirdausi to Hafiz. Forgotten Books. – 294 p.

9. Abel Pavet de Courteiile. (1871) Mémoires de Baber (Zahir–ed–Din–Mohammed), fondateur de la dynastie Mongole dans l'Hindoustan / traduit du Tchaghataï par Abel Pavet de Courteiile. – Paris, Maisonneuve. – 467 p. (In French)

10. Efthymiou M. (2014) L'art du livre en Asie centrale de la fin du XVIe siècle au début du XXe: Étude des manuscrits coraniques de l'Institut d'Orientalisme Abu Rayhan Biruni. – Leiden. – 224 p. (In French)

11. Talip Yildirim. (2002) Huseyin Baykara Divani. – Anqara. – 343 s. (In Turkish)

12. Yusuf Ziyo Soylemez. (2023) Timurlular do'neminde Herat. Doktorlik dissertatsiyasi. – Malata. (In Turkish)

 ISSN 3030-3273

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA “KUTUBU-S-SITTA” TO‘PLAMLARINING O‘RGANILISHI

THE STUDY OF THE COLLECTIONS “KUTUBU-S-SITTA” AT THE END OF XIX AND BEGINNING OF THE XX CENTURIES

ИЗУЧЕНИЕ КОЛЛЕКЦИЙ «КУТУБУ-С-СИТТА» В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Alijonova Gulnozaxon Muhammad qizi,
Oriental Universiteti,
Tarix kafedrasi o‘qituvchisi, PhD
Tel: +998 99 871-11-92
gulnozaalijonova58@gmail.com

Annotatsiya: Islom sivilizatsiyasi jahondagi barcha sivilizatsiyalardan o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari bilan ajralib turgan. Bu tamaddun, xususan, islom madaniyati rivojlangan hududlarda bir tomondan islom ilmlari, ikkinchi tomondan dunyo fanlari rivojlanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etgan. Maqolada islom hazorasining eng yorqin davrlarida yozilgan hadis ilmiga oid “Kutubu-s-sitta” (Sihohi sitta) to‘plamlarining XIX asr oxiri XX asr boshlarida o‘rganilishi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida “Kutubu-s-sitta” to‘plamlarining o‘rganilishida taqqoslash, tarixiylik kabi metodlar keng qo‘llanildi. Maqolaning yana bir o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, maqolada g‘arb islomshunos olimlari nigohida hadis to‘plamlarining tahlilidagi maqsadlar va g‘arb olimlaridan farqli o‘laroq, sharq olimlari “Kutubu-s-sitta” to‘plamlarining XI-XII asrlardagi obro‘sini qayta tiklashga harakat qilganligi tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *Islom madaniyati, “Kutubu-s-sitta”, Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Navaviy, Ibn Moja, Golziher, William Muir, Alois Sprenger.*

Annotation: Islamic civilization was distinguished from all civilizations in the world by its unique features. This civilization, especially in the regions where the Islamic culture is developed, gained special importance due to the development of Islamic sciences on the one hand, and world sciences on the other hand. The article analyzes the study of "Kutubu-s-sitta" (Sihohi sitta) collections in the end of the 19th century and the beginning of the 20th century of hadith science written in the brightest periods of Islamic civilization. During the research, methods such as comparison and historicity were widely used in the study of "Kutubu-s-sitta" collections. Another distinctive feature of the article is that the article discusses the goals of the analysis of hadith collections in the eyes of Western Islamic scholars and, in contrast to Western

 ISSN 3030-3273

scholars, the article also examines the efforts of Eastern scholars to restore the reputation of "Kutubu-s-sitta" collections in the XI-XII centuries.

Key words: *Islamic culture, "Kutubu-s-sitta", Imam Bukhari, Imam Muslim, Imam Nawawi, Ibn Majah, Golziher, William Muir, Alois Sprenger.*

Аннотация: Исламская цивилизация отличалась от всех цивилизаций мира своими уникальными особенностями. Эта цивилизация, особенно в регионах развития исламской культуры, приобрела особое значение в связи с развитием исламских наук с одной стороны и мировых наук с другой. В статье анализируется изучение сборников хадисоведения «Кутубу-с-ситта» (Сихохи ситта), написанных в наиболее яркие периоды исламской цивилизации, в конце XIX - начале XX веков. В ходе исследования широко использовались такие методы, как сравнение и историчность при изучении коллекций «Кутубу-с-ситта». Другой отличительной особенностью статьи является то, что в статье рассматриваются цели анализа сборников хадисов в глазах западных исламских учёных и, в отличие от западных учёных, в статье также рассматриваются усилия восточных учёных по восстановлению репутации коллекциях «Кутубу-с-ситта» в XI-XII вв.

Ключевые слова: *Исламская культура, «Кутубу-с-ситта», Имам Бухари, Имам Муслим, Имам Навави, Ибн Маджа, Гольцихер, Уильям Мьюир, Алоис Шпренгер.*

KIRISH

Islom manbalarida Qur’ondan keyingi ikkinchi manba hadis to‘plamlari hisoblanadi. O‘zida sahih hadislarni jamlagan ishonchli to‘plamlar Rosulullоh (s.a.v.)ning so‘zlari, xulqlari, fe’l va taqrirlarini o‘rganishda, hamda islomni tushunish orqali amaliyotga tatbiq etishda eng ishonchli manbalardan biridir. Shu bois, musulmon olimlari tomonidan hadis ilmi borasida ko‘plab kitoblar ta’lif etilgan. Mazkur kitoblar “rivoyat al-hadis” va “diroyat al-hadis” turkumlariga bo‘lingan.

III(hijriy)/IX(melodiy) asrda tasniflangan hadis ilmining eng ishonchli manbalari – “Kutubu-s-sitta” (“Sihohi sitta”) to‘plamlari hisoblanadi. Ushbu to‘plamlar tarkibiga Imom Buxoriy va Imom Muslimning “Sahih”lari, Imom Nasoiy, Ibn Moja, Termiziy va Abu Dovudning “Sunan” kitoblari kiradi. III/IX asrdan “Kutubu-s-sitta” to‘plamlariga sharhlar yozilib, olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. XIX-XX asrlarda amalga oshirilgan “Kutubu-s-sitta” doirasidagi tadqiqotlar islom tarixi, islom ilmlari, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, muhaddislar faoliyatini o‘rganish, hamda manbalarni tadqiq qilish borasida ilmiy izlanishlar olib boruvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

“Kutubu-s-sitta”ga doir izlanishlarni yorituvchi tadqiqotlarni zamonaviy va konseptual-uslubiy yondashuvlardan kelib chiqib, quyidagi 3 guruhga ajratish

 ISSN 3030-3273

mumkin: 1) G‘arbda “Kutubu-s-sitta” doirasida amalga oshirilgan izlanishlar; 2) Sharqdagi “Olti kitob” to‘plamini o‘rganishga oid bo‘lgan kitoblar va tadqiqotlar; 3) O‘zbekiston tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlar.

Birinchi guruhga g‘arbda “Kutubu-s-sitta” to‘plamining o‘rganilishini kiritish mumkin. Qur’oni Karimning XII asrda lotin tiliga, XIV asrdan boshlab ingliz, fransuz va ispan tillariga tarjima qilinishi hadislarni yanada chuqurroq tadqiq etishga undadi. Qur’oni Karim ustida olib borilgan tadqiqotlarning ko‘lami ortishi bilan XIX asrdan boshlab hadis sohasida keng ilmiy izlanishlar yo‘lga qo‘yildi. Bu izlanishlar natijasida “Kutubu-s-sitta” to‘plamiga ham murojaat qilinib, tadqiq etildi. G‘arbda ilk bor hadis ilmi va “Kutubu-s-sitta”ga oid tadqiqotlar Muhammad (s.a.v.) shaxsiyatlarini hamda hayotlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan asarlardan boshlandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

G‘arbda hadis ilmi, sanadlar, muhaddislar hollari va “Kutubu-s-sitta”ga oid ma’lumotlar Villiam Muir (1819-1905), Alois Sprenger (1813-1893), Yulius Vellgauzen (1844-1918), Ignaz Goldziher (1850-1921), Nikolson Reynold Allen (1868-1945), Jonatan Braun (1977) va Robert Martson Speit (1924-2011) kabi g‘arblik sharqshunos va islomshunos olimlarning kitoblarida keltirilgan.

Avstraliyalik sharqshunos olim Alois Sprengerning “The life of Mohammad from original sources” nomli asarida islom dini o‘sha davr insonlari tomonidan yaratilgan bir ta’limot, deb talqin qilingan. (Sprenger A., 1851: 345) Uning bu nazariyasi Muhammad (s.a.v.) davridagi voqealarni tanqidiy baholashga olib kelgan. Sprengerning “Islom yahudiylik, xristianlik va arab ijtimoiy hayotining mahsulidir. Islomning o‘zi sivilizatsiya yarata olmaydi, aksincha sivilizatsiyalar islomni yaratgan” kabi xulosalari ko‘p qarshiliklarga sabab bo‘lgan. Sprenger islomning shakllanish jarayonini tarixiylik, ratsionallik va sababiylik tamoyillari asosida baholashga harakat qilgan. (Sprenger A., 1851: 366)

Bundan tashqari, Sprenger hadis ilmining tarixiy ishonchliligi bilan ham qiziqadi. U hijriy V asrdan buyon “Kutubu-s-sitta” to‘plamlari islomshunoslar, shuningdek, boshqa soha vakillari tomonidan tanqid qilinmaganligi sababli unga ishonish mumkinligini ta’kidlaydi. Biroq hadislardan ba’zilari bir-biriga zid ekanligiga asoslanib, ularga mutlaq ishonish mumkin emas, degan fikrni ham bildiradi.

Vengriyalik islomshunos, sharqshunos va arab tili mutaxassisi Ignaz Goldziher ham o‘z ilmiy faoliyati davomida ishonchli to‘plamlar bilan bog‘liq masalalarni yoritgan. XX asrda hadis ilmi va ushbu to‘plamlarga nisbatan bildirilgan fikrlar qatorida uning ham mulohazalarini keltirish o‘rinlidir. Uning tomonidan qalamga olingan “Muhammedanische studien” nomli ikki jildli asarning ikkinchi jildi hadis ilmiga bag‘ishlangan. (Goldziher I., 1890: 245) Goldzihernng “Sunan”lar haqidagi mulohazasiga ko‘ra: “Hijriy III asrda yozilgan kitoblar va shug‘ullanilgan sohalarga

 ISSN 3030-3273

qaraydigan bo‘lsak, biz bu davrda ko‘proq huquqning turli yo‘nalishlariga doir tadqiqotlar bilan mashg‘ul bo‘linganini ko‘ramiz. Bu shaklda yozilgan kitoblar sof hadis ilmi bilan shug‘ullanish uchun yetarli emas edi”. O‘z navbatida bu davrda yozilgan huquqiy mavzularni o‘z ichiga olgan kitoblarga ham “Sunan” nomi berilgan. Bundan tashqari, Ignaz Goldziher Imom Molikning “Muvatto”sini ilk hadis majmuasi sifatida qabul qilmagan. U islom olamida birinchi ta’lif qilingan kitob sifatida Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy”sini e’tirof etgan.

Ignaz Goldziher “Kutubu-s-sitta”ning islom olamidagi o‘rnini ko‘rsatish maqsadida quyidagi mulohazalarni bildiradi: “Huquqiy qonun musannafoti (“Kutubu-s-sitta”ni nazarda tutmoqda) mualliflari tomonidan qimmatli deb baholangan va o‘z mezonlariga ko‘ra, tanlangan hadislar va minglab hikmatli so‘zlar uzoq safarlar natijasida muhaddislarning o‘zlari tomonidan to‘plangandir. Birgina Imom Buxoriyning o‘zi butun islom olamidagi mingga yaqin shayx bilan uchrashib, ulardan hadis tinglagan. Keyinchalik u barcha roviylarning ishonchliligini tekshirgan va yaxshisini yomonidan ajratishga majbur bo‘lgan.

Hadis ilmidagi boshqa muhaddislar ham xuddi mana shu holatni boshdan o‘tkazganlar”. Goldziher bir tarafdan Imom Buxoriy va boshqa mualliflarning hadis ilmi borasidagi g‘ayrati va benazir tadqiqotlaridan bahs etarkan, boshqa tomondan hadis adabiyotining ishonchliligini shubha ostiga oladi: “Payg‘ambarga yoki sahobalarga to‘g‘ri va ishonchli nisbat bera oladigan asarni topish imkonsizdir. Shuning uchun Payg‘ambar va sahobalar haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilishda III/IX asrdagi hadisga doir adabiyotlardan foydalanishimiz shart. Chunki mazhablar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar, turfa xil farqlar, avlodlar o‘rtasidagi tafovutlar bizni shunga undaydi”. Ko‘rinib turibdiki, Goldzihern “Kutubu-s-sitta” majmuasi haqidagi so‘zlari uning yuqorida aytgan so‘zlariga tamoman ziddir. U bir tomondan muhaddislarning hadis uchun g‘ayrat bilan amalga oshirgan ishlarini, roviylarni sinchkovlik bilan tekshirganini qayd etadi, biroq ular tomonidan yaratilgan kitoblarning ishonchlilik darajasiga shubha bilan qaraydi. Shu bilan birga, Goldziher “Kutubu-s-sitta” kitoblari nima sababdan ishonchga loyiq emasligi borasida biror isbot taqdim qilmaydi. Albatta, XX asrda “Kutubu-s-sitta”ning bunday tanqidga uchrashi hayron qolarli holat. Biroq, shunisi g‘alatiki, bu tanqidlar biror tayinli ilmiy asosga ega emas.

Nikolson Reynold Allen “A literary history of the arabic” kitobida “Kutubu-s-sitta” haqida o‘z mulohazalarini bildirgan. (Nikolson R., 2010: 235) Jumladan, u: “Ular (muhaddislar) eshitgan narsalarini qog‘ozga tushirgan va ularni kitoblar holiga keltirib ommaga taqdim etgan. Bu asarlar tartibining go‘zalligi, uslubining nafisligi bilan odatda ensiklopediyalarni eslatadi. Bu kitoblar olimlarning ensiklopedik xarakterga ega bo‘lgan kitoblaridir”, deya “Kutubu-s-sitta” to‘plamining mukammalligi, ma’lumotlarning aniqligi va ishonchliligi nuqtai nazaridan unga yuksak baho beradi.

 ISSN 3030-3273

TADQIQOT METODOLOGIYASI

“Kutubu-s-sitta” to‘plamlarini tadqiq qilish jarayonida g‘arb va sharq olimlarining ishonchli manbalariga murojaat qilindi. Shuningdek, tadqiqot davomida qiyoslash, tarixiylik, analiz va sintez uslublari keng qo‘llanilib, mavzuni ilmiy asoslab berishga harakat qilindi. Ba’zi g‘arb va sharq olimlari o‘rtasidagi yondashuvlar ikki xil ekanligi hisobga olinib, sivilizatsion va diniy omillar ta’siri tahliliga ham e’tibor berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Amerikalik islomshunos olim Jonatan Braunning “The canonization of al-Bukhari and Muslim” (Al-Buxoriy va Muslimning hadis qabul qilishdagi shartlari) nomli kitobi XX asr g‘arb dunyosida amalga oshirilgan “Kutubu-s-sitta”ga oid tadqiqotdir. (Jonatan B., 2007: 56) Jonatan Braun kitobning birinchi bobida kanonizatsiya (qonuniylashib ketgan urf-odatlar va qarashlar – G. Alijonova) tushunchasini tahlil qilib o‘tgan. Uning paydo bo‘lishi, xristian jamiyatida qanday tushunilishi va urf-odat, qonun sifatida jamiyatdagi o‘rnini yoritib beradi. Shuningdek, Imom Buxoriy va Imom Muslimning hadislarni qabul qilishdagi shartlarini qonun sifatida talqin qiladi.

Musulmon-nasroniy munosabatlarini o‘rganish borasida amerikalik eng mashhur sharqshunos olimlardan biri – Robert Martson Speitning “The function of hadith as commentary on the Quran, as seen in the six authoritative collections” (Hadislarning Qur’onni sharhlashdagi vazifasi olti ishonchli to‘plam misolida) nomli maqolasi Andrev Rippon “Approaches to the history of the interpretation of the Quran” (Qur’on tafsiri tarixiga yondashuvlar) kitobining to‘rtinchi bo‘limida kelgan. Robert Martson hadis Muhammad (s.a.v.) sunnatlarini ishonchli holatda yetkazish ilmi ekani, bu ilm dastlabki hijriy asrlarda alohida islomiy ilmlardan biri sifatida shakllangani, hamda Qur’oni Karim tafsirini tushunishda asosiy manbaligi haqida ilmiy mushohadalarni keltirib o‘tadi. Biroq hadis ilmi, birinchidan, Qur’oni Karimni tushunib olish uchun bir ilm deyilsa, ikkinchidan, hadis ilmi alohida manba va fan sohasi sifatida baholanadi. Shuningdek, olim “Kutubu-s-sitta” to‘plamining g‘arb ilmiy muhitidagi o‘rnini yanada chuqurroq ko‘rsatib bera olgan.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan xulosa qilish mumkinki, g‘arb islomshunos va sharqshunos olimlarining tadqiqot obyektlariga ayrimlarida hadis ilmi, boshqa birlarida “Kutubu-s-sitta”, ba’zilarida esa Imom Buxoriy va Imom Muslimning ilmiy merosi va ularning kitoblari asos qilib olingan. Hech bir tadqiqotda hadis ilmi, “Kutubu-s-sitta” to‘plamlari hamda mashhur muhaddislarning ilmiy-ma’naviy faoliyati yaxlit tarzda ochib berilmagan.

Ikkinchi guruhga sharqda hadis ilmining o‘rganilishi tendensiyalarini kiritish mumkin. Bu jarayon o‘ziga xos tarzda ilk hijriy asrlardan boshlab hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda.

 ISSN 3030-3273

XIX asrda “Kutubu-s-sitta” to‘plamlarini o‘rganib himoya qilish va qiymatini yanada orttirish maqsadida Ahmad Ziyovuddin Kumushxonaviy[14] (1813-1893), Xalil Ahmad Saharonpuriy[15] (vaf. 1346/1927), Abdurahim Muborakfuriy[16] (vaf. 1354/1935), Muhammad Anvar Shoh Kashmiriy[17] (vaf. 1352/1933), Muhammad Fuad Misriy[18] (vaf. 1382/1962), Zafar Ahmad Tahonaviy[19] (vaf. 1394/1974), So‘fi o‘g‘li Mehmet (vaf. 1408/1987), Muhammad ibn Mustafo Azamiy[20] (vaf. 1438/2017), Abdurahmon Han va Basriy Totli kabi olimlar tadqiq qilgan.

Ahmad Ziyovuddin Kumushxonaviy butun umri mobaynida shogirdlariga hadis ilmidan dars bergan holda “Kutubu-s-sitta”ning mavqeini mustahkamlashga katta hissasini qo‘shgan. U darsni o‘z dargohida bergani sababli olimning uyi “Daru-l-hadis” sifatida shuhrat qozongan. Uning “Ramuz al-ahadis” (Gümüşhânevî A., 2021: 76) asari uzoq yillar mobaynida hadis ilmini o‘qitishdagi eng mashhur asarlardan biri bo‘lgan. Asar o‘z ichiga 7103 hadisni jamlagan. Har bir hadis oxirida uning manbasi va roviylari keltirib o‘tilgan. Kumushxonaviy munaqqidlar uydirma deb atagan hadislarni o‘z asariga kiritmagan. U asarni yozishda “Kutubu-s-sitta” tarkibidagi kitoblar bilan birgalikda jami 125 ta manbadan foydalangan. Albatta, u foydalangan manbalar ichida “Kutubu-s-sitta”ning o‘rni nihoyatda katta bo‘lib, bu esa mazkur to‘plamlarning Kumushxonaviy nazarida yuksak e’tibor qozonganidan dalolat beradi. Kumushxonaviy o‘z asarida “Kutubu-s-sitta”ga katta ahamiyat bergan bo‘lsa-da, ular haqida to‘liq ma’lumot bermagan va asosiy tadqiqot obyekti qilib hadislarni keltirgan.

Xalil Ahmad Saharonpuriyning “Bazl al-majhudi fi halli Sunani Abu Dovud” nomli kitobi hadis ilmini yanada boyitgan manbalardan biridir. Xalil Ahmad Saharonpuriy Abu Dovudning “Sunan”ini tarjima qilgach, undagi e’tiborsiz qoldirilgan masalalarni yoritishga va ilmiy tahlil qilishga harakat qiladi va ushbu “Sunan”ga sharh yozadi. (Saharonpuriy H., 2014: 88) Kitob muqaddima va o‘n to‘rt jilddan iborat. Asarning muqaddima qismida muallif Abu Dovudning ilmiy faoliyati va merosini alohida tadqiq etadi. Saharonpuriy tomonidan Abu Dovudning “Sunan”i ilmiy tadqiqga tortilgan bo‘lsa-da, biroq Saharonpuriy hadis ilmi va metodologiyasi hamda “Kutubu-s-sitta”ning boshqa kitoblarini nazardan chetda qoldirgan.

[14] Ahmad Ziyovuddin Kumushxonaviy – (1813–1893) naqshbandiya tariqatining shayxlaridan biri, islom ilmlari olimi va mutasavvuf.

[15] Xalil Ahmad Saharonpuriy – hindistonlik hanafiy, so‘fiy va faqih, islom olimi bo‘lib, moturidiylik va ash’ariylik ta’limotlaridan ma’ruzalar o‘qigan. Islom ilmlariga oid o‘ndan ortiq asarlar yozib qoldirgan.

[16] Muborakfuriy – urdu, fors, hind va arab tillarida faoliyat olib borgan. Fiqh, usul al-fiqh, hadis va mantiq ilmi bilan shug‘ullangan. U 10 dan ortiq qimmatbaho asarlar yozgan. Hadis rivoyat qilish va ta’lim berishga ijoza olgan olim.

[17] Anvar Shoh Kashmiriy – o‘z davrining yetuk muhaddisi, mufassiri, faqihi, mutakallimi, tasavvuf vakili, adibi va muhaqqiq ulamolaridan bo‘lgan. Besh yoshida Qur’oni Karimni yodlashni boshlagan. Keyinchalik otasidan fors tilini o‘rgangan.

[18] Solih Misriy – Qur’on va hadisga oid kitoblari bilan tanilgan misrlik olim.

[19] Ahmad Tahonaviy – islom ilmlarining turli sohalariga oid ko‘plab asarlar yozgan hadis olimi.

[20] Muhammad ibn Mustafo A’zamiy – Qur’on va hadis ilmiga oid kitoblar ta’lif etgan hindistonlik olim.

ISSN 3030-3273

Abdurahim Muborakfuriyning “Tuhfat al-ahvaziy bi sharhi Jome at-Termiziy” asari “Kutubu-s-sitta” to‘plamlarini o‘rganishga oid muhim manbalardan biridir. (Muborakfuriy A., 2011: 78) Asar 10 jild bo‘lib, kitobda Muborakfuriy muhaddis Termiziy yozgan har bir roviy haqida biografik ma’lumot bergan. U hadislarni sharhlashda muhaddislar, faqihlar va salafi solihlardan iqtiboslar keltirgan. Imom Termiziyning “hasan” va “sahih” kabi qarashlarini boshqa muhaddislarning fikrlari bilan boyitgan. Muborakfuriy “Jome at-Termiziy”ga sharh yozishdan oldin ushbu asarga ikki jildli muqaddima yozgan. Kirish qismi ikkiga bo‘lingan. Qirq bir bobdan iborat birinchi bo‘limda hadis ilmi, muhaddislarning fazilati, hadislarni jamlash, hadis bilan amal qilish zarurati kabi mavzularni bayon qilgan. Ikkinchi bo‘limda Muborakfuriy asar yozilgan joy – Termiziy masjidi va uning barcha xususiyatlari bilan tanishtiradi[21]. Muqaddima Muborakfuriyning sharhida ishlatilgan qisqartmalar va Imom Termiziy nusxalarini baholash bilan tugaydi. (Muborakfuriy A., 2011: 77) Muborakfuriyning XX asr boshlarida amalga oshirgan ushbu ishi diqqatga sazovordir. Chunki Muborakfuriy o‘z asarida faqatgina Imom Termiziyning ilmiy merosi bilan chegaralanib qolmasdan, hadis ilmi va muhaddislarning hollari haqida ham o‘z fikrlarini bayon qilgan.

XX asrda yana xuddi shu shaklda asar yozgan olimlardan biri bu Rizouddin ibn Faxriddin edi.

Bu davrning yana bir olimi Muhammad Anvar Shoh Kashmiriy bo‘lib, umrining uchdan birini Devbandda o‘tkazgan. Kashmiriy asarlarining ko‘pi talabalar uchun tayyorlangan ma’ruzalar asosida yuzaga kelgan. Chop etilgan asarlari orasida uning “Sahihi Buxoriy”ning sharhi bo‘lmish “Fayz al-boriy a’la Sahih al-Buxoriy” eng muhim va mashhuridir. (Kashmiriy A., 2005: 546) Bu kitobda muallif boshqa sharhlarda uchramaydigan boy izohlar va ko‘plab ma’lumotlarni bergan. Kashmiriyning hadis ilmi borasidagi xizmatlari hamda u yozgan asar hadis sohasi rivoji, shuningdek, “Kutubu-s-sitta” majmuasining taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Biroq, Kashmiriy “Kutubu-s-sitta” tarkibidagi boshqa muhaddislar va kitoblarni tadqiqot markaziga tortmagan.

Muhammad Fuad Misriyning “Jome al-masonid” nomli kitobi XX asrda amalga oshirilgan tadqiqotlardan biridir. (Misriy M., 1941: 345) Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy” asaridagi hadislar 196 sahoba nomiga ko‘ra musnad uslubida tartiblangan va har bir musnad mavzusiga ko‘ra sanab o‘tilgan bo‘lib, asar tugallangandan ancha keyinroq nashr etilgan.

XX asrning muhaddis allomalaridan bo‘lmish yana bir inson Zafar Ahmad Tahonaviydir. Olimning eng mashhur asari, shubhasiz, “I’lo as-sunan”dir. (Tahonaviy Z., 2001: 78) Yigirma yil mobaynida ta’lif etilgan ushbu asarda muallif hanafiy

[21] Muborakfuriy madrasalar ochgan. XX asr boshlarida Termiziy masjidi ham madrasa vazifasini bajargan.

mazhabining qarashlarini himoya qilish bilan birga, ahkom hadislarni tanlab olib sharhlagan. O‘z davrida hanafiy mazhabi olimlari hukm chiqarishda hadislarga tayanmaydi, degan botil da’vo bilan chiqqan ba’zi odamlarga qarshi Tahonaviy raddiya sifatida nomi yuqorida zikr qilingan mashhur asarini yozgan. Uning asari asosan ishonchli to‘plamlar tarkibiga kiruvchi hadislar asosida yozilgan bo‘lib, hanafiy olimlar, aksincha, hadisga suyanishda boshqa mazhablarga nisbatan katta ustunlikka va qudratga ega ekanligini isbotlab bergan. Tahonaviy bu asari bilan hanafiylarning hadis usulidagi tamoyillarini ochib berishga muvaffaq bo‘lgan. Keyinchalik Abdulfattoh Abu G‘udda[22] (vaf. 1418/1997) ushbu asarning muqaddima qismiga sharhlar yozib, uni “Qovaid fi ulum al-hadis” nomi bilan atagan.

So‘fi o‘g‘li Mehmet Turkiyaning Nazli tumanida tug‘ilgan bo‘lib, umrini ikki muhim manba – Qur’oni Karim va hadis ilmiga bag‘ishlagan olimdir. “Sahihi Muslim va uning tarjimasi” kitobi muqaddimasida So‘fi o‘g‘li Bag‘dodda bo‘lganida iroqlik olim Abu Shokir Muhammad Fuad al-Alusiydan ta’lim olgan “Sahihi Muslim”ni tarjima qilishga qaror qilganini aytadi. Asar 8 jild bo‘lib, Istanbulda 1967, 1970, 1974-yillarda nashr etilgan. Shuningdek, So‘fi o‘g‘li “Sahihi Buxoriy” ni nima uchun tarjima qilganini izohlab, u Qur’ondan keyingi mo‘tabar kitob ekani va ba’zi qisqartmalaridan boshqa to‘liq tarjimasi bo‘lmaganini ta’kidlaydi.

Muhammad ibn Mustafo A’zamiyning “Hadis metodologiyasi va adabiyoti”[23] nomli kitobidagi oltinchi bo‘limning 109-117-sahifalarida Imom Buxoriy hayoti va ilmiy merosi haqida ma’lumot berilgan. Jumladan, “Buxoriy odatda hadisning bir qismini bobning sarlavhasi uchun olgan. Shuningdek, hadislarni ham takror qo‘llagan. Kitobidagi hadislar soni 9082 ta, ammo hadislarning takrorini hisobga olmaganda 2602 taga to‘g‘ri keladi” (Mustafa al-A’zami, 2015: 34) kabi ma’lumotlarni tadqiq etib, “Kutubu-s-sitta” majmuasi tarkibidagi kitoblarda kelgan hadislar soni va ularning sahihlik darajalarini tadqiq qilgan. Biroq asarda keltirilgan ma’lumotlarni to‘laqonli ishonchli deb bo‘lmaydi.

Abdurahmon Han tomonidan yozilgan “Kutubus sitta külliyesinde ibadet ve bilgi ilişkisi” (“Kutubu-s-sitta” majmuasida ibodat va ilm munosabatlari) nomli tadqiqot hadis ilmida alohida ahamiyatga egadir. (Abdurrahman H., 2007: 342) Tadqiqot kirish bilan birga uch qismdan iborat. Birinchi bo‘limda Ibn Hajar[24] (vaf. 852/1449) hayoti, ilmiy faoliyati va tadqiqotda asosiy manba sifatida foydalanilgan “Tahzib at-tahzib”[25] asaridagi ibodat va ilm tushunchalari tahlil qilingan. Ikkinchi qismda roviylar, ularning diniy-ruhoniy hayotlariga bergan ahamiyati, sifatlari ko‘rsatilib, yetti asosiy sarlavha ostida tavsif etilgan. Aynan mana shu qismda “Kutubu-s-sitta” to‘plamlari haqida

[22] Abdulfattoh Abu G‘udda – islom huquqi, arab tili, hadis sohalari olimi.
[23] Muhammed Mustafa el-A’zami. Hadis metodolojisi ve edebiyati. – Istanbul: Iz Yayincilik, 2015.
[24] Ibn Hajar al-Asqaloniy – misrlik hadis olimi va hofizi. Islom ilmlariga oid 150 dan ortiq asarlar ta’lif etgan.
[25] Turli davrlardagi muhaddislar haqidagi yozilgan kitob. Jami 12415 roviylarning tarjimai hollarini o‘z ichiga olgan. “Tahzib at-tahzib” 1891-yilda Dehlida, 1907-yilda Haydarobodda 12 jild holida nashr etildi.

 ISSN 3030-3273

ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Uchinchi bo‘limda esa ibodatning roviylar va muhaddislarning ilmiy hayotlariga ta’siri ochib berilgan. Tadqiqotda Imom Muslimning “Sahih”i va Abu Dovud, Termiziy, Nasoiy hamda Ibn Mojalarning “Sunan”laridan iqtiboslar keltirilgan. Biroq, tadqiqotda hadis ilmi, mashhur muhaddislar va boshqa ishonchli to‘plamlarning ilmiy tahlili haqidagi ma’lumotlar keltirilmagan.

Basriy Totlining “Kutubu-s-sitta”da Isro va Me’rojga oid hadislar” nomli ilmiy ishi “Kutubu-s-sitta” doirasida amalga oshirilgan tadqiqotdir. (Basri T., 2000: 87) Dissertatsiya kirish, uch bo‘lim va o‘ttiz olti paragrafdan iborat. Kirish qismida “Isro” va “Me’roj” atamalari, Me’roj tasavvurining boshqa din va xalqlarda bor yoki mavjud emasligi tahlil qilingan. Birinchi bo‘limda Isro voqeasi haqidagi qarashlar ochib berilgan. Ikkinchi bo‘limda Isro va Me’rojga oid Qur’oni Karim oyatlari va hadislar keltirilgan. Lekin tadqiqotda faqatgina “Kutubu-s-sitta”ning to‘plamlari qamrab olingan. Asarda hadis ilmi va muhaddislarning ilmiy faoliyati aks etmagan. Shuningdek, “Kutubu-s-sitta” tarkibidagi Isro va Me’rojdan boshqa hadislar ilmiy mushohadaga tortilmagan.

Uchinchi guruhga O‘zbekistonda amalga oshirilgan zamonaviy tadqiqotlar kiradi. Ushbu tadqiqotlar mustaqillikdan keyin islom ilmlariga e’tiborning yanada ortishi natijasida yuzaga keldi.

Ubaydulla Uvatovning “Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o‘rni” (Uvatov U., 2001) nomli dissertatsiyasi hadis ilmining tarixiy istilohlari, Imom Buxoriy, Muslim ibn Hajjoj hamda ularning hadis ilmi rivojida tutgan o‘rni, Abu Iso Termiziy va uning ilmiy-ma’naviy merosi kabi mavzularni qamrab olgan. Ushbu dissertatsiyaning e’tiborli jihati shundaki, dissertatsiya mustaqillikning ilk o‘n-yilliklarida yozilgan bo‘lib, mustamlaka istibdodi ta’sirida o‘z ma’naviy-madaniy merosidan uzoqlashtirilgan millatimiz uchun katta xizmat qilgan.

Musaeva Nodiraning “Insonning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda hadislarning roli” (Musaeva N., 2001) mavzusidagi ilmiy ishida Imom Buxoriy to‘plagan hadislardagi axloq va odob qadriyatlarining mohiyati, tarbiyaviy ahamiyati, ota-onalik va farzandlik burchi ma’naviy asoslarining hadislardagi talqini hamda hadislarning ijtimoiy munosabatlarda aks etishiga doir mavzular qamrab olingan. Biroq, tadqiqotda Imom Buxoriyning ilmiy faoliyati, “Sahihi Buxoriy” hamda mo‘tabar hadis manbalariga oid metodologik nazariyalar qo‘llanilmagan.

Rahimjonov Durbekning “Abu Hafs Nasafiyning “Al-qand fi zikri ulamoi Samarqand” asari Samarqand hadis ilmi tarixi bo‘yicha muhim manba” (Rahimjonov D., 2003) nomli tadqiqotida islom tarixi manbashunosligi bo‘yicha hadislarning Samarqandga kirib kelishi tadqiq qilingan.

Bundan tashqari, I.Usmanov, M.Alimova, D.Muratov, O.Davlatov, Sh.Umarov va N.To‘rayev dissertatsiyalarida hadis ilmi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar o‘z aksini

 ISSN 3030-3273

topgan. Biroq, ushbu dissertatsiyalarda hadis sohasi va usuli, “Kutubu-s-sitta” to‘plamlari va mashhur muhaddislarning ilmiy faoliyati kompleks tarzda yoritilmagan. Shuningdek, ushbu tadqiqotlarda “Kutubu-s-sitta”ning shakllanish bosqichlari va omillari haqida ilmiy mulohazalar ham keltirilmagan. “Kutubu-s-sitta” doirasida Islom tarixi va manbashunosligi hamda hadisshunoslik sohalari uchun muhim hisoblangan Rizouddin ibn Faxriddinning “Kutub-s-sitta va mualliflari” asarini tadqiq qilish zaruratidan kelib chiqib, ushbu asar tadqiqot uchun jalb etildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Kutubu-s-sitta” kitoblaridan foydalangan holda XIX-XX asrlarda amalga oshirilgan tadqiqotlardan quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, “Kutubu-s-sitta” to‘plamlariga doir XIX-XX asrlarda amalga oshirilgan tadqiqotlar g‘arbda asosan sharqshunoslar (orientalistlar) tomonidan bajarilgan bo‘lsa, sharqda ko‘proq diniy ulamolar tomonidan tadqiq qilingan.

Ikkinchidan, g‘arb sharqshunoslari, xususan, I.Goldziher tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda “Kutubu-s-sitta”ning ishonchsiz ekanligi borasida keltirilgan fikrlar ilmiy asosga ega bo‘lmay, to‘plamlar tarkibidagi asarlarning mualliflari bo‘lmish muhaddislarning hadis qabul qilishda o‘ta qattiq va o‘z davri uchun mukammal tartibga rioya qilganiga yetarli va xolis baho berilmagan.

Uchinchidan, sharq olimlari tomonidan XIX-XX asrlarda “Kutubu-s-sitta”ga oid amalga oshirilgan tadqiqotlar asosan ushbu kitoblarni himoya qilish, ularning avvalgi darajasini mustahkamlashdan iborat bo‘ldi. Rizouddin ibn Faxriddin ham ana shu vazifani o‘z oldiga maqsad qilib “Kutubu-s-sitta va mualliflari” asarini ta’lif qildi. O‘z navbatida bu asar XX asrda Chor Rossiyasi, xususan, Turkiston ilmiy doiralarida keng tarqalib, insonlarga hadis ilmi va muhaddislar tarixini o‘rganishda muhim manbalardan biri bo‘lib xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alois Sprenger. (1851) The life of Mohammad from original sources. Presbyterian Mission Press.
2. Ignaz Goldziher. (1890) Muhammedanische Studien. – Niemeer: Helle. – V. 1.
3. Ignaz Goldziher. (1890) Muhammedanische Studien. – Niemeer: Helle. – V. 2.
4. Nikolson Reynold Allen. (2010) A literary history of the arabic. – London.
5. Jonathan Brown. (2007) The canonization of al-Bukhari and Muslim. – Boston: Leide.
6. Andrew Rippon. (2013) Approaches to the history of the interpretation of the Quran. – USA: Gorgies press.
7. Ahmed Ziyâeddin Gümüşhânevî. (2021) Ramzul hadisi. – İstanbul: Meb Yay.
8. Halil Ahmad Saharonpuriy. (2014) Bazlul majhudi fi halli Sunani Abu Dovud. – Bayrut: Dor al-bashar al-islomiyya.

9. Muborakfuriy. (2011) Tuhfat al-ahvaziy bi sharhi Jome' at-Termiziy. – Bayrut: Dor al-fayha.

10. İsmail Lütfü Çakar. (2006) Hadis edebiyatı. – İstanbul: Ifav.

11. Ahmad Shoh Kashmiriy. (2005) Fayz al-boriy a'la Sahih al-Buxoriy. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya.

12. Misriy. (1941) Jome' al-masonid. – Qohira: Maktabat al-mutannabiy.

13. Ahmad at-Tahonaviy. (2001) I'lo as-sunan. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya.

14. Sufi oğlu Mehmet. (1987-1989) Sahih Bukhari ve Tercümesi. – İstanbul: Meb Yay, I-XVI.

15. Muhammed Mustafa el-A'zami. (2015) Hadis metodolojisi ve edebiyati. – Istanbul: Iz Yayincilik.

16. Abdurrahman Han. (2007) Kutubi sitta külliyesinde ibadet ve bilgi ilişkisi. Sokarya Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.

17. Basri Tatlı. (2000) Kutubi Sitta'da İsra ve Miraç ile ilgili hadisler. Marmara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Temel İslam Bilimleri, İslami İlimler, Hadis Bilimi Anabilim Dalı.

18. Uvatov U. (2001) Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o'rni (al-Buxoriy, Muslim, at-Termiziy): Tar. fan. dok. … diss. – Toshkent: TIU.

19. Musaeva N. (2001) Insonning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda hadislarning roli: Tar. fan. nom. … diss. – Toshkent: O'ZMU.

20. Rahimjonov D. (2003) VII–XII asrlarda Samarqandda hadis ilmi taraqqiyoti (Abu Hafs an-Nasafiyning "Al-qand fi zikri ulamoi Samarqand" asari asosida): Tar. fan. nom. ... diss. – Toshkent: TIU.

21. Usmanov I. (2007) Al-Hakim at-Termiziyning "Navodir al-usul" asari hadis va tasavvuf ilmiga oid muhim manba: Tar. fan. nom. ... diss. – Toshkent: TIU.

22. Alimova M. (2008) Imom ad-Dorimiyning hadis ilmiga qo'shgan hissasi: Tar. fan. nom. ... diss. – Toshkent: TIU.

23. Muratov D. (2008) Abdulloh as-Subazmuniyning "Kashf al-osor" asari hadis ilmiga oid muhim manba: Tar. fan. nom. ... diss. – Toshkent: TIU.

24. Davlatov O. (2017) Alisher Navoiy she'riyatida Qur'on oyatlari va hadislarning badiiy talqini: Fil. fan. fal. ... diss. – Samarqand: SamDU.

25. Umarov Sh. (2018) Abdulhamid Keshiy ilmiy merosining VIII-IX asrlar Movarounnahr hadis ilmi rivojida tutgan o'rni: Tar. fan. fal. ... diss. – Toshkent: TIU.

26. To'rayev N. (2020) Imom Buxoriyning "At-Tarix al-kabir" asari hadis ilmiga oid muhim manba: Tar. fan. fal. ... diss. – Toshkent: O'ZXIA.

 ISSN 3030-3273

REFERENCES:

1. Alois Sprenger. (1851) The life of Mohammad from original sources. Presbyterian Mission Press.
2. Ignaz Goldziher. (1890) Muhammedanische Studien. – Niemeer: Helle. – V. 1. (In German)
3. Ignaz Goldziher. (1890) Muhammedanische Studien. – Niemeer: Helle. – V. 2. (In German)
4. Nikolson Reynold Allen. (2010) A literary history of the arabic. – London.
5. Jonathan Brown. (2007) The canonization of al-Bukhari and Muslim. – Boston: Leide.
6. Andrew Rippon. (2013) Approaches to the history of the interpretation of the Quran. – USA: Gorgies press.
7. Ahmed Ziyâeddin Gümüşhânevî. (2021) Ramzul hadisi. – İstanbul: Meb Yay. (In Turkish)
8. Halil Ahmad Saharonpuriy. (2014) Bazlul majhudi fi halli Sunani Abu Dovud. – Bayrut: Dor al-bashar al-islomiyya. (In Arabic)
9. Muborakfuriy. (2011) Tuhfat al-ahvaziy bi sharhi Jome' at-Termiziy. – Bayrut: Dor al-fayha. (In Arabic)
10. İsmail Lütfü Çakar. (2006) Hadis edebiyatı. – İstanbul: Ifav. (In Turkish)
11. Ahmad Shoh Kashmiriy. (2005) Fayz al-boriy a'la Sahih al-Buxoriy. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya. (In Arabic)
12. Misriy. (1941) Jome' al-masonid. – Qohira: Maktabat al-mutannabiy. (In Arabic)
13. Ahmad at-Tahonaviy. (2001) I'lo as-sunan. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya. (In Arabic)
14. Sufi oğlu Mehmet. (1987-1989) Sahih Bukhari ve Tercümesi. – İstanbul: Meb Yay, I-XVI. (In Turkish)
15. Muhammed Mustafa el-A'zami. (2015) Hadis metodolojisi ve edebiyati. – Istanbul: Iz Yayincilik. (In Turkish)
16. Abdurrahman Han. (2007) Kutubi sitta külliyesinde ibadet ve bilgi ilişkisi. Sokarya Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. (In Turkish)
17. Basri Tatlı. (2000) Kutubi Sitta'da İsra ve Miraç ile ilgili hadisler. Marmara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Temel İslam Bilimleri, İslami İlimler, Hadis Bilimi Anabilim Dalı. (In Turkish)
18. Uvatov U. (2001) Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o'rni (al-Buxoriy, Muslim, at-Termiziy): Tar. fan. dok. … diss. – Toshkent: TIU. (In Uzbek)
19. Musaeva N. (2001) Insonning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda hadislarning roli: Tar. fan. nom. … diss. – Toshkent: O'ZMU. (In Uzbek)

 ISSN 3030-3273

20. Rahimjonov D. (2003) VII–XII asrlarda Samarqandda hadis ilmi taraqqiyoti (Abu Hafs an-Nasafiyning “Al-qand fi zikri ulamoi Samarqand” asari asosida): Tar. fan. nom. ... diss. – Toshkent: TIU. (In Uzbek)

21. Usmanov I. (2007) Al-Hakim at-Termiziyning “Navodir al-usul” asari hadis va tasavvuf ilmiga oid muhim manba: Tar. fan. nom. ... diss. – Toshkent: TIU. (In Uzbek)

22. Alimova M. (2008) Imom ad-Dorimiyning hadis ilmiga qo‘shgan hissasi: Tar. fan. nom. ... diss. – Toshkent: TIU. (In Uzbek)

23. Muratov D. (2008) Abdulloh as-Subazmuniyning “Kashf al-osor” asari hadis ilmiga oid muhim manba: Tar. fan. nom. ... diss. – Toshkent: TIU. (In Uzbek)

24. Davlatov O. (2017) Alisher Navoiy she’riyatida Qur’on oyatlari va hadislarning badiiy talqini: Fil. fan. fal. ... diss. – Samarqand: SamDU. (In Uzbek)

25. Umarov Sh. (2018) Abdulhamid Keshiy ilmiy merosining VIII-IX asrlar Movarounnahr hadis ilmi rivojida tutgan o‘rni: Tar. fan. fal. ... diss. – Toshkent: TIU. (In Uzbek)

26. To‘rayev N. (2020) Imom Buxoriyning “At-Tarix al-kabir” asari hadis ilmiga oid muhim manba: Tar. fan. fal. ... diss. – Toshkent: O‘ZXIA. (In Uzbek)

 ISSN 3030-3273

O‘ZBEKISTON SSRDA MAHALLIY BOSHQARUV IDORALARI FAOLIYATI (1925-1927-yillar)

ACTIVITIY OF LOCAL AUTHORITY IN UZBEKISTAN SSR (1925-1927)

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ОРГАНОВ МЕСТНОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР (1925-1927 ГГ.)

Sodiqov Furqat Fattuloyevich,
Oriental universiteti, Tarix kafedrasi o‘qituvchisi, t.f.f.d.(PhD)
Tel: +998 99 531-45-55
furkatsodikhov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada (sobiq) O‘zbekiston SSRning 1925–1927-yillardagi mahalliy hokimiyat organlari faoliyati yoritib beriladi. Ularning shakllanishi va saylov jarayonlari haqida ham fikr yuritiladi. O‘zbekiston SSR tashkil topishining tarixiy sharoitlarini chuqur o‘rganish orqali biz mahalliy hokimiyat organlari, ular dastlabki bosqichlarda duch kelgan qiyinchiliklar va qarshiliklarni tushunishimiz mumkin. Sovet hukumati tomonidan ushbu muammolarni hal etish va mahalliy davlat hokimiyati organlarining uzluksiz ishlashini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar muhokama qilinadi. Bundan tashqari, maqolada O‘zbekiston SSRda yer-suv islohotining ikkinchi bosqichini amalga oshirishda mahalliy hokimiyat organlarining roli o‘rganilib, bu islohotlarning mahalliy davlat hokimiyati organlarining tuzilishi va faoliyatiga ta’siri ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, maqolada ishchilar, dehqonlar va o‘rta sinf kabi turli jamiyat elementlari o‘rtasida vositachilik qilishda mahalliy hokimiyat organlarining roli, ta’siri va boshqa ta’sir etuvchi begona elementlarning mavjudligi bilan bog‘liq muammolar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *sovet, mahalliy boshqaruv idoralari, idora, viloyat, tuman, uyezd, volost, qishloq soveti, saylov, yer-suv islohoti, yot unsur, batrak, dehqon, o‘rtahol.*

Annotation: This article highlights the activities of the local authorities of the (former) Uzbekistan SSR in 1925-1927. Their formation and election processes are also discussed. By deeply studying the historical conditions of the establishment of the Uzbekistan SSR, we can understand the difficulties and resistance faced by the local authorities at the initial stages. The measures taken by the Soviet government to solve these problems and ensure the continuous operation of local state authorities are discussed. In addition, the article examines the role of local authorities in the implementation of the second stage of land-water reform in the Uzbekistan SSR, and shows the impact of these reforms on the structure and activity of local state authorities.

 ISSN 3030-3273

In addition, the article examines the role and influence of local authorities in mediating between different elements of society, such as workers, peasants and the middle class, and the presence of other influential outside elements.

Key words: *soviet, local authorities, authority, region, district, town, volost, soviet of village, elections, land and water reform, alien elements, laborer, peasant, middle class peasant.*

Аннотация: В данной статье описывается деятельность местных органов власти (бывшей) Узбекской ССР в 1925-1927 гг. Также обсуждаются процессы их формирования и избрания. Глубоко изучая исторические условия образования Узбекской ССР, мы можем понять трудности и сопротивление, с которыми столкнулись местные власти на начальных этапах. Обсуждаются меры, принятые советским правительством для решения этих проблем и обеспечения непрерывной деятельности местных органов государственной власти. Кроме того, в статье рассматривается роль органов местного самоуправления в реализации второго этапа земельно-водной реформы в Узбекской ССР, показано влияние этих реформ на структуру и деятельность местных органов государственной власти. Кроме того, в статье рассматриваются роль и влияние местных властей в посредничестве между различными элементами общества, такими как рабочие, крестьяне и средний класс, а также наличие других влиятельных внешних элементов.

Ключевые слова: *совет, местные органы управления, орган, область, район, уезд, волость, сельский совет, выборы, земельно-водная реформа, чуждые элементы, батрак, крестьянин, середняк.*

KIRISH

O‘zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv idoralari viloyat, uyezd, volost va shahar sovetlari syezdi va ularning ijroiya qo‘mitalaridan, qishloqlarda esa qishloq sovetlaridan iborat edi. Bu jihatdan respublikadagi mahalliy boshqaruv tizimi Turkiston ASSRdagi tizim bilan bir xil edi. Yangi tuzilgan respublika oldida mahalliy hokimiyatni shakllantirish uchun ko‘plab muammolar mavjud edi. O‘zbekiston SSRning Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm va boshqa viloyatlarida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat, mahalliy sovetlarni tuzish uchun kerak bo‘ladigan huquqiy asos, kadrlar masalasi, quyi sovetlardagi og‘ir iqtisodiy vaziyat va boshqa shu kabi muammolarni keltirish mumkin. Yuqoridagi masalalarni hal etish uchun markaz va respublika rahbariyati tomonidan amaliy harakatlar olib borilgan. Mahalliy hokimiyatning shakllanishi siyosiy-tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgani uchun tarixiy voqealarga ham to‘xtalib o‘tamiz. Maqolada, shuningdek, sovet boshqaruv idoralari faoliyatining tahliliga oid mulohazalar va boshqaruv apparati xodimlarining ijtimoiy kelib chiqishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni havola qilamiz.

 ISSN 3030-3273

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur masalani yoritishda 1925-yilda Birlashgan Davlat Siyosiy Boshqarmasi (OGPU)ning materiallari aks etgan “Совершенно секретно»: Лубянка – Сталину о положении в стране (1922-1934 гг.)” materiallar to‘plamining 1925-yilda chop etilgan 2-tomidan foydalanildi. Ushbu to‘plamda sovet boshqaruv idoralari faoliyatining tahlili va boshqaruv apparati xodimlarining ijtimoiy kelib chiqishi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv idoralarining shakllanishi, faoliyati masalalari “История советского государства и права Узбекистана: 1924-1937 гг.” 2-tom, “O‘zbekiston tarixi (1917–1991-yillar). O‘zbekiston 1917–1939-yillarda.” 1-tom fundamental tadqiqotlarda yoritilgan.

E. Chernyavskiy, J.A. Zaychenko asarlarida mahalliy boshqaruv idoralarida o‘tkazilgan saylovlar, O‘zbekiston SSRdagi yer-suv islohotida mahalliy boshqaruv idoralarining o‘rni va ushbu siyosatning mahalliy boshqaruv idoralariga ta’siri tahlil qilingan.

O‘zbekiston Milliy arxivining 86-fondi 2445 va 3103-ishlarida volost byudjetini shakllantirish masalalari va 1926-yilda mahalliy boshqaruv idoralarida o‘tkazilgan saylovlarning tashkiliy jihatlari ochib berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozish jarayonida O‘zbekiston Milliy arxividagi ma’lumotlar, xorijiy arxivlardagi manbalar, turli gazetalardagi maqolalar, bir qancha tarixiy manbalar, tegishli dissertatsiya va monografiyalardagi faktlardan foydalanildi. To‘plangan materiallarni tartibga keltirishda analiz va sintez usullari qo‘llanildi. Shuningdek, tarixiy-qiyosiy metod orqali zaruriy axborot shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sovet hukumati, oldingi davrlarda bo‘lganidek, ularga qarshi qurolli harakat davom etayotgan hududlarni doimiy ravishda to‘liq nazoratga olish uchun harakat qildi va bu masala ularning doimiy kun tartibida bo‘ldi. Ushbu hududlarda mahalliy boshqaruv idoralarini shakllantirish va mustahkamlash uchun turli xil nazorat idoralari va usullaridan foydalandi. 1923-yilda tashkil topgan Birlashgan Davlat Siyosiy Boshqarmasi (ОГПУ) ana shunday idoralardan biri edi.

Birlashgan Davlat Siyosiy Boshqarmasi sovet hokimiyatiga qarshi kurashni tugatishda sovet boshqaruv idoralari faoliyatini ham tahlil qilib bordi. Tashkilotning kuzatishlari va tahlillari natijasida qishloqlarda sovet hokimiyati umuman mavjud emas degan xulosaga kelgan. (Лубянка, 1925: 560) Chunki bu paytda qo‘rboshilar egallab turgan ko‘pgina qishloqlarda fuqarolik va harbiy hokimiyat bevosita ular tomonidan amalga oshirilgan. Shunday hududlarda sovet hokimiyati joriy etgan tartib-qoidalar amal qilmagan. Joylarda sovet boshqaruv idoralari vakillari nomigagina saylab qo‘yilgan, xolos.

 ISSN 3030-3273

Shu bilan birga, Birlashgan Davlat Siyosiy Boshqarmasi sovet boshqaruv apparatida xodimlarning ijtimoiy kelib chiqishini doimiy ravishda o‘rganib borgan. Boshqaruv tizimida “begona elementlarning” mavjudligini aniqlash masalasi ustuvor vazifa hisoblangan. Ya’ni, sovet boshqaruv apparatida sobiq amaldorlarning xavfli ekanligini inobatga olib va ularning “bosmachilar” bilan aloqalari bo‘lishi mumkinligini oldini olish maqsadida imkon qadar ular egallab turgan mansab va lavozimidan “yot unsur” sifatida tozalangan. Masalan, 1925-yil dekabrdagi OGPUning ma’lumotiga qaraganda, Samarqand oblastining Kattaqo‘rg‘on uyezdida “Qo‘shchi” ittifoqi a’zolarining 60 foizi boylardan tarkib topgan. Surxondaryo oblastida “Qo‘shchi” ittifoqining raisi ham sobiq amirning amaldorlaridan biri va u bosmachilar bilan aloqa qiladi, deb ro‘yxatga olingan. (Лубянка, 1925: 721-722)

Shu bilan birga, Sovet hukumati 1925-yil 11-martda qurolli harakat davom etayotgan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlariga qishloq sovetlarini boylar, mullalar va qurolli harakatga yordam berayotgan deb e’tirof etgan guruhlardan tozalash uchun keng vakolatlarga ega bo‘lgan maxsus komissiyani yuboradi. (Сулаймонова Х., Ишанов А., 1963: 58) Komissiya o‘z faoliyati davomida yuqoridagi hududlarda quyi sovet idoralarini taftish qilib, u yerdagi bolsheviklar nazdida aytilgan yot unsurlardan tozalash ishlarini olib bordi.

1925-yilning 23-sentyabrida O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti IV-plenumda “O‘zbekistonda Sovetlar ishini yaxshilashning bugungi holati va istiqboliga bag‘ishlangan ishlar” masalasini ko‘rib chiqdi. Unda partiya idoralariga batraklardan tortib o‘rta qatlamgacha bo‘lgan fuqarolarni Sovetlar atrofida birlashtirish va ushbu kuchlarni boylar zo‘ravonligiga qarshi qo‘yish, quyi sovet apparatini dehqonlar bilan yaqinlashtirish bo‘yicha barcha kuchlarni safarbar etishni topshirdi. (Правда Востока, 1925, 29 сентябр)

Mahalliy sovetlar barqaror ishlamasligining yana bir sababi ushbu idoralarning, ayniqsa, quyi idoralar bo‘lgan volost ijroiya qo‘mitasi va qishloq sovetlarining moddiy ahvoli edi. Tadqiqotimizdan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, qishloq sovetlarining byudjeti mavjud emas edi. Ular uyezd byudjeti hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lib, bunda ham volost prezidiumi va qishloq soveti raisi maosh olgan xolos. Bevosita xalq bilan aloqada bo‘lgan va ularni sovet hukumati tomonga og‘dirishda asosiy tayanch bo‘lgan ushbu idoralarning moddiy mustaqilligini ta’minlash va ularga ko‘proq vakolatlar berish hisobiga ularning sovet hukumatiga bo‘lgan sadoqatini oshirish maqsadida 1924-yildan boshlab Turkiston ASSRda tajriba tariqasida volostlarning byudjetlarini tashkil etish boshlangan edi. 1925-yilga kelib faqat 6 ta: Toshkent viloyatining Piskent, Chinoz, G‘oyibota va Farg‘ona viloyatining Qo‘qon-qishloq, Asaka va Chortoq volostlarida byudjet mavjud edi. O‘zbekiston SSR hukumati bunday volostlarning sonini kengaytirishni Moliya ishlari bo‘yicha xalq komissarligiga topshiradi. Lekin, iqtisodiy ahvoldan kelib chiqib faqat har tomonlama yaxshi

 ISSN 3030-3273

shakllangan volostlardagina byudjetlarni tashkil etishga ko‘rsatma berildi.[26] Keyinchalik bu masala ham oxiriga yeta olmay qoladi. Chunki O‘zbekistonni iqtisodiy rayonlashtirish natijasida volostlar tugatiladi va respublikada uch bosqichli ma’muriy boshqaruv tizimi: Viloyat (okrug), rayon (shahar) va qishloq sovetlari shakllantiriladi. (Содиқов Ф., 2022: 100)

O‘zbekiston SSR MIQ Respublika Konstitutsiyasi qabul qilinguniga qadar, mahalliy boshqaruv idoralarining huquqiy maqomini belgilash maqsadida 1925-yil 16-dekabrda “Qishloq sovetlari to‘g‘risidagi Nizom”ni va O‘zbekiston SSRda saylov tizimi mexanizmlarini aniqlab beradigan “Sovetlarga saylovlar bo‘yicha qo‘llanma”ni tasdiqladi. (Сулаймонова Х., Ишанов А., 1963: 69) Mazkur qo‘llanmaga asosan O‘zbekiston SSR hududida yashovchi quyidagi fuqarolar saylash va saylanish huquqiga ega bo‘lgan:

a) davlat, jamiyat, xususiy idora va muassasalar, sanoat, savdo, qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan ishchi va xizmatchilar;

b) qizil armiya, flot, davlat siyosiy boshqarmasi, ishchi-dehqon militsiyasi xodimlari;

v) boshqalarning mehnatidan foydalanmaydigan qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanadigan dehqonlar;

g) hunarmand va kosiblar, o‘zi ham mehnat qiladigan, tegirmon, moyjuvoz, temirchilik sexlari egalari;

d) birinchi razryad patentiga ega bo‘lgan chakana savdogarlar.

Saylash va saylanish huquqidan quyidagi shaxslar mahrum qilingan:

1) boshqalarning mehnati natijasida foyda oladigan shaxslar;

2) mehnat qilmasdan topadigan daromadda yashaydigan shaxslar (*sudxo‘rlar*);

3) eski boshqaruv tizimi amaldorlari;

4) ruhiy nosog‘lom shaxslar;

5) barcha din xizmatchilar (*mulla, imom, rohib va boshqalar*) (Сулаймонова Х., Ишанов А., 1963: 69)

Yuqoridagi huquqlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, sovet hukumati savdo, sanoat, hunarmandchilik vakillariga saylov huquqlarini bergan bo‘lsa, hali ham boy, yirik yer egalari, sudxo‘rlar va din vakillari uchun ular cheklangan bo‘lgan.

1925-yilda umumiy saylov huquqiga ega bo‘lganlarning 1,7 foizi saylov huquqidan mahrum qilingan bo‘lsa, 1926-yilda bu ko‘rsatkich 1,92 foizni tashkil etgan (1-rasm) (Содиқов Ф., 2023: 190) RSFSRda esa bu ko‘rsatkich 1925/1926-yillarda 1 foizdan iborat bo‘lgan. (Чернявский Е., 1927: 63)

[26] O‘zbekiston MA, R-86-fond, 1-ro‘yxat, 2445-ish, 10-varaq.

 ISSN 3030-3273

1-rasm

Viloyat yoki okrug	Saylovchilar soni (ming kishi hisobiga)	Saylov huquqidan mahrum qilinganlar
Toshkent	166	5382
Samarqand	231	4647
Andijon	310	4828
Qo‘qon	299	3940
Xo‘jand	70	1172
Zarafshon	238	5296
Qashqadaryo	156	2421
Surxondaryo	87	2259
Xorazm	137	2779
Konimex tumani	14	116

1-rasm. O‘zbekiston SSRda 1926-yilda saylov huquqidan mahrum qilingan aholi soni

O‘zbekiston SSR MIQ qoshida tuzilgan Markaziy saylov komissiyasi sovetlarga saylovlar to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga asosan, mahalliy boshqaruv idoralari tarkibini quyidagicha belgilaydi: okrug ijroiya qo‘mitalari 25-35 nafargacha, uyezd ijroiya qo‘mitalari 15-25 nafargacha, volost ijroiya qo‘mitalari 7-15 nafargacha, qishloq soveti prezidiumi 3-5 nafardan tuzildi.[27]

1925-yilda o‘tkazilgan mahalliy saylovlar ikkita muhim xususiyati bilan ajralib turdi. Birinchidan, qishloq sovetlariga o‘tkazilgan saylovlarda asosan dehqon, kambag‘al va o‘rta qatlam vakillari ishtirok etishdi va saylanganlarning 23,9 foizini batraklar, 35,7 foizini kam yerli dehqonlar va 37 foizini o‘rta qatlam vakillari tashkil etdi.[28] Bu oldingi yillardagi saylov kompaniyalaridan yaxshi natija edi. Ikkinchidan, sovet hokimiyati o‘rta qatlam kishilari uchun saylov huquqlari berdi va ular qishloqdagi dehqonlarning markaziy figurasi bo‘lib xizmat qildi. O‘rta qatlam deganda 3 desyatinadan 10 desyatinagacha (Desyatina – Rossiya imperiyasi davrida 1,09 gektarga teng bo‘lgan yer o‘lchov birligi. 1927-yildan ushbu o‘lchov birligidan foydalanish sovet davlatida tugatilgan) yerga ega bo‘lgan dehqonlar qatlami tushunilgan. Endi bolsheviklarning asosiy diqqat markazida oldingi yillar kabi faqat kambag‘allar diktaturasi emas, balki o‘rtahol dehqon va ishchilar diktaturasini shakllantirish yotardi. Buning sababi, birinchidan, sovet hukumati davlatda kambag‘allar emas, balki o‘rtahol insonlar asosiy o‘rinni egallashi kerak degan fikrga kelishdi va bu sotsializm mafkurasining asosiy shartlaridan biri edi. Ikkinchidan, bolsheviklar shahardagi ishchi va qishloqdagi dehqon o‘rta qatlamga mansub ekanligini targ‘ib qilish hamda xalqga barcha insonlarni yaxshi yashayotgandek

[27] O‘zbekiston MA, R-86-fond, 1-ro‘yxat, 2445-ish, 88-90-varaqlar.
[28] O‘zbekiston MA, R-86-fond, 1-ro‘yxat, 3103-ish, 37-varaq.

ISSN 3030-3273

ko‘rsatmoqchi bo‘lishdi. Shuningdek, ushbu siyosatni amalga oshirishdan yana bir maqsad, jamiyatda o‘z tarafdorlari sonini ko‘paytirish edi.

Bevosita saylov jarayoniga nazar solinsa, 1925-yilning aprel va iyul oylarida Jizzax, Samarqand va Mirzacho‘l uyezdlarida mahalliy sovetlarga saylovlar bo‘lib o‘tdi. Mirzacho‘l uyezdida 39 ta qishloq soveti va volost sovetlarida saylovlar o‘tkazildi. Saylovlarda 30 foiz o‘rta qatlam vakillari qatnashishdi. Jizzax uyezdidagi saylovlarda uyezd ijroiya qo‘mitasi tarkibiga 83 foiz dehqon va 17 foiz shaharliklar saylandi, ungacha shaharliklar 56 foizni tashkil etishgandi. Samarqand uyezdidagi qishloq sovetlarida 52 foiz batraklar, 18 foiz kam yerli dehqonlar va 30 foiz o‘rtahol kishilar saylandi.[29]

Farg‘ona viloyatida o‘tkazilgan saylovlarda 50 foiz mahalliy sovetlar yangilandi.[30] Qishloq sovetlariga jami 9589 nafar deputatlar saylangan bo‘lib, bu oldingi saylovlarga qaraganda 3 barobar ko‘p bo‘lgan. (Правда Востока, 1926, 5 февраль)

1925-yilgi qishloq va ovul sovetlari saylovlarida saylov huquqiga ega bo‘lgan aholining 45,9 foizi ishtirok etgan bo‘lsa, 1926-yilda bu ko‘rsatkich 46,4 foizni tashkil etgan. RSFSR bilan solishtirilsa, 1925-yilda 47 foiz saylov huquqiga ega bo‘lgan aholi saylovlarda ishtirok etgan. (Чернявский Е., 1927: 65)

Turkiston SSRda 1921–1922-yillarda yer-suv islohotining birinchi bosqichi o‘tkazilgan edi. O‘zbekiston SSR tashkil topgach, sovet hukumati tomonidan yer-suv islohotining ikkinchi bosqichi o‘tkazildi. O‘zbekiston Kompartiyasining 1925-yilning noyabr oyidagi II syezdida respublikaning siyosiy rahbariyati “shu kunga qadar qishloqlarda saqlanib qolgan yerga nisbatan xususiy mulkchilik feodal munosabat sarqitlaridan bo‘lib, shahar va qishloqlardagi bir guruh zamindorlar va boy-quloq unsurlar qo‘lida barcha ekin ekiladigan yerlarning 1/3 qismi jamlanishiga va kambag‘al-o‘rtahol qishloq aholisining ezilishiga olib kelgani”ni ma’lum qilib, partiya va sovet hokimiyati oldiga O‘zbekistonda “yer va suvni milliylashtirishni amalga oshirishga kirishishni asosiy vazifa sifatida ilgari suradi”. O‘zbekiston SSR MIQning 1925-yil 2-dekabrdagi favqulodda sessiyasida “Yer va suvni natsionalizatsiya qilish to‘g‘risida” va “Yer-suv islohoti to‘g‘risida”gi dekretlar qabul qilindi. Mazkur hujjatlar yer-suv islohotini majburiy usulda amalga oshirish uchun me’yoriy asos bo‘lib qoldi. (Ўзбекистон тарихи. 1917-1991-йиллар, 2019: 481-482)

Bu islohot joylarda shart-sharoitlar va tayyorgarlik darajasiga qarab uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich: 1925–1926-yillarda Farg‘ona, Toshkent, Samarqand viloyatlarida bo‘ldi. Ikkinchi bosqich: 1927-yili Zarafshon viloyati (Buxoro va O‘rta Zarafshon okruglari)da yer-suv islohoti o‘tkazildi. Uchinchi bosqich:

[29] O‘zbekiston MA, R-86-fond, 1-ro‘yxat, 2445-ish, 81-82-varaqlar.
[30] O‘zbekiston MA, R-86-fond, 1-ro‘yxat, 2445-ish, 90-varaq.

 ISSN 3030-3273

1928–1929-yillarda Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm okruglarida amalga oshirildi. Qabul qilingan qarorlar asosida belgilanganidan ortiq yerlar, ish hayvonlari va mehnat qurollari tortib olingan. Boylar, yirik savdogarlar, ulamolar va boshqa mulkdorlarning yerlari va butun mol-mulki musodara qilindi. O‘tkazilgan yer-suv islohoti natijasida bolsheviklar qishloqlarda turli qatlamdagi xalqni bir-biriga qarshi qo‘ydi, tezkorlik bilan olib borilgan kompaniya vaqtida nafaqat yirik yer egalari, balki o‘rtahol dehqonlarning ham yer-mulklari tortib olindi. Natijada joylarda ushbu islohotga qarshi norozilik namoyishlari o‘tkazildi, ko‘plab insonlar qurolli harakat vakillari safiga qo‘shilib ketdi. 1928-yil 1-avgustda O‘zbekiston SSR Kommunistik partiyasining qarori bilan Vaqf yerlari ham tugatildi. (Зайченко Ж., 1989: 71)

Yer-suv islohotini o‘tkazishda mahalliy sovetlar va “Qo‘shchi” ittifoqining xizmatidan keng foydalanildi. Mahalliy sovetlar yirik yer egalari, sudxo‘rlar, boy va savdogarlar hamda diniy ulamolarni aniqlab berish kabi vazifalarini bajargan. Shuningdek, ular sovet hokimiyatiga qarshi bo‘lgan kishilarni va qurolli harakatga har qanday aloqasi bo‘lganlarni aniqlashda ko‘maklashgan. 1919-yilda Turkiston ASSRda sovet hokimiyatini mustahkamlash va qishloqlardagi odamlarga sovet hukumatining g‘oyalarini singdirishga xizmat qilgan kambag‘allar qo‘mitalarining o‘rniga “Qo‘shchi” ittifoqi tuzilgan edi. Yer-suv islohoti paytida mazkur ittifoq qishloqlardagi yirik yer egalarini aniqlash, ularning yer-mulkini musodara qilishda qatnashish, musodara qilingan yerlarni yersiz kambag‘al dehqonlarga taqsimlash, kambag‘al dehqonlar, chorikor (mahsulotning 1/4 qismi uchun mehnat qiluvchi)lar va o‘rtahol dehqonlarni birlashtirish, yot unsurlar qatlamining mahalliy sovetlar tarkibiga kirmasligini nazorat qilish, qurolli harakatga qarshi mahalliy xalqqa tashviqot ishlarini olib borish kabi vazifalar bilan shug‘ullangan. 1926-yilning oxiriga kelib “Qo‘shchi” ittifoqi a’zolarining soni 120,7 ming kishiga yoki shu yil boshiga nisbatan 51,5 foizga ortgan. (Зайченко Ж., 1989: 76)

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston SSR tashkil topgach, mahalliy boshqaruv idoralaridagi muammolar saqlanib qoldi. Bular qurolli harakat, sinfiy kurash, iqtisodiy muammolar, kadrlar yetishmasligi va hokazolar. Sovet hukumati va kommunistik partiya ularni bartaraf etishga qarshi turli xil choralar ko‘rishiga qaramay, ular kerakli samarasini bermagan. Buning sababi esa mintaqada milliy ozodlik harakatining davom etishi, mahalliy xalqning ayrim qatlamlari tomonidan sovet hokimiyati yuritayotgan noto‘g‘ri siyosat (yer-suv islohoti, saylov tizimidagi sinfiy adolatsizlik, jamiyatdagi sinfiy adolatsizlik, islom diniga bo‘lgan munosabat va boshqalar)ni qo‘llab-quvvatlamasligi, joylarda iqtisodiy ahvolning og‘irligi va boshqalar edi.

Tadqiqot yakunida erishilgan natijalardan o‘quv darsliklarida, tarixiy-ma’rifiy

 ISSN 3030-3273

ko‘rsatuvlarda va matbuot uchun maqolalar yozishda foydalanish mumkin. Bu orqali, yaqin o‘tmishimizdagi xato va kamchiliklardan to‘g‘ri xulosa chiqarish, sovet davrini qumsatuvchi tashviqotlarga aldanmaslik, ongimizda axborot immunitetini hosil qilishda maqolada ko‘rsatilgan ma’lumotlar manfaatli bo‘ladi, degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. «Совершенно секретно»: Лубянка – Сталину о положении в стране (1922-1934 гг.). Т. 3. 1925 г. Ч.2. – Москва, 2002. – 560 с.
2. История советского государства и права Узбекистана: 1924-1937 гг. Т2. Отв. ред.: Х.С.Сулаймонова и А.И.Ишанов. – Ташкент: Издателство АН УзССР, 1963.
3. Зайченко Ж.А. (1989) Классовая борба в узбекском кишлаке. (1925-1929 гг.). – Ташкент: Узбекистан.
4. Ўзбекистон тарихи. 1917-1991 йиллар. (2019) Биринчи китоб, Ўзбекистон 1917-1939 йилларда. – Тошкент.
5. Содиқов Ф. (2022) Ўзбекистон ССРда маҳаллий бошқарув идоралари фаолияти (1917-1938 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент.
6. Содиқов Ф. (2023) Ўзбекистон ССРда маҳаллий бошқарув идоралари фаолияти (1917-1938 йиллар). – Тошкент: “Маҳалла ва оила” нашриёти.
7. Чернявский Е. (1927) Сайлаулар-саили. Праздник выборов. – Ташкент: Узгиз.
8. Ўзбекистон МА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 2445-иш, 10-вараq.
9. Ўзбекистон МА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 2445-иш, 88-90 вараqлар.
10. Ўзбекистон МА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 3103-иш, 37 вараq.
11. Ўзбекистон МА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 2445-иш, 81-82 вараqлар.
12. Ўзбекистон МА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 2445-иш, 90 вараq.
13. Правда Востока, 1926 г, 5 феврал.
14. Правда Востока, 1925 г, 29 сентябр.

REFERENCES:

1. «Sovershenno sekretno»: Lubyanka – Stalinu o polojenii v strane (1922-1934 gg.). T. 3. 1925 g. Ch.2. – Moskva, 2002. – 560 c. (In Russian)
2. Istoriya sovetskogo gosudarstva i prava Uzbekistana: 1924-1937 gg. T2. Otv. red.: X.S.Sulaymonova i A.I.Ishanov. – Tashkent: Izdatelstvo AN UzSSR, 1963. (In Russian)
3. Zaychenko J.A. (1989) Klassovaya borba v uzbekskom kishlake. (1925-1929 gg.). – Tashkent: Uzbekistan. (In Russian)
4. O‘zbekiston tarixi. 1917-1991 yillar. (2019) Birinchi kitob, O‘zbekiston 1917-1939 yillarda. – Toshkent. (In Uzbek)

 ISSN 3030-3273

5. Sodiqov F. (2022) O‘zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv idoralari faoliyati (1917-1938 yillar). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent. (In Uzbek)

6. Sodiqov F. (2023) O‘zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv idoralari faoliyati (1917-1938 yillar). – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti. (In Uzbek)

7. Chernyavskiy E. (1927) Saylaular-saili. Prazdnik viborov. – Tashkent: Uzgiz. (In Karakalpak/Russian)

8. O‘zbekiston MA, R-86-fond, 1-ro‘yxat, 2445-ish, 10-varaq. (In Russian)

9. O‘zbekiston MA, R-86-fond, 1-ro‘yxat, 2445-ish, 88-90 varaqlar. (In Russian)

10. O‘zbekiston MA, R-86-fond, 1-ro‘yxat, 3103-ish, 37 varaq. (In Russian)

11. O‘zbekiston MA, R-86-fond, 1-ro‘yxat, 2445-ish, 81-82 varaqlar. (In Russian)

12. O‘zbekiston MA, R-86-fond, 1-ro‘yxat, 2445-ish, 90 varaq. (In Russian)

13. Pravda Vostoka, 1926 g, 5 fevral. (In Russian)

14. Pravda Vostoka, 1925 g, 29 sentyabr. (In Russian)

 ISSN 3030-3273

NAMANGAN QISHLOQLARI MISOLIDA ETNOTURISTIK SALOHIYATNING SHAKLLANISHI TARIXI

THE HISTORY OF FORMATION OF ETHNO-TOURISTIC POTENTIAL IN THE CASE OF NAMANGAN VILLAGES

ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЭТНОТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРИМЕРЕ СЕЛ НАМАНГАНА

Odilov Bobur Ahmadjon o‘g‘li,
Oriental universiteti,
Tarix kafedrasi dotsenti, PhD
Tel: +998 90 353-84-00
odilov1984@bk.ru

Annotatsiya: Etnoturizm sayyohlarga turli etnik guruhlarning noyob madaniy merosi va urf-odatlari bilan tanishish imkoniyatini taqdim etuvchi sayyohlik sanoatida rivojlanayotgan yo‘nalishdir. Bu sohaga berilayotgan e’tiborga qo‘shimcha ravishda tarixan shakllangan va bugungi kungacha saqlab kelinayotgan tabiiy va moddiy-ma’naviy yodgorliklarimiz haqida ushbu maqolada fikr yuritmoqchimiz. O‘zbekistonda, xususan, Namangan viloyatidagi qishloqlar aholisi moddiy va nomoddiy jihatdan o‘zlarining an’anaviy turmush tarzini saqlab qolgan. Ushbu jamoalar sayyohlarga o‘tmishga nazar solishni taklif qiladi, ularning etnik-tarixiy xususiyatlari va qadriyatlarini namoyish etadi. Namangan qishloqlarida etnoturistik salohiyatning shakllanish tarixi ana shu mahallalarning boy madaniy merosiga asoslanadi. Mintaqada turizmni rivojlantirishga hissa qo‘shgan tarixiy omillarni o‘rganish orqali biz ushbu qishloqlarga tashrif buyuruvchilarni jalb qilish uchun o‘zlarining noyob an’analaridan qanday foydalanganliklari haqida tushunchaga ega bo‘lamiz. Umuman olganda, Namangan qishloqlari madaniy merosni asrab-avaylash va barqaror turizmni rivojlantirish muhimligidan dalolat beradi. Etnoturizmga bo‘lgan qiziqish orqali ushbu jamoalar o‘zlarining tarixi va an’analarini saqlashda davom etishlari, namoyish etishlari va tashrifchilar uchun tariximizga oid tushuncha va ma’lumotlarni taqdim etishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: Etnoturizm, qishloq, Yangiqo‘rg‘on tumani, Bekobod qishlog‘i, Buloqboshisoy, Gayiston qishlog‘i, Do‘ldi qishlog‘i, Zarkent, Iskovot qishlog‘i, Ko‘kyor qishlog‘i, Yortepa, Mamay qishlog‘i, Mo‘g‘ol qishlog‘i, Nanay qishlog‘i.

Annotation: Ethnotourism is a developing tendency in the tourism industry that provides tourists with the opportunity to get acquainted with the unique cultural heritage and customs of various ethnic groups. In addition to the attention given to this

area, in this article we would like to think about our natural, material, and spiritual heritage that have been formed and preserved historically to this day. In Uzbekistan, in particular, the inhabitants of the villages of the Namangan region have preserved their traditional way of life in material and non-material terms. These communities offer tourists a glimpse into the past, demonstrating their ethno-historical characteristics and values. The history of formation of ethno-tourist potential in Namangan villages is based on the rich cultural heritage of these neighborhoods. By examining the historical factors that contributed to the development of tourism in the region, we gain insight into how these villages used their unique traditions to attract visitors. In general, Namangan villages demonstrate the importance of preserving cultural heritage and developing sustainable tourism. Through interest in ethnotourism, these communities can continue to preserve, present, and provide visitors with insights and information about our history and traditions.

Keywords: Ethnotourism, village, Yangikurgan district, Bekobod village, Bulogboshisoy, Gayiston village, Doldi village, Zarkent, Iskovot village, Kokyor village, Yortepa, Mamay village, Mogol village, Nanay village.

Аннотация: Этнотуризм – развивающееся направление в сфере туризма, предоставляющее туристам возможность познакомиться с уникальным культурным наследием и обычаями различных этнических групп. Помимо внимания, уделяемого этой сфере, в данной статье нам хотелось бы подумать о нашем природном и материальном и духовном наследии, которое исторически сложилось и сохранилось до наших дней. В Узбекистане, в частности, жители сел Наманганской области сохранили свой традиционный уклад жизни в материальном и нематериальном плане. Эти сообщества предлагают туристам заглянуть в прошлое, демонстрируя свои этноисторические особенности и ценности. История формирования этнотуристского потенциала в селах Намангана основана на богатом культурном наследии этих сел. Изучая исторические факторы, которые способствовали развитию туризма в регионе, мы получаем представление о том, как эти деревни использовали свои уникальные традиции для привлечения посетителей. В целом села Намангана демонстрируют важность сохранения культурного наследия и развития устойчивого туризма. Благодаря интересу к этнотуризму эти сообщества могут продолжать сохранять, представлять и предоставлять посетителям информацию о нашей истории и традициях.

Ключевые слова: Этнотуризм, село, Янгикурганский район, село Бекобод, Булогбошисой, село Гайистон, село Долди, Заркент, село Исковот, село Кокёр, Ёртепа, село Мамай, село Моголь, село Нанай.

KIRISH

So‘ngi yillarda O‘zbekistonda turizm industriyasini rivojlantirish, shu jumladan, ichki va tashqi sayyohlar uchun qulaylik yaratish, tarmoqning raqobatbardoshligini mustahkamlash, ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash va jahon bozoriga milliy turistik maskanlarni faol tanitib borish bo‘yicha muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada asrlar davomida saqlanib, bizgacha yetib kelayotgan yodgorliklarimiz, moddiy va madaniy meros namunalarimiz borki, ular sayyohlar e’tiborini o‘ziga jalb qila oladi. Mazkur maqolada so‘lim qishloqlarning tarixiy shakllanishi haqida ma’lumot berar ekanmiz, bu maskanlarning turistik hududlarga aylanish jarayoni haqida ham to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Yaqin davrimizdagi islohotlarni sarhisob qilsak, yurtimizga kirib kelayotgan sayyohlar sonining yildan yilga ortib borayotganligini, turistik maskanlar infratuzilmasining modernizatsiya qilinib borilayotganligini, qolaversa, viza rejimini erkinlashtirish borasida sezilarli natijalarga erishishga muvaffaq bo‘linganini kuzatish mumkin. (Ziyodov O., 2022: 123)

Xususan, Statistika agentligining ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 6,6 mln nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda O‘zbekistonga tashrif buyurgan. Bu ko‘rsatkich 2022-yilga nisbatan 1,4 mlnga yoki 26,6 foizga oshganligini yuqoridagi fikrlarga misol sifatida qayd etish mumkin. Tashrif buyurgan sayyohlarning doimiy manzili tahlil qilinganda 2023-yil davomida eng ko‘p tashrif Tojikiston (2 mln 155,2 ming), Qirg‘iziston (1 mln 757,1 ming) va Qozog‘iston (1 mln 333,3 ming nafar)dan bo‘lganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Sayyoh sifatida Rossiyadan 714,3 ming kishi kelgan bo‘lsa, Turkiyaning ko‘rsatkichi 106,5 ming nafarni tashkil etgan. Qolaversa, 2024-yilda 10 million xorijlik sayyoh kelishi kutilayotganligi haqidagi taxminlar mavjud.[31] Undan tashqari, Xitoy, Hindiston, Eron va Arab mamlakatlaridan ham mintaqa tarixi, tabiati va insonlar turmush tarziga qiziquvchilar bisyor.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mustaqillik davrida turistik infratuzilmani yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni tarixiy jihatdan o‘rgangan bir qancha tadqiqotchilar mavjud. Jumladan, Suvonqulov Shuhrat tomonidan, “O‘zbekistonda turizm tarixi”, Annayev Jaloliddin tomonidan “Sayyohlik tizimini rivojlantirishda tarixiy-madaniy meros obyektlarining ahamiyati”, Poziljanov Xumoyunmirzo muallifligidagi “Qadimgi davrda turizm” kabi ilmiy maqolalar tadqiqot davomida ko‘rib chiqildi. Bu ilmiy ishlarning har biri o‘ziga xos mavzu yo‘nalishida ekanligini hisobga olib, bizning maqolamiz etnoturizm yo‘nalishi qamrovidan chiqmaganligini, bu borada, sayyohlik potensiali shakllanishining tarixiy jarayonlariga e’tibor qaratilganini ta’kidlash o‘rinli deb hisoblayman.

[31] “O‘zbekistonga 2023-yilda 7 millionga yaqin sayyoh keldi” Gazeta.uz xabari. Manba: https://www.gazeta.uz/uz/2024/02/21/tourists/

 ISSN 3030-3273

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Namangan qishloqlarida etnoturistik salohiyatning shakllanish tarixini o‘rganishda bir qator tadqiqot usullari qo‘llanildi. Qishloqlarning an’anaviy urf-odatlari, madaniy merosi va tarixiy ahamiyati to‘g‘risida ma’lumot to‘plash maqsadida mahalliy aholi, mutasaddi tashkilotlar va mahallalar yetakchilari bilan suhbatlar o‘tkazildi.

Ma’lumotlar yig‘ish, shuningdek, qishloqlarning moddiy va nomoddiy tomonlarini, jumladan, me’morchilik, an’anaviy hunarmandchilik, marosimlar, urf-odatlar va folklorni hujjatlashtirish uchun tadqiqotimiz keng ko‘lamli dala kuzatuvlarini o‘z ichiga oldi. Keyinchalik tahlil qilish uchun qishloqlarning vizual elementlari suratga olindi. Bundan tashqari, qishloqlarning tarixiy rivojlanishi va ularning etnik-tarixiy xususiyatlarini kuzatish uchun arxiv tadqiqotlari va adabiyotlar o‘rganildi. Bu vazifa qishloqlarga oid tarixiy hujjatlar, yozuvlar va ilmiy nashrlarni o‘rganishni o‘z ichiga olgan.

Qolaversa, tadqiqotda mahalliy hokimiyat va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan rivojlanish tashabbuslari, infratuzilmani yaxshilash, marketing strategiyalari va jamoatchilikni jalb qilish dasturlarini o‘rganish orqali qishloqlarda turizmni rivojlantirishga yordam beruvchi omillar tahlil qilindi.

Umuman olganda, sifatli tadqiqot usullari Namangan qishloqlarida etnoturistik salohiyatning shakllanish tarixini har tomonlama tahlil qilish, mintaqadagi noyob madaniy meros va turizmni rivojlantirish istiqbollarini yoritish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillarga ko‘ra, 2023-yilda 810 ta yangi turoperator va turfirmalar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan, turizm va unga yondosh sohalarda 70 mingta yangi ish o‘rinlari yaratilgan, 183 ta mehmonxona, 215 ta hostel, 356 ta oilaviy mehmon uyi ishga tushgan. Joylashtirish vositalari 5477 taga, o‘rinlar soni esa 142 ming 720 taga yetkazilgan. (Ziyodov O., 2022: 134)

Yangiqo‘rg‘on tumanida o‘ndan ziyod qadimiy qishloqlar joylashgan bo‘lib, ular tarixiy davrlarda Farg‘ona vodiysining eng so‘lim go‘shalaridan hisoblab kelingan. Bu zamin o‘zining salqin va go‘zal tabiati, serhosil yerlari, olmazor bog‘lari, uzumzor ishkomlari, bug‘doyzor, chorvalari, sokin va osuda oromgohlari bilan mashhur. Ayniqsa, bu maskanning muhim omili mehnatkash, mard, tanti, pok niyatli, toza qalbli va mehmondo‘st odamlaridir. Ularning ota-bobolarimizdan avlodlarga o‘tib kelayotgan kundalik turmush tarzi sodda, an’anaviylikni saqlab qolganligi mintaqada etnoturizm imkoniyatlarini oshiradi. Shahar hayotidan biroz chalg‘ishni, sun’iy shaharlardan oddiylikka intiluvchi sayyohlarning elita qatlamini mazkur mintaqaga jalb etishi tabiiy. Qishloqlarda mavjud mehmon uylarining ko‘paytirilishi, ularning dizaynini tarixiy-an’anaviy uslublardan foydalangan holda ishlab chiqilishi, odatiy

 ISSN 3030-3273

hayot, to‘y va boshqa marosimlarni aslicha, qolaversa, mahalliy aholining oziq-ovqatlari tabiiy mahsulotlarga asoslanganligi, taomlarni tayyorlash jarayonini vizual kuzatish imkoniyatlari yaratilishi sayyohlar uchun qiziq kechadi. Quyida etnoturizm imkoniyatlariga ega ba’zi qishloqlar va ularda joylashgan tarixiy ziyoratgohlarni qayd etishni joiz topdik.

Jumladan, Bekobod qishlog‘i – Bekberdi dodxoh nomidan shakllangan tarixiy hudud. Dehqonchilik va chorvachilikka oid an’analarni o‘zida saqlab qolgan aholi kundalik turmush tarzi va urf-odatlarida ushbu jarayonni kuzatish mumkin.

Tarixiy qishloqlardan yana biri Buloqboshi – buloqlar boshida joylashgan qishloq ma’nosini bildiradi. Buloqboshi qishlog‘i mahalliy aholini turkiy qabilalar bilan aralashuvi jarayonida vujudga kelgan. Bu yerda o‘rnashgan qipchoq aholisi ta’sirida qishloq aholisining til xususiyatlari, urf-odatlari birmuncha o‘zgargan, qipchoqlar o‘troqlashgan cho‘ngbag‘ishlar bilan birga aholining qadimiy o‘zagini tashkil etadi. Ularning kundalik hayotida chorvadorlarning o‘troqlashuvi natijasida shakllangan o‘ziga xos madaniyatni kuzatish mumkin. Qishloqning so‘lim go‘shalari ham mavjud bo‘lib, Buloqboshisoy sayyohlarga go‘zal tabiatni kuzatish imkonini beradi. U yerning asosiy jihati tabiiy yer osti, buloq suvlari hisoblanadi. Mahalliy aholining rivoyatlariga ko‘ra, Buloqboshi soyi yer ostidan qaynab chiqib turgan 1001 ta buloqlar suvining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Buloq suvining sharqiragan ovozi uni “Jingirbuloq” deb atalishiga sabab bo‘lgan (Abdurauf ota bilan intervyu, 2023-yil, 17-may). Shu o‘rinda Baykal ko‘li atrofida joylashgan qishloqlarga tashrif buyuruvchi sayyohlar ayni ko‘l haqidagi hikoyalarga ko‘proq qiziqishlarini ta’kidlash o‘rinlidir.

Gayiston qishlog‘i ham o‘z tarixiga ega bo‘lib, adirliklar yonbag‘rida, Namangansoyning o‘ng sohilida joylashgan. Adir etaklaridagi tekisliklarning asosiy qismida sizot suvlari yuqorida bo‘lganligi uchun yerlari sho‘rxok. Bu jarayon aholining chorvachilik, ayniqsa, zotli otlarni yetishtirish va parvarishlash bilan mashg‘ul bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Qishloq aholisining kundalik hayotida chorvachilik bilan bog‘liq qadriyatlar va tajribalar sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi.

Do‘ldi qishlog‘ida ham etnoturizm imkoniyatlari tarixan shakllangan bo‘lib, 17-asr oxiri 18-asr boshlarida qishloqning janubiy tomonidagi to‘qayzor va qo‘riq yerlarga ko‘chmanchi do‘ldoy urug‘i vakillari kelib o‘rnashganlar. Ular dastlab ovchilik, baliqchilik, chorvachilik bilan shug‘ullanadilar. Aholi soni ko‘paya borgach to‘qay va qamishzorlarni, qo‘riq yerlarni o‘zlashtirib, dehqonchilik bilan shug‘ullanadilar. Qishloq hududi kengayib, yangi sug‘orish inshootlari – chig‘ir, charxpalaklar va to‘g‘onlar quriladi, hunarmandchilik (temirchilik, to‘quvchilik, kosiblik, sangtaroshlik, tegirmonchilik, do‘lchilik) bilan shug‘ullanuvchilar soni ortadi. Qishloq esa urug‘ nomi bilan Do‘ldoy, bora-bora Do‘ldi deb ataladi. Bu yerda ham mahalliy aholi etnomadaniy an’analarni saqlab rivojlantirib kelmoqda.

 ISSN 3030-3273

Qadimiy qishloqlardan yana biri Zarkent bo‘lib, qishloqning paydo bo‘lish davri bundan 800-1000 yildan ortiqroq vaqtga bog‘lanadi. Qishloq katta savdo karvonlarining yo‘lida joylashganligi uchun ham u qadimdan juda obod va boy qishloq bo‘lgan. Qishloq markazidagi katta yo‘lning ikki tomoni savdo rastalari, do‘kon va zargarlik ustaxonalaridan iborat bo‘lib, ularda asosan zargarlik buyumlari: tilla va kumushdan yasalgan uzuklar, baldoq, isirg‘a, soch va ko‘krak tumorlar yasalib, zarchoponlar tikilgan. Zar, dur, tilla va kumush bilan savdo qiluvchi Qo‘qonlik, Kosonlik, Namanganlik, Toshkentlik, Samarqandlik va Buxorolik savdogarlar bu yerda bir necha kunlab qolib ketishgan. Qishloqda bozor, karvonsaroy, choyxona, oshxona, mehmonxonalar qurilgan. Qishloq Zarxon, Zarga kon, Zarkon, Zarkent nomlari bilan atala boshlangan. Bundan 200-250 yil muqaddam qishloq Zarkent nomini olgan.

Ko‘kyor qishlog‘i ham qadriyatlarini o‘zida saqlagan aholi manzilgohi hisoblanib, tabiiy joylashuvi va tabiati sayyohlarni o‘ziga jalb etadi. Qishloqqa bundan 300-350 yillar muqaddam asos solingan. O‘sha vaqtlarda Qozog‘istonning Sayram qishlog‘ida yashagan uyg‘ur, qoramurt qabilalari Podshootasoyning hozirgi Ko‘kyor qishlog‘idan oqib o‘tgan o‘ng sohillariga kelib joylashganlar. “Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida ta’kidlanishicha, “yor” so‘zi jar, o‘yilgan yer ma’nosini beradi. Bu so‘zdan o‘zbek tilining ayrim shevalarida hozir ham shu ma’noda foydalaniladi. Yortepa, Yorqo‘rg‘on, Yorilgan kabi nomlar ham shu ma’nolarda ishlatilgan.” (Qirg‘izov Y., 1996: 45)

Mamay qishlog‘i hududiga bundan 800-850 yil muqaddam hozirgi Toshkent viloyatining Chotqol tog‘i etaklarida yashagan chorvador qirg‘iz, qipchoq urug‘larining oilalari ko‘chib kelib joylashganlar. O‘sha vaqtda qishloq o‘rni to‘qayzor, tog‘ oldi yaylovlaridan iborat bo‘lgan. Dastavval ovchilik chorvachilik bilan mashg‘ul bo‘lgan aholi to‘qaylarni o‘zlashtirib, ariqlar chiqarishgan, yangi yerlarni o‘zlashtirib dehqonchilik qila boshlaganlar. Daraxt ekib, bog‘lar barpo etganlar. Mahsulotlarini atrof qishloqlardagi bozorlarga olib borganlar. Qishloq kengayib, uni boshqarish uchun qirg‘iz urug‘i boshlig‘i Mamayni qishloq biyi etib saylaganlar. Qishloq ham qirg‘iz biyi nomi bilan Mamay qishlog‘i deb nomlangan.

Mo‘g‘ol qishlog‘ining tarixi atrof qishloqlarga nisbatan qadimiyroq bo‘lib, mo‘g‘ullar istilosi davri bilan bog‘liq. Qishloq o‘rni chorva hayvonlarini boqish uchun qulay tog‘ oldi yaylovlaridan iborat bo‘lganligi uchun bu hududga asosiy mashg‘ulot turi chorvachilik bo‘lgan mo‘g‘ol urug‘i vakillari kelib joylashganlar. Hozirda mahalliy aholi hayotida transformatsion jarayonlar kechgan bo‘lsa-da, ba’zi qadriyatlar saqlanib qolmoqda. Ushbu jarayon sayyohlarni qiziqtirishi tabiiy, albatta.

Nanay qishlog‘i ham tarixiy maskanlardan hisoblanib, ushbu qishloqning nomlanishi bilan bog‘liq mahalliy aholining turli rivoyatlari mavjud. Qadimgi Mesopotamiyaliklar va mamlakatimiz hududlarida yashagan Zardushtiylar unumdorlik

 ISSN 3030-3273

ma’budini Nanay deb atashgan. Ayni paytda qadimgi So‘g‘dliklar ham yetishtirilgan mo‘l hosilni Nanidat ya’ni Nanay ehsoni sifatida qabul qilganlar. “1365-yilda Chinoz yaqinidagi “Jangi loy”dan so‘ng aholining bir qismi Chotqol etaklari, Qurama tog‘lari osha hozirgi Nanay qishlog‘iga kelib o‘rnashganlar. Namangan uezd boshlig‘i, bir necha yil Nanay qishlog‘ida yashagan Nalivkin ham: chorva mollarini boqish uchun Bo‘stonliqning Nanay qishlog‘idan 10 uylik oila ham ko‘chib kelganligini hamda bu joyni ham Nanay deb atalganini ta’kidlagan.” (Qirg‘izov Y., 1996: 49) Demak, yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, hozirgi Toshkent viloyatining Nanay, Zarkent qishloqlari aholisi bilan bugungi Namangan viloyatining Nanay, Zarkent qishloqlari aholisi yaqin qon-qarindoshlik munosabatlarida bo‘lganlar. Shuningdek, har ikki viloyat qishloqlari Chotqol, Qurama tog‘ tizmalari orasidan o‘tgan tog‘ so‘qmoq yo‘llari orqali savdo-sotiq qilish, mol ayirboshlash imkoniga ega bo‘lganlar.

Poromon qishlog‘ining ham tarixi qadimiy bo‘lib, tabiiy geografik jihatdan aholi yashashi uchun qulay joyda joylashganligi sababli Poromon qishlog‘i atrofdagi boshqa qishloqlarga nisbatan avvalroq paydo bo‘lgan. Dastlab bu yerlarga ko‘chib kelgan oilalar ovchilik, chorvachilik bilan shug‘ullanib, asta-sekin dehqonchilik va bog‘dorchilikni o‘rgana boshlaganlar. Yuqori navli tok ekib, uzum yetishtirishni va uni quritib, mayiz tayyorlashni juda yaxshi o‘zlashtirganlar. Qishloq Poromon, aholi esa poromonliklar deb atala boshlangan. Shuningdek, qishloq toponimikasi bo‘yicha “Poranon”, “Qoranon” to‘g‘risidagi rivoyatlar ham mavjud. Aslida qishloq tog‘ yonbag‘rida joylashganligidan uni ayvondagi piramonga o‘xshatishgan va piramondagi qishloq deb atashgan. Piramon so‘zidan esa Poromon qishlog‘i nomi paydo bo‘lgan.

Qorayontoq qishlog‘i ham tumandagi eng ko‘hna va qadimiy aholi yashash manzilgohlaridan biri hisoblanadi. Tabiiy-geografik jihatdan hozirgi Qorayontoq qishlog‘ida o‘troq dehqonchilikning paydo bo‘lishi va rivojlanishi uchun yetarli sharoit va imkoniyat bo‘lgan. Hududda soy va buloqlarning, ayniqsa, unumdor yerlarning ko‘pligi, bu yerlarda yashagan dastlabki odamlarga ovchilik, chorvachilikdan tashqari ziroatchilik bilan ham shug‘ullanish imkonini bergan. Ovchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanib, tog‘ va cho‘l hududlarida yashagan ko‘chmanchi qipchoq qabilalari soy va buloqlar atrofiga kelib o‘troqlashadilar. XII-XIII asrlarga kelib qishloq iqtisodiy jihatdan ancha taraqqiy etgan. Vaqtlar o‘tishi bilan Qorajontaxt atamasi Qorajontoqqa so‘ngra Qorayontoqqa aylanadi.

Choshtepa qishlog‘i nomi mahalliy aholining mashg‘ulot turi bilan bog‘liq. Dastlab qishloq hududida yashagan aholi asosan g‘alla, bug‘doy yetishtirish bilan shug‘ullangan. Hosil pishib yetilgach, uni yanchib, qishloqdagi baland tepalikka olib chiqilgan. Adir shamolida bug‘doyni sovurib, somonidan batamom ajratib olingach, bir yerga uyib, to‘plab qo‘yilgan. Somondan tozalab bir yerga to‘plab qo‘yilgan don uyumi esa chosh deb atalgan. Dehqonlar tomonidan yetishtirilgan hosilni yig‘ishtirish

 ISSN 3030-3273

marosimi chosh bog‘lash deb atalgan. Bu marosimda dehqon choshdagi dondan etagini to‘ldirib, bir qismini choshga yaqin yerda to‘kkan, qolgan qismini chosh atrofidan aylantirib to‘kib chiqqan. Bu bilan dehqon choshning “belidan bog‘lagan” deb hisoblangan. Chosh bog‘lash bobodehqon nazar qilib, choshga baraka bersin degan maqsadda o‘tkazilgan. Mazkur marosim tufayli qishloqqa Choshtepa nomi berilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida qayd etilgan ma’lumotlardan anglash mumkinki, Yangiqo‘rg‘on tumanida qadimiy, an’analarga boy qishloqlar ko‘pchilikni tashkil etib, ulardan etnoturizm imkoniyatlarini kengaytirishda foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mazkur tumanda, sayyohlarni qiziqtiruvchi yana bir qator muhim joylar mavjudki, ushbu maskanlarni mahalliy aholi tomonidan e’zozlanishini qayd etish o‘rinlidir. Xususan, Navkent qishlog‘ining hududida joylashgan To‘raqul Hoji masjidi binosi 1774-yilda shu qishloqlik katta yer egasi, tadbirkor savdogar To‘raqul Hoji boy tomonidan mahalliy me’morlarga qurdirilgan. Binoning umumiy maydoni 312 kvadrat metrdan iborat. Binoning asosi tosh poydevordan iborat. Masjid 1994-yilda adliya boshqarmasida jome’ masjidi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan. To‘raqul Hoji masjidi me’moriy yodgorlik sifatida davlat muhofazasiga olingan. Ushbu masjid me’morchilik madaniyatining o‘ziga xos an’analarini mujassam etadi va uning konstruksiyasi ko‘plab sayyohlarning qiziqish bildirishiga sabab bo‘ladi.

Tarixiy obidalardan tashqari ma’lum bir funksiyalarni bajargan manzilgohlar ham mavjud bo‘lib, ularga ham aholi tomonidan alohida e’tibor qaratiladi. Masalan, Nanay qishloq fuqarolar yig‘inining Mamay qishlog‘ida joylashgan To‘xtamattepa tepaligi. Tepalikning tabiiy yoki sun’iy tarzda barpo etilganligi xususida ilmiy tadqiqot, kuzatuv ishlari o‘tkazilmagan, uning tuzilishi aniqlanmagan. To‘xtamattepa baland tepalik bo‘lib, maydoni 0,75 gektardan iborat. Tepalik tarkibi tosh va tuproq aralashmasidan iborat. Tepalik haqidagi mahalliy aholining o‘ziga xos qarashlari mavjud. (Qirg‘izov Y., 1996: 49)

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, mahalliy aholi va tarixchilar bilan suhbat o‘tkazish davomida qo‘lga kiritilgan mazkur ma’lumotlar tarixiy jihatdan tahlil etilishi, qolaversa, mazkur tarixiy maskanlarning zarar yetgan qismlarini aslicha qayta tiklanishi mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb etishga xizmat qiladi. Qolaversa, mamlakatimizda etnoturizm yo‘nalishini yanada rivojlantirishga asos yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “O‘zbekistonga 2023-yilda 7 millionga yaqin sayyoh keldi” *Gazeta.uz xabari*. Manba: https://www.gazeta.uz/uz/2024/02/21/tourists/

2. Ziyodov, O. (2022) “Turizmning iqtisodiyot rivojiga ta’sirini oshirish va investitsiya muhitidan unumli foydalanish”. *Scientific Impulse,* 1(2)

3. Назаров, Зафаржон. (2023) “Появление государственных музеев и домов-музеев Наманганской области и их место в развитии туризма”. *Образование и инновационные исследования*. № 9.

4. Қирғизов, Ю.Т. (1996) “Бир ўлкаки”. – Наманган: “Наманган” нашриёти. – 189 б.

5. Suvonqulov, Sh. (2024) “O‘zbekistonda turizm tarixi” *Образование наука и инновационные идеи в мире.* Выпуск журнала № 44, Часть-8. – С. 181-184.

6. Annayev, Jaloliddin. (2024) “Sayyohlik tizimini rivojlantirishda tarixiy-madaniy meros obyektlarining ahamiyati”, Tarixiy obyektlar va tabiiy maskanlar uyg‘unligi asosida O‘zbekistonning turistik salohiyatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari. Konferensiya to‘plami. O‘zMU, 15.03.2024.

7. Poziljanov, Xumoyunmirzo. (2021) “Qadimgi davrda turizm” *Ijtimoiy fanlarda innovatsiya*. Onlayn ilmiy jurnal, 1-jild, № 3.

8. Tobirov O., Xoshimov A., Berdiyev G‘. (2023) “Farg‘ona vodiysi hududini geografik-turistik rayonlashtirish” *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy-amaliy jurnali*, 3-jild, № 12.

9. Urunbayev O., Abdug‘afforov A., Ro‘ziyev A. (2023) “Namangan viloyatida rekreatsion turizmni rivojlantirishda rekreatsion obyektlarning ahamiyati” *Евразийский журнал технологий и инноваций*, Том 1, № 10.

10. Ochilov, Iskandar. (2022) “Xalqaro turizm tarixi va rivojlanishining o‘ziga xos geografik jihatlari” *Science and Innovation*. International scientific journal Volume 1, Issue 6. UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337

REFERENCES:

1. “O‘zbekistonga 2023-yilda 7 millionga yaqin sayyoh keldi” Gazeta.uz xabari. Manba: https://www.gazeta.uz/uz/2024/02/21/tourists/ (In Uzbek)

2. Ziyodov, O. (2022) “Turizmning iqtisodiyot rivojiga ta’sirini oshirish va investitsiya muhitidan unumli foydalanish”. Scientific Impulse, 1(2). (In Uzbek)

3. Nazarov, Zafarjon. (2023) “Poyavleniye gosudarstvennix muzeyev i domov-muzeyev Namanganskoy oblasti i ix mesto v razvitii turizma”. Obrazovaniye i innovatsionniye issledovaniya. № 9. (In Russian)

4. Qirg‘izov, Yu.T. (1996) “Bir o‘lkaki”. – Namangan: “Namangan” nashriyoti. – 189 b. (In Uzbek)

5. Suvonqulov, Sh. (2024) “O‘zbekistonda turizm tarixi” Образование наука и инновационные идеи в мире. Выпуск журнала № 44, Часть-8. – С. 181-184. (In Uzbek)

6. Annayev, Jaloliddin. (2024) “Sayyohlik tizimini rivojlantirishda tarixiy-madaniy meros obyektlarining ahamiyati”, Tarixiy obyektlar va tabiiy maskanlar

uyg‘unligi asosida O‘zbekistonning turistik salohiyatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari. Konferensiya to‘plami. O‘zMU, 15.03.2024. (In Uzbek)

7. Poziljanov, Xumoyunmirzo. (2021) “Qadimgi davrda turizm” Ijtimoiy fanlarda innovatsiya. Onlayn ilmiy jurnal, 1-jild, № 3. (In Uzbek)

8. Tobirov O., Xoshimov A., Berdiyev G‘. (2023) “Farg‘ona vodiysi hududini geografik-turistik rayonlashtirish” Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy-amaliy jurnali, 3-jild, № 12. (In Uzbek)

9. Urunbayev O., Abdug‘afforov A., Ro‘ziyev A. (2023) “Namangan viloyatida rekreatsion turizmni rivojlantirishda rekreatsion obyektlarning ahamiyati” Евразийский журнал технологий и инноваций, Том 1, № 10. (In Uzbek)

10. Ochilov, Iskandar. (2022) “Xalqaro turizm tarixi va rivojlanishining o‘ziga xos geografik jihatlari” Science and Innovation. International scientific journal Volume 1, Issue 6. UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 (In Uzbek)

Oriental universitetining “Al-Buxoriy” nomli jurnali

Jurnal Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.
Maqola muallifining fikri tahririyat fikrini ifodalamaydi.

AL-BUXORIY

AL-BUKHARI

Bosh muharrir: **Farhod Maksudov**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Malika Nasirova**

Mas’ul muharrir: **Govhar Raxmatova**

Texnik muharrir: **Dilnura Nig‘matova**

Musahhih: **Komiljon Yunusov**

Manzil: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Shahriston ko‘chasi, 1

Telefon: +998 95 510-24-42. E-mail: al-buxoriy@orientaluniversity.uz

“Al-BUXORIY” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
№ 111741 raqamli guvohnomasi bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Oriental universiteti Kengashining
2024-yil 11-iyun 7-sonli yig‘ilish bayonnomasiga asosan
nashrga ruxsat etildi.